

# QUYONLAR SALTANATI

(*SARGUZASHT ROMANI*)

Toshkent  
«Yangi asr avlodi»  
2010

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

**84(5O'zb)7**

**T-99**

**To'xtaboyev X. Quyonlar sultanati.** (Sarguzasht roman). -  
T.: «Yangi asr avlodi», 2010. - 204 b.

Bolalar adabiyotining chinakam fidoiy ijodkori Xudoyberdi To'xtaboyevning bolajonlarimizga atalgan navbatdagi tuhfasi ham o'ziga xos badiiy qimmatga sazovor asar, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ikki yosh o'spirin yigitning orzulari, ularni tengdoshlaridan ajratib turadigan fazilatlari, qalamga olingan har bir voqeа-hodisaning zamiridagi yaxshilikka, ezgulikka undash istagining mavjudligi, o'ylaymizki, bu gal ham kitobsevar muxlislarimizni quvontiradi. Shu bilan birga kitob qahramonlariga o'xshash istagi ularning ham qalbida paydo bo'lsa, biz o'zimizni maqsadimiz sari bir qadam oldinga tashlaganimiz, deb hisoblaymiz.

Kitob mutolaasiga marhabo, yosh do'stlar!

**BBK.84(5O'zb)7**

ISBN 978-9943-08-632-6

© Xudoyberdi To'xtaboyev, «Quyonlar sultanati». «Yangi asr avlodi»,  
2010-yil.

*Bolalar adabiyotini sevib, ardoqlab ham ma'naviy,  
ham moddiy yordam berib kelayotgan  
Ayupov Avazbek va Alimov Zokirjondek  
ukalarimga bag'ishlayman.*  
Muallif

## BIRINCHI QISM

### SARSONU SARGARDONLIKDA

#### Birinchi bob

Bu qishloqning asl nomi Xonkeldimi, Qo'rg'onchami hech kim aniq bilmaydi. Katta ko'chaning o'ng tomonidagilar Xonkeldi deyishadi. Xonlar yashagan, bilib qo'yinglar, deyishadi. Chap tomondagilar Qo'rg'oncha deyishadi. Qo'rg'onchada xonlarning navkarlari, navkarboshilar turgan, bilib qo'yinglar, deyishadi. Bahsni o'zlariga qoldiraylik-da, maqsadga o'tib qo'yaqolaylik. Qishloqchada bor-yo'g'i to'rt yuz oila yashaydi. Bu oilalar o'zaro ta'rifiga so'z topa olmaysiz. Lekin odamlari har xil: birovi angishvonadek kichkina, pak-pakana, birovi baqaterakdek novcha, daroz. Birovi oshqovoqni butun yutgandek baqaloq-qorindor, birovi bir umr to'yib ovqat yemagandek oriq, qotmagina. O'h-hu, bu xilvat qishloqda kimlar yashamaydi deysiz?! Folbin ammalar-u, nomdor muallimalar, o'rischa gapiradigan chollar, yig'laydigan qizaloqlar-u, yerga ursang osmonga sapchiydigan sho'x-shaddod o'g'il bolalar, qo'li yengil shifokorlar-u, yashirinchha kuf-suf soladigan buvilar, ilg'or femerlar-u, dehqonchiligi yaxshi bo'lmasa xotinini so'kib yuradigan dehqonlar, yolg'on aralash so'zlaydigan magazinchilar-u, uqlab qolib azonni kech aytadigan so'filer, bugun besh baho olmasa mактабдан yig'lab keladigan a'lochi qizlar-u, maktabga hormay pana joyga berkinib olib to'p tepadigan abjisir bolalar, Rossiyaga meva sotib boyib ketgan mirishkorlar-u, turshagini sotolmay qurtga yedirib qo'ygan bevalar, kirakash shofyorlar... Mayli qolganini

keyin aytarmiz, xullas, tog‘ yonbag‘riga joylashgan, barhavo bu so‘lim qishloqda ana shunday ajoyib odamlar-u, ana shunday ajoyib bolalar yashaydi. Hammasi haqida hikoya aytib bera olmayman, ulardan bir-ikkitasini tanlab olaman, xolos.

Xullas, ana shunday ajoyib qishloqda, qishloqning qoq markazida hozir aytganimdek ajoyib bolalar-u, ajoyib qizlar o‘qiydigan ajoyib bir maktab ham bor. Maktab direktori Azizov domlaning aytishicha, dunyodagi eng ozoda, eng tartibli, eng intizomli maktab mana shu bo‘ladi.

Maktab hovlisida ustun o‘rniga qo‘yilgan, yog‘ochlari qiyshayib ketgan, bolalar qo‘llariga tuplab osilaverganidan silliqlanib qolgan, barcha hujjatlarda turnik deb ataladigan bir moslama ham bor. Mana shu ta’rifiga so‘z topa olmayotganimiz maydonda hozir, shu daqiqalarda Azizov domla bolalarga nimanidir tushuntiryapti. Ushbu qissamizga qahramon qilib tanlamoqchi bo‘lganimiz – Egamberdi bilan Karimberdi ham negadir yuraklarini hovuchlabroq, qo‘rqa pisibroq ishtirok etishyapti.

## Ikkinci bob

– Demak, aziz o‘quvchilar, tumanimiz markazida sizlarga o‘xshagan yoshlarning, demoqchimanki, yosh fermerlarning, yosh tadbirkorlarning savdo yarmarkasi davom etayapti. Afsuski, unda biz ishtirok eta olmayapmiz. Ko‘rgazmaga qo‘yishga tuzukroq narsamiz ham yo‘q. Bizning yuqori sinfda o‘qiydigan o‘quvchilarimiz darsdan qochib, soy bo‘yiga borvolib qorong‘i tushguncha to‘p tepib, tuflisini artishdan boshqasini hilishmaydi. Qizlarimiz bo‘lsa qora zaxchadek chag‘ir-chug‘ur qilib gaplashishadi-yu, dars vaqtini qiqirlab kulish bilan o‘tkazishadi. Ana shuning uchun biz tumandagi ko‘rgazmaga hech narsa qo‘ya olmayapmiz... Hozir yigirmata o‘quvchingin ro‘yxatini o‘qiyman. Bular yarmarkaga horib biror narsa o‘rganib kelishsin... Xo‘s. bolalar, niен nima deyapman?

– Biron narsa o‘rganib kelishimiz kerak ekan, – javob qaytardi bir o‘quvchi.

– Keyin biz ham mакtabimизда yangи-yangи yo'nalishлар ташкіл qилишимиз kerak... Xo'sh, nima deyapman?

– Yo'nalishлар ташкіл qilamiz, deyapsiz.

Azizov domla qatorlar oldidan o'ta turib sen, sen, deb bolalar orasidan ro'yxatdagi o'quvchilarni ajratib ola boshladi.

Egamberdining oldida to'xtab:

– Sen nega turibsan bu yerda? – deb so'radi.

– Ustoz, jon ustoz, men ham boray, – dedi Egamberdi tortinibroq.

– Sen maktabdan haydalgansan-ku.

– Ustoz, men shartli haydalganman, yo'qlamadan o'chirilganim yo'q.

– Kuzda qilgan bezorilicing, butun maktabni sharmanda qilganing kammidi, yana markazga borib yuzimizni yerga qaratib kelmoqchimisan?

– Jon ustoz!..

– Chiq qatordan deyapman. Bitta quyonni deb butun sinfini sharmanda qilgansan. O'g'irlab olgansanmi, so'rab olgansanmi... milisa bizni rosa garang qilgan... Chiq qatordan, gap tamom. Darsdan qochib mening derazamga tosh otganlarning bittasi senmiding?

– Ustoz, men Egamberdini qutqaraman, deb derazani qattiq tortganimda oynasi o'shanda singan, tosh otganim yo'q.

– Sen ham maktabdan haydalgansan.

– Men uch oyga haydalganman, xolos.

– Chiq deyapman... Sen ikkovingning yomon qilmishing butun rayonga doston bo'lgan... Hamidova!

– Labbay, ustoz.

– Siz sinf rahbari sifatida bu intizomsiz bolalarni nega ro'yxatga kiritdingiz?

– Jazo muddatini o'tab bo'lay deb qolishdi ustoz, – o'zini oqlamoqchi bo'ldi muallima Hamidova.

– Aslida o'z direktorining buyrug'iiga e'tibor bermaydigan, tartibbuzar sizga o'xshaganlarga chora ko'rishim kerak edi. Chiqing qatordan, siz ham markazga bormaysiz... Xo'sh o'quvchilar, nima deyotgan edim?

– Yarmarkaga borish haqida gapirayotuvdziz.

– Xo‘p yaxshi, – so‘zida davom etdi direktor, – boruvchilarga tekin aptobus tashkil qilib qo‘yganmiz. Borib maktabimizning obro‘sini ko‘tarib kelasizlar...

Azizov domla o‘zining qayta-qayta ta’kidlashicha, mana shu maktabda ellik yildan buyon ishlarkan. Ish boshlagan paytida bor-yo‘g‘i ikkitagina pastak-pastak uy bo‘lgan ekan, xolos. Hozirgi yigirma ikki xonalik mакtab binosini yugurib-elib o‘zi qurdirgan ekan. Sinf xonalaridagi o‘quv ashyolarini ham goh tuman, goh viloyat, goh poytaxt rahbarlariga uchrashib o‘zi olib kelgan ekan. Hozir ishlab turgan muallimlardan o‘n sakkiztasi shu maktabni, shu ustozning tarbiyasida bitirgan ekan. Azizov domla o‘zining ana shu e’tiqodiga ko‘ra hamma unga qulqoq solishi, gap qaytarmasligi, aytganini bajarishi kerak. Aytganini qilmaganlarni bir bahona topib ishidan bo‘shatib qo‘ya qoladi. Hamidova qatordan chiqdi-yu, lekin sinf xonasiga qaytmadi, biroz o‘ylanib turdi-da:

- Ustoz, shu ikki o‘quvchini ham ro‘yxatga kriting, ikkovlari ham tadbirdor bo‘lamiz, deb harakat qilib yurishibdi,
- deya yumshoqqina ohangda iltimos qildi.
- Sizga sinfga kirib keting dedim-ku.
- Ustoz!
- Gap qaytarganiz uchun xayfsan e’lon qilaman! Yana gap qaytarsangiz maktabdan butunlay haydayman... Xo‘sh bolalar, nima deyapgan edim?
- Savdo yarmarkasidan biror narsa o‘rganib kelasizlar deyotgandingiz.
- Qani mashinaga chiqinglar, lekin maktabimizga gap tegadigan ish qilmanglar.
- Gap tekkizmaymiz!
- Ko‘p narsa o‘rganib kelamiz!
- Mazza qilamiz!
- Muzqaymoq yeymiz, – deyishib o‘quvchilar bir-birini itarishib avtobusga chiqqa boshladilar.

Qatordan chiqarilgan Egamberdi va Karimberdilar ma’yusgina tikilib qoldilar.

## Uchinchi bob

O'quvchilar biri savdo yarmarkasiga bormagani uchun xafa bo'lib, boshqasi horuvchilar ro'yxatiga kiritilmagani uchun dili og'rib, odatdagidek itar-itar qilishib, qizlarning sochidan tortishib, qiqirlashib kulishib sind xonasiga kirib bordilar. Sinsda anchagacha g'ovur bosilmadi. Bir bolaning otasi kecha yarmarkanidan zotdor qo'y sotib olgan emish. Bormaganim yaxshi bo'ldi, soy bo'yiga borib endi rosa futbol tepamiz, deyapkanlar ham bor. Fotima, Zuhra degan bir-birlaridan hech ajratib bo'lmaydigan, ajratib bo'lmagani uchun ham onalari ularning har biriga boshqa-boshqa kiyim kiydirib qo'yadigan qizlar muallimalarini uyaltirib qo'ygani uchun, Egamberdi bilan Karimberdini ko'pchilik o'rtasida yana bir marta izza qilgani uchun Azizov domladan xafa bo'lganliklari haqida bahslasha boshladilar.

– Uf, shu direktordan qachon qutilar ekanmiz, – deyapti bittasi.

– Astaroq, eshitib qolsa, mактабдан haydalasan, – deyapti boshqasi.

– Direktorimiz quloq cho'zish bo'yicha dunyo rekordini qo'yanlar, – deyapti uchinchisi.

Sinsda g'ala-g'ovur anchagacha bosilmadi. Birov boks haqida, boshqasi Angliyadagi futbol championati haqida oshib-toshib gapiryapti.

– Egam, rostan ham sen o'shanda quyon o'g'irlaganmis? – deb so'radi Shokir. U yo'q joydan gap qo'zg'agani, gap qo'zg'ash orqali biron o'rtog'ini uyaltirib olganidan keyin, o'sha o'rtog'ining tilini qisib olishni xush ko'rardi. Goho uni chaqimchi Shokir ham deyishardi. Mana shu bola hozir uyalibgina o'tirgan Egamberdining g'ashiga tekkisi kelib qoldi.

– Shokir, senga, hammangga ming marta aytganman-ku, G'ulom g'uppaning quyonlarini daftarga almashtirganman, deb, – shunday deb Egamberdi yuzini teskari o'girib, derazadan ko'rinih turgan hovliga tikilib o'tirdi.

Shokir yana tinchimadi:

– O'g'irlamasang, nega milisa qamab qo'yadi seni?

- Jim bo'l deyapman, - Egamberdi bo'lajak ko'ngilsizlikning oldini olmoqchidek sekin o'rnidan tura boshladi.

Shokir jim bo'lmadi.

- Keyin, haribir, direktorning xonasiga tosh otgansan-ku, derazani buzgansan-ku.

- Jim deyapman, - shunday deb Egamberdi asta Shokirga yaqinlashib kela boshladi. Azizov domlaning haligi harakati uning alamini oshirgan edi, Shokir chaqimchining bu gapi dard ustiga chipqon bo'ldi. Xo'rlangandek sezib, o'zini bosolmay qoldi:

- Jim bo'l deyapman, bo'lmasa hozir boshingni yoraman, - qo'lini musht qilib qattiq gapirdi Egamberdi.

- Sen-a, meni-ya, Qibla mahallasining bolasini-ya! - shu so'zdan keyin Shokir chaqimchi ikki mushtini qo'lting'i ostiga olib, kaftlarini bamisoli quyonchaga o'xshatib yozib, turgan joyida quyonga o'xhab sakray boshladi, - quyonim, quyonim, nega erta uxlaysan, nega Egamga shafqat qilmaysan?...

Egamberdi haqida qishloqda, maktabda har xil gaplar ko'p tarqalgan. Ashaddiy quyonboz bu o'smir haqida yolg'on-yashiq gaplar ham ko'paygan. Egamberdining onasi unga qo'shib quyon ham tuqqan emish. Egamberdi uyqusirab o'z singlisi bo'lmish quyonchani bosib o'ldirib qo'ygan emish, o'sha o'lgan quyoncha ertasiga tirilib kelib o'rningdan tur, mактабдан kechga qolyapsan, deganmish. To'g'ri, Egamberdining quyonga bo'lган ishqibozligi ikkinchi sifsdaligidayoq boshlangan. O'shanda dalada, o'yiqxona ichida quyon bolalagan edi. Egamberdi buni ko'rib qolib quyonning to'rtta bolasini uylariga olib kelib boqqan. Bir yilgacha ancha ko'paytirgan ham. Keyinchalik o'gay onasi Shakarxon aya uy ishlariga qarashmay qo'yding, sigiringni boqmay qo'yding, shu quyonlaringni yo'qotmasammi, deb bir kuni Egamberdi uxbab yotganda uning quyonlarini ko'chaga haydagan. Agar yana uyga quyon olib kelsang seni yetimlar uyiga topshiraman, deb qo'rqiitgan.

Shu paytda qalbi iztirobga, alamga to'lib turgan paytida Shokirning masxara qilib ustidan kulishi unga alam qildi, juda-

juda alam qildi. Yugurib kelib chaqimchining ustiga tashlandi. Shokirning qulog'i ostiga shunday bir musht kelib tushdiki, zarbi ham shunday kuchli ediki, Shokir gandiraklab borib yiqildi. O'zini tezgina o'nglab oldi-yu Egamning yoqasiga yopishdi.

Xunuk manzara boshlandi.

Sinfdag'i o'g'il-qizlar ikki tarafga bo'linib ketishdi. Soy mahalla bir tomonga, Qibla mahalla bir tomon.

- Ur!

- Tur o'rningdan!

- Bo'sh kelma!

- Qo'rqsang mana men borman! – degan pastu baland gaplar avjiga chiqib boryapti.

Qiz bolalar:

- Voy, ajratsanglar-chi! – deyishyapti.

O'g'il bolalar:

- Charchashsa o'zлari ajralishadi.

- Spartivni musobaqa ketayapti.

- Soykeldi, bo'sh kelma, – degan gaplarni tinmay aytishyapti.

Xonkeldi qishlog'ida hech qanday tartibga bo'ysunmaydigan, hech qanday qonunga rioya qilmaydigan, mushtlashish, eshakmindi, bov ustiga bov, o'nakki soat to'xtamay to'p tepish, dashtga, ho'venavi tog' yonbag'ridagi kenglikka chiqib olib velosipedning qosqoni singuncha poyga yushtirish singari yovvoyi o'yinlar avjiga chiqqan. Qiziq, bugun jonchiqarga mushtlashadilar-u, ertaga yarashib, apoq-chapoq bo'lib ketaveradilar.

Qo'ng'iroq chalindi.

Salobatli geografiya muallimi salmoqli qadam tashlab, asta kirib kela boshladidi:

- O'tir hammang joyingga! – degan qattiq buyruq ham bo'ldi.

Muallimning ovozi ham kuchli edi. Hamma o'rni-o'rniغا o'tirdi. Hech narsa bo'limgandek sinf'xonasi jumjit bo'lib qoldi, dars boshlandi. Sibir o'rmonlari haqida suhbat ketayapti.

## To'rtinchi bob

«Peshonasi»ga «Kimyo laboratoriysi» deb yozib qo'yilgan, ichiga bor-yo'g'i to'rtta sariq suv to'ldirilgan shisha banka-yu, bo'g'zi ingichka bir-ikki shisha qo'yilgan xonada yangi kelgan kimyo fani muallimi bilan hozirgina hovlidagi yig'indan xo'rланib qaytgan Hamidova o'rtasida yig'i aralash, xo'rsinish aralash, afsus aralash bosinqi suhbat ketayapti.

– Ey singlim, siz yaqindagina keldingiz, bu ikki bola bilan direktorimiz oralarida bo'lган dilisiyohlikdan xabaringiz yo'q. Ikkovlari ham suyib bag'ringizga bossangiz, erkalab peshonasidan o'psangiz arziydigan o'smirlar. Men ularni bolaligidan buyon bilaman, uch yildan buyon esa sinflariga rahbarman. Sinf rahbarlari bolaga onadek bo'lib qoladi. Bolalar ham agar ko'nglini topsangiz, sizni onasidek sevib qoladi. Singlim, kechirasiz, siz Qo'qon institutini bitirdingizmi?

– Ha, kimyo-biologiya fakultetini bitirganman, – negadir uyalibgina deyapti yosh muallima.

– Nega yil boshida kela qolmadingiz?

– Onajonim avval turmush qurgin, qiz boshing bilan jo'natmayman, dedilar.

– Turmush qurdingizmi?

– Qurmasam onajonim ruxsat berarmidilar?!

– Ha, hamma onalar ham shunaqa, bolam bag'rimda bo'lsa deydi.

– Opajon, shu ikki yigitchalar haqida juda-juda bilgim kelyapti, juda mustar bo'lishdi-da.

– Ey singlim, ismingiz Shohistaxonmidi?

– Ha Shohistaxonman. Ikkovlari ham qatordan yig'lagudek bo'lib chiqib ketishdi. Ustoz quyon o'g'irlading, melisaga tushding, deyapti, shularni ham bilgim kelayapti, opajon.

– Ey singiljon, mana yaqinda sinf rahbari ham bo'lasiz, bolalar dunyosiga kirasiz, har bir bola bir dunyo ekanligini bilib borasiz. Bu ikki o'smirning taqdiri juda g'alati. Ikkovlari bir kunda tug'ilgan. Ota-onalarini o'rtadagi devor ajratib turadi, xolos. Egamberdi ertalab, Karimberdi kechga tomon

tug'ilgan ekan. Qiziq, Egamberdi to'rt soat oldin tug'ilgani uchun Karimberdi uni akam deb yuradi. Karimberdining onasi chaqalog'i uch oyga to'lganda, og'ir sariq kasalga chalinib qoladi. Egamberdining onasi Sobiraxon ikkov chaqaloqni boqib katta qiladi. Biri o'ng tizzasida, biri chap tizzasida katta bo'lган. Taqdirning ayanchligini qarangki, Egamberdi to'rtinchи sinfga borganda uning onasi, bir ajoyib dilbar, xushchaqchaq, shaddod ayol edi, shu qishlog'imizdagи bog'chaga mudira edi, Shohimardon sayliga borganda, eshitgandirsiz, Shohimardon soyini katta suv bosib, o'nlab kishilar nobud bo'lган. Sobiraxon o'zi bilan birga uch ayolni ham sayilga olib horgan ekan. O'zları soyliqda mashinada yotib, o'g'li Egamberdini yuqoridagi lagerga joylashtirgan ekan. Voy xudoyim, shunday katta sel keladiki, uch ayol mashina ichida nobud bo'ladi. Hammayog'i majaqlangan Sobiraxonni mashinada olib kelishadi. Yanglishmasam, ikki yilcha bir joyda yotib ham qoladi. Olamdan o'tgach, Xolisxon ikkovi bolaga ona bo'lib qoladi. Shunday qilib, ikkovlari ikki onaning qo'lida katta bo'lishadi. Endi singlim, sizni charchatib qo'ymayapmanmi?

- Voy opajon, ikkovimizning ham hozir darsimiz yo'q-ku, – deb suhabatning davomiga qiziqishini bildirdi Shohistaxon.
- To'g'ri, Shohistaxon, darsimiz yo'q. Men ham shu ikkala bola haqidagi fikrimni aytgim kelayapti... Ochig'ini aytsam, yaqinda siz, ehtimol, mening o'rninga sınıf rahbari bo'larsiz.
- Voy unday demang opajon, xudo xohlasa, bu sınıfni o'zingiz o'n birinchigacha olib borasiz.
- Endi direktor bilan bu ikki bola o'rtasidagi mashmashalarni aytsam tarixi juda uzoq. Sobiq raisning o'g'li G'ulomjon degan boladan daftar berib quyon olgan. O'sha kuni quyonlar daladagi bog'da bo'lган. Tulkilar kelib quyonxonani tatalab buzib, quyonlarni yeganicha yegan, qolganlari dashtga qochib ketgan. G'ulom sen kechasi kelib, g'ayirlik qilib quyonxonani ataylab ochib yuborgansan, deb akasi Ikrom ikkovlari bechora Egamni rosa kaltaklashgan. Nimagadir uchastka noziri u yoq-buyog'ini surishtirmay, Egamni so'roqqa tutgan, qamab ham qo'ygan. Qamoqdan

chiqqach, himoya so‘rab, meni himoya qilarmikan, deb Azizov domlaning oldiga borgan. Azizovning yomon odati bor. Yoqtirmagan bolasini, kabinetning ichida alohida xonasi bor, o‘sha yerga qamab qo‘yaveradi. Egamberdini ham o‘sha yerga qamab qo‘ygan. Kechási-yu kunduzi birga yuradigan Karimberdi direktorga kelib, nega o‘rtog‘imni qamadingiz, ayb raisning o‘g‘li G‘ulomdan o‘tgan, akasi ikkovi o‘rtog‘imni rosa urishgan, degan gaplarni aytgan. Aytdim-ku, direktorimiz birovni gapiga qulq soladiganlardan emas. Hali sen menga aql o‘rgatadigan bo‘ldingmi, deb uni ham sheringining yoniga qamab qo‘ygan. O‘smlarning yosh qalbi nohaqlikka chidamagan. Qorong‘i tushishi bilan oldin oynalarni sindirishgan, deraza ramkasiga sig‘maganlari uchun uni tagtugi bilan ko‘chirib tashlashgan. Derazaning sinig‘ini hovliga opchiqib yoqishgan. Mana endi Shohistaxon, o‘zingiz o‘ylang, kim haq-u, kim nohaq.

– Opajon ayb kimdaligini bilmasdan turib yoshlarning dilini og‘ritgan direktor aybdor-da.

– Ana, siz rost gapni aytdingiz, muallimlar ham o‘smlarning yonini olgan bo‘ldi. Lekin Azizov domla, hali aytdim-ku, birovni gapiga kiradiganlardan emas. Egamberdini ham, Karimberdini ham bezori sifatida maktabdan haydash haqida buyruq chiqarib qo‘ygan. Keyin ularning ota-onalari janjallahib kelgan edi, chor-nochor ha mayli shartli ravishda haydadim, kelib-ketib yuraverishsin, muallimlar so‘ramasin, deb yana o‘zining aytganini qildi, bilganidan qolmadi. Ikkovi o‘smlarning qalbiga ozor yetkazdi, Egamberdi har narsaga qizuquvchan bola, uy ishlariga qarashadi, mol-qo‘ylarini ham boqadi, Karimberdi bo‘lsa yumshoqqina, beozorgina bola. Egamjonning onajoni jon bera turib, o‘g‘lim menga oq marmardan yodgorlik qo‘ysan, deganmi yoki aytmaganmi, ikki o‘smir onamizga oq marmardan yodgorlik qo‘yamiz, deb niyat qilishgan ekan. Voy, falokatni qarang, dalada mol boqib yurganlarida, dadalari fermer emasmi, tumanga ketishgan ekan, ikkovlari kartoshka kavlab pishirib yemoqchi bo‘lishibdi. Marza ustidagi ajriq o‘t olib borib dadalari qoldirib ketgan

traktorning yog' to'la bo'chkasiga urilib, bo'chka portlab, traktor butunlay yonib ketgan. Bechora bolalar qo'rqiб kartoshka pishirib yeganlarini aytishmagan. Otalari esa hov narigi paykaldagi fermerlar ataylab o't qo'yishgan, degan qarorga kelishgan.

Shohistaxon, mana shu bolalar hammadan berkitgan sirlarini yig'lab-yig'lab menga aytishgan. Xudo xohlasa, boyib ketsak avval onajonimga yodgorlik, keyin otamizga traktor olib beramiz, degan yashirin niyatlarini ham menga aytishgan. Bir kun Egamberdi o'ris tilida chiqqan jurnalni menga ko'tarib keldi. Jurnalning oltita sahifasida quyonlarning surati bor ekan. O'qib tarjima qilib bering, deb iltimos qildi. Quyon boqib boyib ketgan bir oila haqida ekan. Quyon boqib boyish xaqidagi yaxshi niyat o'sha kuni tug'ilgan unda. Qishloqma-qishloq quyon axtarishdi, qayerlardan topib kelib boqib ham ko'rishdi. Lekin direktor ularning qalbini tushunmadni.

Shohistaxon, agar mabodo meni o'rniimga sinfga rahbar bo'lib qolsangiz shu ikkala o'g'limga alohida e'tibor berishingizni so'rayman. Ana qo'ng'iroq ham chalindi... Yuring endi, ha aytgandek, vaqtinchalik biznikida yashab tursangiz ham bo'ladi.

– Opajon turmush o'rtog'im ham kelmoqchi edi, yaxshigina payvandchi u kishi.

– Singlim ikkovlaringga ham joy topiladi, payvandchi bo'lsa yana yaxshi. Payvandchi bolalardan shogirdlar tayyorlaydi.

## Beshinchi bob

Geografiya darsi ketayapti. Gap hamon Sibir o'rmonlari xususida. Tayga degani hindcha so'z bo'lib, sovuq o'lka degani ekan. U yoqlarda faqat igna bargli daraxtlar o'sarkan, igna barglilar sovuqqa chidamli bo'lar ekan. Egamberdi bilan Karimberdi bu gaplarni yo eshitayapti, yo eshitmayapti.

– Qanday bo'lsa ham savdo yarmarkasiga borishimiz kerak edi-da, – deb shivirlaydi Egamberdi.

– Essizgina, zotli quyonlar ham savdo ko'rgazmasiga qo'yilishi mumkin, – deb o'rtog'idan ham pastroq ovozda

shivirlaydi Karimberdi, – u yerga hayvonlarning ming xil zotlarini qo'yishgan emish.

- Yo darsdan qochamizmi. – ikkilanibroq deydi Egamberdi.
- Baribir, endi bizni avtobusga chiqarishmaydi.
- Men ham avtobusga chiqaylik deyoqtganim yo'q.
- Egam, sen biron narsa o'ylab top.
- O'ylab topdim, yaxshisi qochamiz.
- Yo'q qochsak, direktor yana battar qiladi.
- Qornimiz og'rib qoldi, desak-chi.
- Esing joyidami, ikkita qorin bir vaqtida og'rimaydi-ku.

Har xil vaj-bahonalarni o'ylab topishyapti. Lekin hech biri ma'qul bo'lmayapti. Harqalay bahonalar topishga, og'ir sharoitdan qutulib chiqib ketishga Karimberdidan Egamberdi ustaroq edi. Uning kallasi to'la aql deb yuradi Egamberdi.

– Kel ikkovimiz jo'rttaga mushtlashgan bo'lamiz, – deb shivirladi Egamberdi.

– Nega mushtlashamiz, nega?

– Mushtlashsak ikkovimizni ham tengdan chiqarib yuboradi.

– Egam, baribir zo'rsan-da, bekorga seni akam demaganman-da, biqiningga bir tushiraymi? – Yo'q, yaxshisi sen urgin.

Ikkovlari bir nafasda don talashgan jo'jaxo'rozdek tikkamatikka bo'lib urishib ketishdi, rosmana mushtlashish ana endi boshlandi. Hammaning ko'zi shularda bo'lib qoldi. Hushyor bolalar, sinchkov qizlar bular shunchaki, nomigagina, darsdan qochish uchun mushtlashayotganlarini sezib turishardi. Opa-singil Fotima bilan Zuhra mushtlashayotganlarga rag'batlari kuchliroq bo'lganidanmi achinishib, yaxshimas-yaxshimas. deya uf tortib ham qo'yishardi.

Muallim mushtlashayotganlarga yaqinlashib:

– Bas qillaring! – deb yer tepindi.

Yo'q, bas qilmadilar.

Muallimning asabi qaynadi:

– Ko'tar papkangni ikkoving ham! – geografiya muallimi stolni shunday qattiq mushtladiki, stol chayqalib ketgandek, xuddi chang ko'tarilgandek bo'ldi. Bir qo'li bilan Egamberdini,

ikkinchi qo‘li bilan Karimberdining yoqasidan ushlab tashqariga chiqarib tashladi.

- Zo‘r bo‘ldi o‘rtoq, – dedi Karimberdi.
- Men zo‘rman-da Karim, buni bilib qo‘y, – ko‘kragini baland ko‘tarib dedi Egamberdi.

Endi jimgina ketaverishsa ham bo‘lardi, o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas ekan-da, hamma o‘smirlargacha o‘xshab bular ham maqtanishni, maqtanganda ham oshirib-tosirib maqtanishni yaxshi ko‘rishardi. Muallimni aldab chiqqanlari bu aslida yomon, juda-juda yomon xulq alomati. O‘quvchining xulqiga sig‘maydigan alomat. Shunday bo‘lsa ham deraza yonidan o‘tayotganlarida dars eshitgilar kelmay tashqariga qarab o‘tirgan qizlarga qarab, lablarini cho‘chhaytirib, ko‘zlarini g‘alati-g‘alati qisib ham qo‘yishdi.

«Bezorilar», degan bo‘lishlari ham mumkin ichkaridagi qizlar. Matabning darvozasidan emas, darvoza yonida o‘tirgan Universal bobo, dars vaqtida qayoqqa ketayapsizlar, yo‘qochib chiqdilaringmi, deb so‘rab qolishi ham mumkinligini bilganlari uchun, chorvoq tomondan, baland devordan oshib o‘tishdi. Otalaridan velosiped so‘rash uchun uylariga qarab yugurdilar. Velosipedni bir amallab so‘rab olishlari shart. Tayinlangan avtobus ketib bo‘ldi. Ketmaganda ham bu ikkovini olmas edi. Yo‘lovchi mashinalarni bu atroflarda uchratish qiyin, uchraganda ham ikkovilarini darrov olaqlardagi deysizmi?! Eng muhimi velosiped. Otalari ruxsat berishsa, tezroq haydashsa, jo‘nab ketgan avtobusdan oldin tuman markaziga yetib olishlari hech gap emas. Lekin Egamning o‘gay onasi Shakarxon ayadan ham, Karimberdining qattiqqo‘l otasi Siroj birgadirdan ham velosipedlarini so‘rab olish oson bo‘lmaydi.

– Egam biron tadbir o‘ylab topmasang bo‘lmaydi, – o‘yga tolib dedi Karimberdi.

- Baribir yolg‘on gapirishga to‘g‘ri keladigan, o‘rtoq.
- Ikkovimiz o‘ylab topsak, har qanday odamni ishontirsak bo‘ladi. Egam sen bir, men no‘l, ikkovimiz qo‘shilsak o‘n bo‘lamiz. O‘n bo‘lsak har qanday ishni bitiramiz. O‘sha hiylangni ishga sol, men tasdiqlab turaman.

- Unda direktor jo'natdi deymiz, qo'shni maktab bilan musobaqa bo'ladi, uylaringdan velosipedlaringni olib kelinglar, g'olib bo'lib maktabimizga obro' keltirsalaring ota-onalaringga maqtov qog'ozi yozib beraman, faxriy yorliq beraman dedi, deymiz-da.
- Lekin Egam o'rtoq, zo'rsan-da.
- O'zing aytding-ku, qo'shilsak o'n bo'lamiz, deb.
- Karim yolg'on to'qishga-ku ustamiz, lekin yolg'oning tagi ochilib qolsa maktabdan butunlay haydashsa nima qilamiz?
- Haydalganimiz-ku, bilmaysanmi?
- Yarim haydalganmiz.

## Oltinchi bob

Gaplasha-gaplasha Karimberdilarning hovlisiga yetib bordilar. Onasi Xolisxon aya qayoqqadir ketganga o'xshaydi. Sobir akasi bog' etagida pomidor ko'chat ekayapti. Karimberdining yolg'onga o'rganmagan tili tutilib-tutilib qolyapti. Qiyinchilik bilan bo'lsa ham maqsadini bayon qilayapti. Bu ikkovolarini maktab direktori jo'natgan mish. Deganmishki, «borib Sobirjon akangga ayt, u juda yaxshi bola. doim beshga o'qirdi, velosipedini senga bir kunga berib tursin, sen poygaga qatnashib maktabimizni obro'yini himoya qilsang, ota-onangga faxriy yorliq beraman».

- Doim beshga o'qirdi, dedimi? – ko'zlarini ayyorona qisib, qo'lidagi pomidor ko'chatini yerga tashlab, so'radi Sobirjon.
- Ha, xuddi shunday dedi.
- Ukaginam men umrimda besh baho olgan emasman.
- Sobirjon aka, – deb gapga aralashdi Egamberdi, – siz shu ukangizni yaxshi ko'rар ekansiz.
- Bu gapni ham direktor aytdimi?
- Aytdi, sen birga bor, ishonmasa sen ham aytgin, dedi.
- Egamberdi, ukaginam, sen to'xtamay yolg'on gapirasani bilaman, lekin anavi kuni og'ilxonadagi go'ngni chiqarib tashlashga yordamlashganing uchun yolg'onlaringni kechiraman. Ishyoqmas ukamga beradigan velosipedim yo'q. O'zinikini rasvosini chiqarib, go'ng tepaga chiqarib tashlagan.

- Bermaysanmi? – qat’iy qilib so‘radi Karimberdi.
- Yo‘q dedim, yo‘q.
- Agar bermasang siringni ochaman... Qobil boboning qizi bilan xat yozishib yurishingni hammaga aytaman, tomga chiqib, baqirib aytaman, mакtabga ham borib aytaman.


Akasi yugurib kelib, loy qo‘li bilan ukasining og‘zini berkitib «Axmoq, men hazillashdim. Shu velosiped ikkovimizniki-ku. Ol, olaqol, faqat qosqonini egib qo‘yma» deb ayvondagi yapan yangi velosipedni ukasining qo‘liga tutqazdi.

Xayriyat, bu yerdagi ishlari osonlikcha bitdi. Endi Egamberdilarnikida ahvollari qalay bo‘lar ekan. Ko‘cha eshik tirqishidan Egamberdi diqqat bilan mo‘ralagan edi, ho‘ narida, ichkari uyg‘a yaqin joyda o‘gay onasi chaqalog‘ini yonginasidagi kiygizga yotqizib qo‘yib makka uqalayotganini ko‘rdi. Velosiped esa shundoqqina ko‘cha eshik oldidagi uychada turibdi. «Men onamni chalg‘itib turaman, – deb shivirladi Egamberdi, – sen velosipedni tashqariga olib chiqasan».

Shunday deb Egamberdi yugurib borib xuddi odobli bolalardek yerda, makka so‘talariga ko‘milib yotgan singilchasini qo‘liga olib, boshi uzra baland ko‘tardi, erkalatgan bo‘ldi. O‘rtog‘i velosipedni olib chiqishga ulgurgananini, buni o‘gay onasi butunlay sezmay qolganini ko‘rib ich-ichidan quvondi.

- Opajon non bormi, – deb so‘rab ham qo‘ydi.
- Ish-yoqmasga non yo‘q, – javob qaytardi Shakarxon aya,
- nega kecha tandirga o‘t qalamay qochding?
- Yoqdim-ku.
- Ho‘l o‘tinni tiqibsan-u, qochibsan. Mayli, bu gal kechirdim, bor olaqol. Qayoqqa ketayapsan?
- Xudo xohlasa olgani, – dadasidan o‘rgangan so‘zlarni aytib Egamberdi ko‘chaga otildi.

Maktabga kelishsa o‘quvchilar ko‘rgazmaга allaqachon jo‘nab ketishgan ekan. Darvoza yonidagi uychada o‘tirgan Universal bobo, yo‘q. Universal desa tag‘in siz uni motori o‘t olib g‘izillab yurib ketadi, deb o‘ylamang. Yo‘q, ham qorovul, ham qishda pechkaga o‘t yoquvchi, ham hovli supiruvchi, ham singan stol-stullarni tuzatib beruvchi, ham biron bolaning ota-



onasi kerak bo'lsa, borib aytib keluvchi, ham direktorga achchiq-achchiq choy damlab beruvchi, ham nozik mehmonlar kelganda uyidan mis tog'oraga bosib issiqliqna palov olib keluvchi, ham bolalar urishib qolishsa yarashtirib qo'yuvchi va yana qanchadan-qancha «ovchi-uvchi»larning tepasida turgani uchun qishloqdagilarning hammasi bu mo'tabar zotni Universal bobo deb atashadi.

– Bobojon, shu chiroqli ismingizni sizga kim, qachon qo'yib bergen, – deb so'rashsa, bobojon miyig'ida yengilgina kulib oladi-da, sersoqol yuziga jiddiy qiyofa berib:

– Bolam, onangning ismini birinchi marta kimdan eshitgansan, – deb so'raydi.

– Bilmayman deydi, – so'ragan odam.

– Men ham bilmayman, – deb yana miyig'ida kulib qo'yadi Universal bobo.

Ikki o'rtoq velosipedlarini uchirib borib maktab darvozaxonasi oldida to'xtashdi.

– Bobojon avtobus qachon ketdi, – shoshilib so'radi Egamberdi.

– Qachon ketganini aytsam necha so'm berasan, – hazil ohangida so'radi Universal bobo.

– Yo'q, tezroq aytинг.

– Yo'q, oldin sen qancha berishingni aytgin.

– Mayli, besh so'm beraman. Qaysi yo'lidan ketishdi?

– Qaysi yo'lidan ketganini aytsam necha so'm berasan?

– Jon bobojon!

– Yo'q, beradiganingni avval ayt.

– Mayli yana besh so'm qo'shaman.

– Begovot yo'li orqali ketishdi, qani pulni cho'z endi.

Bobojon shu gapni aytib bo'lgach, huzur qilib xoxolab kuldil. Bu bobojonning odatiy, doimiy hazili. Kattaga ham, kichikka ham hazil qilaveradi, pul olmaydi. Aksincha, ko'p holatda qarshisidagi kishiga qog'ozli konset berib, kulib ham qo'yadi.

Bir kuni tuman hokimi kelib direktor bormi, deb so'rabdi. Universal bobo hokimni ko'rjan ham, tanimas ham ekan.

– Aytsam qancha berasan, – deb so'rabdi.

– Esingiz joyidami? – sal jahli chiqib so'rabdi hokim.

– Esim joyida ekanligini aytsam qancha berasan?

O'sha voqeadan keyin maktab direktori Universal boboning fe'lini, hazilini hokimga tushuntirguncha ancha qiynalgan ekan. Hokim, bu pulga o'rgangan sersoqol cholni maktabdan tezda hayda, deb turib olgan ekan. Egamberdi bilan Karimberdi Universal bobo uzatgan konfetni olib yo'lga tushishdi. Yo'q, yo'lga tushishdi deyish oz, uchib ketishdi desa to'g'riroq bo'ladi. Haligi, burgut o'ljasiga tashlanganda qanotlarini ichiga olib tumshug'ini oldinga cho'zib boradi-ku, xuddi ana shunday uchib borayapti, goh unisi, goh bunisi oldinga o'tib ketayapti. Yo'ldagi chuqur-chanoqlar, katta-kichik shag'al-u toshlar, atrofdagi dov daraxtlar-u osmonda parvoz qilayotgan qushlarga, ey Olloh, shu ikki o'smirning yo'li ravon bo'lsin, omadlari kelsin, deya duo qilayotgandek.

### **Yettinchi bob**

Savdo yarmarkasi, eh-he, shunaqangi katta maydonni egallabdi, u boshidan bu boshiga yetguncha odam charchab qoladigan darajada-ya! Don bozori, mol bozori, ho'v naridagi o'tin bozori, ho'v beridagi yoymachilar bozori hamma-hammasi ko'rgazmaga qo'yilgan o'lik tirik narsalarga to'lib ketgan. Zotdor echkilar-u zotdor qo'ylar, qo'tosdek semirib ketgan, yaqiniga borsangiz suzaman deb pishqirib turgan novvoslar, onasini emaman, deb talpinayotgan buzoqchalar bir tomon, tovuqning o'zidan, ishonsangiz, o'ttiz xilini qo'yishibdi, hammasi qag'-qag'lab, qu-quqlab turishibdi. Qichqirishga shay turgan dakang xo'rozlar, kechagina tuxumni yorib chiqib, onasining qanoti ostiga berkinmoqchi bo'lib turgan momiq-momiq jo'jachalarning hisobi yo'q. Voy-boy, mevalarning ko'pligini, xilma-xilligini qarang. Xuddi bugun ertalab uzilgandek dirkillab turibdi-ya, qanday qilib shu kungacha saqlay oldi ekanlar. Uzumning o'zidan oltmis xili bor ekan, qovun-tarvuzlarning shunaqa xilma-xilini keltirishibdiki, hozir mana kunlar isib ketganiga qaramay, bular ham xuddi bugun ertalab uzilgandek dirkillab turishibdi-ya. Yana tag'in

har birining yoniga taxtachalar osib, ushbu navni kim yetishtirayotganligini ham erinmasdan yozib qo'yishibdi.

– Yozuvi chiroli ekan, – deydi Egamberdi zavqi oshib.

– Pul berib yozdirishgan-da, – fikrini bayon qiladi Karimberdi, – chiroli yozdirsak mahsulotimiz xaridori ko'payadi, ko'proq sotiladi deb o'ylashgan-da. Egam, nahotki, shuni bilmasang.

Ikki o'rtoq erinmasdan aylanishyapti, aylanishyapti. Avtobusda kelgan o'rtoqlari ko'rinnmaydi. Kim biladi, bu keng yarmarkaning qaysi burchagida yurishgan ekan. Ho'v narida hujjatli kinolar ko'rsatishyapti, ehtimol, o'shani berilib tomosha qilishayotgandir yoki pana joyga borib olib, maza qilib muzqaymoq yeb o'tirgan bo'lishsa-chi.

– Mana bu o'rikning kattaligini qara, mushtumdek keladi-ya, – yana zavqlana boshladi Egamberdi, – bizning qishloqda bunaqasi yo'q. Hammasi xashaki.

– To'g'ri, hadeb gapiraversa, ko'zing tegib qoladi, – deydi Karimberdi.

– Fermerlarning, tadbirkorlarning ishi-da bular. Karim biz ham tadbirkor bo'lsak, xudo xohlasa, shularga o'xhash yangiliklar yaratamiz. Direktor Azizovni ham, uchastka nozirini ham qoyil qoldiradigan yangiliklar yaratamiz.

Ko'rgazmaga qo'yilgan mevalarning goh unisidan, goh bunisidan bitta-yarimtadan yeb ko'rishadi, maqtab ham qo'yishadi. Aylana, aylana bir mahal sim kataklarga solingan quyonlar qatorida to'xtab qolishdi. Ikkovlarining ham yuraklari o'ynab ketgandek bo'ldi, quvonchdan ko'zları chaqnagandek bo'ldi. Oylab, yillab axtargan narsalarini, kechalari tushlariga kirib chiqqan narsalarini ko'rgach ikkovlari ham, quvonchini bayon qilishga so'z topolmay, bir-birlarini mahkam quchoqlab olishdi. O'rtoq, o'rtoq deyishadi-yu qalblaridagi quvonchni ifodalashga so'z topisha olmaydi. Har bir sim katak ustiga chiroli yozuvli taxtachalar osilgan, ko'k zotlar, oq zotlar, yovvoyi zotlar deb yozib ham qo'yishgan. Quyonlarning bir xillari katakchadagi ko'ktlardan uzib-uzib yeyapti, bir xillari sabzini oyoqchalari orasiga olib g'ajiyapti, qo'rqib

katakchalarining burchagiga pusib, qop-qora ko‘zlarini mo‘ltillatib turganlari ham bor.

Egamberdi ikki katakdagi sakkiz quyonga tikilib ko‘zini uzolmay qoldi, quyonlarning oppoq-oppoq yunglari, uzun-uzun qulqlari, oyoqlarining boshqa quyonlarnikiga qaraganda yo‘g‘on, uzunligi, eng muhimi bu quyonlarning Egamberdiga ma’yusgina, yolvoribgina tikilib turishi yoqib qoldi. Anchagacha ulardan ko‘zini uzolmay turdi.

– Nega «oq pahlavon»lar deb nom qo‘ydinglar? – deb uzoq tikilib qolgan o‘rtog‘ining o‘rniga asta gap boshladi Karimberdi.

– Zoti shunaqa, – javob qaytardi quyonning egasi.

Egamberdi ham sal o‘ziga kelgan bo‘lib:

– Nima, polvon bo‘lib kurashga tushishadimi? – deb so‘radi.

– Yo‘q, kurashga tushmaydi, – tushuntira boshladi quyon egasi, – gavdasi katta bo‘lgani uchun, go‘shtni ham, terini ham ko‘p bergani uchun pahlavon deb atashadi.

Egamberdining quyon sotib o‘tirgan bolaga havasi keldi, yoshi ham o‘zi tengi, o‘n besh-o‘n oltida bo‘lsa kerak. Shunday nodir zotni qanday topdi ekan deb o‘ylab, o‘zini ham quyonlar sohasida bilimi unikidan kam emasligini bir ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ldi:

– Tirigida vazni qancha-yu, so‘yilganda vazni qancha bo‘ladi?

– So‘yilgandami, – javob qaytara boshladi sotuvchi yigitcha, – so‘yilganda yaxshi boqilsa uch kilogacha go‘sht beradi. Terisi ham qalin-u, yirikroq bo‘ladi.

Egamberdining ham, Karimberdining ham shu o‘smir yigitcha bilan ko‘proq gaplashgisi kelib qoldi. Birin-ketin savollar bera boshlashdi. O‘smir yigitcha han xuddi muallimiga javob qaytarayotgan o‘quvchi boladek o‘zini dadil tutib, dadil-dadil javoblar qaytara boshladi. Bu pahlavonlar Ukrainiandan keltirilgan ekan, O‘zbekistonda hali bu zotdan yo‘q ekan. Bobosi samolyot haydar ekan. Bu nodir quyonlar zotini shu bobosi olib kelgan ekan. Ona quyonlar qirq kunda tug‘arkan. Ikkinci yili o‘tganda mana shu ona quyon bir yo‘la oltitagacha tug‘arkan. Bolasining o‘zi ham bolalay boshlarkan. Bir yil

davomida onasi bo'lib, bolasi bo'lib, to'xtamay bolalashib qirqtaga yetishar ekan.

– Yolg'on so'zlayotganing yo'qmi? – shoshilib so'radi Egamberdi.

– Yolg'on bo'lsa, mana taxtachadagi yozuvni o'qib ko'rgin, – ranjigannamo javob berdi sotuvchi o'smir.

– Qog'ozdag'i yozuvni dadang yozib bergen bo'lsa kerak, – deb gapga aralashdi Karimberdi.

– Hecham-da, mening dadam sening dadangga o'xshagan bekorchi emas.

Halidan buyon savdolashayotgan o'smirlarni kuzatib turgan qizaloq, quyon egasining singlisi bo'lsa kerak, qoshlarini chimirib turdi-da to'satdan:

– Bizning adamiz bekorchi ham emas, yolg'onchi ham emas, – deya bidillab, so'zlar ustiga so'zlarni qalashtirib gapira boshladi, – akam o'tgan yili quyonlarini Toshkentdag'i ko'rgazmaga olib borgan, yiltiroq maqtov qog'ozi bilan rangli televizor yutib olgan. Akam ikkovimiz bu quyonlarning go'shtini shahardagi parhez go'sht sotadigan do'konlarga beramiz. Mana o'sha do'kon bergen xatlarni o'qinglar.

– Bu qog'ozni sinf rahbaring yozib bergandir-da, – deb qizning g'ashiga tegmoqchi bo'ldi Karimberdi.

Qiz javob bermay, labini bir burdi-yu, teskari qarab oldi. Egamberdi oq pahlavonlarga mahliyo bo'lib, o'zini yo'qotgudek bir ahvolda turibdi. Ertalabki avtobusda ashaddiy quyonboz G'ulom g'uppa ham kelgan bo'lsa, bordi-yu bu quyonlarni ko'rib allaqachon xaridor ham bo'lgan bo'lsa-chi, ehtimol, bu boyning o'g'li, cho'ntag'i to'la pul, kamida hesh-to'rttasini sotib ham olgan bo'lsa-chi.

– Jon o'rtoq rostini aytgin, – yumshoqqina ohangda gapira boshladi Egamberdi, – shu quyonlardan hech sotdingmi?

– Bor-yo'g'i mana shu ikki katakdagini keltirganmiz xolos, – Egamberdidek yumshoqqina javob qaytardi quyonchi bola, – hali sotganimiz yo'q, bir bola xaridor bo'ldi-yu, cho'ntagida puli yo'q ekan, olmadi.

– Menga qara, o'rtoq, o'sha bolaning rangi ro'yi qanaqa edi?

- Ovozi ingichka, qiz bolalarning ovoziga o'xshardi, o'zi baqaloqqina edi.

«Demak G'ulom kelgan, pul keltirish uchun uyiga ketgan». Shunday deb o'yladi-yu yuragi tez-tez urayotganini his qildi, xo'rliqi ham kelgandek bo'ldi. Ha, uning otasi boy, rais bo'lgan, onasi ham tirik, ularda pul ko'p, puli ko'p bo'lganidan keyin albatta oladi-da... Ana shunday o'ylarni o'ylab Egamberdi negadir marhum onasini esladi-yu, uzoq-uzoq xo'rsina boshladi.

## Sakkizinchchi bob

Egamberdi Karimberdiga qaraydi, Karimberdi Egamberdiga qaraydi, ikkovlari bir-birlariga tikilib yelka qisishadi. Pulimiz yo'q, endi nima qildik, deya o'ylanayotgandek bo'lishadi. Demak, G'ulom xaridor bo'lgani aniq, cho'ntagida puli yo'q bo'lsa, uyiga pulga ketgani ham aniq. Bunaqa paytda Karimberdi o'rtog'iga dalda bo'lishga, ko'nglini ko'tarishga harakat qiladi. Ko'pam kuyunaverma, oldin narxini bilaylikchi, deb o'rtog'ining xafa holatini tarqatmoqchi ham bo'ldi:

- Sotasani? – deb quyonchi bolaning yoniga bordi.
- Albatta sotamiz, – degan javob qaytardi quyonchi bola.
- Narxini ayt.
- Ana yozib, taxtachaga osib qo'yganmiz-ku.
- Yo'q, o'zingning og'zingdan eshitmoqchimiz.
- Bir erkak, uch urg'ochi, sim katak – hammasi o'ttiz besh ming so'm.
- Nima deyapsan, quyon qo'ydan qimmat bo'ladimi?
- Quyonning go'shtini emas, bu yerda biz zotini sotayapmiz. Ezma ekansizlar. Keta qolinglar, ja o'ralashib qoldilaring, savdoga xalaqit berayapsizlar.

Egamberdi hamon o'ziga kelolgani yo'q, hamon G'ulomni unuta olmayapti, quyonlarni o'sha sotib olsa, u kuchayib ketadi endi, degan o'ydan qutula olmayapti. Lekin Karimberdi bo'sh kelayotgani yo'q.

- Menga qara jon o'rtoq, quyonlaringni nasiyaga bermaysanmi?

– Yo‘q!

– Jon o‘rtoq musulmon bola ekansan, pulini iloji bo‘lsa bugun, bo‘lmasa ertaga keltirib beramiz. Ishongin, men hech qachon yolg‘on gapirmayman.

– Ketinglar bu yerdan, bo‘lmasa milisa chaqiramiz.

Chindan ham narida ikkita yosh militsioner yigit o‘zaro suhbatlashib turishar edi. Egamberdining ko‘zi ularga tushdiyu o‘rtog‘ini sekin turtib qo‘ydi. «Keta qolaylik, o‘zi bitta militsionerdan qochib yurganimiz ham yetar» deb shivirladi. G‘amgingina bo‘lib, holsizgina bo‘lib quyon bozorini tark etib chiqib keta boshladilar. Egamberdi yana marhum onasini eslab ketdi. O‘gay onasi bo‘lsa xasis, qizg‘anchiq, sut-qatiqnii Egamberdi sotib keladi-yu, pulini mana shu xasis onasi olib qo‘yadi.

Karimberdi quyonlarni ololmaganlaridan, olishga pullari ham yo‘qligidan ko‘pam afsuslanmadi. Onasi Xolisxon ayaning pullari ko‘p, so‘rasa beradi, xudo xohlasa ertaga kelib bu quyonlarni olib ham ketishadi. O‘rtoqlar qishloqqa qaytishga qaror qildilar. Shag‘al to‘kilgan serchang, o‘ydim-chuqurli yo‘llardan o‘tib borayaptilar. Ertalab qanday uchib kelishgan edi, burgutday keng qanot yozib uchishgan edi-ya! Endi bo‘lsa g‘ildiraklar ham sekin aylanayotgandek, ostilaridagi velosipedlari to‘xtab-to‘xtab, yo‘ldan chiqib ketayotgandek, bor ketaveringlar, yurmaymiz, deyotgandek edi.

Egamberdi to‘satdan to‘xtadi:

– Orqaga qaytamiz! – dedi qat’iy bir ohangda. Odatda, biron qarorga kelganda ovozi ana shunday qat’iyatli bo‘lib qolardi.

– O‘rtoq, men bir narsa o‘ylab topdim, faqat yo‘q demaysan.

– Qaroringni avval ayt-chi, – so‘radi o‘rtog‘i.

– Xo‘p desang aytaman.

– Yo‘q, avval qaroringni eshitay, yaxshi fikr bo‘lsa darrov xo‘p deyman. Sezib kelayapman, shu quyonlarni ko‘rding-u fe’ling aynab qoldi. Xudo xohlasa, ertaga kelib albatta olamiz. Xo‘p o‘rtoq, qaroringni ayt-chi.

– Velosipedlarimizdan bittasini sotamiz. Tushgan pulga ikki sim katakdagi quyonlarni sotib olamiz.

– Bu fikring chatoq.

- Karim, gapimga ko'nmasang, sen ketaver, men qarorimdan qaytmayman.
- Bilaman, sen o'taketgan qaysarsan, aytganingdan qaytmaysan.
- Qishloqqa boraylik, mening ayam ikkovimizning ayamiz, pulni o'shandan olamiz.
- Bo'ldi, sen ketaver, men orqamga qaytdim. Velosipedni men sotaman.
- Bo'pti birga boramiz, seni yolg'iz tashlab ketadigan axmoq emasman. O'la o'lguncha birga bo'lamiz, deb qasamyod qilganmiz, axir. Xudo xohlasa, ayamizga oq marmardan yodgorlik qurguncha, dadamizning bilmasdan yondirib yuborganimiz traktorini o'rniqa qo'ymaguncha bir-birimizdan ajralmaymiz. Bildim, o'sha quyonchi bola bilan gaplashayotganingda yig'lavoray-yig'lavoray deding.
- Karim chindan ham jonajon o'rtog'imsan-da.
- O'rtoq, o'la o'lguncha birga bo'lamiz, o'lsak bir qabrga kiramiz... Mening velosipedimni sotamiz. Adam bilan akam urushsa Xo'ja qishloqdag'i buvimnikiga qochib ketaman, deb qo'rqtaman... Bilaman, senga qiyin, o'gay onang sengayam, menga ham kun bermaydi... Egam, rostan ham adang shu o'gay onangdan qo'rqedimi?
- Qo'rqedi, juda-juda qo'rqedi.
- Boshiga bir tushirsa bo'lmaydimi?
- Dadam bu xotin ketib qolsa uchinchi xotinni qayerdan topaman, deb qo'rqedi.
- Demak, o'rtoq kelishdik. Mening velosipedimni sotamiz.
- Yo'q, o'rtoq, endi menikini ham qo'shib sotamiz, kaltak yesak ikkovimiz tengdan yeylek.

Tortisha-tortisha nihoyat, ikkovi ham velosipedni sotishga, tushgan pulga shundayligicha zotli quyonlarni olishga, iloji bo'lsa shu bugundan qoldirmasdan olishga qaror qilishdi.

Velosipedlar rulinii yarmarka tomonga burdilar. Ishlari yana o'ngidan kelmadidi. Velosiped tuzatadigan, mayda-chuyda qismlarni, yana ba'zi texnika asbob-uskunalarini olib-sotib turadigan ustaxona bugun ishlamas ekani. Ikkovlari bordaniga uf'tortib yuborishdi, attang, deya alam bilan bosh chayqashdi.

Egamberdi uzoq o'y surib ancha jim qoldi-da, keyin to'satdan jonlanib:

- Topdim, - dedi.
- Pulmi? - shoshilib so'radi Karimberdi, - ayt, tezroq ayt.
- Velosipedlarimizni quyonlar o'rniga garovga qoldirib ketamiz.
- Egam, hovliqma, ular darrov ko'nadigan bolalarga o'xshamaydi.
- Ko'nadi, yolvoramiz, yig'laymiz, sen duo o'qib turasan, men qo'limni ko'ksimga qo'yib yolvorib turaman... Kerak bo'lsa xudoni o'rtaga qo'yib qasam ichaman.

### To'qqizinchi bob

Go'yo zotdor quylarni allaqachon qo'lga kiritgandek, qo'lga kiritganda ham raqiblari G'ulom g'uppan dan oldinroq qo'lga kiritgandek, qalblari shodliklarga limmo-lim to'lib yana savdo yarmarkasiga kirib bordilar. Bu ikki ishqibozning ishiga rivoj ber, bo'lmasa naqd kasal bo'lib qolishadi-ya, deydigan odam yo'q.

Yo'q, ish yana yurishmayapti. Nasiyaga olaylik, pulini ertaga keltiramiz deyishyapti, yo'q degan javob qaytayapti. Mayli mana velosipedlarni quylarga almashtiraylik deyishyapti. Yana yo'q degan javob bo'lyapti, yolvorishyapti, qo'llarini ko'ksiga qo'yib iltijo qilishyapti, yana yo'q, yo'q, yo'q javobidan boshqa ovozlar eshitilmayapti. Quyonlarini savdoga qo'ygan yigitchaning singlisi akasining qulog'iga «aka ehtiyyot bo'laylik, o'g'ri bolalarga o'xshashadi, qarang, ikkovining ko'zлari bejo, g'alati-g'alati qarashyapti» deb shivirladi. Akasi singlisining gapiga yarim ishonib:

- Tag'in bu velosipedlarni o'g'irlab kelgan bo'l manglar, - deb so'radi. «O'g'ri» degan so'z Egamberdiga qattiq ta'sir qildi, shu so'zni eshitganda uning jig'ibiyroni chiqib ketardi. Hozir ham bir silkinib oldi. G'ulom g'uppaning yolg'on gapi tufayli maktabdan quyon o'g'risi degan xunuk nom chiqargani ozmidi, bu yigitcha nega unday deydi, nega o'g'ri degan so'zni tilga olayapti?

Egamberdining alami oshdi, qaltirab ketdi.

- Nimani o'g'irlahmiz? – o'zini arang bosib so'radi u.
- Velosipedlarni-da, – dedi beparvogina ohangda sotuvchi yigitcha.

- Nega unday deysan, velosipedlar o'zimizniki.
- Ko'zlarining g'alati-g'alati boqayapti.
- O'zi ko'zim shunaqa, bildingmi.
- Ikkovimizning ham ko'zimiz shunaqa, Xonkeldi qishlog'i bolalari hammasining ko'zi shunaqa, qisiqroq bo'ladi.

- Qo'llaring ham qaltirayapti-ku, – deb qiz bola ham gapga aralashdi, – kecha bu yerda quyon o'g'irlangan. Qo'shnimizning quyonlarini o'g'irlab ketishgan... Ketinglar, sizlarga sotmaymiz.

- Biz o'g'ri emasmiz! – deyishdi bir ovozdan Egamberdi bilan Karimberdi.

Ikki o'rtoqning qayta-qayta kelib tinmay savol-javob qilayotganligi, ket desa ketmay gapni cho'zayotganligi quyon sotuvchi qizga yomon ta'sir qildi shekilli, «o'g'ri bo'lmasalaring nega ketmaysanlar!» deya qichqirib yubordi. Bamisol odamlarni yordamga chaqirgandek qichqirdi: «O'g'ri-o'g'ri» degan so'z akasiga ham qattiq ta'sir qildi shekilli, do'q urgan bo'ldi:

- Kechasidagi quyonlarni senlar o'g'irlaganga o'xshaysanlar.

- Gapingni qaytib ol, – dedi Egamberdi yigitchaga yaqinlashib.

- Ketlaring, o'g'ridan battar ekansanlar, – deb rosmana shovqin soldi yigitcha.

Xonkeldilik bolalarining o'ziga xos mushtlashish usullari bor. Oldin o'ng qo'li bilan raqibining yoqasidan mahkam ushlaydi, so'ng musht soladi, goho ikki tomon ham bir-birini bo'g'a boshlaydi-yu, lekin ish mushtlashishga bormay ham qoladi. Bu gal unday bo'lmaydi. Egamberdi o'g'ri emasligini mushti bilan isbotlamoqchi, quyonchi yigitcha bilib-bilmay aytib qo'ygan gapini sakrab-sakrab tepish bilan isbotlamoqchi. Uning singlisi ham balo ekan. Karimberdining ikki qulog'in iki qo'llab mahkam changallab olibdi, na u yog'iga qaray oladi,

na bu yog'iga. Qattiqroq silkinay desa qulogdan ajralib qolishdan qo'rqadi.

Butun savdo yarmarkasi ayqash-uyqash bo'lib ketdi. O'g'ri keldi, qoch, degan kim, o'g'rini ushla degan kim, qorniga tepma, bola tashlab qo'yadi deyotgan kim, boshiga emas biqiniga ur, degan kim – bilib bo'lmasti. Tovuqlar rastasida bir g'alva, ona tovuqlar qaqaqlagan, jo'jachalar chiyillagan, dakang xo'rozlar bo'ynini cho'zib-cho'zib qichqirgan, ko'rgazmaga qo'yilgan yovvoyi qo'tosdek katta buqa zanjirini uzib ketibdi, hammayoq qiy-chuv.

Quyonlar rastasiga esa molini sotolmay esnab o'tirgan katta-kichik fermerlar birdan yopirilib kela boshladilar. Mushtlashish to'xtagani yo'q. Goh Egamberdi quyonchi yigitni bosib olyapti, goh quyonchi yigit Egamberdining qorniga minib olyapti.

– Ur!

– Ajratib qo'ysanglar-chi!

– Ikkovi teng kelayapti, birpas qo'yib beringlar...

Ho've narida suhbatlashib turgan ikki yosh militsioner negadir shoshmasdan kelib jo'jaxo'rozdek tepkilashayotganchi larni ikki tomonga tortdi. Ikkovi yigitchani bittadan ushlab, qo'llaridan tortib, sudragandek bo'lib qayoqqadir olib ketmoqchi bo'lishyapti. To'satdan, xuddi osmondan tushgandek, ko'rgazma savdo bozorining rais o'rinnbosari paydo bo'lib qoldi. U Karimberdining dadasidek katta gavdali, baland bo'ysi, xo'mrayibroq qaraydigan bir kishi ekan.

– Milisa ukalarim, – xuddi komandirlardek bir ohangda dedi bozorqo'm muovini, – sabr qilinglar, jo'jaxo'rozlar bilan avval o'zim gaplashib olay... Men bozorqo'mning muovini bo'laman, bilasizlar-a, bilsanglar jo'jaxo'rozlarni qo'yib yuboringlar. Barakalla, senlar shuncha o'g'rini qo'lga tushirdik, shuncha bezorini jazoladik, deb kechqurun raport yozasanlar. Bu yerda katta janjal bo'lgani yo'q. Don talashgan jo'jaxo'rozlar tepkilashib oldilar, xolos.

Shu gaplarni aytib bozorqo'm muovini Egamberdi bilan quyonchi yigitchani militsiya qo'lidan tortib olib, kulimsirab so'roqni mana o'zim boshlayman, deb Egamberdiga yuzlandi:

– Xo'sh, o'g'lim sen kim bo'lasan o'zi? – deb so'rashni ham boshlab yubordi.

– Egamberdiman.

– Qaysi qishloqdansan?

– Xonkeldidan.

– Kimning o'g'lisan?

– Dadamni Qosimali suvchi deyishadi, o'zi fermer, ellik gektar yerimiz bor.

– Sen-chi, iya betingni kim timdaladi? – achingandek bir ohangda so'radi u.

– Mana shu u hiqillab turgan qiz timdaladi, – panaroqqa borib turgan qizni ko'rsatdi Karimberdi.

– Iya qizim, sen quyonchi o'g'limning singlisisan-ku.

– Ha singlisiman. Yomon bola ekan, u meni juda qo'rqtidi, – yig'lamsirab dedi qiz.

Shundan so'ng Egamberdi tomon yuzlandi:

– Oting Egamberdimidi, ayt-chi janjal nimadan boshlandi o'zi?

– Mana shu quyonchi bola meni o'g'ri deb haqorat qildi.

– Quyonchi o'g'lim, ayt-chi, sening nimangni o'g'irladi bu yigitcha?

– Ko'zлari xunuk boqayotgandi-da.

– Ko'zi xunuk bo'lsa o'g'ri bo'laveradimi?

– Harakatlari ham g'alati edi-da.

– Harakati g'alati bo'lsa o'g'ri bo'laveradimi?

– Bilmadim.

– Sen quyonchi o'g'lim, demak, bu yigitchaga tuhmat qilgansan, – dona-dona qilib ko'pchilik eshitsin deb baland ovozda gapira boshladи bozorqо'm muovini, – tuhmatchi sisatida sen jinoyat kodeksining 166-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortilasan.

– Amaki, men bilmasdan o'g'ri deb qo'ydim.

– Baribir tuhmatchi sisatida javobgarlikka tortilishing shart.

– Amaki, o'lay agar, bilmasdan aytganman, bilmaganman.

– Unda Egamberdidan kechirim so'ra.

– Xo'п kechirim so'rayman, kechir meni bilmay qoldim.

Raqiblar bir-birlari bilan qo'l olishdilar. So'ng asosiy maqsadga o'tildi. Janjalning kelib chiqish sababiga aniqlik

kiritmoqchi bo'ldilar. Egamberdi bilan Karimberdi quyonlarni olib o'rniqa velosipedlarni garovga qo'yib ketmoqchi bo'lganliklari, ertaga quyonlarning pulini keltirib berib velosipedlarini qaytarib olib ketmoqchi bo'lganliklarini aytdilar.

Bozorqo'm muovini yana gapga tushib ketdi, yarmarkaga keltirilgan hamma narsa, zotdor qo'yu, zotdor quyon bo'ladimi, ertapishar o'rigu qishda qizaradigan gilos bo'ladimi – hamma-hammasi sotuvda ekan. Xaridor olayotgan narsasiga naqd pul berishi, pochta orqali jo'natishi, o'z mahsulotiga ayribosh qilishi yoki garovga qimmatli narsa qoldirib ketishi ham mumkin ekan. Kimki ushbu qoidani buzsa yarmarkadan chiqarilib yuborilishi ham mumkin ekan.

- Tushundilaringmi? – deb so'radi bozorqo'mning muovini.
- Tushundim amaki, – dedi rangi cuti o'chib turgan quyonchi yigit.
- Tushungan bo'lsalaring darhol shartnomalardan tuzinglar. Mana, meni shu shartnomaga guvoh sifatida qo'shib qo'ysalaring ham bo'ladi, rozman.

Quyonchi yigitcha ilgari ham har xil shartnomalarni ko'p tuzgan bo'lsa kerak, kelishuv shartnomasini ko'z yumib ochguncha yozib tashladi, ko'z yumib ochguncha ikki velosiped bu yoqqa-yu ikki simto'rdagi oq pahlavonlar u yoqqa, Xonkeldi qishlog'iga o'tgan bo'ldi.

Nafaqaga chiqib, bugun bozorqo'm muovini bo'lib ishlayotgan miliitsiya polkovnigi meni ham shartnomaga guvoh sifatida qo'shinglar, deb rost gapni aytgan ekan. Shartnomalardan chiroyli imzo qo'yib berdi.

## O'ninchi bob

Egamberdi bilan Karimberdi behisob boylikni qo'lga kiritgandek, jadal yurmasalar bu bebafo xazinani tortib olib qo'yishayotgandek qing'ir-qiyshiq dala yo'lidan, so'qmoqlardan jadal yurib bormoqdalar. Ikkovlari ham yelkalariga yuk ko'tarib o'rgangan, mehnatda obdon pishgan, ancha-muncha yukni pisand qilmaydigan yigitchalar edi.

Ammo quyon to'la to'rlar ko'tarishga noqulayroq, to'rtburchak bo'lgani sabab yelkaga olib bo'lmaydi, qo'ltingqa ham sig'maydi.

– Jon o'rtoq, ozgina dam olaylik, – deb iltimos qildi Karimberdi yurishdan to'xtab.

– O'zim ham shuni aytmoqchi edim.

Yo'l chekkasiga o'tib, simto'rlarni avaylab-avaylab ariq bo'yiga qo'yib, o't-o'lanlar ko'karib qolgan ekan, ustiga yonboshladilar. Entikib-entikib chuqur-chuqur nafas oldilar. Karimberdining nazarida hadiksirabroq, g'alati-g'alati tikilib, cho'chibroq turgan momiqdek oppoq yungli, uzun quloqli, qop-qora ko'zli bu jonivorlar bamisoli jannatdan chiqqandek, jannatdagi barcha go'zalligu, barcha latofatu, barcha beozorlikni o'zları bilan olib chiqqandek. Ularni ohista-ohista silab ularga yetishtirgani uchun Ollohga shukronalar ayta boshladi. Egamberdi o'rtog'idan ko'ra ko'proq hayajonda edi. Quyonlardan birini simto'rdan avaylab chiqarib, bag'riga mahkam bosib, goh chap, goh o'ng beti bilan yumshoq-yumshoq yunglarini silab, xuddi chaqalog'ini sog'inib suygan onadek erkalar, erkalagan sari mehri tovlanardi.

– Bopladic, – dedi quvonchini ichiga sig'dirolmay Karimberdi.

– Ishqilib aynib qolishmasin-da, – xavotirini yashira olmayapti Egamberdi.

– Nega vahima qilayapsan?

– Bizdan ko'ra ko'proq pul beradiganlar chiqib qolsa-chi?

– Xudo xohlasa chiqmaydi. Bu quyonlarni bizga Olloh hadya qildi.

– Bo'pti endi bu quyonlar bizniki, – zavq-shavqqa to'lib gapira boshladi Egamberdi, – o'sha o'rischa jurnalda o'qiganimizdek quyonlarimizni boqib-boqib boy bo'lib ketsak... E o'rtoq, butun dunyoni parhezli go'shtga to'ldirib yuborardik-da...

Ikki o'rtoq xayolga berilib katta-katta ishlarni orzu qilayotgan bir paytda Xonkeldi qishlog'iga allaqachon yetib borgan, savdo yarmarkasidan g'alati-g'alati axborotlar yig'ib olgan bir yigitcha bilan bir qizcha butunlay boshqa xayolda edilar.

Safar o'qishlari tappa-tuzuk, kimi yodan, fizikadan besh baholar olardi, jismoniy tarbiya mashg'ulotida hammadan uzoqqa sakrardi. Lekin u borib turgan vahimachi ham edi. Sinfdag'i eng oxirgi partada o'tiradigan Surmaxon degan qiz bo'lsa chaqimchilikda butun dunyo chaqimchilarini bir cho'qishda qochirardi. Shayton ikkovlarining qalbiga bir vaqtida kirib, birining qalbida lofchilikni, boshqasining qalbida chaqimchilikni avj oldirganga ham o'xshaydi. Jahli tez Egamberdi bilan Karimberdining boshidan o'tgan g'alati-g'alati hangomalarini, Egamberdining jon olib, jon berib olishayotganini uzoqdan bo'lsa-da kuzatishgan edi. Keyin avtobusda qaytayotganlarida o'rtoqlari o'sha voqealar haqida g'alati-g'alati gaplar aytib kelishayotganini ham eshitishgandi. Avtobusdan tushishlari bilan ichlaridagi shayton chapga yugur, o'ngga yugur, tez bo'l deb buyruq berdi shekilli, Safar Karimberdilarnikiga qarab yugurdi. Siroj birgadir daladan horib, charchab kelib endigina yonboshlagan ediki, ko'cha eshik taqillab qoldi. Eshikni yugurib borib Sobirjon o'g'li ochdi.

– Yo'q, menga Siroj amakimning o'zlari kerak, – dedi Safar entikib.

Siroj birgadir shoshmasdan, og'rina-og'rina ko'chaga chiqishga majbur bo'ldi:

– Nima gaping bor, bolam? – so'radi u.

– O'g'lingiz rasvo bo'ldi. – shoshilib gap boshladi Safar lofchi.

– Qaysi o'g'lim?

– Sizlarniyam sharmanda qildi, maktabniyam sharmanda qildi.

– Qaysi o'g'lim deyapman?

– Sizning o'g'lingiz urishqoq Egamga qo'shilib avval quyon o'g'irlashibdi, keyin rosa mushtlashishibdi. Butun yarmarka oyoqqa turib ketibdi. Quyonchi qiz o'g'lingizning qulog'ini uzib olganga o'xshaydi, burnidan ham tishlaganga o'xshaydi. Maktabimizzdan borganlar qon oqqanini o'z ko'zlari bilan ko'rishibdi.

– Karimning qulog'ini uzib olishibdimi, – betoqat bo'lib so'radi otasi.

- Keyin bozorqo'm aralashib, ey quyonchi bola, sen bularni kechirsang, senlarga yap-yangi velosipedlarini beradi debdi.
- Karimberdiing velosipedi yo'q edi-ku.
- Sobirjon akasinikini minib borgan ekan... Bo'pti xafa bo'lmanq, bozorqo'm yaxshi odam ekan, o'g'lingizni o'sha qiz bilan yarashtirib qo'yibdi.

Bu xunuk xabar ishdan charchab kelib, beholgina bo'lib o'tirgan Siroj birgadirning ham alamini, ham g'azabini oshirdi. Tabiatan og'ir-bosiq, bo'lar-bo'lmasga hovliqavermaydigan bir kishi edi. O'g'ling o'g'ri degan so'z qulog'idan kirib tovonigacha lovillatib yubordi.

- Yo'qol! – deb hayqirdi loschi Safarga.

Narigi hovlida esa boshqacha hangoma boshlanayotgan edi. Surmaxon avval darvozaning bir qanotini ochib xiyol mo'raladi. Shakarxon aya uyda ekan. Ayvonda surpa yozib, non yasayotgan ekan. Shakarxon ayaning dahshatidan mahalladagi katta-yu kichik bir xilda qo'rqadi. Ayaning dahshatini Surmaxon ham yaxshi biladi. Uning «lazzati»ni bir-ikki bor totib ham ko'rgan.

- Aya, kirsam mumkinmi? – muloyimgina so'radi Surmaxon.

- Ja ko'zimdan uchib turuvding, kirsang kiraver, – jerkiganroq bir ohangda dedi Shakarxon aya.

- Qosimali amakimda gapim bor edi.
- Gaping bo'lsa menga aytaver.
- Yomon gapda, aya.
- Gaping yomon bo'lsa, tezroq chiqib ketaql.
- O'g'lingiz haqida aytmoqchiydim.
- Egam o'lgur haqidami?
- Shu o'g'lingiz sizni doim yomonlab yuradi.
- Bilaman.
- O'gay onam dadamga aldab tegib olgan, deydi.
- Buniyam ko'p eshitganman. Gaping bo'lsa tezroq ayt.
- O'g'lingiz quyon o'g'irlayman deb qo'lga tushibdi.
- Egamning quyon jinnisi ekanligini hamma biladi.

Shakarxon ayaning beparvogina bo'lib o'tirishi Surmaxonga alam qildi. O'zicha juda muhim gap olib keldim,

hayratdan og‘zi ochilib qoladi, g‘azabi qaynab ketadi, deb o‘ylagandi. Yo‘q, unday bo‘lmayapti. Ichidagi shayton qattiqroq tegadigan, achchiqroq gap top deb qistayotganga o‘xshaydi.

- Ayajon, judayam muhim gap aytsam maylimi?
  - Yomon gapmi?
  - Juda-juda yomon gap.
  - Bilaman, Egam seni o‘tgan yili matabingdagi gazetaga chaqimchi deb yozganda, dadang kelib Egamni urgani esimda.
  - Urgani yo‘q. O‘sha urishqoq o‘g‘lingiz qochib qolgan.
  - Xo‘p, chaynalma, aytadigan gapingni tezroq aytqaol.
  - Meni aytdi demaysizmi?.. O‘sha Egam o‘g‘lingiz o‘gay onam o‘z onamga dori berib o‘ldirib, dadamga tegib olgan deb yuribdi.
  - Voy xudoyim-ey, kim aytdi bu tuhmatni.
  - Maktabda hamma biladi bu gapni.
  - Tilingni sug‘urib olaman hozir. Kirib kelayotganingda rangi quting o‘chib turuvdi, yo‘qol ko‘zimdan.
- Shakarxon aya shunday qattiq tutoqdiki, o‘rnidan turib chaqimchini quvlashga ham holi kelmay, g‘azabini bosa olmay qoldi. O‘tirgan o‘rnida ikki guvala xamirni shoshmasdan chiqib ketayotgan qizning orqasidan otdi.
- Voy xudoyim, bu tuhmatchilardan meni qachon qutqarasan,
  - deb qichqirdi-yu, ikki qo‘llab tizzasini mushtlay boshladi.

## O‘n birinchi bob

Bo‘lajak quyonchi fermerlar xayolot osmonida uchib, qalblari to‘la shodligu quvonch bilan uylariga yetib kelganlarida qorong‘i tushib qolgan edi. Har biri o‘z uyiga burilayotganda Karimberdi o‘rtog‘ini to‘xtatib, «demak kelishdik-a», deb so‘radi.

- Kelishdik, gap bitta.
- Demak, ertadan boshlab seni ham ertaroq uyg‘otaman, qanchalik ertaroq tursang ishing shunchalik barakali bo‘ladi.
- Xo‘p dedim-ku o‘rtoq. Quyonlarimizni ovqatlantiramizda, dadalarimizni oldiga borib bir amallab pul olib yarmarkaga uchamiz.

Karimberdi qo'sh qanotli darvozalari tomon yo'naldi. Qiziq, mehribon onajonisi odatda xuston namozini o'qib bo'lgach, joynamozdan turmas, pichirlab duolar o'qirdi. Hozir, negadir, ostona tagidagi supachada mung'ayibgina o'tiribdi. Qiziq, ishqilib tinchlik bo'lsin-da.

- Ayajon! – deb Karimberdi quyonlarini yerga qo'ydi.
- Ovoz chiqarma, – dedi Xolisxon aya barmog'ini labiga bosib.
- Ayajon tinchlikmi?
- Jim bo'l. Velosipeding qani? To'xta deyapman. Ichkariga kirma, dadangni qo'liga tushib qolmagin deb seni poylab o'tiruvdim.
- Ayajon, avval tushuntiray.
- Tushuntirma, tezroq bir go'rga berkingin. O'g'irlik qilganingni eshitib, bechora dadang quturib ketdi hozir.

Xolisxon aya o'g'lini so'zlatgani qo'ymadi-yu tezroq ko'zdan nari ket, biron joyga berkin, deb yolvora boshladи. Siroj bиргадир halol odam, pok yashaydi. Yolg'onchini, qallobni yomon ko'radi. Uzoq yillar guruh-guruh odamlarga rahbar bo'lgan. Qo'lida ishlagan odamlarga ham, katta qilgan to'rt o'g'illariga ham hamisha qattiqqo'l bo'lgan. O'g'illari biron ayb ish qilib qo'yishsa urib-so'kib o'tirmay, jazolash uchun ayvondagi katta ustunga bog'lab qo'ya qoladi. To aybdor aybiga iqror bo'lib tavba qilmaguncha arqonni yechmaydi. Mana hozir ham Sobirjon o'g'li ukasiga ruxsatsiz uydagi velosipedni berib yuborgani, pamildori ektirish o'rniga o'ynab kelishga ruxsat bergani uchun uni ayvondagi yillar o'tishi bilan qorayib ketgan yo'g'on ustunga bog'lab qo'yan. Sobirjon hozir qovog'i solingan, boshi egilgan holda jazo muddatini o'tayapti. Siroj bиргадир bo'lsa o'g'lingiz o'g'rilik qildi degan gapni eshitganidan buyon, quturgan sherdek betoqat bo'lib, hovlida u yoqdan-bu yoqqa borib kelyapti. Agar hozir Karimberdi dadasiga ro'para bo'lsa bormi, uni «burdalab» tashlashi hech gap emas. Onaizor ana shu ko'ngilsizlik bo'lishining oldini olish uchun o'g'lini ogohlantirib, ichkariga kiritmadi...

Egamberdi bo'lsa aqlli, xiyla hushyor, ozroq bo'lsa ham tadbirkor yigitcha emasmi – uylariga dadil kirib bormadi.

Ko'cha eshikni qiya olib ichkariga mo'raladi. Shakarxon aya tandirga o't qalayapti. Salkam ikki yoshga borib qolgan qizalog'i yerda, eski namat ustida nimanidir paypaslab o'ynab o'tiribdi. Egamberdi simto'rdagi quyonlarni yerga qo'yib, singilchasini qo'lga olib, yuz-ko'zlaridan o'pdi, boshi uzra baland ko'tarib:

– Xudo xohlasa, singiljon, ikkovimiz quyon boqamiz, – dedi.  
O'gay onam eshitsin deb bu so'zlarni ataylab baland ovozda aytди.

Shakarxon aya g'alati bir qarash qildi. G'azabmi, nafratmi, shunga o'xhash bir narsa bor edi bu qarashda.

Egamberdi qizchani yerga qo'yib, onasiga yaqinlashib:

– Opajon tandirga o'tni men yoqa qolay, – dedi.

Shakarxon aya avvalgisidan ham xunukroq bir qarash qildi. Demak, uning ichiga allaqachon shayton kirib olganga o'xshaydi. Egamberdi endi biron ish qilib uning qalbini yumshatishi kerak. Muzlagan bu qalbni oddiy so'z bilan ilitib bo'lmaydi. Yaxshisi, opasining qo'lidan ishini olishi kerak. Ishlasang, to'xtamay ishlasang yoqasan unga. Og'ilxonaga kirdi, opasi sigirni sog'ibdi-yu, buzog'i esidan chiqib qolibdi. Buzoqcha onasining emchagini so'raverib puch qilib qo'yibdi. Buzoqni ajratib o'z qozig'iga bog'ladi. Sigiri kunbo'yi och qolganga o'xshaydi, qorni ichiga kirib ketibdi, ayasi daladan bir qop o't qilib kelgan ekan, shundayligicha sigirning oxiriga bosdi. Qop og'ir, juda-juda og'ir edi. Shakarxon aya uni qanday ko'tardi ekan. Shu ishlarni men qilishim kerak edi, deb o'yladi Egamberdi. Ko'nglining qayeridadir aybdorlik hissini tuydi. Onasiga achina boshladi, rahmi kelgandek bo'ldi. Iliqroq bir so'z aytgisi keldi. Shunday bir so'z aytsaki, oldin yetkazgan iztiroblari ham bir yo'la chiqib ketsa, shu opasining yuzida bir tabassum ko'rsa.

– Dadam kelmadimi? – deb sekin gap boshladi u.

Shakarxon aya xo'mrayib qo'ydi.

– Yo men ham dalaga jo'naymi?

Javob qaytmadi.

Shakarxon aya tandirdan non uza boshladi. Nonning xushbo'y, yoqimli hidi Egamning dimog'iga gupillab urildi,

ishtahasini qo'zg'ab yubordi, yaqin borib, savatga qo'l uzatgan ham ediki, Shakarxon ayaning ichidagi shayton nihoyat uni tilga kiritdi:

- Yo'qol! – deb baqirib yubordi.
- Opa!
- Yana o'g'irlilik qilibsan, yetimcha. Sening dastingdan dadang ikkovimiz qishloqdan ko'chib ketamiz shekilli.
- Kim o'g'irlilik qilibdi?
- Velosiped qani, bezori?
- Quyonga almashtirdim.
- He, o'sha quyoning bilan qo'shmazor bo'lgur. Onangni men o'ldirdimmi, qani gapir, tuhmatchi.

Shakarxon ayaning ichidagi shayton bolalab, o'sha bolachalar ham ishga tushib ketdi shekilli, onaning g'azabi shunaqangi oshib ketdiki, yerdagi chaqalog'ini tepib, savatdagagi nonlarni har tomonga otib, bir tayoq qo'liga tushib qolgan edi, o'sha bilan Egamning yelkasiga urib, simto'rdagi quyonlarni ham savalay ketdi. Boshqa iloj qolmadi. Egamberdi simto'rdagi quyonlarini ko'tarib ko'chaga qarab qochdi.

## O'n ikkinchi bob

Ikki o'rtoq darvozalar qattiq yopilib, ko'chaga quvilgach, nima qilishni, qayerga borishni bilmay, garang holatda ancha mahal turib qolishdi. O'zini hamisha ishboshi hisoblab yuradigan Egamberdi «o'rtoq, ishqilib xafamasmissan?» deb ko'ngil so'ragan bo'ldi. Karimberdi sal kulimsirab, ozgina jilmayib, «ey o'rtoq xursand bo'ladigan ish bo'layotgani yo'q-ku», deb qo'ydi.

Yana ikki o'rtoq bir-birlariga qarab jim qolishdi. Jimlikni Egamberdining o'zi buzdi:

- Birov bizni o'g'irlilik qildi, deb aytgan bo'lsa kerak? O'gay onam mendan o'ch olish uchun payt poylab yurardi. O'rtoq, faqat sen xafa bo'lma, meni tashlab ham ketma. Ko'rasan, biz hali millioner bo'lib ketamiz. Esingdami, bitta jurnalni bирgalashib o'qigandik. O'shanda bitta hech kimning e'tiboriga tushmaydigan cho'loq, kambag'al yigit zuluk boqib bora-bora

boyib ketganda, manaman degan boylarning qizi o'zlari sovchi qo'yib, shu yigitga men tegaman, men tegaman, deya janjallashib qolishgan ekan.

– Egam, qo'y endi bu gaplaringni. Bu kecha qayerda yotishimizni o'ylaylik.

Maslahatlasha-maslahatlasha qishloq markazidagi guzarda, Akrom kompyuterchining kompyuter xonasida bir kecha tunashga qaror qilishdi. Karimberdi ketguncha bir narsalar haqida chuqur xayol surib ketdi. Egamberdi bo'lsa kim bilandir urishmoqchidek qo'lining mushtini yozmay borardi.

Xonkeldi qishlog'ida uyali telefon, qo'l telefoni xizmati uncha rivojlangan emas. O'zini tutib olgan daromadi ko'payib borayotgan besh-o'n fermergina ulardan foydalanadi, xolos. Ammo og'zaki telefon xudoga shukur, shunday rivojlanganki, undan foydalanish shunday avj olganki, ta'riflariga so'z topa olmaysiz. Xushxabarmi, shum niyatda aytilgan xunuk gapmi ko'z yumib ochguncha qishloqning u chekkasidan bu chekkasiga borib yetadi. Egamberdi bilan Karimberdilarning savdo yarmarkasida ko'rgan-kechirganlari, so'qmoq yo'lidan yurib uylariga yetib kelguncha, o'sha yerda bo'lgan mashmashalar allaqachon uylariga ham, qishloqdagi eng chekka uylarga ham borib yetgan edi. Eng yomoni u yerda o'g'irlik yuz bergani yo'q edi, ammo og'izdan-og'izga o'tgan yasama gaplar bu ikki aybsiz yigitchani o'g'riga chiqarib qo'ygan edi.

Ikkovlari sim katakdagi quyonlarini ko'tarib Akrom akaning kompyuter xonasiga tortinibroq, uyalibroq kirib borganlarida xonaning bir pallasida tomosha ko'rish uchun dadalaridan pul undirib chiqqan yosh-yosh bolalar kompyuter o'yinlariga berilib tomosha ko'rishar, xonaning boshqa bir pallasida esa yosh-yosh o'smirlar, bo'y cho'zib qolgan yigitchalar chet el videofilmlarini ko'rib o'tirishar edi.

To'satdan har tomondan savollar yog'ila ketdi:

– Egam, o'g'irlagan quyonlaring shumi?

– Quyon emas. semirgan yovvoyi mushukka o'xshaydi-ku. Karim sening qulog'ingni qiz bola tishlab olgan emish, shu rostmi?

- Egam, sen quyon bermayman desa quyonchi bolani tagingga bosib urganmishtan, shu to‘g‘rimi?

Egamberdi nafasini chiqarmay kulimsiragannamo jimgina turardi. Karimberdi goh unisiga, goh bunisiga nimanidir tushuntirmoqchi bo‘layapti. Shu asnoda kutilmaganda, yana bir dilisiyohlik boshlandi. Chet elning ma‘ni-bema’ni videolarini berilib tomosha qilib o‘tirganlar orasida ashaddiy quyonboqar deb nom chiqargan, hozir esa bitta ham quyon qolmay, quyonxonalari huvillab yotgan G‘ulom g‘uppaning akasi Isroil ham o‘tirgan ekan. Sekin o‘rnidan turib, jimgina turgan Egamberdiga yaqinlashib:

- Yaxshi ko‘rgan ukamni nega uyaltiryapsanlar, – deb o‘shqirgan bo‘ldi, – bas qillaring maynavozchilikni, bu ukam bitta to‘rdagi quyonlarni menga olib kelgan, to‘g‘rimi, Egam.

Egamberdi indamadi, yuzidagi haligi jilmayish yana ham kuchaygandek bo‘ldi.

- Gapir uka, bitta to‘r bizniki bo‘ladi, shundaymi?

Hammaning e’tibori Egamberdi bilan Karimberdida, ikkovlari bo‘lsa qanday javob qaytarishni bilmay hayron bo‘lib turishibdi.

- O‘tgan yili bizning bog‘dan quyon o‘g‘irlagansan, o‘shaning o‘rniga olib keldingmi bu quyonlarni?

- Daftarga almashtirganman o‘sha quyonlaringni.

- Keyin kechasi borib quyonlarning eshigini ochib yuborgansan, quyonlar dalaga tarqab ketgan.

- Yolg‘on aytayapsan. Quyonxonaning eshigini tulkilar timdalab ochgan.

- O‘sha tulki tag‘in sen bo‘limagin, uka.

- O‘zing tulkisan Isroil. Nari tur quyonlarimga tegma.

Isroil quyon to‘la to‘rlardan birini qo‘lga oldi. Egamberdi tortib olmoqchi bo‘ldi. Mushtlashib ketishdi. Ikkovi mahallaning bolalari Qibla mahalla bolalari Isroil tomonga, Soy mahalla bolalari Egamberdi bilan Karimberdi tomonga bo‘linishdi. Egamberdi kim bilan mushtlashsa darrov tagiga bosib harakat qilardi, bu gal ham shunday bo‘ldi. O‘zidan bo‘yi ham baland, jussasi ham katta, tanasi ham ancha og‘ir Isroilni bir amallab tagiga bosib, qorniga o‘tirib, o‘ng qo‘li bilan

yoqasini mahkam siqib oldi. Isroil harchand urinmasin, oyoqlarini harchand tipirlatmasin tagidan chiqa olmayapti. Yoqasini ham bo'shata olmayapti.

– Bas qil, o'ldirib qo'yasan, – deb videochi Akrom yugurib keldi. Egamberdining qo'lidan tortib Isroilning ustidan tushirdi. Havo yetmaganidanmi, rangi oppoq oqarib ketgan Isroil anchagacha behol turdi, keyin xo'mrayib:

– Sen o'g'rini shoshmay turgin, ta'ziringni beraman, – dedi va davom etdi, – g'irrom ekansan, chalib yiqitding meni.

– Ukangni ham urganman, bor endi dadangni ham aytib kel. O'sha raislikdan haydalgan dadangni ham bir boplayman.

Videochi Akrom «endi hammang tarqal, hozir uchastka noziri kelib katta-yu kichigingni so'roqqa tutib, mening boshimga g'alva yog'dirasانلار», deb Egamberdi bilan Karimberdini ham qo'llariga to'rdagi quyonlarini berib itara-itara tashqariga chiqarib qo'ydi.

## O'n uchinchi bob

Ichkaridan quvilganlar bo'lgan xunuk voqeанинг «mazasini» tatib ko'rmoqchi bo'ldilarmi, negadir, tarqalgilar kelmayapti. Qibla mahallaning bolalari birlashib Egamberdini g'irromlikda ayblasha boshlashdi. Soy mahalla bolalari:

– Kaltak yedilaringmi, endi dumlaringni likillatmay jimgina ketaveringlar, – deyishyapti.

– Egam g'irromlik qildi.

– Chalib yiqitdi.

– To'g'ri qildi, bopladi.

– Soy mahalla bolalari zo'r, hammangni yiqitadi, – deya bir-birlarini gij-gijlashayapti. Shayton hammalarining ichiga asta-sekin kirib borayotganga o'xshaydi, urishasan, bo'sh kelmaysan, deyotganga o'xshaydi.

– Egam, qaytadan mushtlashasanmi? – deb so'radi bir bola.

– Butun mahallang bilan kel, – degan javobni berdi Egamberdi.

Arzimagan gap, arzimagan narsa bahona bo'lib ikki mahalla bolalarining jiqqamusht bo'lib urishgan paytlari ko'p

bo'lgan. Qiziq, bunaqa paytlarda katta odamlar ham ko'pam aralashavermaydi, goho tomoshabin bo'lib o'tirishaveradi.

Egamberdi simto'rni yerga qo'yib, ikki-uch odim o'rtaroqqa chiqdi. «Kim bo'lsang ham o'rtaga chiq», degan gapni baland ovoz bilan aytdi. Bugun u sobiq raisning ikki o'g'li bilan mushtlashdi, galma-galdan ikkovini ham urdi. Yetimchasan, deb kansitganlari, o'g'risan deb xo'rلانliklari uchun urdi. Qiziq fe'li bor uning: o'zini hech qachon kansitishlariga yo'l qo'ymaydi, kansitgan bola bilan to kechirim so'ramaguncha olishaveradi. Qibla mahalla bolalari darozgina bir o'smirni itarib o'rtaga chiqarishdi-da:

- Egam bilan sen mushtlashasan, mahallani himoya qilasan.
- Men mактабдан haydalgan bola bilan mushtlashib obro'yimni to'kmayman, ahmoqmasman.

Ehtiroslar qizib borayapti, hayajonlar oshib borayapti. Tarafkash bo'lib kelgan bolalarning ichiga kirib olgan katta-kichik shaytonlar tez bo'l, bo'sh kelma, deb qistab ham turishibdi... Xayriyat, shu vaqtida Fotima-Zuhro opa-singillar qayerdandir paydo bo'lishib, to'planganlarni nari-beri itarishib, o'rtaga kirib kela boshladilar. Tomoshani yaqindan, yaxshiroq ko'ramiz, ertaga maktabga borib rosa maqtanamiz, deb davrani torroq olgan yosh bolalar Fotima bilan Zuhro qiz ularni chetga qancha itarib-surmasin, davrani battarroq qisib kela boshlashdi. Fotima qiz shaddodroq, ham jahldorroq emasmi, bir-ikki bolani qattiqroq itarib yuborgan ekan, ikkovi ham yerga orqasi bilan tushdi-da, bor ovozlarini chiqarib dodlab yuborishdi. Qiz boladagi bunday jur'at Qibla mahalla bolalarining hamiyatini qo'zg'ab yubordi shekilli:

– Mahallamizning bolalarini urishyapti, – deya qichqirdi bir bola. Tamom, har birining ichidagi mudray boshlagan haligi shaytonu shaytonbachchalar tengdan bosh ko'tardi. Yigitcha-yigitcha bilan, o'smir o'smir bilan, bolakay bolakay bilan mushtashib ketishdi. «Tekin tomoshani» ko'ramiz deb qiziqib kelgan qizlar ham bor ekan, hammalari birlashib Fotima bilan qo'rquvdan yuragi duk-duk urib turgan Zuhro qizga hamla qilib qolishdi. Keyin, ko'cha hali qorong'i emasmi, Qibla mahalla qaysi-yu, Soy mahallaning bolasi qaysi, buni ham

ajrata olmay qoldilar. Qaysidir bolaga o'qituvchisi ikki baho qo'ygan bo'lsa, alamini qarshisida turgan boladan olayapti, sigiriga yaxshi ovqat bermay daladan och qolib kelgani uchun onasidan kaltak yegan yana bir bola alamini boshqa bir boladan olayapti...

To'satdan uchastka nozirining dahshat bilan churillagan hushtagi ovozi eshitilib qoldi. Hushtak bir emas, ikki bora, uzoq-uzoq churilladi, g'azab bilan, nafrat bilan, ichi to'la vahima bilan churilladi. Kim qayoqqa qochayotganligi bilinmay qoldi. Ko'z yumib ochguncha ko'cha o'rtasida Egamberdi bilan Karimberdi-yu oyoqlari ostidagi simto'rlarda tinmay urinayotgan quyonlar qoldi, xolos. Uchastka nozirining bezorilar, hammangni qamataman, degan ovoziga eshitilayapti, xolos. Xayriyat, Fotima bilan Zuhro qiz qochib ketishmagan ekan. «Furqat aka, janjalni Qibla mahalla bolalari boshlashdi, boshqatdan mushtlashamiz, deb urish ni o'shalarning o'zları boshlashdi», degan gaplarni aytishdi. «Yana hammadan oldin G'ulomning akasi Isroiil boshladı». degan axborotni ham qo'shimcha qilishdi. Uchastka noziri hayajonlarini goh bosib, goh bosolmay yengil-engil qaltirab turgan Egamberdi bilan Karimberdiga yaqinlashib:

- O'h-o', azamatlar, mashmashani yana boshlabsizlar-da.
- deya do'q urgan bo'ldi.

**Javob qizlardan qaytdi.**

– Furqat aka, janjalni Isroiil boshladı deyapmiz-ku! Uchastka noziri qizlarga, ularning yolvorib aytmoqchi bo'lgan gapiga unchalik e'tibor bermadi. Engashib oyoq ostidagi simto'rlarda pitirlab turgan quyonlardan birini ko'tarib:

– O'g'irlangan quyonlar shularmi? – deb so'radi.

Egamberdi bilan Karimberdi bir ovoz bo'lib «o'g'irlaganimiz yo'q, velosipedimizni garovga qo'yib keldik», degan gapni ikki-uch bor aytishdi. Yo'q, uchastka noziri bu gaplarga qulq solmayapti, aftini g'alatiroq bujmaytirib:

– Egam, Karim sen ikkovlaring ilgari ham quyon o'g'irlagan edilaring, – deb gap boshladı.

– Yolg'on!

– Tuhmat, – deyishyapti yigitchalar.

Uchastka noziri bir so‘zli yigit ekan, gap shu, senlar o‘g‘irlab kelgansanlar, buni ertalab muhokama qilamiz, deb simto‘rdagi quyonlarni ko‘tarib yigitlarni oldiga solib o‘z idorasini tomon olib keta boshladи. Idorasiga borib nima deyishini, nima qilishini bilmay turgan o‘smirlarni, kichikroq bir xonaga qamadi-da:

– Muhokama ertalab bo‘ladi! – deb eshikni ustidan qulflab ketdi.

Ikki o‘rtoq bir-birlariga g‘amgin tikilganlaricha, o‘tiradigan joy ham yo‘q ekan, uzoq tik turib qolishdi. Egamberdi qo‘lini musht qilib, tishini g‘ijirlatib-g‘ijirlatib qo‘yyapti. Uchastka noziridan esa darak yo‘q.

Kutilmaganda deraza orqasidan Fotimaning:

– Uylaringga xabar beraylikmi? – degan vahima to‘la ovozi eshitildi. Egamberdi nima deyishini bilolmay turardi. Karimberdi, xayriyat, o‘zini yo‘qotmagan ekan, past ovoz bilan «kerak emas, bilmaganlari yaxshi», deya javob qaytardi.

– Bo‘lmasa ovqat olib kelaylikmi? – degan ovoz eshitildi tashqaridan.

– Eshik qulf-ku, ovqatni qayerdan uzatasizlar.

– Eshikka nomigagina qulf solingan ekan, qulf likanglab osilib turibdi.

– Uchastka noziri-chi?

– To‘yga olib ketishdi.

– To‘yga?!

– Hamdam akanikida to‘y bo‘layapti.

– Bor ovqatni tezroq olib kelinglar, – mazmunida qisqagina savol-javoblar bo‘lib o‘tdi.

Ovqat olib kelishdi. Shosha-pisha yeishdi ham. Qizlarga qayta-qayta rahmatlar ham aytishdi. Karimberdi gapga uncha aralashmas, zimdan Zuhro qizning nigohini axtarar, Egamberdi bo‘lsa hozirgi kayfiyatiga hech mos kelmaydigan qiziq-qiziq so‘zlarni aytar: «quyonlarimiz ko‘payib millioner bo‘lib ketsak Fotima, senga eshitayapsanmi senga deyapman, mana bu Karimberdidan ko‘zini uzmay o‘tirgan Zuhroga, xudo xohlasa ikkovlaringga bir xil quyonlarimning terisidan palto tiktirib beraman», degan gaplarni shunchaki ko‘ngil ko‘tarish uchun unchalik yuki bo‘lmagan so‘zlarni aytar edi...

## O'n to'rtinchi bob

Qizlar, «eshikni qulfi omonat ekan deb tag'in ketib qolmanglar, yana har xil gaplar ko'payib ketadi, eshikni Fotima bilan Zuhro ham ataylab ochib ketgan deyishadi, bilasizlar-ku sinfimizda chaqimchi qizlar ko'p», degan maslahatni bergen bo'lishdi. Fotima «agar uchastka noziri seni so'roq qilsa, qo'rhma, men haqiqatni aytib guvohlik beraman, xudo xohlasa seni himoya qilaman», dedi. Egamberdi qizning bu gaplaridan to'lqinlanib ketgandek bo'ldi, nazarida ko'zlariga nam ham keldi shekilli, yoshlarini kafti bilan artib «Fotima sen yaxshisan, hamma qizdan yaxshisan, juda-juda yaxshisan», dedi. Karimberdi bo'lsa Zuhro qizning hayajonidanmi yengil-engil titrab turgan do'mboq-do'mboq barmoqlarini qo'yvorgisi kelmay uzoq ushlab turdi-da, «xudo xohlasa, bizni qamashmaydi», deb qo'ydi. Qizlar ketdi. Yigitchalar kuchli hayajon ichida o'zлari ham nomini bilmaydigan kuchli hissiy to'lqin og'ushida o'yga tolib o'tirishdi. Uzoq jim qolishdi. Karimberdi uf tortib, yengilgina bosh chayqab:

– Egam, kimdir bizdan oldin kelib uylarimizga kirib o'g'illaring quyon o'g'irladi, deb yolg'on-yashiq gaplarni aytgan bo'lsa kerak. Sening-cha bu gapni kim aytgan bo'lishi mumkin. Egam, buncha o'yga tolding, gapirsang-chi.

– Kim bo'lardi, yo G'ulom g'uppa yoki Shokir bo'ladi-da. Bugun tuman markaziga borgan barcha o'quvchilarining nomini birma-bir sanab chiqdilar. Qancha bosh qotirishmasin. kim chaqimchilik qilganligini o'ylab topa olmadilar.

– Yaxshisi qochish kerak bu yerdan, – dedi Egamberdi keskin o'rnidan turib.

– Ruxsatsiz ketishga haqqimiz yo'q-ku, – e'tiroz bildirdi Karimberdi.

– Bizni so'roq qilmay qamab ketishga uning haqqi bormi bo'lmasa?

– Egam u nohaq bo'lsa jazosini xudo beradi.

– Uchastka noziri masjidga borib oq do'ppi kiyganlarni haydagani esingdami?

– Hozir o'rtoq, kimnikiga ham borardik, buning ustiga quyonlar ochligini ham ko'rib turibmiz.

To'g'ri quyonlar och, buni ikkovlari ham ko'rib turishibdi. Shu quyonlar uchun ham qochish kerak. Xo'sh, qochganda kimnikiga borishadi: uylarigami, ikkovining ko'cha eshigi taqataq yopilgan-ku. Himoya so'rab sinf rahbarlari Hamidova opanikiga borishsa-chi, yo'q, yo'q, uning eri badjahlroq odam. Maktabga borib Universal bobodan, bir kechagina quyonlarimiz siznikida tursin, deb so'rashsa-chi?! Yo'q, yo'q, bu gap direktor Azizov domlaning qulog'iga borib yetsa-chi... Hay-hay bechora cholni darhol maktabdan haydaydi-ya.

– Uh! – deb yuborishdi ikkala yigit birdaniga.

– Nima qilish kerak? – deb so'rashyapti bir-birlaridan.

– Olloh ko'nglimga soldi, – deb quvonch bilan o'rnidan turib ketdi Karimberdi, – o'rtoq turaqol, masjidga boramiz.

O'rta masjidning hovlisi keng, hovli atrofiga pastak-pastak uylar qurilgan, xayri-xudoyi qiluvchilarga, arvohlarga atab is chiqaruvchilarga, masjidning ul-bul narsalarini saqlashga atab talaygina pastu baland uychalar qurib tashlashgan. Eng muhimmi, Muazzin bobo Karimberdini jonu dilidan yaxshi ko'radi. Bu bobo ilgari muallim edi, muallim bo'lgani uchun ham bolalarni yaxshi ko'radi...

Xayriyat. Muazzin bobo hali uyg'oq ekan. Ularni iliqqina kutib oldi. Akrom akaning kompyuter xonasi oldida bo'lib o'tgan mashmashani eshitib, tafsilotini kimdan so'rasam ekan, deb o'tirgan ekan. Egamberdi bilan Karimberdi biri olib biri qo'yib, ushbu mo'ltilab turgan, ochqolganidan betoqat bo'layotgan quyonlarga aloqador voqealarning hammasini ipidan-ignasigacha so'zlab berishdi. Hatto keyinchalik millioner bo'lib ketishsa Karimberdining otasiga yangi traktor olib berishmoqchi, ikkovlariga ona bo'lgan Sobiraxon ayaga oq marmardan yodgorlik o'rnatmoqchi ekanliklarini hayajonga to'lib-toshib so'zlab berishdi. Yaxshi niyatimiz borligini eshitsa, zora Muazzin bobo bizni qabul qilib, joy bersa deb ataylab hayajonlarini oshirib, sal yig'lamsirabroq so'zlashdi.

– Voy o'g'llarim, yaxshi niyat qilgan ekansizlar, yaxshi-yaxshi orzular qilgan ekansizlar. Shu niyatlarining uchun Olloh sizlarga oppoq-oppoq quyonlarni ro'para qilibdi. Bu

jonivorlarning yunglari mayinligini, oppoqligini qaranglar, xuddi jannat suviga yuvilgandek yal-yal yonib turibdi-ya... Ha, ha, xudo sizlarga oq yo'l beribdi. Qaranglar, bu quyonlarning sizlarga talpinib turishini.

Muazzin bobo yigitchalar yo'q, yo'q, deyishlariga qaramay elektr choynakda choy qaynatib berdi, nonqutida burda-burda nonlar, yarim-yarim sindirilgan mayda patirlar-u, qatlamalar bor ekan, dasturxonga uyib tashladi. «Niyatlaring yaxshi, yaxshi niyatlilarga Olloh yo'l beradi, mana bugun Olloh sizlarni yana bir sinab ko'ribdi, ey o'g'illarim, bandasi dunyoga kelibdiki, har kuni sinovda bo'ladi, sinovdan o'tuvchilarining niyati yaxshi bo'ladi, qalbi toza bo'ladi». Egamberdi ham Karimberdi ham kunduzgi-kechgi alg'ov-dalg'ov voqealar to'lqinida bo'lib anchagacha uxlay olmadilar. Har biri o'z o'yi bilan band edi. Egamberdi to'satdan marhum onasini eslab ketdi. Onajonisi bog'chada mudira edi. Ayajon, meni Shohimardon sayliga olib borasiz, deb rosa qistadi. Mayli, shu o'g'limni bir xursand qilay, yakka-yu yolg'izim bir yayrasin deb, yoniga uchta tarbiyachi opalarni olib Shohimardon sayliga borgan edilar. Opalar soyliq ichida, kiraga olib borgan mashinalari ichida uplashdi. Egamberdini esa yuqoridagi lagerda joy bor ekan deb o'sha yerga joylashtirishdi... Falokat oyoq ostida deganlari rost ekan. Chotqol tog'i tomonga qurilgan, dengizdek katta suv ombori urib ketib, soyloqda dam olayotganlarning hammasini yumaloq yostiq qilib tosh-ni shag'allarga aralashtirib ketdi. Dam oluvchilarining ko'pi nobud bo'ldi, ko'pi majruh bo'ldi. Sobiraxon aya bosh bo'lib borgan ayollarning uchalasi ham nobud bo'ldi, ayaning o'zini esa yarimjon holida toshlar ostidan kavlab olishdi. Ayajonisi uzoq yotdi, uni ko'rmagan doktor, kelib qaramagan tabib qolmadi. Baribir uning dardiga davo topilmadi. «Agar men onajonimni sayilga olib borasiz deb qiyin-qistovga olmaganimda, ehtimol, mehribonim olamdan o'tmasmidi?.. Men aybdorman, men sababchiman», deya, Egamberdi sakrab o'rnidan turib ketdi. Xayriyat, Karimberdi uyg'oq ekan. O'rtog'ini yoniga tortib, ko'nglini ko'taradigan, do'stini yupatadigan so'zlar ayta boshladi.

## O'n beshinchi bob

Muazzin bobo mehri daryo bir kishi ekan, yigitchalar o'rnilaridan turguncha nonushta ham tayyorlab quyibdi, dasturxon yana boy bo'ldi, yeguliklar mo'l bo'ldi, to'yib-to'yib ovqatlandilar. Ikkovlarining qalbida uchastka noziri bizning bu yerdaligimizni eshitsa darhol yetib keladi, yetib keladi-yu, olib ketib yana qamaydi, degan tashvish bor edi, tashvish juda zo'r edi.

– O'rtoq endi nima qilamiz? – deb so'radi Karimberdi. Odatda, ikkilangan paytlarida, ko'pincha, hal qiluvchi gapni Egamberdi aytardi, odatda aytgan gaplari to'g'ri ham bo'lib chiqardi.

Lekin bu gal Egamberdi tayinli javob aytmay, yelkasini qisib qoldi.

– Uyimizga borsak-chi? – yana savol berdi Karimberdi.

– Uchastka noziri uyimizda kutib turgan bo'lsa-chi.

– Unda dalaga boraylik. Otalarimizga bo'lgan voqeanning hammasini aytsak.

– Yo'q Karim, katta xatolar qildik, ruxsatsiz ish qilib qo'ydik. Mayli, sen borsang boraqol, men quyonlarni topshiraman-da uyimdan ketaman, butunlay ketaman. Uyimizniyam, o'gay onamniyam, mакtabniyam hammasini yomon ko'raman, bo'lar-bo'lmasga qulog'imizdan cho'zavergani, qamab qo'ygani uchun direktorniyam yomon ko'raman.

– Men-chi, meniyam yomon ko'rasanmi?

– Yo'q, o'rtoq. Biz bir onani emib katta bo'ldik, bir onaning tarbiyasini oldik, seni o'la-o'lguncha yaxshi ko'raman, doim ko'nglimni ko'tarasan. Ochig'ini aytaymi?

– Ayt-chi.

– Aytsam, o'lGANIMdan keyin ham seni yaxshi ko'raman.

Quyonlarni Muazzin boboga qoldirib, «bolalasa, xudo xohlasa, nabiralaringizga bittadan beramiz», degan gaplarni aytishib, ikkilana-ikkilana, nima bo'lsa ham, peshonamizdan ko'rdik deyishib, oldin sen gapirasdan, oldin men gapiraman deyishib, qo'rqa-pisa fermer otalari huzuriga jo'nashdi.

Borishsa Karimjonning otasi ham, Egamberdining otasi ham, yerkari boqamti emasmi, bir bo'lib ishlashyotgan ekan. Goho-goho ana shunday bir-birlari bilan bиргалашиб ishlashar, tig'iz bo'lib qolganda bir-birlariga yordamga ham kelishardi. Bugun Egamberdilarning bir gektarli cho'zoq paykalida makka ekishyapti, uyali qilib ekishyapti. Demak, kecha Siroj birgadir amaki ishlatgan ularni, suv chiqarish uchun uzoqdan chim tashishgan. Chim bosish oson emas, ko'pchilik bo'lish kerak. Mana bugun Siroj birgadir bilan Qosimali suvchi amakilar yonma-yon bo'lib, Sobirjon bilan Shakarxon aya ham yonma-yon bo'lib makka ekishyapti. To'rttovlari ham Karimberdi bilan Egamberdiga bir-bir qarab qo'yishdi. Nigohlarida rahm-shafqat yo'q. Hech kechirib bo'lmas gunoh qilgan odamga qaragandek qarashyapti. Ikkı o'rtoq tik turib qolishdi. Nima qilishni bilishmayapti. Nihoyat, Shakarxon aya ishni to'xtatib yigitlarni yoniga chaqirdi.

- Qayerda edilaring? – deb sovuqqina qilib so'radi.
- Machitda edik, – deyishdi yigitchalar.
- Dadalaring axtarmagan joy qolmadi. Milisaxonanining qulfini nega buzdilaring? Uchastka noziri ham axtarib yuribdi sen bezorilarni.

– Milisaxonanining qulfi buzuq ekan, – tushuntirmoqchi bo'ldi Karimberdi.

– Aslida o'zlarining buzuqsanlar. Senlar bilan kechqurun dadalaring gaplashadi... Ho'v narida qoziqchalar bor, bittadan olib ekishga tushinglar. Dadalari bu yerda o'lib tirilib yotishibdi-yu, ular tuman markaziga borib bezorilik qilishibdi.

Quyon haqida, bugun quyon egalariga pul olib borishlari kerakligi haqida gap ocha olmadilar. Qattiqroq ishlasak ota-onalarimizning qahri yumshab qolar deb ishga astoydil, juda-juda astoydil kirishdilar. Tez-tez ota-onalariga qarab-qarab qo'yishadi. Ularning qanday fikrdaliklarini bilgilari keladi. Albatta beso'roq, ruxsatsiz qilganlari uchun, qilmishlari katta janjalga aylanib ketgani uchun, bir kunda bir emas uch marta mushtlashganlari uchun albatta ota-onalari jazo beradi, bu aniq, lekin qanaqa jazo bo'larkan?

Bir qarasang ta'riflarga sig'maydigan darajada mehribon, bir qarasang o'ta ketgan darajada qattiqqo'l shafqatsiz Siroj bиргадир амаки буларни язосиз qoldirmaydi. Hech bo'lmasa hovlidagi qorayib ketgan ustunga bir kunga bog'laydi. Qosimali suvchi amaki yakkayu yolg'iz o'g'lini yaxshi ko'radi. Buni menga Olloh berdi, Egam berdi deb erkalaydi. Yaxshi ko'rgani uchun ham bo'tar bo'lmasga, goho ko'chadan mushtlashib kelsa ham, o'gay onam meni ko'z ochirtirmayapti deb yomonlasa ham, baribir, yakka-yu yolg'iz o'g'lini yaxshi ko'radi. Qilgan mayda-chuda ayblarini kechirib yashaydi, katta bo'lsa esi kirib qolar, deb qo'ya qoladi. Lekin hozir, shu paytda loqal bir qarab qo'ysa yaxshi bo'lardi.

Demak ikki otaning fikri bir, jazo qattiq bo'ladi, juda-juda qattiq bo'ladi.

Yigitchalar, ikkovlari ham eslarini tanigandan buyon yer ichida, otalarining yonida mehnat qilib katta bo'lgan emasmi, bu gal ham avvalgilaridan ham qattiqroq, berilibroq ishlay boshladilar. Qattiq ishlasak otalarimizning qalbi yumshab, mehrilari tovlanib qolar, degan umid hech tark etmayapti ularni.

Otalari ovqatga o'tirishdi, lekin ularni chaqirishmadi. Sobir akasi bilan Shakarxon aya ham o'rtalariga dasturxon yoyishdi, lekin yigitchalar tomonga hatto qarab ham qo'yishmayapti. Kech bo'ldi. Shakarxon aya kun bo'yi akillab yig'lab onasiga yaxshi ishslashga xalaqit bergen qizchasini ko'tarib jo'nab ketdi. Tushunarli, u endi hasharchilarga kechki ovqat tayyorlaydi. Sobir akasi bo'lsa yelkasiga ketmon olib dasht tomonga chiqib ketdi, suv ochib keladi shekilli. Qorong'i tusha boshladidi. Ikki o'rtoq hali ekishdan bosh ko'targanlari yo'q. Oxirgi umid yana o'zlaridan, qattiq-qattiq ishslashsa bugungi ayanchli ahvollaridan terlab-pishib qilgan mehnatlari ularni bugungi ko'ngilsizlikdan qutqaradi. Ishslash kerak. Tezroq ekish kerak.

Nihoyat, Siroj bиргадир, u ham charchadi, shekilli o'ng qo'lini beliga qo'ygancha asta-sekin yaqinlashib kela boshladidi. Yigitchalar boshlarini ko'tarishdi, ma'yus ko'zlarida yolvorish, iltijo nurlari xiragina yonib turardi.

**Otaning hukmi qattiq bo'ldi:**

– O‘zboshimchalar, ikkovlaring ham jo‘nanglar endi. Hozir borib uchastka noziridan kechirim so‘ranglar. Kechalab bo‘lsa ham quyonlarni qayerdan olgan bo‘lsanglar egasiga topshiringlar. Bo‘lmasa ikkovingni ham mana shu qari tutga bir haftaga boylab qo‘yaman, keyin kuningni ko‘rasanlar.

## O‘n oltinchi bob

Muazzin bobo nafaqat odamga, balki hayvonlarga ham mehrli ekan. Oq pahlavonlarga yaxshi qarabdi, simto‘rlarini to‘ldirib xudoyi qilganlardan qolgan sabzi, karam po‘choqlar solibdi. Quyonlardan ko‘ngli tinchigach, ikki o‘rtoq goh unisinikiga kirib, goh bunisinikiga kirib maslahat ustiga maslahat qilishyapti. Oq pahlavonlarni egasiga topshirmslik uchun albatta pul kerak, juda katta pul kerak. Lekin pulni qayerdan topishadi, kimdan so‘rashsa bo‘lar ekan. Uyala-uyala Muazzin bobodan so‘rashgan edi, g‘alati odam ekan, machitga qadam qo‘yanidan buyon qo‘limga pul ushlaganim yo‘q, dedi. ...Karimberdining onasi o‘g‘lini ertalabgacha bag‘riga bosib, boshlarini silab chiqdi. Marosimlarga qatnashib turadi, ba’zan boshqaradi ham, pul tushadi, ko‘p-ko‘p tushadi. Puli bor albatta. Lekin, afsus, o‘g‘ilginam, qattiqqo‘l otang mening gapimni ikki qildilaringmi deb, ikkovimizni ham ko‘chaga xaydaydi, deb afsuslanadi. Bu alamli gaplarni ayta turib o‘g‘lining yuz-ko‘zlaridan qayta-qayta o‘pib ham qo‘yadi.

Egamberdi ham tuni bilan uxmlamay chiqdi. Besh-o‘n ming bo‘lsa mayli edi-ya, o‘ttiz mingga, o‘ttiz mingni kim ham berardi menga deb o‘ylaydi. O‘gay onasida pul bor. Egamberdi har yakshanbada bozorga sut, qatiq, qaymoq olib borib sotadi. Qancha pul tushsa, bitta yarimta muzqaymoq olib yesa yeydi, bo‘lmasa pulning hammasini shundayligicha o‘gay onasiga topshiradi. Onasi bu pullarga bilaguzuk olaman, deb yig‘ib yuribdi. Shuning uchun u pul bermaydi, o‘lib qolsa ham bermaydi!

Eh deydi-da, Egamberdi o‘z onasini o‘ylab ketadi. Qo‘l oyoqlari singan, butun borlig‘i majaqlangan holda naq ikki yilcha yotib qoldi. Egamberdi yosh bo‘lsa ham ovqat

pishirishni, uy-ro'zg'orga qarashishni o'rganib olgan. Hatto, qo'shnilarini hayron qoldirib sigir ham sog'adi. Onajoni bo'lsa ko'zlarini mo'ltilatib qarab yotadi, goh ana shu mo'ltilab turgan ko'zlaridan duvetib yosh to'kilib ketadi, chuqur-chuqur xo'rsinadi. Egamberdi sekingina kelib onajonining yonginasiga o'tiradi, qoq qurib, etsiz bo'lib qolgan qo'llarini ohista-ohista silaydi, o'pib-o'pib qo'yadi.

– Dadangga ovqat olib qo'ydingmi? – ko'zlarini yarim ochib so'raydi onaizori.

– Olib qo'ydim, – deydi Egamberdi allaqanday qoniqish, mammuniyat bilan.

– Sigirniyam sog'dingmi?

– Sog'dim, ayajon, faqat sutni oz berayapti-da.

– Shakarxon ayangga sog'dirsang bo'lardi.

– O'sha opani yomon ko'raman.

– Unday dema o'g'lim, u yomon ayolmas.

– Xamirniyam chala ko'ptiradi, sigirniyam chala sog'adi, idish-tovoqniyam chala yuvadi.

– Unday dema, o'g'lim.

– Ayajon, oyog'ingizni uqalaymi?

– Oyog'im hech narsani sezmayapti, polvonim.

– Bo'lmasa doringizni surtaymi.

– Yo'q hech narsa sezmayapti, mayli meni quchoqlagin, qattiqroq quchoqlagin, ha, ana shunday, barakalla azamatim. O'g'lim, pahlavonim, dadangga ehtiyot bo'lgin, dadang bechora juda go'l, sodda, hamma aldab ketaveradi... Keyin o'g'lim o'qigin, oliy ma'lumotli bo'lgin.

– Ayajon, yig'lamang, bo'ldi, oliy ma'lumotli bo'laman, oliy ma'lumotli fermer bo'laman, quyonlar boqaman.

– Dadanga qiyin bo'ladi-da, o'g'lim.

– Ayajon, yig'lamang.

– Senga ham oson bo'lmaydi, dilbandim. Endi o'g'lim, bor toshqinda halok bo'lgan tarbiyachi opalaringni bir ziyorat qilib kel.

– Kecha bordim-ku.

– Yana bor, har kuni borgen... Boraqol, men ozgina mizg'ib olay.

Egamberdi istamaygina qabristonga jo'naydi. Mana, toshqinda halok bo'lganlarining biriga past, biriga baland, biriga oq, biriga qora marmardan yodgorliklar qo'yilgan. «Ayajonim nega meni hadeb qabristonga bor, tez-tez bor deb o'sha yoqqa qistayveradi yoki men ham olamdan o'taman, sen ham menga yodgorlik qo'yasan demoqchimi yoki hamma vaqt bilan olamdan o'tadi, men ham o'taman, buning ajablanadigan joyi yo'q, ko'p yig'lama, o'zingni yo'qotma demoqchimi?», deb o'laydi-da, o'ylagan o'ylaridan birdaniga seskanib ketadi. «Yo'q, ayajonim o'lmasligi kerak, o'lmaisiz ayajon», deya qabrlarni ortda qoldirib uyiga tomon shoshadi...

– O'rtoq, nega buncha qovog'ing osilib ketibdi, – deb Karimberdi baland ovozda gapira boshladi, – hozir men seni xursand qiladigan bir gap aytaman.

– Meni hozir puldan boshqa hech narsa xursand qilmaydi, – sekin o'rnidan turib o'rtog'ini qarshiladi Egamberdi.

– Men Sobiraxon ayamizni ko'rdim, tushimda ko'rdim. Arshi a'loga yaqin joyda, Ollohnning nazari tushib turgan joyda ko'rdim. Hammayoq oppoq nur ichida chayqalarmish. Daraxtlarning yaproqlari ham sarg'ish nurlar ichida yal-yal yonarmish.

– Ayajonim oq rangni yaxshi ko'rardi, – xo'rsinib qo'ydi Egamberdi.

– Oq nurlar ichida har biri chinni kosadek keladigan qizilsariq gullar tovlanarmish. Bir mahal hammayoqni oq, oppoq quyonlar bosib ketgandek bo'ldi. Sobiraxon ayam ana shu oq quyonlar orasidan o'tib men tomonga kela boshladi. Bular mening oppoq qizlarim, oppoq o'g'llarim deb bitgasini qo'liga olib, oppoq-oppoq yunglаридан mayin-mayin silab qo'ydi. Bir mahal qarasam oppoq quyonlar oppoq-oppoq kiyangan bog'cha bolalariga o'xshab borayotgan mish, qo'llarini silkitar emish.

– Karim, ayajonimni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi, – entikib hayajon ichida so'radi Egamberdi.

– Ha, aniq ko'rdim. Xursand bo'lishimiz kerak. Demak Egam, bekorga bizga oq quyonlar uchramaganga o'xshaydi. Muazzin bobo bir ko'rishi dayoq bular jannatdan chiqqan deb bekorga oh urib yubormadi. Afsus, dadalarimiz

tushunishmayapti. O'zi umuman, kattalar shunaqa, yoshlarni hech tushunishmaydi, yo'llariga to'g'anoq bo'laverishadi.

Egam yur, eshikni qulfla. Ayam o'rtog'ingni olib chiq, qaymoqqa bulab qatlama pishirganman. Birga nonushta qilasizlar, deyapti. Ayajonim, bilib qo'y, seni yaxshi ko'radi, jonu dilidan yaxshi ko'radi.

– Bilaman Xolisxon ayamning mehribonchiligi bo'limganda men allaqachon bu uydan qochib ketgan bo'lardim.

## O'n yettinchi bob

Xolisxon ayni ko'pincha Otin aya ham deyishadi. Egamberdining ayasi olamdan o'tgach, to o'zini tutib olguncha, to Shakarxon aya Qosimali suvchiga xotin bo'lib kelguncha unga onalik qildi, mehr bilan boshini siladi. Ko'pincha Karimberdi ikkovilariga bir o'rin solib berar, bir xil kiyim tikib berar, bir xilda ovqatlantirar edi. Kechadan buyon ikkovi o'g'illari boshiga quyon tashvishi yopishib olgandan buyon ko'proq Egamberdiga achindi. Chaqirsam-u ko'nglini ko'tarsam, boshini silasam deb o'yladi. Chiqishi bilan bag'riga oldi, peshonasidan qayta-qayta o'pa turib yigitchaning ko'zi to'la g'am, anduh, rangi ham bir ahvoldaligini sezib:

– O'g'ilginam-e, – dedi-yu bir nafas quchog'ida tutib turdi. Endigina dasturxon atrofiga o'tirishgan ham ediki, ko'cha eshik shiddat bilan taqillab qoldi. Otin aya chiqqan edi, eh-he, damino o'ynab ko'p o'tiraverganidan, tekin uchradi, deb tinmay yog'li ovqat yeyaverganidan bo'g'irsoqdek semirib ketgan uchastka noziri turganini ko'rди. Qoshlari chimirilgan, yuzi, ko'zları to'la g'azab. Otin aya darrov fahmladi. O'g'li bilan Eganni so'roqlab kelgan. Oqshomgi g'alvalarni, kechasi o'g'illari uchastka idorasi qulfini buzib qochganini eshitgan qaysi ona darrovgina suyukli farzandlarini militsiya qo'liga topshirib qo'ya qoladi!

– O'g'illarim dalaga, sermer dadalariga yordamlashgani ketgan, uyg'a kiring, aylanay, mehmon qilaman, – degan shirin gaplarni aytib uchastka nozirini iziga qaytarib yubordi. Xayriyat, uchastka noziri mashinasi motorini jahl bilan o't

oldirdi-da, indamaygina jo'nab ketdi. Egamberdi bilan Karimberdi hamma gapni eshitib turishgan edi, tomoqlaridan serqaymoq qatlama ham o'tmay qoldi. Masjidning hovlisidagi kechadan buyon sarson bo'layotgan quyonlarni olib, egasiga topshirish uchun jo'nashdi. Simto'rlarni qo'ltilqlab dala yo'lidan erinibgina yurib borishyapti. Quyonlarni shu yo'l orqali olib kelishgan edi, bamisol uchib kelishgan edi, endi esa oyoqlarini arang sudrashyapti, qo'llaridagi to'rlar ham og'irlik qilayotgandek bo'layapti.

– Karim, jon o'rtoq kel gaplashib ketaylik, yuragim siqilib ketayapti. – dedi Egamberdi.

– Niman gaplashamiz, – so'radi o'rtog'i.

– Sen ko'p kitob o'qigansan. Otin ayamiz ham senga ko'p hikmatlarni aytib bergen... O'shalardan gapirib bergin, yuragim sal yozilsin.

– Kitoblarda kishi qiyinchilikka tushsa, o'zini yo'qotib qo'ymasligi kerakligi haqidagi gaplarni yozishgan.

– Karim, bu gaplaring hammasi eski-ku. Ayajonimiz aytgan gaplardan gapir.

– Bo'pti, aystsam aytaqolay, faqat tezroq yuraylik, bu holda markazga peshinda ham yetib bora olmaymiz. Ayajonim o'qib bergen bir kitobda mana shunaqa so'zlar bor: «Bir yigitcha donishmand boboning oldiga borib, «ey bobojon, hech omadim yurishmayapti, biron maslahat bering», debdi. Donishmand bobo oppoq soqolini changallab turib, «e bolam ishingni qaytadan boshla», debdi. Yigitcha yengini shimarib, belini mahkam boylab ishni qaytadan boshlabdi. Lekin yana omadi yurishmabdi. Yigit xafa bo'lib, yig'lagudek bo'lib donishmand boboning oldiga ikkinchi marta yana boribdi. Donishmand bobo yana oppoq soqolini ushlab turib, «ey bolam, tushkunlikka tushma, omading keladi», debdi. Assuski, bechora yigitchaning omadi baribir kelmabdi. Yigitcha yig'labdi, ko'ksiga urib, donishmand boboning oldiga yana ma'yusgina bo'lib boribdi. Donishmand bobo uzoq o'ylanib turibdi-da, «bolam, omad seni quvib yuribdi-yu o'zing bilmayapsan, hamma ishingni, hamma ishingni deyapman, qaytadan boshla», debdi. Yigitcha hamma ishlarini ipidan-

ignasigacha bir karra o'ylab ko'ribdi-da, yengni shimarib qaytadan boshlab yuboribdi. Qarang, omadi shunaqa yurishib ketibdi-ki tez kunda boyib ham ketib, qo'sha-qo'sha kemalar sotib olgan ekan.

– O'sha yigitcha ham bizga o'xshab quyon boqqanmikan?  
– deb so'radi Egamberdi.

– Bilmadim, – deb qo'yaqoldi Karimberdi.  
– Karim yana bir marta ayt, rostini ayt. Chindan ham tushingda ayamizni ko'rdingmi?

– Ming marta aytdim-ku. Quyonlar orasida farishtalaridek oppoq kiyangan, yuzlaridan nurlar yog'ilib turgan holatida ko'rdim.

– Ayam meni so'ramadimi?  
– Ehtimol so'ragandir, uqlab yotganim uchun eslay olmayapman.

– Karim men ham tushimda ayajonimni ko'rganman. Ayamni emas, men o'zimni ko'rganman. Minglab oq quyonlar orasida yurgan emishman. Quyonlardan bittasi to'satdan, kattalashib-kattalashib, oq otga aylanib qolsa bo'ladimi. Shu paytda to'satdan Muazzin bobo paydo bo'lib qoldi. Men oq otga minaman desam, Muazzin bobo ehtiyyot bo'l, ishqilib belini sindirib qo'yamgin, deydi.

– To'xta-to'xta, – dedi Karimberdi hovliqib, – to'xta, qo'limizdag'i quyonlarni yerga qo'yaylik, sen ham, men ham charchaganmiz. Rostdan ham tushingda ot ko'rdingmi?

– O'lay agar ko'rdim.  
– Egam, esingdami qishda biznikida yotib yurgingingda ayajonim «Tush ta'biri» degan kitobni o'qib bergen edi, esingdami?

– Kitob esimda-yu, lekin nimani o'qib bergenlari esimda yo'q, o'shanda uqlab qolgan bo'lsam kerak.

Egamberdining ruhi g'amgin, yuragiga qil ham sig'maydigan bir kayfiyatni boshidan kechirayotgan edi. O'rtog'i buni sezib turardi. Biron qiziqroq, iloji bo'lsa muhimroq gap aytib qalbini yumshatgisi, qalb tubiga cho'kib yotgan g'am toshini eritgisi kelardi. O'rtog'i ko'rgan. O'zi ko'rgan tushlar haqida oshirib-toshirib, tantanavor bir

ohangda gapira boshladi. Kishi tushida eshak minsa boy bo'lar ekan, ilon ko'rsa xazina topar ekan, oq narsa ko'rsa ruhi charog'on bo'lar ekan, yo'l ko'rsa umri uzoq bo'lar ekan, tuya ko'rsa martabasi baland bo'lar ekan, ot ko'rsa, agar mingan ham bo'lsa, murodu maqsadiga albatta yetarkan.

– Agar sen ot ko'rgan bo'lsang, – hayajonli ohangda dedi Karimberdi, agar otni mingan ham bo'lsang, xudo xohlasa, murodu maqsadimizga yetarkanmiz. Xursand bo'lgin o'rtoq, endi xursandmisan?

– Nega xursand bo'lar ekanman, Karim o'rtoq, – xo'rsinish aralash dedi Egamberdi, – mana bu oq pahlavonlarni bizga qarab mo'ltirab, yolvorib, iltijo qilgandek turishlarini ko'r. Qaragin, oyoqlari bilan mo'ylovlarini silab-silab qo'yishyapti, katta-katta qulqolarini qashlab-qashlab qo'yishyapti... Eplay olmas ekansanlar bizni nega bezovta qildilaring, latta ekansizlar, landovur ekansizlar deyishayotganga o'xshaydi. Karim, biz sharmanda bo'ldik, ustimidzan butun maktab kulayotgandir. Direktorimiz ham ajab bo'ldi deyotgandir, o'gay onam xursand bo'lganidan gadoyga pul atab qo'ygandir... Hammasidan ham ochig'ini aytaymi?

– Aytaqol, Egam, bugun ochiq gaplashadigan kunimiz.

– Men... men Fotimani yaxshi ko'rib qolganman.

– Yaxshi ko'rsang nima bo'pti, hamma ham bir-birini yaxshi ko'radi.

– Yo'q, jon do'stim, tushunsang-chi, men uni sevib qolganman. Butun dunyo ajab bo'ldi deb ustimidan kulta kulaversin, lekin Fotima ustimidan kulta chidamayman. Men bu dunyodan ketaman, butunlay ketaman. Yo ustimidan kulganlardan o'ch olaman, yo ketaman. Xo'rlikda yashashni hecham istamayman.

Egamberdi qaysar, xato bo'lsa ham aytganidan qaytmaydi. Shu paytda jahli baland, alami kuchli, xo'rligi ham oshib borayapti. Yo'q, uni jahlidan tushirishim kerak, so'zidan qaytarishim kerak. Bo'lmasa o'zini bir narsa qilib qo'yishi ham mumkin.

– Qani o'rtoq ayt-chi, ketsang qayoqqa borasan? – deb so'rab ham qo'ydi.

– Biror shaharga boraman-da. Aka-uka Orif, Odillarni bilasan-a, ular hozir shahardagi katta bozorda aravakashlik qilishyapti. Har bittasi kuniga yigirma mingdan ishlarkan, eshiyapsanmi, yigirma ming so'm deyapman.

– Men-chi, sen ketsang men nima qilaman?

– Sen o'zing bilasan. Har kuni qaymoqli qatlama pishirib beradigan mehribon onang, akang, bir urishib, bir orqangni silaydigan otang bor.

– Egam o'la-o'lguncha ajralmaymiz, o'lsak, qabrimiz ham bitta bo'ladi, deb qasam ichdik-ku.

– O'rtoq nima qilay, axir. Mana ularning bizga qarab mo'ltilab turishini qara, qaragin yig'layotganga o'xshaydi, – Egamberdi qo'lidagi to'rni yerga qo'yib qayta-qayta tepinib yig'lab ham yubordi. Karimberdi o'rtog'imning xafa bo'lganini, ko'zida yosh ko'rmasam derdi. Uni chin dildan ukalik mehri bilan sevardi. Hozirgi holatini ko'rib chidab turolmadni. Qo'lidagi to'rni u ham yerga qo'ydi-da o'rtog'ini mahkam quchoqlab:

– Tirik bo'lsak birga bo'lamiz, o'lsak bir qabrga qo'yilamiz!  
– dedi-yu u ham yig'lab yubordi.

## O'n sakkizinchchi bob

Muazzin bobo bu quyonlar jannatdan chiqqan deb aytdi, bu so'zlarni u masjidda – Ollohning uyida aytdi. Hamonki ilohiy quyonlar ekan, endi ularni ehtiyyot qilinglar, deya qayta-qayta takrorladi. Aytgan sari bu so'zlarining chinligiga ishonib borar, quyonlarning mo'ltilab qarashlarini ko'rib chindan ham bizga biron gap aytishmoqchimi, iltijo qilishmoqchimi, deb o'ylab, qayta-qayta bag'irlariga bosib, silab-silab qo'yardilar.

«Ota-onamiz quyonlar tufayli uyga qo'ymadilar, uchastka noziri qamab qo'ydi, aka-uka Isroil bilan G'ulomlar bizni urmoqchi bo'lishdi... Yo'q, nima bo'lganda ham bu oppoq pahlavonlarni endi hech kimga bermaymiz, egasiga ham topshirmaymiz, tog'-toshlarga, dashtu biyobonlarga olib qochib ketamiz», deya o'ylay boshlashdi. Nihoyat, qarorlari qat'iy bo'ldi, Qatron tog'i etaklaridagi adirlar tomon yo'l oladigan

bo'ldilar. Qorong'i tushguncha «Kelin bosdi» dovoniga yetib olsalar bas. Yana ancha-muncha ikkilanishdan keyin tashabbusni o'z qo'liga olgan Egamberdi, «O'sha yoqlarda cho'ponlardan qolgan chaylalar ko'p. Birontasini makon qilib olamiz. Karim, ko'rasan, biz juda zo'r bo'lib ketamiz. Lekin o'rtoq hafsalam pir bo'lganda, umidsiz bo'lib qolganimda, ko'nglimni tog'dek ko'tarding-da», deb qo'ydi. Hovliqib, hayajonli so'zlashib borayaptilar. Qiziq, ko'tarib borayotgan quyon to'la to'rlar endi yana yengil bo'lib qolayotgandek, oyoqlari ham o'z-o'zidan jadal yurib borayotgandek, quyonlar ham tez yuringlar, tezroq yuringlar deb, yoqimli ovoz chiqarayotgandek, bu holatdan o'rtoqlarning yuz-ko'zları ham charaqlab ketgandek, har birining yuzida mammuniyat, quvonch gullari ochilgandek, qalblaridagi shodlik daryo bo'lib toshayotgandek. Qishloq oralab o'tayaptilar.

– Karim, chindan ham tushingda ayajonimni oq quyonlar orasida ko'rdingmi? – so'raydi Egamberdi.

– Ko'rdim, aniq ko'rdim, – deb ta'kidlaydi Karimberdi.

– O'zing-chi, chindan ham tushingda ko'rgan o'sha oq otning mingdingmi, aytdim-ku senga qishlog'imizdagi Alisopol degan chol toqqa ikkita qo'y bilan qochib ketib, o'n yildan so'ng, mingta qo'y bilan qaytgan ekan. Xudo xohlasa biz ham kamida mingta quyon bilan qaytamiz.

– Ehtimol, o'n mingta quyon bilan qaytamiz.

– Quyonlarimiz ko'paysa shaharda parhezlik go'sht do'konini ochamiz.

So'zlasha-so'zlasha, duolar o'qib, mana, qancha qishloq ortda qolib «Zarif devona» guzariga ham yetib keldilar. Endi undan uyog'iga pastu baland adirlar boshlanadi. Xayriyat, guzarda kichkinagina bozorcha bor ekan. Quyonlarga oz-oz sabzi, karam, o'zlariga ham yemak sotib olsalar bo'ladi. Quyonlarni bir chetga qo'yib bozorchadagi narsalarning narxnavosini surishtira boshladilar. Sut-qatiqlar sotib, tomorqadagi sabzi-piyozlardan sotib, sotishga, savdolashishga ancha ko'zi pishib qolgan Egamberdi bu yerda ham ko'p narsani bilishini namoyish qilib, sotuvchi qizlarni kuldirib, savdolasha boshladi. Xaridlari bitguncha quyonlarni har narsaga qizuquvchi non

sotuvchi qizlar, onasidan qurtga pul olib chiqqan yosh-yosh bolalar o'rab olishibdi. Quyonlarning beozorgina, cho'chibgina turishi, goho-goho mo'ylovchalarini siltab-siltab qo'yishi bir qizaloqni boshqalarga qaraganda ko'proq qiziqtirib qoldi shekilli:

– Quyoningizni bir silab ko'rsam maylimi? – deb so'radi Egamberdidan.

– Mumkin emas, – dedi Egamberdi.

– Voy nega? – hayron bo'ldi qizaloq.

– Ular sehrli. Silashdan oldin uch marta «bismillo» deb olish kerak, silayotganingda niyatimga yetkaz, niyatimga yetkaz, deb shivirlab turishing kerak.

Qizaloq simto'rga qo'lini tiqib hurkib turgan quyonlardan birini silab, Egamberdi aytgan so'zlarni pichirlab ayta boshladi:

– Endi haqini to'lamaysanmi? – gapga aralashdi Karimberdi.

– Haqiga qancha beraman?

– Bir kilo sabziga pul bersang bo'ldi.

Qizaloq bozorchadagi sotuvchilardan biri ekan, etagini to'ldirib sabzi olib keldi. Sabzilarni yerga to'kkach, quyonlarni beozorgina qilib yana silay boshladi. Sirli, sehrli narsalarga qiziquvchilar bozorchada ko'p ekan. Quyonlarni sehri bor ekan, shahardagi sirkdan kelishibdi, qishloqma-qishloq yurib tomosha ko'rsatishyotgan ekan, quyonlarning erkagi rom ham ocharkan, degan gaplarni bozorchadagi ayollarning o'zları tarqatib, o'zları ishonib, o'zları yopirilib kela boshladilar. Umidvorlik, sehrli, sirli narsalarga ishonish yoshu qarida bir xil bo'lar ekan. Endi nos, sigaret sotib, savdosi yurishmay mudrab o'tirgan yoshi o'tgan ayollaru nonvoy kampirlar ham kela boshladilar. Birovi non berib ketayapti, birovi yelim xaltada ozgina piyoz berib ketayapti, yaqin atrofida yemakxonalardan birida ishlaydigan ayol ikki shisha shirin suv ham bergandek bo'ldi.

– Egam, – deb shivirladi o'rtog'iga nisbatan hushyorroq, sezgirroq bo'lgan Karimberdi. – tezroq qochish kerak, huv bufetdag'i ayolga qaragin qo'l telefoni bor ekan, kimadir telefon qilayapti, qaragin, yuzida ham vahima bor. Tag'in bizni

sirkdan quyon o'g'irlab kelganlar deb o'ylayotgan bo'lsa, militsiyaga qo'ng'iroq qilayotgan bo'lmasin.

– Qochamiz! – dedi Egamberdi rangi quti o'chib.

Ikki yelim xalta to'la non, sabzi, karam, maydaroq bo'lsa ham kartoshkaga o'xshagan narsalar tushgan ekan. Biri xaltalarni, biri simto'rlarni qo'ltiqlab yo'lga tushdilar. Orqalaridan ergashib, «men ham bir silab ko'ray», deb yolvorgan bolalarga, ertaga xuddi shu vaqtda yana kelamiz, pulni ko'proq olib chiqqanlarga ikki martadan silatamiz, degan gaplarni aytdilar.

Guzardan chiqib tog' tomondan shovillab tushib kelayotgan soy yoqalab yuqorilab borayaptilar. Tez yurish zarur, iloji bo'lsa yugurish kerak.

Chindan ham haligi ayolning qarashlari xunukroq, ko'zları ham bejoroq edi, iloyo, hech qayerga qo'ng'iroq qilmagan bo'lsin-da. Bora-bora dillarini xira qilib turgan xavf chekinayotgan bo'ldi. Ko'ngillariga yana charog'onlik hukmronlik qila boshladi. Shaldirab oqayotgan suvning shaldirashida ularga oq yo'l tilayotgandek bir ohang bordek edi. Uchayotgan qushlar ham, soy atrosidagi pastu baland daraxtlar ham ikkovlariga omad tilayotgandek edi go'yoki.

Quvonchlari cheksiz edi. Dam olgani o'tirdilar. Qorinlari ham xiyyla och qolgan ekan. Quyonlarni silatib olgan non-u mevalarni o'rtaga qo'yib kula-kula yeya boshladilar. Quyonlar ham «savdo»dan tushgan sabzi-yu kartoshkalarni mayda-mayda tishlab, uzun-uzun quloqlarini silkita-silkita, qo'rqa-pisa ovqatlanishga tushdilar.

Yana yo'lga tushdilar. Nimagadir Egamning qulfi dili ochila boshladi. Ko'proq gaplashgisi kelayapti.

– Karim sen ko'p kitob o'qigansan, o'sha kitoblaringdagи gaplardan gapirib ketgin, – deya iltimos qildi. – Men ko'proq esda qolmaydigan kitoblarni o'qiganman. Hozir nimagadir, geografiya muallimiz tog' sayohatiga olib borgan vaqtlar yodimga tushdi. Esingdami. Xonsupada dam olgan edik.

– Esimda, – dedi biroz o'ylanib turib Karimberdi, – men o'sha muallimani juda yomon ko'rар edim. Qachon darsga kirsa erini maqtab vaqt o'tkazardi, erim o'rmonlarda o'lgan,

erim sahro-yu Kabirda bo‘lgan, ostob urib ketishiga sal qolgan, deb yolg‘on gaplarni gapirgani gapirgan edi.

– Egam, yashirmay qo‘yaqol, o‘sha opoy hamisha senga besh baho qo‘yardi. Bo‘pti, jadalroq yuraylik, o‘zing aytganingdek tezroq Xonsupaga yetib olsak marra bizniki.

## O‘n to‘qqizinchchi bob

O‘rkach-o‘rkach bo‘lib bir-biriga suyanib yotgan adirlardan so‘ng poyonsizdek ko‘ringan sayhonlik boshlandi. Bu tog‘larda na bir tup daraxt o‘sadi, na bir tup giyoh bor. Erta bahorda, yomg‘irli pallalarda gurkirab o‘t-o‘lanlar, bir nafaslik lolaqizg‘aldoqlar o‘sadi. Saraton issig‘i boshlanishi bilan yana do‘mboq-do‘mboq toshlaru o‘tkir qirrali mayda-mayda shag‘allardan boshqa hech narsa qolmaydi. Cho‘ponlar ham o‘tloq axtarib yuqorilab ketishadi, dasht yana uvillagan daydi shamollaru yer kavlab tinmaydigan yumronqoziqlar ixtiyorida qoladi. Bu yaydoq dashtlarga xonlar nega toshsupa qurganiga o‘shanda geografiya muallimasi tushuntirib bera olmagan edi. O‘sha gal kelganlarida mana shu yerlarda butun-butun bo‘lgan toshlardan tiklangan katta-katta supalarni ko‘rishgan edi, endi bo‘lsa kavlab ketishibdi. Silliq toshli supalar vayronaga aylanibdi. Supalar yonida cho‘ponlarning pastak-pastak uychalari ham bor edi, bularni ham buzib tashlashibdi...

Egamberdi bilan Karimberdi bu yerga Xonsupani-yu pastak-pastak bo‘lsa ham cho‘ponlarning uychalarini axtarib kelishgan edi. «Kelin bosti» dovoniga yetib olguncha, hech bo‘lmasa bir kecha tunab o‘tamiz deyishgan edi.

Yo‘lda, behuda urinaverib charchab simto‘rni teshib chiqaman, deb betoqat bo‘layotgan quyonlarni yerga qo‘yib, o‘zлari ham muzdek-muzdek toshlar ustiga o‘tirishdi. G‘alati bir kayfiyatni ikkovlari tengdan sezal boshladilar. To‘satdan boshlarini xam qilib oldilar. Bir-birlariga qaragilari kelmayotgandek, so‘yib yeyman, maza qilaman deb kun bo‘yi ko‘tarib yurgan qovunini o‘g‘irlatib qo‘ygan yosh boladek tushkun bir holatga tushib qoldilar. Bu holat uchun aybni kimdan axtarishni bilishmas edi. Charchagan qalblaridagi

Tog‘da qorong‘ulik tez tushar ekan. Quyonlarni ovqatlantirib, o‘zлari ham ul-bul yeb olgunlaricha, atrofga shunday qorong‘ulik tushdiki, shundoqqina oldilarida yengil-engil irg‘ishlab, bir-birlariga ishqalanishib, g‘alati-g‘alati

g'ussani chiqarish uchun biron narsani o'ylab topishni juda ham istashardi. Egamberdi, to'satdan o'rnidan turib, mayda-mayda toshlarni jahl bilan uzoq-uzoqlarga qulochkashlab ota boshladi. «Agar o'sha bizni mana shu yerga boshlab kelgan geografiya muallimini hozir ko'rsam, shu toshlar bilan o'ziniyam, o'rmonlarda adashib qolgan eriniyam rosa

o'yinlar ko'rsatayotgan oppoq quyonlarni sim kataklarga

Ikki o'rtoqning qulfi-dillari ochilib ketdi. Bir tomondan ertangi kunning noma'lumligi, yana bir tomondan atrofni o'rab olgan qorong'ulikning vahimasi, tinmay gaplashishga undar, gaplashsang qalbingdagi vahima, qo'rquv chekinadi, deyotgandek edi. To'satdan qattiq sovuq tushdiki, bamisol charaqlab turgan osmon yerga sovuq havo purkayotgandek bo'lib tishlari taraklay boshladi. Badanimizdag'i harorat havoga uchib ketib qolmasin, deb bir-birlarini achenlab olishdi. Yaqindan, juda-juda yaqindan tulkinining chaqaloqqa o'xshab ingillayotgani eshitildi.

- Tulki yig'layapti! – xavotirlangannamo dedi Egamberdi.
- Bilib turibman, – deb qo'ydi Karimberdi.
- Tulki quyonlarni sezganga o'xshaydi.
- Xudoga shukur qilaylik, bo'ri emas ekan.
- Bo'ri hid bilmaydi-da, bilganda allaqachon yetib kelgan bo'lardi.

Bo'ri degan so'z qalblaridagi qo'rquvni qo'zg'ab yuborganga o'xshaydi. Hali, toshlardan qo'rg'oncha qurayotganlarida yarim qulochcha keladigan temir tayoq topib olgan edilar. Egamberdi shoshilib uni qo'liga oldi. Karimberdi nima qilayotganini anglamagan holda, ikki toshni bir-biriga urib ovoz chiqara boshladi. O'rtog'i ham qo'shildi. Bir nafasdan so'ng hamma yoqni shaqur-shuqur ovoz qoplab ketdi. Jim bo'lib qulq solishdi. Tulki qochib ketganga o'xshaydi, endi yig'lamayapti. Sovuq yana kuchaydi. Bir-birlarining bag'irlariga battarroq kirishdilar. Atrofda sovuq sukunat hukmron. Sovuq sukunat sovuq-sovuq hushtak chalayotganga o'xshaydi.

- Egam, kel gaplashaylik.
- Nimani gaplashamiz?
- Rostini ayt, shu shaddod Fotimani yaxshi ko'rasanmi?
- Yaxshi ko'raman, yana nimani yaxshi ko'raman deymi, muallimlar menga ikki baho qo'yayotganda uning achinib qarashini yaxshi ko'raman, bolalar bilan mushtlashganimda doim mening yonimni olishini yaxshi ko'raman. Direktor kabinetimga nega tosh otding, oynagimni nega sindirding, seni maktabdan haydayman deganda, esingdami, hamma

bolalar, qizlar ham boshlarini mana bunday egib, jim turishganda, Fotima dast o'rnidan turib, ustoz, kabinetningiz oynagini qimorboz bolalar sindirgan, o'z ko'zim bilan ko'rganman, deb aytgan, ana shu aytgan gapini ham yaxshi ko'raman, Karim, bilasan-ku mening mehribon onam ham, senikiga o'xshagan opacham ham, tag'in senikiga o'xshagan qo'sha-qo'sha xolalarim ham yo'q. Fotimaga o'xshagan qiz meni sevishini, ham ona, ham opa, ham xola o'rnnini bosishini istayman, juda-juda istayman... Sen ham Zuhroni sevasan-ku, sen ham uncha-muncha gapir.

– Zuhroni sevamanmi, sevmaymanmi aniq bilmayman. Bir marta do'mboqqina barmoqlarini kaftim orasiga olganimda, butun vujudim lovillab yonib ketgandek bo'lidi... Bu sevgimi, sevgi emasmi, bilmayman.

Tong otguncha uxmlay olmadilar, goh muallimlar haqidagi, goh sinfdoshlar haqidagi fikrlarini bir-birlariga aytib, maqtaydiganini maqtab, ko'ngli to'lмаганларини yomonlab, goh kelajakda qanday qizga uylansalar yaxshi bo'ladi-yu, qanday qizga uylanmasliklari kerakligini haqidagi o'y-fikrlarini o'rtaga tashlab tong ottirdilar.

– Egam, – dedi Karim keskin bir ohangda.

– Nima deysan?

– Sen bir.

– Bilaman.

– Men no'l.

– Bilaman.

– Ikkovimiz qo'shilsak o'n bo'lamiz.

Ikkovlari baravar o'rnilaridan turib:

– Umrimizning oxirigacha hamisha o'n bo'lamiz deya yana bir marta quchoqlashib oldilar.

## **Yigirma birinchi bob**

Sarsonu sargardonlikka tushganlariga mana uch kecha-yu uch kunduz bo'ldi. Tunda sovqotib achenlashib yotadilar. Kunduzi tovonlari teshilgudek qirrali toshu shag'allarni bosib yo'l yuradilar. Goh balandroq adirga chiqib, o'ngu so'lga qarab

**IKKINCHI QISM****SANDIQ TO'LA TILLALAR****Birinchi bob**

Eshon ayaning bu dunyoda siniq ko'ngliga orom beradigan, ovutadigan oppoq-oppoq oltita ona tovug'i, sersutgina ona-bola echkisi, sariq yungli, peshonasida ko'rmsizgina qashqasi bor, yuvoshgina, sichqon ushlab yeyishdan ko'ra tayyor go'shtni xush ko'radigan mushugi, pak-pakana, mo'ylovdor, astoydil vovillas ovozi olamni buzib ketadigan zotdor kuchugi, yuz yillardan buyon tomlar bo'g'otida yashab, goh ko'payib hovlini to'ldirib, goho ozayib ikkitagina bo'lib qoladigan ko'k kaptarlari ham bor.

Eshon aya ana shular bilan ovunib yashaydi. Ho've narida; alohida devor olib o'rab qo'yilgan bobokalonlari bo'lmish Sayid Jalolxon Eshon, Sayid Xodixon Eshon, Sayid Hoshimxon Eshon hazratlarining oq bo'rdan tiklangan qabrлari bor. Eshon aya shularni supurib-sidirib qalbiga taskin topadi, ko'zlarini yumib uzoq-uzoq tilovat qiladi, savobini umidvor bo'lganlarga bag'ishlaydi.

Goho Qur'onu sharifni bag'rilariga mahkam bosib qizil shapkali milisalar oldiga tushib, ko'zlarida yosh bilan jimgina chiqib ketgan Eshon otasini, goho urush ayni avjiga chiqqan pallada yelkasiga oziq-ovqat to'ldirilgan qopni olib, ha endi taqdir ekan-da, deya harbiy batalonga jo'nab ketgan tegrimonchi erini, goho kattasi o'n oltiga kirgan Anorvoy, kichigi Bo'rivoyni endigina o'n beshni qoralab turganda, askarga borasan, deb miltiqqli kishilar qo'llaridan sudrab olib chiqib ketganini, o'g'illari ayajon deya, bo'yinlariga osilgan daqiqalarni eslab ketadi, ana shularning xotiralari bilan yashaydi.

Ko'p o'ylaganidanmi, tush ko'rmagan kunlari ham kam bo'ladi. Bu kecha yana tongga yaqin yarim mudroq, yarim uyg'oqlik o'rtasida bir tush ko'rdi... Erta bahor pallasi emish,

atrof ko'm-ko'k yashnab, gurkirab ketgan emas. Bo'rivoy bilan Anorvoy adirlarga qo'y haydar ketgan pallasi emish. Qo'ylari qo'zilab, biryo'la ikkita tug'ibdi-ya, jonivor! Bo'rivoy bir qo'zini, Anorvoy yana bir qo'zini bag'rilariga bosishib, ba-balab kelayotgan ona qo'yni orqalaridan ergashtirib, quvonchlar olamga sig'mas darajada hovliqishib, quvonchdan yuz ko'zları lov-lov yonib kirib kelishayotgan mish, «ayajon, suyunchi bering, qo'yimiz ikkita tug'di», deb shodlanishar emish, yosh bolalardek sakrab-sakrab qo'yishar emish.

Ovozi kuchli it qattiq vovillab Eshon ayani uyg'otib yubordi. Aya yaxshi tushning davomini istab yana ancha mahal jimgina yotdi. Yo'q, it qurg'ur qo'ymayapti, to'xtamay etaklaridan tortqilayapti. Qiziq, nega bunday qilyapti ekan? U o'rnidan turgan edi, it jonlanib, etakni battaroq tortqilab bog' tomonga sud'ray boshladidi. Qiziq, it tortib borayapti, Eshon aya yo tavba, deb ergashib borayapti... Yo olloh, bu qanday sir, qanday sinoat?! Ikki o'smir quyon to'la ikki to'rni quchoqlab yotibdi. Ikkovi ham uyg'oq, jovidirabroq, tikilib turishibdi, birin-ketin o'rinalardan ham turishyapti... Qarshilarida novcha bo'yli, yelkalari xiyol oldinga egilgan, oriq, qotma, boshdan oyoq oppoq sarpoga o'ralgan bir kimsa turibdi... odammi yo farishtami bu? Karim asta-sekin o'ziga kelib Eshon ayani tanigandek bo'ldi, onasi bilan ayani ziyyarat qilgani kelganlarida shu ayani ko'rgan edi, ha, bu o'sha, farishta emas.

- Ayajon, - deya Karim entikib ketdi.
- Yaxshi niyatda kelganmiz, quyon boqmoqchimiz, - deb Egamberdi ham shoshilib gapira boshladidi.

Yigitchalar yolvorsak, xayrli ishlar qilmoqchi ekanligimizni ochiq-oydin aytsak, zero, bizga mehr ko'rsatsa, deb to'xtamay iltijo qila boshladilar. Goho nima deyotganlarini o'ylab ham ko'rishmas, biri olib biri qo'yib bir gapni qayta-qayta takrorlar edi:

- Karimning otasiga traktor olib bermoqchi edik.
- Vafot etgan ayamizga oq marmardan yodgorlik qo'ymoqchi edik.
- Jon aya, haydamang, bog'ingizni obod qilamiz.
- Uch kundan buyon ovqat yeganimiz yo'q.

Eshon aya nihoyat o'ziga keldi shekilli:

– Qani, chuqurdan chiqinglar-chi, yaqinroqqa kelinglar-chi, – dedi. Yigitchalar sevinishib Eshon ayaning oldiga shoshilib borishdi, uning yonida qo'l qovushtirgancha turardilar. Eshon aya bolalarga yaqinroqdan, sinchiklab tikilib qarar ekan, qaragani sari birining qiyofasida Bo'rivoyning, boshqasining qiyofasida Anorvoyginasini ko'rgandek bo'laverdi. Hayratlanarr, termulgan sari taajjubi yana ham oshgandek, hozirgina ko'rgan tushini qaytadan o'ngida ko'rayotgandek bo'laverdi.

Yigitchalar hamon biri olib biri qo'yib gapirar, boshidan kechirganlari – quyonlar bilan qishloqdan haydalganlari, tog'u toshda sarson bo'lib ovqatsiz qolganlari, masjidda tunaganlari, Muazzin bobo quyonlar jannatdan chiqqanga o'xshaydi, ehtiyyot qilinglar, deganlari-yu yana qancha gaplarni oshirib-toshib gapirdilar.

– Qani yuringlar, – dedi Eshon aya nihoyat o'zini tutib olgach, – qolgan gapning hammasini uyda gaplashamiz, sovqotib ham qolganga o'xshaysizlar.

Bir galashib nonushta qildilar. Nonushta paytida ham Eshon aya o'ychan, xayolparast bo'lib o'tirdi. Bir shoshilib ovqatlanayotgan yigitchalarga qaraydi, bir askarga ketib, qaytib kelmagan o'g'illarini eslaydi. Kutilmaganda to'lqinlanib goh unisini, goh bunisini quchoqlab, Olloh o'zingga shukur, o'zing biluvchisan, o'zing ko'rvuchisan, deya namlangan ko'zlarini artib-artib oladi. Nonushtadan so'ng quyonlaringizni, bu yoqimtoy jonivorlarni simto'r dan bo'shatib mayli, torroq bo'lsa ham, mening tovuqxonamga qo'yib yuboringlar, ozgina bo'lsa ham yayrab olishsin, ungacha sizlar hali yotgan chuqurlaringni uyoq-buyog'ini to'g'rilib quyonlaringga uycha yasab beringlar, dedi. Keyin tezroq ota-onalaringga bu yerda ekanliklaringni xabarini ham aytib qo'yinglar, deb tayinladi.

O'sha paytida bu ikki yigitchada paydo bo'lgan kuchni, qudratni, g'ayratni, tog' bo'lsa qo'porgudek, daryo bo'lsa teskarri oquzgudek shijoatni bir ko'rsangiz edi. Bir kecha tunab olgan chuqurlaridagi katta-katta toshlarni dumalatib

yuqoriga otayaptilar. Bir vaqtlar, xonlar zamonidami, kimningdir yerto'lsi bo'lganmi, supradek-supradek keladigan yapaloq toshlarni silliqlab ham bosishgan ekan, birini olib yuqoriga chiqarishsa, boshqasi meni tezroq ol deyotgandek bo'laverdi.

Xayriyat, cho'ponlar uychasidan topib olgan temir tayoqni o'zları bilan olib kelgan ekanlar. Ana shu temir tayoq ish beryapti hozir. Silliqlangan toshlardan uchtasini surib olib tashlaganlaridan so'ng to'rtinchisini kuch bilan itarayotganlarida:

- Sandiqcha! – deb qichqirib yubordi Egamberdi.
- Ko'rib turibman.

Silliq toshni itar-itar qilib supadan tushirdilar. Zanglab, mog'orlab ketgan sandiqcha ekan, og'irgina ham. Ichida nima bor ekan, ochish kerak, tezroq ochish kerak!

- Qulfini buzaymi, – dedi Egamberdi, – mana bu tayoq bilan bir ursam buziladi.

- Yo'q, sandiq bizniki emas, – hayajonli javob qaytaradi Karimberdi.

- Kimniki bo'lmasa?

- Bog' Eshon ayamniki, demak sandiqcha ham Eshon ayamga tegishli.

- Biz topdik-ku, Karim.

- Quyonxonadan joy bermay, bu yerdan ketinglar deganlarida biz buni topmagan bo'lardik, yana qayerlarda sarson bo'lib yurardik, kim bilsin.

Tortishuv boshlandi. Qulfini buzish kerakmi, kerak emasmi, bordi-yu sandiqchada tilla bo'lsa, tillalarni ko'tarib ota-onalarini oldigami yoki biron yurtga jo'nab qolsinlarmi... Ana shu haqda bahslashdilar. Unday bo'lganda ham, bunday bo'lganda ham biz Eshon ayaning bog'ida turibmiz, aya ruxsat bergen joyni kavlayapmiz, demak, ayaning ruxsatisiz sandiqni ochmaymiz. Agar ruxsatsiz ochsak avvalo bizni shu yerga boshlab kelgan ona quyonni, axir biz quyonlar tufayli keldik-ku bu yerga, keyin Eshon ayaga xiyonat qilgan bo'lamiz... Bu gaplarning hammasi Karimberdidan chiqayapti.

Egam goho-goho o'rtog'ining gapini qaytara olmay qolar edi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Zo'rsan-da, deb qo'ya qoldi. Sandiqchada, ikki yonida halqachasi bor ekan, o'sha yerdan ko'tarishib, hovliqishib Eshon ayaning huzuriga yugurdilar. Eshon aya oldiga qo'yilgan sandiqchaga uzoq tikilib qoldi. Titkilayapti, yig'layapti, yana tikilyapti, yana yig'layapti, nihoyat, shundoqqina oldida ochiq turgan allaqanday qalingina kitobni nari surib:

– O'g'illarim, bu tushlar to'g'risidagi kitob, rahmatli Eshon dadam bizga goh-goh o'qib berar edilar, – Eshon aya bir nafas jum qoldilar. – Ollohg'a shukur, nimaniki so'ragan bo'lsm o'shani berdi. Qazo kunim yetganda oyog'imni bog'lab qo'yadigan, ko'zimni yumib qo'yadigan, qabrimga bir hovuch tuproq tashlaydigan yaqin odamim bo'larmikan, deb so'rardim. O'sha so'raganim Bo'rivoyu Anorvoyim qiyofasida bo'lib mana sizlar keldilaring. Bunaqa mo'jizalar bo'lishini, mana tushlar kitobida ham yozib qo'yishibdi... Yaqinroq kelinglar, o'g'illarim bo'linglar, bag'rimga bosay, qattiq-qattiq bosay.

Eshon aya yigitchalarni ikki yonlariga olib yutoqib-yutoqib goh unisini, goh bunisini o'pib, nimjongina qo'llari bilan uzoq quchoqlab turdilar-da:

– Sandiqda neki bo'lsa sizlarniki. Ollohim uni sizlarga atab saqlagan ekan. Oh, kimlar kelib axtarmadi bu sandiqni, Olloh mana sizlar uchun saqlagan ekan.

– Ayajon, ochsak maylimi? – bordaniga so'rashdi betoqat yigitchalar.

– Ochinglar, o'g'illarim, takror aytaman nimaiki chiqsa hammasi sizlarniki.

Ichkaridan eskigina, og'irgina boltani olib chiqib sandiqni qulfini urib tushirdilar. Sandiq ochildi.

Yoqut ko'zli uzuklar...

Zeb berilgan sirg'alar...

Yal-yal yonib turgan bilakuzuklar...

Hovuch-hovuch tilla tangalar...

Sandiq to'la sehr ekanmi, hammalari bir xilda sehrlanib, karaxt bo'lib qoldilar, bir-birlarini ko'ra olmayotgandek bir

holatga tushib qoldilar. Eshon ayaning xira tortib qolgan ko'zlaridan duv etib yosh to'kilib ketdi. Oh, ollohim shu ikki yigitcha uchun saqlagan ekansan-da, deb Egamberdi bilan Karimberdini bag'riga tortdi.

## Ikkinchি bob

Tun yarimlab qolgan, dakang xo'rozlar hali qichqirganicha yo'q, xona qorong'i, burchak-burchaklardan har zamonda don talashgan sichqonlarning chiyillagan ovozi eshitiladi, xolos. Eshon aya yonlarida ikki yigitcha, sal bo'shatsalar, bamisol qochib ketishayotgandek, o'zlariga yana ham qattiqroq tortadilar. Xo'rsina-xo'rsina, entika-entika og'ir zamonlarning og'ir kunlari, og'ir kechmishlari haqida hikoya so'zlaydilar. Eshon aya so'zlashdan to'xtagani yo'q. Ko'ksilaridagi qop-qora tugunchalarni yechib, tugunchalar ichidagi qat-qat hasratlarni, og'ir kechgan kunlarning g'ussasini aytib olmoqchilar, ikki yigitchani Olloh menga yubordi deb qattiq ishonyaptilar. Olloh yuborgan bandalariga qalblarining to'rida berkinib yotgan barcha sir-asrorlarini aytib-aytib olmoqchilar.

– Ha, ha o'g'illarim, zolimlarning zulmi, battol kofirlarning zug'umi avj olgan pallalar edi. Vagon-vagon boyliklarimizni tashib ketishayotgan edi, bismillo demaysan, nonni teskari tishlashga majbursan, ko'changdan ot minib o'tganimda boshingni egib, qo'llaringni ko'ksinga qo'yib turasan, o'ng betingga ursam, chap betingni ham tutib berasan, deganlar hukmron bo'lgan zamonlar edi. Ollohga shukur mard yigitlar, zo'ravonni mana men yo'qotaman deydigan bag'rikeng, bilagida kuchi bor o'g'lonlar bor ekan. O'sha paytlarda ozodlikni, hurriyatni kuylaydigan shoirlar ham ko'p ekan, onalarning zori hasrati qo'shiqlarga aylanar ekan. Yurt och edi, el yalang'och edi.

*Ariqlar to'la suv,  
Tashnayi zorim bolam.  
Qutilar to'la non,  
Ochu nahorim bolam*

degan qo'shiqlar o'sha zamonalarda yozilgan. Hali aytganimdek xalq qo'zg'aldi, yurtni mana men qutqaraman degan qo'rboshi yigitlar otilib chiqdi.

– Yo'qolsin bosmachilar...

– Bitsin talonchilar...

– Ketsin kofirlar...

– Ayollarimizni zo'rلانган qizil shapkalar yo'qolsin, – degan, gaplarni aytishardi o'sha azamatlar. Ularning qo'li mushtga tugulgan edi, ko'zları chaqnar edi. Ey o'g'illarim, xalq puflasa bo'ron ko'tariladi, deganlari rost ekan. Miltig'i bor miltig'ini, qilichi bor qilichini, qilichi yo'q panskhasasini ko'tarib chiqaverdi. O, o'g'illarim, yurtimizda bamisoli bo'ron ko'tarilgandek bo'ldi. Qurolsiz xalq nima ham qila olardi. Tishi tirnog'igacha qurollangan, qo'shotar miltiqlarini yelkasiga osgan, qo'l bilan otadigan bo'mbalarini vagon-vagon keltirayotgan, har o'qi aravaning gupchagidek keladigan zambaraklari bor zolimlarga qarshi qo'ldagi panskasha bilan kurashib bo'ladimi, uzun sopli bolta bilan urishib bo'ladimi? Ariqlar to'lib qon oqdi. Uylar kuyib kul bo'ldi, masjidlarga otu eshak bog'ladilar. Mard yigitlarimiz, yo'q, biz ham qurollanishimiz kerak, zambarakka qarshi panskasha bilan urishib bo'lmaydi, deb maslahatlasha boshladilar... O'g'illarim, uxlab qolmadilaringmi?

– Yo'q, yo'q, – dedi Karimberdi shoshilib.

– Ayajon siz bosmachilar zamoni haqida gapiryapsizmi, – deb so'radi Egamberdi, – o'sha bosmachilar qanaqa bo'lgan, qo'rboshilar qanaqa bo'lgan?

– Bosmachilarni bilmaysizlarmi, dinsiz, iymonsiz bosmachilarни allaqachon bilishlaring kerak edi. Azamat yigitlarimizga tuhmat qilib, senlar bosmachiyanlar degan, aslida qizil shapkalarining o'zları bosmachi bo'lgan, bizning yurtimizga o'shalar bostirib kelgan-ku. Ana shularga qarshi kurashganlarni qo'rboshi deyishgan. Har yigitlar ediki, yelkasida tog'ni ko'tarar edi... lekin bechora yigitlar qurolsiz edi-da. Hali-hali esimda, Sarqo'rg'on degan joyda bir qirg'in bo'lganki, eslasam yuraklarim o'ynab ketadi. O'shanda ariqlar to'lib qon oqqan. O'smon olov bo'lib yongan. O'shanda Sarqo'rg'on soyidan suv to'sib boshqa-

boshqa yurtlarga suv chiqaramiz deb dehqonlar borgan ekan, tol kesamiz, terak kesamiz, sepoya yasaymiz deb bolta olishgan. Ana qo'llarida tesha, bizni o'rab kelishyapti, deb pulemotlardan, zambaraklardan o'q otib uch yuz dehqon yigitni otib tashlashgan. O'g'illarim, dardimni qo'zg'ab qo'ydilaring, endi gapirmsam bo'lmaydi, yo uxlab qoldilaringmi?

– Yo'q, yo'q ayajon, endi-endi qo'rqinchli joyini aytayapsiz. Egam o'rtog'im qo'rqinchli hikoyalarni yaxshi ko'radi, aytin, keyin qo'rboshilar nima qilibdi?

– Keyin hali aytganimdek, yuragida yoli bor, hamiyati zo'r yigitlar birin-ketin «mana men borman, mana men olishaman», deb birin-ketin otilib chiqaverdi. Hali aytganimdek, shoirlar, qo'shiq aytadigan onalar ham jim turishmadi, she'r yozishdi, qo'shiq aytib mardlarni ulug'lashdi.

*Islom polvon otga minsa,  
Youga qiron keltirar.  
Quvib haydab bosmachini,  
Jahannamga yetkarar.*

*Islom polvon qilichi,  
Dami ham o'tkir ekan.  
You boshini olarga,  
Ham o'tkirus keskir ekan.*

*Mo'jal olib Islomjon,  
Besh otardan o'q otgin.  
Bosqinchini hech qo'ymay,  
Bir amallab yo'qotgin.*

*Ollohamrohing bo'lsin,  
Bismilloni unutma,  
Ona yurt bag'rida bo'l,  
Hargiz uzoqlab ketma.*

Mushtipar onalar jasur, mard qo'rboshilarga atab ana shunday qo'shiqlar ham to'qishgan. Biz o'tirgan mana shu

chorhari uylar, ho' naridagi kecha ko'rganlaring vayronalar hamma-hammasi qo'rboshilarga yashirin qarorgoh bo'lgan. Goho-goho kelishib Eshon dadamning duolarini olib ketishar edi... Mayli o'g'illarim, tong otay deb qoldi, hali sizlarga aytadigan gaplarim ko'p, endi uxlanglar.

### **Uchinchi bob**

– Hali-hali esimda, bir kuni tog'-tuzlarda bosmachilarga qarshi kurashib yurgan yigitlar ota-onalarini, o'g'il-qizlarini ko'rib ketish uchun kelishgan ekan, kelayotgan chorshanba kuni mana shu yerda yig'ilamiz, jamlanib, yana har qaysimiz o'z qo'rboshimiz huzuriga ketamiz, deb kelishib olgan ekanlar. O'g'illarim, bu kelushuv ichida bir sotqin ham bor ekan, sotqin borligini hech kim bilmagan ekan. Yigitlar yig'ila boshlashdi, yangi-yangi yigitlar ham qo'rboshilar safiga qo'shilamiz, deb kela boshladilar. Katta-katta qozonlarda palov damlashyapti, ellik boshilar tandir-tandir non yopib jo'natishyapti, mingboshilar yangi kelayotgan yigitlarga atab beqasam to'n, bellariga qiyiq, yelkalariga miltiq jo'natishyapti. Hali aytganimdek, o'g'illarim, oralarida yomon niyatli bir sotqin bo'lgan ekan. Katta qozonda palov damlanayotgan paytda, men ham oshpazman deb oshpazlarga qarashib yurgan ekan, qozonga mushtimdek keladigan nashani tashlab yuborgan ekan. Egamjon, Karimjon, falokat oyoq ostida bo'ladi deganlari rost ekan-da, bo'lmasa o'nlab yigitlar shu atrosda o'ralashib yurishibdi-yu, nasha tashlanganini ko'rmay qoladilarmi? Ha, falokat oyoq ostida bo'ladi. U zormanda nashaning barmoqdekkiasi bir mehmonxona yigitni mast qilarkan. Xoin esa mushtimdegini tashlabdi. O'g'illarim, endi hikoyamni juda qiyin joyiga keldi aytaymi, aytmaymi?

– Aytasiz, aytamasangiz, baribir, qo'ymaymiz.

– Ha mayli, yigitlar oshni yeishib, xizmatkorlar damlab bergen achchiq-achchiq choylarni ichishib, yarim kechasi yo'lga chiqamiz, otlarimizni to'yg'izib olaylik, o'zimiz ham jindek-jindek mizg'ib olaylik, deyishib boshlariga otlarining egarini qo'yishib, ostilariga o'sha uchqur otlarining yopinchig'ini

solistib uyquga ketishibdi. Bu uyqu uyqu emas, ajal uyqusi, o'lim uyqusi ekan. Haligi qotil qizil shapkalilar kamandiriga, tayyor bo'ldi, kelinglar deb xabar beribdi. O'sha paytda, o'g'illarim, mana shu yerda qirqtacha yigit mast bo'lib yotgan edi, biz ayajonim ikkovimiz yerto'la tuynugidan qarab-qarab qo'yayotgan edik. Birdan otishma boshlanib ketdi, gumbir-gumbir ovoz avjiga chiqib ketdi, taq-tuq miltiq otilyapti, gumbirlab, qo'l bilan otadigan bo'mbalar portlayapti. Bechora mastu garang bo'lib qolgan qo'rboshi yigitlar o'rnimdan turaman deydi-yu boshini ko'tarolmay o'qqa uchib yiqiladi, boshini ko'tarsa-da miltig'ini o'qlay olmaydi, bir amallab otining yoniga yetib borgani otiga mina olmaydi. Bechora ayajonim yig'laydi, burchakdag'i panaga berkinib olgan Eshon dadam yig'laydi, bo'yi yetib qolgan akam, yo'q, men chidab tura olmayman qo'limga miltiq bering deb dadajonimga yopishadi. Tong otar paytida hammayoq jim-jit bo'lib qoldi. Demak, biron yigit qochib ulgurgan bo'lsa ulgurdi, ulgurmagani mana shu yerda shahid bo'ldi, o'g'illarim, shahid bo'ldi deyapman. Axir ular yurtimni ozod qilaman, dini iymonimizni himoya qilaman, deb chiqqan edilar. Bir mahal qarasak, hali biz yerto'ladan chiqqanimiz yo'q edi, qishloq tomondan ikki kishini sudrab kelib ostida murdalar dumalab yotgan daraxtlarga bog'lay boshladilar. Eshon dadam darrov ularni tanidilar. «Erka Ellikboshi, Nurmat Amin» deb xo'rsinib, yig'lab o'tirgan ayajonimning boshini bir silab qo'ydilar. Asta-sekin bog'imizni beliga kamar bog'lagan, boshiga cho'chhayma shapka kiyganlar bosib keta boshladni. Qarang, burchak-burchakda pusib yotishgan ekan, beshtasi u burchakdan, beshtasi bu burchakdan chiqib kela boshlashdi, voy xudoyim, to'ng'izdek bolalab ketishgan ekan. Mingboshilar keltirgan qo'yu qo'zilarni so'yib qozonga tiqa boshladilar, nonu patirlarni o'rtaga qo'yib ishtaha bilan nonushta qila ketdilar.

– Ayt eldan yig'ilgan tillalar qayerda, – deb so'rayapti bittasi.

– Unaqa tillani men bilmayman, – deyapti Erka ellikboshi bobo.

– Zambarak olamiz deb ayollar qo‘lidagi uzukni, kelinlar qulog‘idagi sirg‘ani, baqqollar qo‘lidagi so‘nggi tangani yiqqansanlar, – deb so‘rayapti yana bitta kamandir.

– Ikki arava beda, o‘n beshta beqasam to‘n, uchta yangi egar jo‘natdim, boshqasini bilmayman, – deyapti Nurmat amin bobo.

- Ayt, tezroq ayt, bo‘lmasa otilasan.
- Men hech narsa bilmayman.
- Otib tashlayman deyapman.
- Otsang ota qol.

So‘roq qilayotgan kamandirning qo‘lida kalta miltiq bor ekan, keyin bilsam, o‘g‘illarim, o‘sha kalta miltiqni nagon deyishar ekan, kamandir ikkala keksa kishini ham paqillatib otib tashladi.

Ikkovlari ham daraxtga boylanganlaricha boshlari osilib goldi. Ayajonim bilan akam sho‘rlik qo‘rquvdan dag‘-dag‘ qaltirishyapti. Xuddi shu paytda narigi yerto‘lada berkinib yotgan Eshon dadamni ham sudrab chiqishdi. Boshqa bir daraxtga bog‘lab yana zambarak olamiz deb eldan yig‘ilgan tillalar qani, ayt bo‘lmasa seni ham o‘zing yaxshi ko‘radigan narigi dunyoga jo‘natamiz deyishdi. Eshon dadam boshlarini silkitgancha jim turaverdilar. Xayriyat, Eshon dadamni otmadilar. Xuddi shu paytda qo‘rqib, yumib olgan ko‘zimni ochsam, yo Olloh bog‘imizni endi beqasam to‘n kiygan beliga shohi belbog‘ bog‘lagan yelkasiga besh otar miltiqlar osganlar atrofdan o‘rab kelishyapti. Yaqin-yaqindan pilimot ovozlari eshitilyapti. Onda-sonda shahar tomonidan, qo‘rboshilar kelayotgan tomonidan qo‘l bilan otadigan bo‘mbalar ham portlayapti.

- Ayajon siz bo‘mba deyapsiz, ehtimol granatadir.
- Ha o‘g‘illarim, o‘sha zamonlarda o‘sha matohni bo‘mba deyishardi. Otishmalar yana avjiga chiqib ketdi. Men o‘shanda birinchi marta pastlab uchadigan ayraplanni ko‘rganman, sizlar uni hozir samalot deysizlar. Guv etib paydo bo‘ladi-da, pastlab kelib qo‘rboshi yigitlar ustidan bo‘mbalar tashlab qochadi. Hammayoq ostin-ustun bo‘lib ketadi. Daraxtlar qarsillab sinadi. Uylarimiz yona boshlaydi, uzib ketgan otlar

kishnashib uyoq-buyoqqa yugurishadi. Shahid bo'lgan yigitlarning murdasini chalajon bo'lgan yigitlarimizning ko'ksiga nayza tiqib o'ldirganlarini ko'rghanman, o'g'illarim.

Ayajon holsizgina bo'lib o'rinalardan turib ketadilar.

– O'tiring, o'tiring ayajon, – yiqilib tushmasinlar deya shoshilib ushlaydi Egamberdi.

– O'tirmayman, o'tira olmayman, o'g'illarim vaqt-i-vaqt bilan shunaqa bo'laman, goho o'zimdan ketib ham qolaman. Endi gapimni qisqaroq qila qolay... Tanishi borlar murdalarni olib ketdi. Egasi topilmaganlarni Tagob, Nursuq, Xonkeldi, Qashqar qishloqlaridan kelgan muşulmonlar har biriga alohida-alohida go'r kavlab, yuvib-tarab janoza ham o'qib ko'mdilar. Bahorga chiqib jannat makon Eshon dadam har bir qabr ustiga bir tupdan daraxt ekdilar.

Shundan so'ng aya uzoq o'yga cho'mdi va o'tganlarning haqiga tilovat qilish uchun ovozini balandlatdi.

### To'rtinchchi bob

Eshon aya tilovatdan so'ng anchagina jim qoldi, ehtimol, urushdan qaytmagan Bo'rivoy va Anorvoyginasini eslayotgandir, ehtimol, o'n gulidan bir guli ochilmagan, hurriyat uchun qurban bo'lib ketgan qo'rboshi yigitlarni o'layotgandir...

– Anorvoym o'rnida sen, qani o'ng qanotimga o'tir-chi, – asta-sekin gapira boshladi aya, – sen Karimberdi Bo'rivoyim o'rnidasan, chap tomonimga o'tir, kichik o'g'il o'rnidasan endi... Ollohimga shukur, mana ikki o'g'lim bag'rimga qaytib keldi. Shu kunlardan nimayiki yuz berayotgan bo'lsa, sizlarga oppoq quyonlarning uchrashi, tushlaringda ayajonlaringni ko'rishlaring, bilib qo'yinglar, hammasi bejizga emas. Olloha shukurki, qazo kunim yetsa kimim yonimda turib haqimga duo qilar ekan, kim ko'zlarimni yumib, oyoqlarimni bog'lab qo'yarkan, deb o'ylardim. Mana sizlar keldilaring mening ota avlodimdan ham, ona avlodimdan ham hech kimim qolmagan. Endi qabrimga ham sizlar olib kirasiszlar. Manavi sandiqda neki bo'lsa Olloh ikkovlaring uchun saqlagan ekan. Umrim

poyoniga yetay deb qoldi. Endi menga anavi qu-qulab yuradigan oltita tovug‘im, erkalanib-erkalanib, ma’rab-ma’rab qo‘yadigan echkilarim, tunda yonimga kirib sovqotsam isitib qo‘yadigan ona-bola mushuklarim, ayniqsa, vafodor kuchuklarim mening himoyachilarim bo‘lsa bas. Men shular bilan ancha ovunaman... Sandiqdagilarni xohlasalaring hukumatga topshiringlar, xohlasalaring ota-onalaringga beringlar, xohlasalaring, o‘zlarining aytgandek, kattakon quyonchilik fermasini tashkil qilinglar. Hoy o‘g‘illarim, aslida bu tillalar mana shu quyonlaringniki, o‘shalar bo‘lmaganda sizlar bu boqqa kelarmidilaring?! Ham, xazina quyonlarga atalgan ekan. Ehtiyyot bo‘linglar, sariq oltinlar ichida sariq iblislar bo‘ladi deyishadi. Boylikka berilib ketib yo‘ldan ozmanglar, bilmadim, shuncha boylikni ehtiyyot qila olarmikinsizlar?

– Eshon aya, – shoshilib dedi Karimberdi, – Egamberdi eplaydi, uni tajribasi ko‘p, sut-qatiq sotaverib, har kuni pul sanayverib usta bo‘lib ketgan.

– O‘g‘lim, – deya Eshon aya Egamning yelkasini silay boshladi, – ko‘rib turibman hushyorgina ekansan. Bilmadim, shuncha katta mablag‘ni eplay olarmikansan?

– Bilmadim, – ikkilanibroq dedi Egamberdi.

– Bolam sen Anorvoyimsan, Anorvoyim ham hushyor edi. Yo ollohim, xuddi o‘sha o‘g‘limning o‘zginasisan-a, ko‘z qarashlarining, ko‘zlarining allaqanday suzib turishlarining... senlarni oltmisht yil kutgan edim-a. Olloho ovozimni eshitdi, sizlarning qiyofalariningda Bo‘rivoyim bilan Anorvoyimni jo‘natdi.

Eshon aya jum bo‘lib, yarim yumiq ko‘zlarini endi butunlay yumib oldilar. Yigitchalar kayfiyatlarini baland, quvonchu shodliklari bu olamga sig‘maydigan bir holatda tashqariga chiqib boylik keltirgan quyonlarini silab-silab ovqatlantira boshladilar. Ikkovlari ham bu tillalar butunlay bizga berilayotgan ekan, endi ularni nima qilsak ekan, deb o‘ylab bahslasha boshladilar. Hukumatga olib borib berishsa, bularni qayerdan oldilaring, deb rosa so‘roqqa tutishadi, ota-onalariga olib borishsa, Qosimali amaki bilan Siroj amaki o‘rtadagi

devorning o‘rnini talashib, qirpichoq bo‘lib yurishibdi. Tillalarni teng bo‘lmay bir-birlarini so‘yib qo‘yishlari mumkin.

– Karim, hozir miyamga bir fikr keldi, – dedi Egamberdi.

– Ayt-chi!

– Yo‘q, ayajonimning oldida aytaman, – shunday deb Egamberdi bo‘yniga bir parcha latta bog‘lab qo‘yilgan ona quyonni bag‘riga bosgancha avaylab Eshon aya huzuriga chiqishdi, – ayajon bu quyonni biz, Karim ikkovimiz marhum ayajonim o‘rnida qabul qilganmiz. Shu tillalarni quyonlar topdi dedingiz, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri, shunday dedim, o‘g‘illarim. Agar bu quyonlar sizlarni bog‘ga boshlab kelmaganda tillalar yana yuz yillar yer ostida yotaverган bo‘лardi.

– Ayajon, tillalar zambarak olamiz deb qishloqlardan yig‘ilgan, – deb gapga aralashdi o‘ychan o‘tirgan Karimberdi, – ayting-chi nechta qishloqdan yig‘ilgan?

– O‘g‘illarim, aniq bilmayman.

– Ayajon, – ko‘tarinki bir kayfiyatda gapira boshladi Egamberdi, – Karimberdi o‘rtog‘im bilan maslahatlashdik, o‘sha qishloqlarda yashab o‘tganlarning nabiralariga quyonchilik fermasi ochib beramiz. Karim o‘rtog‘im birovning haqini yeb ketish yaxshi emas, deyapti.

– Voy azamatlarim unda hamma yoqni quyonlar bosib ketadi-ku.

– Ayajon tog‘da adashib yurganimizda, – gap navbatini o‘ziga oldi Karimberdi, – baland cho‘qqiga chiqib ey Olloh, ey charaqlab turgan yulduzlar, ey oppoq nur taratayotgan Oymomo, bizga yordam ber, butun-butun qishloqlarni, butun mamlakatni oq quyonlarga to‘ldiraylik, quyonlar sultanati yarataylik, Egam sultanatning shahanshohi bo‘lsin, men bosh vazir bo‘lay, deb uyqumiz kelguncha iltijo qilganmiz... Mana, olloh niyatimizga yetkazib turibdi...

Uchrashganimizdan buyon Eshon ayaning yuzida hozirgidek nurli tabassum jilolanmagan, ko‘zlarida shodlik nuri parpirab yonmagan. O‘g‘illarining yelkasini silay-silay gapira boshladilar.

– Yaxshi niyatililarga hamisha yo'l ochiq bo'ladi, Ollohning xohishi bilan bu boyliklarni Sayid Jalolxon eshon, Sayid Xodixon eshon, Sayid Hoshimxon eshon bobolarimiz sizlar uchun poylab yotgan ekan... Mayli, butun mamlakatga dong'i ketadigan quyonchilik fermasi yaratinglar, biringiz shahanshohu, biringiz bosh vazir bo'ling.

Yigitchalar hovliqishib, xuddi allaqachon quyonlar sultanatini yaratib, biri yengimas shahanshoh, biri dono vazir bo'lib olgandek sevinishib, Eshon ayani quchoqlashib, goh kiyimlaridan, goh yuz-ko'zlaridan qayta-qayta o'pa boshladilar. Bir nafasdan so'ng ayaning yuzi, ko'zлari yana tashvishli bo'ldi. O'g'illarim bu boylikni qanday saqlar ekanlar degan tashvishli xayollarga berildi. Uzoqni ko'rgan, donishmand aya uni saqlashning yo'lini ham topganday bo'ldi.

Bolalarni o'zi yotib yurgan chorhari uyg'a boshladidi. Tosh o'choqqa olov yoqishni buyurdi. Toshlar qo'l kuyadigan darajada qizigach, ularni temir parchasi bilan uch bora o'ngga, uch bora chapga surishni buyurdi. Tosho'choq to'rtinch'i bora o'ngga burilganda, torgina tuynukcha ochildi. Tuynukcha yonlariga yalpoq toshlardan oyoq qo'yadigan joylar ham yasalgan ekan. Egamberdi yuragini hovuchlab, qo'rqa-pisa tilla to'la sandiqchani jun arqonga bog'lab pastga tushirib, orqasidan o'zi ham tushdi. Tushgach, tepadan uzatilgan lampa moyli chiroqni yoqdi. Asta-sekin atrof yorisha boshlaganini ko'rди. Xonaning to'rt burchagida to'rt eshik bor. Birini avaylab ochgan edi zanglab, qorayib ketgan kumush laganlar, kumush choynaklar, kumush laganlar ustma-ust turganini, boshqasida esa ustma-ust taxlangan miltiqlarni ko'rди...

– Tavba, podsholarning xazinasiga tushib qolganga o'xshayman, – deb o'yladi Egamberdi. So'ng sandiqchadagi tillalardan saralab-saralab bir hovuchini cho'ntagiga soldi-da, qolgan eshiklarni keyin ochib ko'rman, deb nafasi qisila boshlagan edi, tag'in xazinani poylab yotgan ilon bo'lsa, hamla qilib qolmasin, deb qo'rqiб shoshilib yuqoriga ko'tarila boshladidi. Birgalashib tosh o'choqqa olov yoqib toshlar qizigach, qizigan toshlarni o'ngu so'lga surib ham qo'ydilar.

## Beshinchi bob

Zabihillo zargarning bobo-yu bobokalonlari xonlar saroyida zargarlik qilgan deyishadi. O'sha dongdor zargarning mana shu Xonkeldi qishlog'ida ham yer ostida zargarlik ustaxonasi bo'lgan, degan gaplar, avloddan-avlodga o'tib keladi. Lekin hozir oddiygina magazinchi bo'lib olgan Zabihillo zargarlik qilmaydi. Odamlardan tilla taqinchoqlar, muzeylarga qo'ysa bo'ladigan har xil osori atiqalarni sotib olib Toshkentga olib borib pullaydi. O'sha yerdagi ustalardan tilla taqinchoqlar keltirib atrof qishloqdagi ayollarga yuqori baholarda pullab, o'zining aytishicha, qora qozonini qaynatib, tirikchilik o'tkazadi.

Egamberdi bilan Karimberdi avvalo quyonlarimizga ovqat g'amlaylik, qolaversa, tezroq borib garovda turgan velosipedlarimizni qaytarib olaylik deb tilla tangalardan bir nechasini cho'ntaklariga solib, sotsak sotarmiz, sotmasak, maslahatini olarmiz deb Zabihillo zargarnikiga jo'nadilar. Qiziq, ikkovlarining qalbida ham qo'rquvga ham, shodligu quvonchga ham o'xshamaydigan g'alati bir holat bor edi.

Zabihillo zargar peshonasiga «kichik super market» deb yozib qo'yilgan, lekin faqat eski-tuskilar bilan savdo qiladigan, markazdan olib kelgan narsalarni yeng ichida pullaydigan do'konida xayol surib o'tirgan edi.

– E ha, mulla o'g'lim, – deb avval Karimberdiga, so'ng Egamberdiga qo'l uzatdi. Qo'llarini silkitib, uzoq so'rashgan bo'ldi. Egamberdi qo'l cho'zmadi, bitta tillamiz bor, shuni sotgani ke'dik, deb qo'ya qoldi. Zargar amaki ham gapni cho'zmadi, qani o'sha tilla tangangni kaftimga qo'y-chi, dedi. Tillani kaftida salmoqlab ko'rgach:

– Ie, iye deb, – o'rnidan turib ketdi, – iya, bu tangalar xonlar zamonidan qolgan-ku. Qayerdan oldilaring buni?

Zargar bilan tanga sotgani kelgan yigitchalar o'rtasida mana bunday suhbatlar ham bo'lib o'tdi:

- Ochig'ini ayt o'g'lim, qayerdan topdilaring buni?
- Ishqilib topib oldik-da.
- Ochig'ini aytinlar deyapman, qayerdan oldilaring?

- Aytmaymiz.
- Qachon topib oldinglar?
- O'tgan hafta topganmiz.
- Topganlaringni nega ota-onalaringga aytmadilaring?
- Aytsak, olib qo'yishardi-da.
- Qayerdan topgansizlar?
- Hoshim baqqol oldidagi axlatxonadan.

So'nggi so'zlarni eshitishi bilan zargarning yuragi duk-duk urib ketdi. Shunga o'xhash tanga faqat Hoshimbaqqolning hovlisi oldidan topilgan bo'lishi ham mumkin. O'tgan yili ham Hoshimbaqqolning nabira qizi mana shunaqa tangadan ikkitasini sotgan edi.

Savdolashish yana boshlandi:

- Xo'sh qanchaga sotasizlar buni, – so'radi Zabihillo zargar.
- O'zingiz insof bilan bera qoling, – dedi savdo qilishga ancha-muncha aqli yetadigan Egamberdi.
- Ellik ming so'm beraman.
- Yo'q, tangamizni bering, olib borib markazda sotamiz.
- Menga qara, qatiqchi ukam, lekin qatig'ing ham, qaymog'ing ham zo'r bo'lardi, seni yaxshi ko'raman. Mana shu o'rtog'ing ham zo'r, mahalladagi bolalarning hammasi ham, qani endi, shu o'g'limga o'xshagan bo'lsa... Ha, mayli sakson ming so'm beraman.
- Yo'q, yo'q tangani bering.
- Ha ana, yuz ming bera qolay.

Zabihillo zargar bu tangalar yolg'iz topilgan emas, uning yonida yana bir nechta bo'lsa kerak, qolganlarini ham bir amallab kiritishim zarur deb asta-sekin tanganing narxini bir yuz ellik ming so'mga ko'tarib yubordi.

Ikki o'rtoq pulni cho'ntaklariga solgach, shoshilib ko'chaga oshiqdilar. Bir yuz ellik ming so'mlik pulni ikkovlari ham hech qachon qo'llariga ushlab ko'rmagan edilar. Xayriyat, bir ozdan so'ng hayajonlari bir nav bosilgandek bo'ldi. Vujudlarida yengillik his qila boshladilar. Puli ko'p odam aqli ham bo'ladi, deganlari rostga o'xshaydi. Ikkovlari ham to'satdan o'zlarini aqli bo'lib qolgandek his qila boshladilar. Zabihillo zargar tangani arzon oldimi yoki o'z narxiga oldimi, shuni bilgiları

kelib qoldi. Bu fikr ancha-muncha odamning gapiga hadeb ishonavermaydigan, kichikroq bo'lsa ham bozor ko'rgan Egamberdidan chiqdi. Tuman markaziga, zargarlik do'koniga jo'nashdi.

Zargarlik do'konida o'zlaridan sal kattaroq qiz savdo qilayotgan ekan. Voy-bo'y, u shunday go'zal, shunday latofatliki, xuddi jannatdan chiqqan farishtalarga o'xshaydi. Tangani o'sha qizga uzatib, narxini bilib berarkansiz, buvijonim berib yubordi, degan gaplarni aytishdi. Qiz qoshini bir chimirdi-da, jadal ichkariga kirib ketdi. Xiyol o'tmay behad daraja semirib ketgan, arang nafas olayotgan bir odamni boshlab chiqdi.

– Bu tangani kim berdi sizlarga? – do'q aralash so'radi semiz kishi.

– Buvimiz berib yubordilar, narxini bilib kelinglar, – degan javob qaytdi yigitchalardan.

– Buvilaring kim o'zi, qayerda yashaydilar?

– Xonkeldi qishlog'idanmiz, buvimizni Eshon aya deb ataydilar.

– Voy Eshon aya tirikmilar, yo Olloh, avliyo onani o'tgan yili olamdan o'tgan deyishgan edi-ku, fotihaga ham borib keldik deyishuvdi-ku.

– Yo'q, olamdan o'tganlari yo'q, bizni o'zlariga o'g'il qilib oldilar.

Semiz odamning ovozi o'zgardi, yuzida, qarashlarida iliqlik paydo bo'ldi. «Avliyo onaga aytinqlar, tillaning narxi har kuni, har soatda o'zgarib turadi. Bugun bir gram o'ttiz ming so'm bo'lsa, ertaga yigirma ming bo'lib qolishi mumkin. Agar, avliyo ona tangani pullab kelinglar, degan bo'lsalar, mayli, olamiz, uch yuz ming so'm beramiz», dedi. Egamberdi xushyorgina yigitcha emasmi. «Eshon ayamiz, agar yaxshiroq pul berishsa sotib kelaveringlar» deganlar deb, semiz odamning gapini qo'llab-quvvatlagan bo'ldi.

Semiz amaki pullarni sanab, yelim xaltaga solib berdi-da, yana shunaqa tangalar bo'lsa, faqat bizga sotinglar, havo sal isisa, xudo xohlasa, o'zim borib avliyo onani ziyorat qilib ham kelmoqchiman, dedi. Keyin hozirgi holatdan ham ko'proq

quvonch keltiradigan bir voqea yuz berdi. Halidan buyon chiroyli qoshlarini g‘alati chimirib, ko‘zlarini g‘alati suzib turgan go‘zal sotuvchi qiz, to‘xtanglar, deya ichkariga kirib ketdi-da, katta oq doka ro‘molni keng yozgan ko‘yi ko‘tarib chiqib, «buni avliyo onamizga beringlar, boshlariga o‘rab yursinlar, bizni duo qilsinlar», deb yigitchalarning qo‘liga tutqazdi.

– Egam, sendan xafaman, – dedi tashqariga chiqishgach, – shunaqangi yolg‘onni bopladingki.

– Nima deb yolg‘onni bopladir?

– Ertalab zargar amakiga yolg‘on gapiruvding, hozir bu yerda ham yolg‘onni qalashtirib tashlading. Axir, Eshon ayamiz tillani sotinglar deganlari yo‘q edi-ku.

– Karim, o‘rtoq, qovog‘ingni solma.

– Eshon ayam hajga bormaganlar-ku, sen bo‘lsang tangani hoji onam berib yubordi deysan.

– Nima dey bo‘lmasa, yerto‘ladagi tillalardan bir qismini olib keldim, deymi? To‘g‘ri hajga borganlari yo‘q. Ehtimol, ayamizni endi ikkovimiz ko‘tarib olib borib kelarmiz. To‘g‘ri, yolg‘on gapirdim, hozir topgan pulimizdan o‘n poyizini sadaqa qilamiz, shunda Olloh yolg‘onni kechiradi.

Kayfiyatлari baland edi. Suhbatlasha-suhbatlasha borib avval no‘xatsho‘rak olib yedilar, so‘ng sochlarini shaharcha fason bilan oldirib, kosibchiga tuflilarini yaltiratib moylatib ham oldilar. Savdo ko‘rgazmasi o‘tayotgan keng maydonga yetgunlaricha duch kelgan tilanchining har biriga yigirma ming so‘mdan pul ulashdilar. Lo‘li ayolga rom ochirdilar, Egamberdiga seni yaxshi ko‘rgan qiz bor ekan, senga atab ro‘molcha tikib qo‘ygan dedi.

**Karimberdi:**

– Meni-chi, meniyam sevgan qiz bormi, – deb so‘radi.

– Seni ham bir qiz sevadi, puldan ko‘proq tashlasang hammasini ochiq aytib beraman.

Karimberdi puldan ko‘proq tashlab tezroq ochig‘ini ayting, dedi.

– Seniyam chiroyli bir qiz kutayotganga o‘xshaydi. Yaqinda to‘ying bo‘ladi, ikkita o‘g‘il ko‘rasan. Kattasi oldin, kichigi keyin tug‘iladi. Qani yana tashla puldan.

Ikki o'rtoq behad darajada shod, g'ururlari baland, hamma odamlar ko'zlariga chiroyli ko'rinyayotgan bir kayfiyatda savdo yarmarkasiga kirib bordilar. Quyonchi bolalar bugun kelmagan ekan, afsuslandilar.

## Oltinchi bob

O'tgan safar janjalni osongina tinchitgan savdo yarmarkasi raisining muovini chindan ham yaxshi odam ekan. Bu gäl ham yaxshigina yordam berdi. «Quyon sotgan bolalarga va'da qilingan pullarni olib kelibsizlar, yaxshi yigitchalar ekansizlar, ular qo'shni tumandan kelishgan, endi erinmasdan o'sha joyga pullarini olib borib, velosipedlaringni olib xursand qilib kelinglar», dedi. Keyin yana erinmasdan quyoncha bolalarning turgan joyi bu yerdan necha kilometr ekanligini ham, necha so'mga kira qilsalar, arzonroq tushishini ham aytib berdi. Demak, bu yerdan sakson kilometr uzoqqa borish kerak.

- Boramizmi, – deb so'radi Egamberdi.
- Albatta boramiz, – dedi Karimberdi, – yolg'onchilik o'g'il bolaga yarashmaydi.

Kirakash haydovchini topish qiyin bo'lmedi, narxini kelishib ham o'tirmadilar, ikki barobar to'laymiz, tezroq yetkazsangiz, ehtimol, uch barobar ko'p haq berarmiz deb mashinaga o'tirdilar. Quyon sotgan yigitcha eski qadrdonlarini ko'rgandek sevinib, juda-juda xursand kayfiyatda kutib oldi ularni. Kalta-kalta taxtachalardan quyonlarga uycha yasayotgan qovog'i soliq otasiga, tandirga o't qalayotgan chehrasi ochiq, doimo kulib gapiradigan onasiga, oppoq soqoli ko'ksiga tushib turgan past bo'ysi, dum-dumaloq to'xtab-to'xtab gapiradigan, oq do'ppili bobosiga birma-bir yurib ularni tanishtirdi. Oxirida:

- Bu kishi hoji dadam bo'ladilar, – dedi maqtangannamo, – qishlog'imizda u kishini quyonchi bobo deb ham chaqiradilar. Sizlarga bergenim oq quyonlarni ham mana shu bobom topib kelganlar.

Quyonchi bola bir maqtangisi kelib qoldimi yoki Egam bilan Karimning ko'nglidagi gapni anglab yetdimi, kengligi ikki gektarcha keladigan atrofi simto'rilar bilan o'ralgan maydonni

aylantirib ko'rsata boshladi. Katta-kichik ayvonlar qurib tashlangan. Goho simto'rlar bilan o'ralgan, goho oddiy taxtalardan yasalgan uychalarda quyonlar kavshanishib bir-birlariga suykalishib yotishibdi. Voy-bo'y, ularning ko'pligini aytmaysizmi, oq quyonlar, ko'k quyonlar, ola quyonlar, qora quyonlar, dalalardan ushlab kelingan yovvoyi quyonlar... Mana bunisi Ukrainiandan kelgan emish, mana bunisini samolyotda Belarusiyadan olib kelishgan emish, mana bunisini sovuq Sibir o'rmonlaridan maxsus odam yuborib ushlab kelingan emish.

Aylanib-aylanib kelishib yana quyonchi bobo oldida to'xtadilar. Quyonchi bobo bolalar quyon so'rab kelishgan bo'lsa kerak degan xayolda nabirasiga «zotlirog'idan tanlah ber, arzonroq qilib ber, iloji bo'lsa bo'g'ozlaridan ham ber», deb tayinladi.

Bobo garchi o'rtoqlaringga tanlaganlarini arzonroq qilib ber, degan bo'lsalar ham yo'q, quyonchi bola balo ekan, rosa talashib-tortishdi, ishqivoz bo'lib qolganlarini sezib narxini ham ko'targandan ko'taraverdi. Egamberdi ham bozor ko'rgan yigitcha emasmi, «yo'q, bizga quyon kerak emas, yaxshisi boshqa joydan olamiz» dedi o'zini arazlaganday ko'rsatib. Ular xuddi hozirning o'zidayoq jo'nab chiqib ketishayotgandek endi quyonchi bola yolvora boshladi. Kelisha-kelisha to'rt yuz quyonga pul sanab berdilar. Maxsus mashina ham berdilar, garovdagagi velosipedlarini ham mashina ustiga avaylab yuklab qo'ydilar. So'ng qayerdasan Eshonbog' deb yo'lga chiqishga otlanayotgan bir vaqtida shu uyga shoshilib kirib kelayotgan zargar amakiga ko'zları tushib qoldi.

– Zabihillo amaki, – deya baqirib yuborishda Egamberdi bilan Karimberdi.

Zabihillo zargar ham ularni birinchi bor ko'rayotgandek, ko'rgani uchun chin dildan xursand bo'layotgandek, «iye, iye ukalarim-ku bular», deb garchi bugun ertalab uchrashgan bo'lsalar ham, ikki qulochini keng yoyib ko'rishish uchun yurib kela boshladi. Tikka turganlaricha salomlashdilar. Zargar amaki ham o'g'illariga quyon olmoqchi ekan. Surishtirsa butun viloyat bo'yicha zotli quyonlar mana shu yerda bo'lar ekan,

narxini bilgani kelibdi. Narxini bilibdi ham. Zotlari shuncha toza bo'lishiga qaramay juda ham arzon ekan.

Birga jo'naydigan bo'ldilar. Zabihillo amaki o'z mashinasiga o'tirdi. Yurib borayaptilar, yo'l-yo'lakay zargar amakinining yuragi yonib borayapti. Butun o'y-xayoli ertalab ko'rgani tilla tangalarda. Egam bilan Karim ertalab Zabihillo amakinining huzuriga kirayotganda eshik oldida to'xtab, tangalar orasidan bittasini tanlab olib, qolganini yana cho'ntakka solganini zargar amaki zimdan kuzatib turgan edi. Egam cho'ntagiga solib qo'yan bosha tangalar ham tilla bo'lsa kerak, tilla ekanligi aniq, negaki cho'ntakdan olayotganda, cho'ntakka qayta solayotganda bu tangalar sariq rangda yaltiragandek bo'lgan. Zabihillo zargar tillaning yaltirashini, yaltirayotganda yal-yal yonishini yaxshi biladi.

Yigitchalarning Hoshim baqqol hovlisi oldida topib oldim deganlari yolg'on, qip-qizil yolg'on, bular mis bilan oltinning farqiga borishmaydi, lekin tillalar cho'ntakka qanday tushib qoldi ekan... Orqalaridan poylab borishim kerak, qolgan tillalarni nima qilishar ekan, shuni bilishim kerak, deb o'ylab yigitchalarning orqasidan tushib, markazdagi tilla do'konigacha kuzatib bordi. Uzoqdan poylab ham turdi, yigitchalar ichkaridan qora yelim xaltada pul ko'tarib chiqqanlarini ham ko'rди. Demak, bularda tilla bor, deb o'ylashdan hech to'xtamaydi zargar. Orqasidan quvib quyonchilik fermasiga ham yetib keldi.

Zargar amakinining ichi yonib borayapti. Birinchi tangani qo'lga olgandayoq bu tanga xonlar zamonida zarb etilganini bilgan. O'sha zamonlarda zarb etilgan tillalardan kimda saqlanib qolishi mumkin? Zabihillo zargar ana shuning poyoniga yetmoqchi.

Maxsus moslamaga yuklangan quyonlar yonida, ikki velosipedni mahkam ushlab Egamberdi borayapti. Biron mamlakatni zap etgan generaldek qaddini baland ko'tarib, mag'rur ketib borayapti. Mashinaning orqa o'rindig'iga cho'kkani Karimberdi bo'lsa zargar amaki bilan samimiyl, juda-juda samimiyl, juda-juda dilkash suhbatlashib borayapti. Umrida kam rost gapiradigan, rost gapirsam ishim kelishmay

qoladi, deb qo'rqadigan g'oyat hushyor, tulkidek ayyor Zabihillo zargar bir amallab tillalar bu yigitchalar cho'ntagiga qanday tushib qoldi ekan, ana shuni bilishim kerak, deb borayapti. Maqtov so'zlarining tegi mo'l ekan, ikki yigitchani to'xtamay maqtab ham borayapti.

– O'g'lim, sen qishlog'imizdagi barcha bolalardan yaxshisan, bekorga ko'cha changitib yurmaysan. Mana, quyon boqmoqchi bo'libsizlar, hamma ota-onalar o'g'illarini sen bilan Egamga o'xshashni juda-juda istashadi. Sen rostgo'ysan, yolg'on gapirmaysan, to'g'rimi?

- Yo'q, men hech qachon yolg'on gapirmayman.
- Lekin o'g'lim ertalab yolg'on gapirdilaring-ku.
- Nima deb yolg'on gapirdik.
- Tilla tangani qayerdan topdilaring, desam Hoshim baqqolning hovlisi oldidan topdik, dedilaring-ku.
- Yo'q amaki, tangani qayerdan topganimizni faqat Eshon ayam biladilar.

- Eshon aya dedingmi?
- Ha, Eshon aya deyapman.

Zargar amakingin yuragi duk-duk urib ketdi, hayajonini bir daqiqa bosolmay turdi, demak, tilla tangalar Eshon ayaning bobo-yu bobokalonlaridan qolgan. Demak, men xudo xohlasa, aloqani Eshon ayamlar bilan yaxshilashim kerak, bu tillalarni qishloqdan chiqarmayman, chiqsa mening qo'limdan chiqadi...

## **Yettinchi bob**

Rasmiy idoralarning katta daftarlarda uchastka noziri, xalq orasida uchastkavoy deb ataladigan, ko'zlarini pirpiratib teztez gapiradigan, har qanday ishga ham tez kirishib, ko'pincha, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay chala tashlab ham ketaveradigan bu yigitning ismi Furqat, katta idorâlarning katta daftarlariiga leytenant Furqat Erkayev deb yozib qo'yilgan.

Ana shu yigit militsiya xonasini buzib qochgan Egam bilan Karimni topa olmaganiga, ushlab qaytadan qamab

qo'ymaganiga, dovdiratib qo'yadigan burama savollar berib alamidan chiqmaganiga o'zini hech kechira olmayapti. O'sha kuni shoshilib, kech bo'lib qolgan bo'lsa ham, idorasiga qaytib keldi-yu, eshik lang ochilganini ko'rib, bu ikki bezori eshikni buzib chiqib ketganga o'xshaydi, demak, yo ularning tashqarida odami bormikan, ha, ha, odami bo'lgan. Aniq o'sha odamlari ochib bergen bu eshikni, militsiya xonasini ruxsatsiz ochishga kimning haddi sig'di ekan, bu hukumatga qarshilik ko'rsatish emasmikan, deb o'ylaydi leytenant. O'ylagan sari g'azabi oshib, tepe sochi tikka bo'lib boraveradi. O'zicha yana:

– Ertalab mакtabda Shokir bilan mushtlashuv bo'ldi – bir. Yarmarkada quyonchi bolani urgan emish – ikki. G'ulomning akasi bilan mushtlashib boshini yorgan emish – uch. Mana militsiya idorasini buzib qochibdi – to'rt, – deb tinmay sanab Egam bilan Karimning uylarini mo'ljalga olib, g'azab otiga minib, qadamlarini katta tashlab borayapti.

Egamberdilarning ko'cha eshigini oyog'i bilan tepib ochib ichkariga shiddat bilan kirib bordi. Qosimali suvchi sigiriga xashak solish, tagini tozalash bilan mashg'ul. Shakarxon aya qozon ostiga o't qalab hozirgina sog'ib olgan sutini qaynatib qo'yish bilan ovora.

– Egam qani? – leytenantning bиринчи savoli shu bo'ldi.

Qosimali suvchi asta boshini ko'tarib, leytenantga yaqinroq kelib, biroz angrayibroq qarab turdi-da:

– Vaalaykum assalom, – dedi xuddi yosh bolaga tanbeh bergandek ohangda.

Leytenant o'sal bo'ldi-yu, sezdirgisi kelmay:

– O'g'lingiz qani deyapman? – deb so'radi yana.

– Uni siz bilasiz, kecha qamab qo'yibsiz-ku, kamandir.

– Kechasi o'g'lingiz qochgan deyapman.

– Qochganmi qochmaganmi, uni siz bilasiz... keyin kamandir, bo'lar-bo'lmasga yosh bolani qamayverish ham yaxshi emas. Shu bilan mening o'g'limni uchinchi-ber hibsga olayapsiz.

– O'g'lingiz kecha bir kunning o'zida to'rt marta mushtlashgan.

– Demak, kecha meni o‘g‘limni to‘rt marta xafa qilishgan, kim seni xafa qilsa kechirma, jag‘iga tushir, deb men aytganman.

– Demak bezorilikni siz o‘rgatyapsiz ekandi.

– Ha men o‘rgatganman. Seni kim haqorat qilsa, sen undan baland kel deb o‘rgatganman. Birov seni ursa mening oldimga yig‘lab kelma deb o‘rgatganman. Kamadir, biz kichkina odammasmiz, bilib qo‘ying, fermermiz. Hukumat ham kim fermerni haqorat qilsa, mana menga murojaat qilinglar, ta’zirini berib qo‘yaman deganlar... Bechora o‘g‘lim uy ishlariga qarashsa, sigir boqsa, sut-qatiqni pullab kelsa, kechasi uqlamay kitob o‘qisa, yana tag‘in nima qilsin? O‘g‘limni tezroq topib bering, bo‘lmasa men sizning generalingizni taniyman borib o‘shanga arz qilaman.

Uchastka noziri gap yo‘q, so‘z yo‘q, xuddi buyruq olgandek keskin burilib chiqib ketdi. Hamma uning soyasiga salom berardi, hukumatning odami deb hurmatini joyiga qo‘yardi, bu Qosimali suvchi deganlari g‘alati ekan-ku, fermer bo‘lsang o‘zingga, sendaqangi fermerdan dunyoda mingtasi bor, hali shoshmay turgin, ota-bola ikkovingni shunday jazolayki, deb o‘yladi u. Ko‘cha eshikka yetmasidan Qosimali suvchi xotiniga «orqasidan bor, Egamni o‘ylab yuragim g‘ash bo‘lib turuvdi. ortiqcha gapirib qo‘ydim shekilli, kechirim so‘ra», deb buyurdi. Shakarxon aya Egamni, onamni sen o‘ldirgansan, deb, gap tarqatib yurgani uchun yomon ko‘rar edi. Har bir harakatidan yomonlik axtarar edi, oxir-oqibatda undan qutilsaydim, deb yurardi. Egam haqida gap ochmoqchi bo‘lgan-u lekin, eridan istihola qilib hayiqayotgan edi. Endi esa erining «bor, orqasidan chiq», degani ayni muddao bo‘ldi.

– Hoy inim, to‘xtang, – dedi leytenantning orqasidan yugurib. Leytenant to‘xtamadi. Shakarxon aya ostona hatlab ko‘chaga chiqdi. To‘rt hatlab uchastka nozirining yo‘lini to‘sdi.

– Egam haqida so‘rayapsizmi?

– Kerak emas, otasi shunaqa bo‘lgandan keyin bolasi qanaqa bo‘lar edi.

– Otasi sizdan kechirim so‘rayapti.

Leytenant yurishdan to‘xtab, qoshlarini g‘alati chimirdi.

- Xo‘p, nima demoqchisiz?
- Bezori Egamning dastidan hamma dod deydi, shuni aytmoqchiman, uning kimligini mendan so‘rang.
- Xo‘p aytинг.
- Og‘zaki aytaman, daftaringizga yozmasangiz, aytaman.
- Xo‘p yozmayman.
- Bu quyon jinnisi oldin, bolaligida kalamush ham boqqan ekan.
- Kalamush?!

– Ha, kalamush boqqan ekan, keyin xo‘roz urishtirishga berilibdi. Biryo‘la o‘ttizta tovuqni qimorda yutqizib qo‘ygan... xudo urgan yolg‘onchi ham, sut-qatiqni bozorchada yaxshigina sotadi-da, yarim pulini berkitadi, pulning qolgani qani desangiz sutingiz achib qoldi, deb yolg‘on gapiradi. Sigirni dalaga yetaklab boradi-da, oftobga boylab qo‘yib o‘zi salqinda kitob o‘qiydi. Kitob o‘qiyverib miyasi aynib ketgan. Mahallada mana shu Karimdan boshqa hamma bola bilan mushtlashgan. Hatto qizlar bilan ham urishgan. Sarviniso degan qizni mazax qilib, masxaralab she‘r yozgan ekan. Ikkita akasi kelib shunaqa urdiki... mana endi bu jinni mollarga qarash o‘rniga bir yildan buyon quyonlarga yopishib oldi... G‘ulom degan bir yaxshigina, imtizomligina bola bilan ham quyon talashib qirpichchoq bo‘lgan... Yovvoyi quyon ushlayman deb kuzda jarma-jar sanqib umr o‘tkazadi, axir, kap-katta bo‘lib qoldi, dadasiga qarashsa bo‘lmaydimi, menga qarang inim, hech bo‘lmasa uch-to‘rt kunga qamang. Agar qamatsangiz men ajratib olgan bo‘laman-da, shunda zero menga mehr qo‘ysa, orqamdan yomon gaplar tarqatishni bas qilsa... Qamaysizmi?

- Ko‘ramiz.
- Agar aytganimdek qilsangiz, uyingizga qaymoq jo‘natib turaman. Qizingizga aytинг, hech tortinmay kelaversin.

Leytenant qaymoq so‘zini eshitib, tamini sezib, bir tamshanib yutindi-yu, indamadi. Karimberdining uyiga yo‘naldi. Darvozalari ochiq bo‘lsa-da bostirib kirishga botina olmay, ko‘cha eshikni ohista-ohista taqillata boshladi. Xayriyat, Karimberdining onasi uyda ekan. Gap qisqa bo‘ldi. «Otin aya yig‘lamsirab, musichadek yuvosh o‘g‘limga onasi o‘lib,

mung‘ayibgina qolgan yetimcha Egamga hadeb yopishaverasizlarmi, bechora bolalarimda ayb nima? Olloh ko‘ngillariga quyon beqishni solgan bo‘lsa tinch qo‘yinglar-da, ana, dadasi bilan gaplapping», deb ichkariga kirib ketdi. Bog‘ tomondan Siroj birkadir chiqib kela boshladi. Qo‘lida ketmoni, qovog‘i soliq, vajohati xunuk, salomlashmadi ham. Gapni qisqa qilib:

– Bolalarni qamab to‘g‘ri qilgansiz. Bular ayni buziladigan yoshda, – shunday deb qo‘lidagi ketmonni gurs etkazib yerga bir urdi, – xo‘p mayli, ko‘p sho‘xliklariga chidadim. Endi anavi ota bezori Egamga qo‘silib quyonbozlik qilib yuribdi. Bir yildan buyon ahvoli shu. Oldin o‘sha yetimchani jazolash kerak edi. Agar Egam o‘g‘lim bo‘lganda mana shu ustunga, mana bu arqon bilan bog‘lab, uch kun ovqatsiz qoldirib jazolardim. Mening odatim shunaqa, eshitgandirsiz.

– Eshitganman, o‘g‘illaringizni ustunga bog‘lab qo‘yib jazolar emishsiz, lekin bu usul yaxshi emas.

– Nimasini yaxshi emas?

– Eshitishimcha, bu usulingiz xonlar zamonidan qolgan ekan, o‘sha zamonlarda aybdorlarni bog‘lab qo‘yib jazolash avj olgan ekan. Hayronman, bu usul haligacha saqlanib kelayotgan ekan-da.

– Yo‘q, tarbiyaning eng yaxshi usuli bu, – tushuntira boshladi Siroj birkadir, – mana men kolxzoda o‘ttiz yil birkadir bo‘lganman. Normani bajarmagan, gapga kirmagan, qaysar a‘zolarimni yer o‘rtasidagi tutga bog‘lab qo‘yardim. Planlar vaqtida bajarilardi, qo‘sha-qo‘sha mukofotlar olishardi, ordenlar olishardi. Raykom sekretari kelib Siroj aka, bopladingiz, deb maqtab ham ketardi. Shunaqa leytenant uka, ikkala bolani qamab to‘g‘ri qilgansiz... Vaqtingiz bo‘lsa, o‘tiring birgalashib nonushta qilamiz, ana opangiz jizzali non yopgan...

– Siroj aka bolalar qochib ketganmi yoki qochirishganmi, bilmadim.

– Qochgan bo‘lsa, izlab topish endi sizning vazifangiz. Men shoshib turibman. Bug‘doyni sug‘orish navbatni menga kelgan. Bilasiz-ku, hozir fermerlar o‘rtasida suv talash... O‘g‘limni ushlab dalamga olib borib bersangiz, tovug‘ingizga bir qop bug‘doy beraman.

Leytenant o'sha kuni yigitchalarning masjidda tunaganligini, Zabihillo zargarning do'koniga kirganini aniqladi, keyin izlarini topa olmadi. Egamberdi bilan Karimberdi bo'lsa qo'shni tumanga borib ko'proq quyonlar keltirish harakatida edilar, keltirdilar ham.

## Sakkizinch bob

Egamberdi bilan Karimberdi oppoq quyonlarni maxsus moslangan mashinaga ehtiyotlab yuklab, Eshonbog'ning etagiga, kun botar tomoniga yetkazib kelganlarida hali kun botmagan, mislagandek qip-qizargan quyosh hali tog' ortiga o'tmagan, Eshonbog'dagi daraxtlarning yaproqlari lov-lov yondirayotgan edi. Tegirmончи boboga ergashib uning ikki nabirasi – Rajabali bilan Ajabali kelishgan ekan. Goh u to'rdagi quyonning oldiga borib, goh bu to'rdagi quyonning yoniga kelib, qo'llarini tiqib hurkib, burchakka qisilib olayotgan jonivorlarni silab-silab yurishgan ekan. Bog' etagiga mashinadagi quyonlarni tushirishgach, bu ikki aka-uka yordamlashishga shoshishdi.

– Jon o'rtoq, menga ham mana shu quyonlaringdan, to'rtta berasan, – dedi Rajabali.

– Men beshta olaman, – dedi ukasi Ajabali.

Quyon to'la yashik, simto'rlarni buzilib, xiylagina xarob bo'lib qolgan ayvonga kiritib olishgach, ko'plab quyonilar kelganidan xursandu mamnun bo'lib, o'zini qo'yarga joy topa olmayotgan Eshon aya hammalarini ayvonga o'tirishga taklif qildi. Fotihaga kaftini ochib, Anorvoym, Bo'rivoyim bo'lib bag'rimga qaytib kelgan, buzik belimni tiklagan, xasta dilimni davolagan mana shu Egamberdi bilan Karimberdi o'g'limning yaxshi ishlariga Ollohim rivoj bersin, buyuk sayidlardan bo'lmish bobo-yu bobokalonlarimning ruhlari madad bo'lib tursin, deb duo qildilar.

– Nazarmatvoy, – deya tegirmончи cholga murojaat qildi aya, – Ollohning marhamatini qarangki, hali aytganimdek tushim, o'ngimga teng kelib tursa-ya! Oltmisht yildan buyon o'g'illarimni yana bir ko'rarmikanman deb zorlangan edim.

Buni qarang, mana bu ikkovi o‘g‘illarim kirib kelishsa-ya. Yo tavba, yo Ollohim, kishining tushi bilan o‘ngi ham shunaqa teng keladimi?! Bularning tagida, zamirida allaqanday sir bor, ilohiy bir holat bor. Xudo xohlasa mana shu o‘g‘illarim tirigimdan ham, o‘ligimdan ham boxabar bo‘lishadi.

Eshon ayaning quvonchi qalbiga sig‘may aytayotgan so‘zlarini past bo‘yli, haddan tashqari oriq bo‘lganidan yosh boladek kichkina bo‘lib ko‘rinadigan tegirmonchi bobo kalta qirqilgan mosh-guruch soqolini changallab, biroz qaltirab tinglab turdi-da:

– Eshon aya, – deya sakrab o‘rnidan turib ketdi, – bu bog‘larni menga va‘da qilayotgan edingiz-ku, nima men sizga yomon qaradimmi, bobolarimizning qabrilarini ehtiyot qilmadimmi?!

– Yaxshi qaradingiz o‘g‘lim, yaxshi qaraganiz uchun ham mana shu bog‘lardan qop-qop yong‘oqlar olib turdingiz, menga kelgan xayri-sadaqalarni ham sizga jo‘natib turdim. Qayta-qayta rahmat aytaman. Endi mana o‘g‘illarim keldi, hammasiga shular qaraydi.

– Aya! – deb yer tepindi tegirmonchi bobo, – bu bolalar quyon boqamiz deyishyapti-ku, quyon boqishsa bog‘ yana rasvo bo‘ladi-ku.

– O‘g‘lim, bu quyonlar siz o‘ylagandek oddiy quyonlarga o‘xshamaydi, tog‘ma-tog‘ bekorga sarson bo‘lib kelishmagan. Hammasi Ollohdan, bu o‘g‘illarim yaxshi niyatlar qilishgan ekan, yaxshi niyatlariga mukofot bo‘lib kelgan bu quyonlar.

Tegirmonchi bobo Eshon ayaning o‘limini betoqat kutib, o‘limlari tezroq bo‘lsa bu bog‘larga o‘zim egalik qilaman, degan xayolda yurardi. Har kuni bo‘lmasa ham, kun ora kelib turadigan xayri sadaqalar ham o‘zimga bo‘lar, deb o‘ylayotgan edi. Shu maqsadda garchi yosh bo‘lsa ham ataylab soqolini o‘stirgan, ataylab belini bukibroq yurar, goho-goho qo‘liga hassa ham ushlab olar edi.

Eshon ayaga aytadigan gaplari hali ko‘p edi, aytolmay qoldi. Jadal kirib kelayotgan uchastka noziri militsionerga ko‘zi tushdi-yu, og‘zidagi bo‘g‘zida qoldi. Uchastka noziri shiddat bilan kirib keldi-yu, to‘rt hatlab borib, hali gap nimadaligini

tushunib yetmagan Egamberdining bilagidan mahkam siqdi, kuchi yetganicha bilagini qayira boshladi. Egamberdi chayir bola, bolaligidan buyon tengqurlari bilan olishaverib, kurashaverib xiyla «pishib» ham qolgan ekan.

Uchastka nozirining changalidan bir siltanish bilan chiqib ketdi, u yana ushladi, Egamberdi yana chiqib ketaverdi.

– Sen bolani, baribir ushlayman, jazolayman, – dedi hansirab leytenant.

Eshon aya ichkaridan shoshilib chiqdi-da, ikki kishi olishayotganini, olishayotganlardan biri qizil shapkali militsioner ekanligini ko'rib yuraklari shuv etib ketdi, qo'l oyoqlari bo'shashib keta boshladi.

– Hoy, hoy, nima gap o'zi? – deb so'radi.

Leytenant olishuvdan to'xtab maqsadini tushuntira boshladi. Oshirib, toshirib gapirdi. Nimani gapiroayotgan bo'lsa shular haqida Egamberdi bilan Karimberdi ham kechadan buyon ayaga qayta-qayta aytib bergen edilar. Eshon aya aqli, ziyrak ayol. Harqalay, o'g'illarida ham ayb borligini sezib turibdi. Beayb parvardigor. Ularni himoya qilishim kerak, deb o'yldagi aya.

– O'g'lim, Egamni qo'yib yuboring, yaqinimga keling, – dedi.

Leytenant yaqinroq keldi.

– O'g'lim, qayerda turganingizni bilasizmi?

– Bilaman, Eshon bog'da turibman.

– To'liqroq qilib aytинг, o'g'lim.

– Bilganim shu.

– Bilmasangiz bilib qo'ying, siz payg'ambarlarimiz avlodidan bo'lmish Sayid Jalolxon eshon, Sayid Xodixon eshon, Sayid Hoshimxon eshon hazratlarining xoki poklari yotgan, Toshkentdag'i davlat idorasi tomonidan qo'riqlanadigan, musulmonlar tez-tez kelib turadigan muqaddas dargohda turibsiz. Bu dargohga ruxsatsiz, tahoratsiz kirish mumkin emas. Chiqing ko'chaga, eshigimni taqillating, ruxsat bersam keyin kirasiz.

Shunday deb Eshon aya qo'lidagi hassani leytenantning ko'kratiga tiradi. Qiziq, hassanining sehrlovchi xislati bor ekanmi yoki ayaning so'zlari yigitning ongiga qattiq ta'sir qildimi:

- Mayli chiqib ketaman, – dedi leytenant, – lekin mana bu ikki bezori ertalab mening idoramda bo‘lishi shart. Ayting, boramiz deb so‘z berishsin.
  - Egamberdi, Karimberdi, jon o‘g‘illarim boramiz deb so‘z beringlar.
  - Boraman, – dedi Egamberdi.
  - Xudo xohlasa boramiz, – deb qo‘srimcha qildi Karimberdi.
  - Gapini oxirigacha aytolmay, chalasi ichida qolgan tegirmonchi chol bilan leytenant bog‘ eshididan birgalashib chiqishdi. Allanarsalar haqida norozi bir ohangda qizg‘in suhbatlashib ketayotganlarini Eshon aya zimdan kuzatib turdi, ishqilib niyatları buzilmagan bo‘lsin-da degan noxush xavotir keldi ko‘ngliga.
- ### To‘qqizinchı bob
- Leytenant bilan tegirmonchi chol jo‘nab ketgach, Egamberdi bilan Karimberdi anchagacha dilgir bo‘lib, bir-birlariga gap qo‘shgilari kelmay, bordi-yu uchastka noziri qaytib kelib, senlarni qamashim kerak, deb qolsa, unda nima qilamiz, deb g‘am daryosiga cho‘kib o‘tirishdi. Ammo Egamberdi bo‘lar-bo‘lmasga o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan yigitchalardan emasdi. Shartta o‘rnidan turib:
- Rajab, sen o‘zi bugun nega keluvding? – deb so‘radi.
  - Quyonlaringni ko‘rgani keluvdik, bolalar rosa maqtashyapti-ku.
  - Ukang-chi, ukang nega keldi?
  - Ukam ham quyonlaringni ko‘rmoqchi.
  - Bu quyonlarni biz hozir olib keldik-ku.
  - Oldin olib kelganlaringni kecha kelib ko‘rib ketganmiz, Eshon ayam qo‘llaringni yuvib, keyin silanglar degan, to‘rtta quyoning bolalagan ekan. O‘scha bolalarining urg‘ochisidan bizga ham berasan, maylimi? Opam ko‘chada velosiped poygasi o‘ynab yuraverguncha quyon boqsalaring o‘lasanlarmi deyapti.
  - Ajabboy ham gapga aralashdi:
  - Akam yolg‘on gapiRAYAPTI. Unday demadi, televizor oldida hadeb yotaver manglar deb urishdi.

Avvaliga biroz tortinibroq turgan bu aka-ukalaru Egamberdi bilan Karimberdining suhbatи asta-sekin qiziy boshladi. Egam quyonchilik fermasi, ferma bo‘lganda ham dunyoda tengi yo‘q ferma tuzamiz, Karimberdi, dunyoda quyonlarning yuz xil zoti bor ekan, shundan kamida elliktasini olib kelamiz, mana ko‘rasan, biz yana mana shu haftaning oxirigacha quyonlarimizning sonini mingtaga yetkazamiz, dedi.

- Voy bo‘y! – dedi Rajabboy.
- Ana aytdim-ku, – dedi Ajabboy.
- Quyonchilik fermamizga a’zo bo‘laman degan bolalar ko‘p. Lekin o‘scha bolalarning ko‘pchiligi dangasaga o‘xshaydi,
- deya gapini davom ettiryapti Egamberdi.
- Biz, Egam aka, dangasa emasmiz, – deyapti Ajabali, – mana bilagimizni ko‘ring, kuchimiz ham ko‘p.

- Demak fermaga a’zo bo‘lmoqchimisizlar?
- Ochig‘ini aytaymi?
- Ochig‘ini ayt.
- Ochig‘i biz a’zo bo‘lmoqchi bo‘lib keluvdik.

Suhbat uzoq davom etmadidi. Ferma tuzishga qaror qildilar. Egamberdi aytib turdi, xati chiroyliroq, bexato ham emasmi, Karimberdi yozib turdi.

«Oq quyon, oppoq quyonlar» fermasi.

Bosh maslahatchi Eshon ayamiz bo‘ladilar.

Ferma raisi – Egamberdi Qosimaliyev.

Rais o‘rinbosari – Karimberdi Sirojov.

Xashak brigadiri – Rajabali Otajonov.

Tozalik komissiyasining raisi – Ajabali Otajonov».

– Ajabali ukaginam, sen quyonlarning tagini tozalaysan, tushunarlimi?

– Tushunarli, – shoshilib javob qildi Ajabali, – uyimizda ham qo‘ylarimning tagini men tozalardim...

Hammalari ushbu taqsimotning ostiga, roziman, deb imzo chekishdi. Ichkariga tasdiq uchun Eshon ayaga olib kirgan edilar, Eshon aya jilmayibgina biroz jim turdi-da, hammalarini yonlariga chaqirib, peshonalaridan bir-bir o‘pib og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi. Negadir ko‘zlarida yiltirab yosh tomchilari ko‘rindi.

– Ayajon, yig'lamang, – dedi Ajabali, – biz hech ham dangasa emasmiz, quyonlarimiz tagini tozalaymiz, men faqat sigirlarning tagini tozalashni yomon ko'raman, hidi yomon. ko'nglim ayniydi, yig'lamang, jon ayajon yig'lamang.

– Bas qil, – deb akasi Ajabalining biqiniga qattiq turtib qo'ydi. Egamberdi ferma harakatining birinchi yig'ilishini sinf rahbari Hamidova opa sinf majlisini qanday ochsa, qanday olib borgan bulsa, qanday savol-javoblarga ruxsat bergen bo'lsa, xuddi o'shangan o'xshatib o'tkazmoqchi bo'ldi.

– Hamma joyidami, shovqin solmasdan o'tirishlaringizni, so'rayman, savollar tartib bilan berilsin, ko'rildigan masala bitta, xashak tayyorlash masalasi. Rajabali, sen hadeb yelkangni qashiyverma... Qarshilar yo'qmi? Ochig'ini aytaman, quyonlar och, sabzi kerak, karam kerak, – Egamberdi to'xtamay gapiro yetgan edi, Rajabali qo'l ko'tarib so'zlashdan to'xtatdi.

– Nima gaping bor?

– Gaping ko'payib ketdi, shuni aytmoqchi edim.

– Senda ham gap bormi, bo'lsa gapir.

– Quyonlar sabzi yeidi deb yaxshi gap aytding. Men sabzi bor joyni bilaman. Katta fermer Qambarali bobo bor-ku, kuzda sabzisini kavlab ololmay muzlab joyida qolib ketgan, o'shandan tersak bo'ladi.

– Hozir qorong'i tushay deb qoldi, paypaslanib yer ostidagi sabzilarni topgunimizcha zim-ziyo bo'lib qoladi.

– Bo'lmasa, – oldingisidan ham kuchliroq hayajon bilan gapira boshladi Rajabali, – G'ani tog'aning karamidan olib kelamiz. Hammasini yig'ib, ustiga salafan yopib o'rab qo'ygan. Rossiyadan alka moshinasini kelishini kutayapti. Xo'p desanglar, men panalab borib, ariqning ichiga dumalatib turaman, sizlar tashib olaverasizlar.

Bu taklif har narsadan bir irim topaveradigan Karimberdiga yoqmadi, birinchi ishimizni o'g'irlikdan boshlamaylik, dedi. Ketidan o'zi ajoyib bir taklif ham kiritdi. Pulimizdan bir qismini yelim xaltaga solib, o'sha karam uyib qo'yilgan maydon yonidagi qari tutning kavagiga qo'yaylik. Undan keyin karamni olaylik. Shunda biz o'g'irlik qilmagan

bo'lamiz, pulini oldin to'lab qo'ygan bo'lamiz, degan gaplarni aytди.

– Ovozga qo'yaman, – dedi raislik qiluvchi.

Hamma rozi ekan, baravar qo'l ko'tarishdi. Ajabali, negadir o'rnidan turib qo'llarini boshi baravar ko'tarib qarsak chalgan ham bo'ldi.

Eshon ayaning uyida qop degan narsa yo'q ekan. Eski ip sholchani ko'tarib jo'nashdi. Qiziq bir holat yuz berib borayapti. Bir necha daqiqa oldin leytenantni ko'rishlari bilan qovoq tumshuqlari osilib, ruhlari so'nib, dunyolari qorong'i bo'lib turgan yangi tuzilgan ferma a'zolari to'satdan boshqa bir olamdan kelib qolgandek bo'lib qoldilar. Yuzlari charog'on, ko'zlaricha qaqnagan, lablarida tabassum o'ynaydi, oyoqlari chaqqon – bamisol g'ayratlari ichiga sig'mayotgandek, bir-birlariga ortda qoldirib borayaptilar. Hammalaridan yosh bo'lgan Ajabali yugurishni yaxshi ko'rар ekan, oldinda chopib borayapti. Qorong'i tushguncha uch bora qatnashdi. Quyonlar kun bo'yi mashinadan -mashinaga o'tib, xiyla ochiqib ham qolgan ekanlar. Boshlarini ko'tarmay karamlarning yumshoq-yumshoq po'stidan girt-girt uzib olib, uzun quloqli boshlarini baland-baland ko'tarishib, og'izlaridagi yemishni bir-birlariga ko'rsatishib, maqtanishib yeysa boshladilar.

– Egam aka, – deb murojaat qilyapti Ajabali, – ertaga kelganimda quyonlarning erkagi qanaqa bo'ladi-yu, urg'ochisi qanaqa bo'ladi menga ko'rsatib qo'yasiz, xo'pmi.

– Xo'p, faqat barvaqtroq kelgin, quyonchalar seni sog'inib qolishsa yig'lab o'tirishmasin.

Aka-ukalar qorong'i quyuqlashib qoldi, mana el yotar payti ham bo'ldi, tag'in opamiz urishib, ertaga bu yoqqa jo'natmay qo'ymasin deyishib uylariga xuddi bирyo'la uch fandan besh olgan o'quvchidek xursand kayfiyatda ketdilar.

Bir nafasli xursandchilik Egamberdini ham, Karimberdini ham tark etdi. Ertalab borsak leytenant qamab qo'yishi ham mumkin, deb o'ylashyapti. O'ylaganlari sari butun dunyolarini g'am-tashvish, xavfsirash bosib kelayotgandek bo'layapti. Uzoq o'ylashdi, har xil tadbirlarni ko'z oldilariga keltirib ham

ko'rishdi. Keyin Egamberdi, to'satdan, sakrab o'rnidan turib ketdi:

- Men qishloqqa borib kelaman, – dedi ko'zları chaqnab.
- Yarim kechada-ya?
- Tur, katta to'rga o'nta quyon joyla.

Raisning buyrug'ini bajarish kerak, bajarishni o'rganishi ham kerak, buning ustiga Egamberdining fe'li sal g'alatiroq, butun dunyo qarshi turganda ham, aytgan gapidan qaytmaydigan odati bor. Katta to'rga o'nta quyon soldilar. Fotiha olish uchun Egam Eshon ayaning huzurlariga kirdi. Maqsadini aytgan bo'ldi. Eshon aya, hech bo'lmasa, o'rtog'ing birga borsin, dedi.

– Yo'q! – deb Egamberdi velosipediga minib qorong'ulik qa'riga singib ketdi.

– Eshon aya, xafa bo'l mang, – deb o'rtog'inining yonini ola boshladi Karimberdi, – o'zi o'g'lingiz yaxshi bola, lekin juda-juda qaysar, aytganidan qolmaydi.

– Bir so'zli ekan-da, – dedi Eshon aya, – tavba qildim, Anorvoym ham xuddi o'rtog'ingga o'xshab bir so'zli edi, aytganini qildirmasdan qo'ymasdi, ketayotganida qarshisidan baland qoya chiqib qolsa, aylanib o'tsa bo'lardi-ku, yo'q, shuni buzib o'taman deb turib olardi... Qara-ya menga Anorvoymni fe'li atvori bilan qaytarib beribdi-ya. Shukur, ming bora shukur. Kel, yonimda yotaqol, seni bag'rimga bir bosay. Bo'rivoyim ham xuddi senga o'xshab og'ir, bosiq, kamgap, yumshoq tabiatli, beozorgina yigitcha bo'layotuvdi... Voy xudoym, vujudingdan chiqayotgan harorat ham xuddi Bo'rivoyimning haroratiga o'xshaydi-ya. Sen Bo'rivoyimsan, bilib qo'y.

Eshon aya bilan Karimberdi bir-birlarining bag'rida beqiyos mehr haroratidan erib, silashib, siypalashib goho yig'lashib olayotganlari pallasida Egamberdi allaqachon quyonlarni deb mushtlashgan tenquri G'ulomning ko'cha eshigiga yetib borgan edi. Ko'y lagi yoqasini ochib ikki quyonni qo'yniga soldi-da, o'g'ri mushukday sapchib devordan oshib, qo'rquvdan yuraklari gup-gup urib turgan quyonlarni hovliga qo'yib yubordi. Ketidan yana ikkisini olib o'tdi. Shokir

chaqimchining hovlisiga qarab yugurdi. Quyonlarning kichkina-kichkina yurakchalari tez urarmidi yoki Egamberdining yuragi qinidan chiqib ketguday bo'lib tez urayotganmidi, bilib bo'lmasdi. Shokirnikidan keyin baland devorli hovlisiga qarab yugurdi. Har biriga ikkitadan quyon tashladi. Tashlagani uchun emas, shu harakatini osmondagি yulduzlardan boshqa hech kim ko'rmaganidan xursand edi.

### O'ninchi bob

Xonkeldi qishlog'ida yangilik sisatida paydo bo'lgan qo'l telefonlari kam, ishi o'ngidan kelgan besh-o'n fermerda bor xolos. «Quloq» telefonlari esa uch yuz oilaning hammasida bor. Bu telefonlar simsiz, batareyasiz shunday tez ishlaydilarki, ko'z yumib ochguncha har qanday xabar butun qishloqni aylanib qo'yaqoladi. G'ulom semiznikida, Shokir chaqimchimikida, Universal bobonikida, ey boringki, uchastka nozirining pishiq g'ishtdan baland ko'tarilgan hovlisida, hovlilarning burchak-burchagida qo'rqib pisib, qo'nishib-qo'nishib turgan oppoq quyonlarning paydo bo'lishi ko'rganlarning hammasida vahima uyg'otdi.

– Voy o'lay, voy o'lmasam, – deb yubordi Shokir chaqimchining onasi, – voy dadasi, buyoqqa chiqing, mana bu maxluqlarni ko'ring.

Butun oila a'zolari oyoqqa turdi. Bu maxluqlarni Shokir olib kelgani yo'q. Dadasi olib kelgani yo'q, eridan ajralib kelgan opasi olib kelgani yo'q... voy xudoyim, ularni kim olib keldi ekan? Ko'cha eshik berk, devor juda baland... yo ular osmondan tushdimikan? Bu yilni to'ng'iz yili deyishayotgan edi, Olloha astoydil sig'insang, to'ng'iz bir dumalab yo quyon, yo echki bo'lib qoladi deyishayotgan edi... Yo Olloh, bu nima sir?

– Opajon, bular quyon-ku, – dedi uydan hovliqib chiqqan qizaloq.

– Bekor aytibsan, qizim, quyon hech qachon oq bo'lmaydi.

– Bo'lmasa bular shunaqa echkidir.

– Bekor aytibsan, deyapman, echkida soqol bö'ladi-yu uzun quloq bo'lmaydi.

– Hoy qo'shni, hoy Inoyatxonim, – deb ko'chaga yugurdi xonardonning vahima ichida qolgan onaxoni.

Xuddi shu paytda G'ulom g'uppaning oilasida ham. Universal boboyu, qattiqqo'l uchastka nozirining qizlarigacha hamma-hammalari g'alati-g'alati gaplarni aytishayotgan edi. Vahimachi chollar ham o'z fikrlarini bayon qilishdan to'xtashmayapti.

– E, Shodivoy, esingdami, – dedi bir chol bobo, – avvalgi yili xorijlik qalloblar g'isht zavodi quramiz deb, pul yig'ib qochgan edi, mana shu quyonlar ham o'shalarning qilig'i, buning tagida bir gap bor.

– Yo'q, o'rtoq, sen bilmas ekansan, bu ularning makkorona ishi, sekin-sekin ana shu yo'l bilan bizni chuv tushirishadi bular.

– Bo'limgan gapni bas qilinglar, – deyapti uchinchi bir chol bobo, – Karim qori to'ng'iz yilda, agar Olloh marhamat qilsa, osmondan to'ng'iz emas, echki yog'ilishi ham mumkin, degan edilar, bugun quyon yog'ilibdi, ko'rasiz, ertaga echki ham yog'iladi.

Qishloqchilik ekan-da, ana shunday poyma-poy, telba teskari, vahimali gaplar ustiga Qambarali fermerning xirmonga uyub, ustini yopib qo'ygan karamlarini tog'tomondan tushgan shaytongami, alvastigami o'xshash maxluqlar tashib ketayotgan emish, qorovul o'z ko'zi bilan ko'rgan emish, oldiga boray desa qo'rqqanmish, degan gaplar ham qo'shilaverdi.

Vahimali gaplar bir kuchayib, bir pasayib borayotgan bir paytda Egamberdi bilan Karimberdi qutqarib olib kelgan velosipedlarini minib uchastka nozirining idorasini mo'ljalga olib borayotgan edilar. Egamberdi o'zida yo'q shod, mammun. G'ulom bilan ikkovimiz o'rtamizdag'i janjal quyondan chiquvdi, endi davomizdan kechdik, deyishsa bo'ldi. Xudo xohlasa, kechishadi ham, bora-bora chin o'rtoq ham bo'lib ketamiz, deya shirin xayollar surib borayapti.

Leytenant ko'rimsizgina xonasida o'tirib bu ikkovini betoqat kutayotgandi. Har galgidek qovoqlari solingan. Tunda xonadonlarida paydo bo'lgan sirli quyonlarni, albatta, Egam tashlagan, oq quyonlar bu qishloqda hech qachon bo'lgan

emas... Obbo shayton-e, yovvoi mushukdan ham battar ekansan-ku deb o'ylayapti, tepinib-tepinib ham qo'yyapti. Bu gal Egamni qattiq jazolamoqchi. Qo'liga kishan urib, oyog'ini yerga tekkizmay tuman miliitsiyasining balog'atga yetmagan bolalar bilan ishslash bo'limiga topshirmoqchi.

– Keldilaringmi, – deb leytenant yigitchalarni negadir odatdagidan ko'ra iliqroq, samimiyoq kutib oldi.

– Keldik, – deyishdi ikki o'rtoq.

– Karim Sirojov sen nega kelding?

– Kecha ikkoving ham borasan devdingiz-ku.

– Kimga guvohlik bermoqchisan?

– O'rtog'im Egamga guvohlik beraman. O'sha kuni ayb G'ulomdan o'tgan... keyin akasi Isroil ham oldin Egamga musht urgan.

– Xo'p bor endi, tashqariga chiqib tur, kerak bo'lsang yana chaqiraman. Bilaman, sen rostgo'y bolasan.

Karimberdi chiqib ketaturib o'rtog'ining ko'ziga qattiqroq tikildi. Uning qop-qora ko'zlarida mung, g'ussa limmo-lim to'la edi. Achinib ketdi. Birozdan so'ng kimnidir o'ylab o'tirgan leytenant qo'liga qog'oz-qalam olib Egamni so'roqqa tuta boshladi.

– Isming?

– Bilasiz-ku.

– Familiyang?

– Buni ham bilasiz-ku.

Leytenant ruchkani tashlab boshini keskin ko'tardi. Endi uning ko'zlariga qarab bo'lmaydi, dahshat bor.

– Gapir, o'sha kuni nega qochding?

– O'zingiz mast bo'lib qolib eshikni qulflay olmay ochiq tashlab ketgan ekansiz.

– Nima?!

– Keyin Obidjon amakining to'yiga borib yana ichibsiz. Ichaveribsiz, ichaveribsiz, keyin o'yinga tushibsiz.

– Nima, nima?

– Biz o'sha kechasi masjidda yotdik.

– Masjidda, kim bilan yotding?

– O'rtog'im bilan.

- O'rtog'ing ham o'zingga o'xshagan bezori bo'lsa kerak-a?
- O'rtog'im tengi yo'q yigit, u haqda bunday gaplaringizni gapirmang. O'zingiz bezorisiz.

– Nima, nima?

- O'sha kuni to'pponchangizni qo'lingizga olvolib kuyovning otasiga aroq topasan, bo'lmasa otaman, debsiz. Chol bobolar to'yxonadan xafa bo'lib ketishibdi.

Leytenant jadal kelib o'ng qo'lining mushti bilan Egamning iyagidan ko'tardij:

- Kechasi birovlarining uyiga bostirib kirish jinoyat ekanligini bilarmidинг?

– Bostirib kirganim yo'q, devordan oshib tushganman.

– Besh yilga qamalib ketishingni bilarmidинг deyapman?

– Yo'q, bilmasdим.

- Mana endi bilib olasan, bildirib qo'yishadi senga, sendaqa bezorilarni jazosini berib qo'yadigan joylar bor.

- Men bezori emasman, fermerman, buyuk ferma yarataman, butun dunyo odamlarini quyon go'shtiga to'yg'izaman.

- Fermer emishlar... quyon go'shtiga to'yg'izar emishlar... besh yil o'tirib chiqqanidan keyin fermerlik haqida o'ylaysan.

Leytenantning jahli tobora alanga olib ko'tarilib borar, shu mushtumdekkina yigitchani taslim qildira olmaganiga alami ham oshib bormoqda edi. Yonidan qo'l telefonini olib allakimga qo'ng'iroq qildi. O'g'illaringiz, ikkovi ham zudlik bilan yetib kelishsin, deb aytdi. Xiyol o'tmay uzun-qisqa bo'lishib aka-uka Isroil bilan G'ulomlar kirib kelishdi. Isroilning qo'lida dehqonlar kartoshka soladigan to'rli yelim qopda quyonlar bor, bir-biriga mingashib turibdi. Isroil qopni Egamberdining oldiga tashlab:

- Biznikiga kechasi nega bostirib kirding? – deb do'q urgandek bo'ldi.

- Isroil aka, men ukangiz G'ulom bilan yarashaylik deb quyon olib bordim.

- Biz sen o'g'ri bilan hech qachon yarashmaymiz, buni bilmasdingmi?

– Jon Isroil aka, men o'g'ri emasman. O'shanda ukangiz G'ulomga oltita quyonini oltita qalin daftarga almashtirganman. Keyin kechasi quyonlaring turgan yashikni och tulkilar tatalab ochgan, yeganini yegan, qolganlari qochib ketgan.

– Yo'q ukam, sen quyonlarni o'g'irlab sotgansan... Fermer dadang ham o'g'ri, yerlarini bizning suvdan o'g'irlab sug'oradi, xirmondag'i o'g'itlarimizdan o'g'irlab ekiniga soladi, yashnatadi.

Egamberdi uchrashuv bunaqangi teskari tomonga burilib ketishini o'ylamagandi. Dovdirab qoldi. Xuddi ajina chalib ketgandek lablari burishdi, so'zlay ham olmayapti.

– Landavur, dangasa dadangni o'gay onang eshak qilib minib olgan. Ishonmasang mahalladagi xotinlardan so'ra.

Egamberdi bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftlayapti-yu, deya olmayapti. Faqat qaltirog'i kuchayib borayapti, xolos.

– Bog'chada mudira bo'lib ishlagan onang ham qotil. Qo'lida ishlaydigan tarbiyachilarni o'ynatib kelaman, deb Shohimardon sayliga zo'r lab olib borgan. Bildingmi, hammasi toshqinda toshlar ostida qolib o'lgan, ishonmasang mahalladagi xotinlardan so'ra. Nega bo'lmasa onangning o'zi tirik qoldi, nega sen tirik qolding, onang qotil bildingmi, otang o'g'ri, sening o'zing ham o'g'risan.

## O'n birinchi bob

– Tuhmat qilma! – baqirib yubordi Egamberdi. Baqirishi asnosida allaqanday yovvoyi kuch ta'sirida turgan joyida xuddi po'lat purjinadek sakrab ketdi. Sakrab borib G'ulom g'uppaning ko'kragiga shunday bir kuch bilan tepdiki, orqasi bilan tisarilib boshi devorga urildi.

Mushtlashuv boshlanib ketdi.

Tashqaridan, qo'lini musht qilib Karimberdi yugurib kirdi. Endi to'rt kishi mushtlashyapti.

Xayriyat, leytenant yoshlarning bunaqa mushtlashuvini ko'p ko'rgan ekan shekilli, ikki tomonni bir nafasning ichida tinchitib qo'ya qoldi. Oldin aka-ukalarni, ketidan o'rtog'imni

hijmoya qilaman deb kirgan Karimberdini itarib-itarib tâshqariga chiqarib yubordi. Xonkeldiliklar uchun mushtlashish ota meros deyishadi. Qadim-qadim zamonlarda, xonlar sultonlar kelib-ketib yurgan zamonlarda, tog' etagidagi mana shu xilvatgina qishloqda boks o'rniga dahshatli mushtlashuv musobaqalari bo'lar ekan. Urgan ham, kaltak yegan ham katta-katta sovrinlar olar ekan. Bu gal har ikki tomon ham hech qanday mukofot olmadi-yu, ammo leytenantning g'azab otiga minishiga sabab bo'ldi. Qaltiroq qo'llari bilan nimanidir yozayapti, ko'ngli to'lmayapti shekilli, yiitib-yirtib tashlayapti.

– Yo'q, baribir, sen jazolanishing kerak, tavbangga tayanishing kerak, – deb ruchkani otib, stolni bir mushtladida, tashqariga chiqib ketdi. Eshikni ustidan shiqirlatib qulflagani eshitildi. Qayoqqadir yo'q bo'ldi shekilli, Karimberdi deraza oynasiga yaqin kelib, past ovoz bilan pochtaxonaga kirib ketdi, deb axborot bergen bo'ldi. Egamberdi hali jon chiqarga mushtlashayotganida qo'l-oyog'i qaltiramagan edi. Endi butun borlig'ini qaltiroq bosib kela boshladi. Qo'rquvdan keldi shekilli. Tuman militsiyasiga qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa-ya, qo'limga kishan urib olib ketishsa-ya, deb o'yladi, qo'rquv ana shundan keldi shekilli.

„Qochish kerak!

„Qanday qilib qochsa bo'lar ekan.

Tashqaridan egasi tashlab ketgan xaroba nonvoyxona ko'rinyapti. deraza oshiq-moshiqli, chiqarsa bo'lardi, shunday ko'tarsa ish bitadi, xudoga shukr Egamning qaltirog'i bosilib vujudiga kuch quyilib kelayotgandek bo'ldi. Burchakda yelim qopda bir-birini bosib o'lay-o'lay deb turgan quyonlarini oldida tashlandiq nonvoyxonaga o'zini otdi.

– Yaypanga! – deb baqirdi velosipediga minaturib.

– Tuman markazigami? – o'rtog'idan ham hamma eshitadigan darajada qattiq ovoz bilan so'radi Karimberdi.

„Bunaqa paytlarda Egamning aqli juda tez ishlaydi. Olloh ünga mo'l aql bergen, aqliga yana shuncha aql qo'shib berg'un. «Leytenantni chalg'itish uchun Yaypanga!» deb qichqirdi. O'rtog'i ham uni tezgina tushuna qoldi. Unikidan balandroq

qilib bekorga qichqirmadi, kinolardagi qochdi quvdi holatlarni ko'p ko'rishgan bular. Kim chalg'itsa o'sha g'olib bo'ladi, buni yaxshi bilishadi.

- Bopladik-a, - deyapti Egamberdi.
- Lekin, aqlisan-da o'rtoq, endi bizni axtarib leytenant Yaypanga jo'naydi.
- Karim, sen ham yaxshigina mushtlashar ekansan, bu gal senga juda qoyil qoldim.
- Senga achinib ketdim-da, Egam.

Gaplasha-gaplasha Yaypan yo'lidan burilib, Jo'ja qishloqqaga chiqib oldilar. Bu so'lim qishloqni ham ortda qoldirib, o't-o'lanlar maysa bo'lib qolgan dashtga qarab burildilar. Mo'ljal uylariga borish. Janjallarga sabab bo'lgan mana shu ikki velosipedni ota-onalariga topshirish. Keyin dalaga borib Qambarali fermerning qari tuti kavagiga berkitib qo'yilgan pullarni olib, mana bu karamingizni puli, yana ko'proq olmoqchimiz, ko'proq olsak pulni ham ko'proq bermoqchimiz, degan gaplarni aytish. Keyin Eshon bog'ga borib ayajonimiz, mana biz eson-omon qaytdik, xotirjam bo'ling deyish, ana shunga o'xshash «keyin, keynlardan» yana oltitasini sanashdi.

Egamberdining ko'cha eshigi qulf ekan. Nonushtani birga qilarmiz deb Karimberdining uyiga qarab burilishdi:

Yo Olloh! Yo parvardigor! Uchastka noziri shu yerda ekan. Siroj birgadir bilan qattiq-qattiq gaplashayapti. Urishib qolishganga o'xshaydi. Ikki o'rtoq sekingina orqalariga burildilar.

- Orqanga qayt! - dahshatli ovozi eshitildi Siroj birgadirning, - oshxonaga kir, sen bilan gaplashadigan gapning vaqtি keldi.

Yigitchalar chor-nochor orqalariga qaytdilar. Oshxonaga kirdilar. Siroj birgadir g'azabdan tushgani yo'q, jerkib-jerkib gapirayapti.

- Leytenant, sen hamma narsani bilaman deysan-u, hech narsani bilmas ekansan. Essizgina senlarga o'xshaganlarga hukumatning noni, oshi, essizgina. Anavi kuni kelganingda men hamma gapni ochiq aytganman-ku. Yana aytaman, tarbiyada qattiqqo'l bo'lish kerak. Qattiqqo'l bo'lganim uchun.

ham o'g'illarim odam bo'lishdi. Mana kamandirdan kelgan xatni o'qigin. «O'rtoq Siroj Sayidov, ikki o'g'lingiz mening batalonimda xizmat qilayapti. Zo'r tarbiya bergen ekansiz, turnikka yaxshi osilishadi, yugurganda, hammadan o'zib ketishadi, ovqat ichgan idishlarini tozalab yuvib qo'yishadi, tuflilari hamisha moylangan bo'ladi, ofarin sizdek otaga, ofarin bunday bolalarni tarbiyalagan onaga», mana, kamandir qanday so'zlar yozibdi. Ana shu o'g'illarni men tarbiyalaganman. Agar onasiga berib qo'ysam dangasa, ishyoqmas, yig'loqi bo'lib o'sishardi. Leytenant bugun bolalarni senga bermayman. O'zim tarbiyalayman. Sanlab gapirganim uchun xafa bo'lma, o'g'lim tenggigina emassan. Boraver, qanday tarbiyalaganimni kelib ko'rasan.

– Qani ko'rsak ko'rarmiz, – dedi leytenant.

Siroj birgadir oshxona eshigini ochib, o'g'lining bilagidan mahkam siqqancha avvondagi ustun tomon yetakladi.

– Mana shu jimjimador bezaklari qop-qorayib, moy bosib ketgan ustun rahmatli bobomni tarbiyalagan, rahmatli otamni tarbiyalagan, mana endi o'g'illarimni ham tarbiyalayapti. ochig'ini aytsam, mana shu ustunga bog'lab meni ham tarbiyalashgan. Qani ayt-chi, mening o'g'limda qanday ayb bor, ochig'ini ayt.

– Idoramning eshigini buzib qochishgan, – hech ikkilanmay dedi leytenant.

– Yana?

– Yana, maktabda mushtlashuv tashkil qilishgan.

– Yana?

– Yarmarkada quyon o'g'irlamoqchi bo'lishgan.

– Surishtirib poyoniga yetdingmi?

– Tergovni boshlayman deb turibman.

– Tergov-pergovingni yig'ishtir... nega bir sutkaga qamamoqchi eding?

– Aytdim-ku, tergovni bugun boshlamoqchiman deb.

– Bu bolalarning har birini uch sutkadan jazolasam ko'ngling to'ladimi?

– Bilmadim.

Siroj birgadir Karimberdini turtib, itarib qullar zamonidan qolib bobo-yu bobokalonlarini tarbiyalagan ustunga qadab,

tikka turg'izdi-da, jun aralash to'qilgan ipak arqonni tovonidan boshlab tanasiga o'rab chiqa boshladi. Ichkaridan oppoq kiyingan, oppoq ro'mol bilan boshini o'rab olgan Otinbibi aya yig'lab chiqdi. Dodlab erining qo'liga yopishdi. Hoy erkak, nimjingga, musicadek yuvoshgina o'g'limni nega bo'larbo'lmasga qiyinayverasiz. Bechora akalari-ku hadeb bog'layverganizdan askarlikka ketib jon saqlashyapti, qo'yib yuboring bolamni, – deb battarroq yig'lagan bo'lди.

– Nari tur, bo'lmasa o'zingni ham qo'shib bog'layman, – deb o'shqirdi Siroj birgadir.

G'azab otiga minib olgan Siroj birgadir o'g'lini bog'lab bo'lgach, oshxonadan Egamberdini yetaklab chiqdi. Egamberdi ko'rinishidan uncha g'amga botmaganga o'xshaydi. Masxaraomuz jilmayibroq turibdi. Bandi bo'lgan o'rtog'iga qarab, «mendan qo'rhma, istasam bir sultanib otangning qo'lidan chiqib ketaman, istasam bir sakrab devordan ham oshib ketaman, faqat seni tashlab ketgim kelmayapti», degandek bir ma'noda ko'zlarini ketma-ket qisib qo'ydi.

– Bu bolaning aybi nima, – deb so'radi Siroj birgadir.

– Bu bola bezorilarga bosh, bezoriboshi shu.

– Yoshlikda hammamiz ham bezori bo'lganmiz, aybi nima deyapman?

– Men buni olib ketaman, qo'lga tushirolmay yuruvdim.

– Sababini ayt-chi, nega olib ketasan?

– Hukumatning idorasi eshigini buzgan, derazasini sindirgan.

– Xo'p, buzsa buzgandir, necha sutkaga qamamoqchisan?

– Tumanga olib borib topshiraman.

– Uch kunga bog'lasam yetarlimi?

– Baribir pratokol tuzamiz.

– Qo'y o'sha yozuv-chizuvlariningi. Mening gapimga ham quloq solishing kerak, bu atrofda mendan obro'li fermer yo'q. Gektaridan yetmish sentnerdan bug'doy berayapman, eshitayapsanmi, yetmish sentnerdan deyapman. Tuman hokimi shaxsan o'zi kelib, quchoqlab yerdan dast ko'tarib, «siz hukumatimizning olqishiga sazovor bo'ldingiz», dedi. Qo'y o'sha burga bosgan, kalamushlar o'ynab yurgan

qamoqxonangni. Anavi kuni ham aytdim-ku, fermerlarni hukumat ulug'layapti, endi ularning gapiga ham qulq solishni o'rganinglar, bo'lmasa yurt ochidan o'ladi-ya. Xo'sh, uch sutkaga bog'lasam yetarlimi?

Leytenantning jahli bosilmadi shekilli, kirib kelganda qanday vajohati bo'lsa yana shunday vajohat bilan chiqib keta boshladi. Ammo Siroj birgadir so'zidan qaytmadi. Boshqa bir ustunga Egamberdini jun aralash to'qilgan ipak bilan chambarchas bog'lab, ichkariga yig'lab turgan xotiniga:

– Mana shu yetimchaga ham tez-tez qarab tur, og'ziga sutli atala qo'ysang yaxshi bo'lardi. Hammasini bildim, xotin, bu bolalar Qo'ziyev raisning o'g'illari bilan mushtlashibdi. Aslida, o'sha aka-uka bezorilarni qamash kerak edi, ularning dastidan fermerlar na qovun-tarvuz eka oladi, na handalakmi, bodiringmi eka olishadi, palagini yulib ketishadi-ya, tarbiyasizlar. Esonqul cholning gilosiga rang kirishi bilan raisning katta o'g'li ustiga chiqib olib, to'yib yegani kamlik qilib, shoxini ham sindirib ketibdi-ya. Lekin... o'g'illarim, men sizlarni qamoqdan olib qoldim, o'sha kalamushlar chi-chilashib yotgan xonadan mana shu yerda xo've daraxtdagi qushlarning sayrashini eshitib yotganlaring yaxshi. Lekin jazo kerak, bo'lmasa odam bo'lmayсанлар.

## O'n ikkinchi bob

Siroj birgadir bir kunlik yegulikni Karim o'g'li qutqarib kelgan velosipediga ortib minsa bo'ladimi, yo'qmi, deya u yoq-bu yog'ini tekshirib ko'rib, dilgir holatda dalasiga jo'nab ketdi. Hovli jimjit bo'lib qoldi. Uzoq yillar dard tortaverGANidan ozib, chaqaloqdekkina bo'lib qolgan otin aya uyga kiradi, hovliga chiqadi, o'g'illariga gap qo'sha olmaydi. Erining oyog'iga o'zini tashlab ularni qutqarib ololmaganiga o'zini ayblaydi, qayta-qayta ayblaydi. Lekin, baribir, qutqara olmasdi. Siroj birgadir so'zidan qaytadigan erkaklardan emas, buni aya yaxshi biladi.

Piyolada shirova qaymoq olib chiqib oldin Egamberdining og'ziga tutdi.

– Ho‘plab-xo‘plab ichgin, jon bolam, – dedi gunohkor bir ohangda.

Egam bosh chayqadi:

– Kerak emas.

Otin aya endi yolvorish ohangida gapira boshladi.

– Yo‘q demagin, jon o‘g‘lim. Ho‘plab-ho‘plab olgin. Choy beray desam keyin zahring tang bo‘lib qiynalasan. Qaymoq yaxshi, ham ovqat bo‘ladi, ham badaningga namlik beradi.

Egam ikki ho‘plab bir piyola shirova qaymoqni ichib qo‘ya qoldi. Otin aya gulli ro‘molining uchi bilan yigitchaning lablarini artar ekan, to‘satdan, uning ko‘ksiga boshini qo‘yib, biroz hiqillab turdi-da, rosmana yig‘lab yubordi.

– Xasa bo‘lmang aya, – deyapti Egamberdi.

– Sobiraxon o‘rtog‘im tirik bo‘lganida seni shu kuylarga solib qarab o‘tirarmidi? Qamayman deganlarning putini yorib devorga yopib qo‘yardi. Ular shoshmay tursin, Olloj jazosini beradi.

Otin aya xo‘rsina-xo‘rsina jim bo‘ldi. Sobiraxon bilan to‘ylari bir kunda bo‘lgan edi. Taqdirni qarangki, Egam bilan Karim ham bir kunda dunyoga kelishdi. Aya sariq kasalga chalinib qolgach, Sobiraxon ikkovi chaqaloqni o‘zi emizib katta qildi. Otin aya ehtimol, shularni o‘ylab, ko‘ngli buzilgandir. Sobiraxon Shohimardondagi suv toshqinida qolib, mayib-majruh bo‘lib kelganda, ikki yilcha yotib qolgandi. Otin aya kirib tag-joylarini yangilab turar, ovqatlantirar, dardmand ko‘ngliga orom beruvchi, yupatuvchi islomiy kitoblardan o‘qib berardi.

– O‘rtoqjon, – derdi goho dardman ayol, – chaqaloqlarni emizib katta qilishni menga, ulg‘ayishib, yigit bo‘lganlarida ularni uylantirishni sizga nasib qilganga o‘xshaydi.

– Voy xudoyim, unday demang, – deb ko‘nglini ko‘taradi Otin aya, – xudo xohlasa, to‘ylarini ham birga-birga o‘tkazamiz, nabiralarimizni ham birgalashib katta qilamiz.

– Bordi-yu qazo kunim kelib olamdan o‘tsam, yolg‘izginamni yakkalatib qo‘ymang.

– Sobiraxon, dugonajon, xudo xohlasa uzoq yashaymiz, o‘g‘illarimizning to‘yini bir kunda o‘tkazamiz. Qayna buvi

bo'lib uylarning to'rida savlat to'kib o'tiramiz. Sizning to'yingizda, esingizdami, men, mening nikohimda siz yor-yor aytgan edingiz, yor-yor aytib yigitlarning ko'ksiga o't yoqqandik.

Otin aya, ehtimol, ana shu so'nggi uchrashuvlarini eslab ketgandir, ehtimol, shafqatsiz eri oldida o'zining ojiz, notavonligini eslab yig'layotgandir. Yig'lay-yig'lay o'zining o'g'liga ham talaygina shirova qaymoq ichirdi.

O'ng qo'lida qizalog'i, chap qo'lida dalada ishlayotgan eriga bir-kunga yetadigan ovqatni tugib, bag'riga bosib olgan Shakarxon aya haligi uchastka nozirining qadam tashlashiga o'xshatib, yerni tap-tup bosib, shiddat bilan kirib keldi. Hech kim bilan so'rashmadi ham, qo'lidagilarni yerga qo'yamadi ham, Egamga yaqinlashib:

– Xudoga shukr ta'ziringni yebsan, – dedi ovozini tishlarining orasidan chiqarib.

– Xudoga shukur ta'zirimni yeyapman, – deb qo'ydi Egamberdi.

– Xayriyat, seniyam jilovlaydiganlar bor ekan bu dunyoda.

– Xudoga shukur, bor ekan.

– Yaxshilikni bilmay, onasiga tuhmat qilganlarning jazosi mana shunaqa bo'ladi.

– Dugonasiga dori berib o'ldirib, eriga tegib olganlarning jazosi bundan ham battar bo'ladi.

– Bas! – qichqirgandek bo'ldi Shakarxon aya, – sening tuhmatingdan qachon qutulaman. Undan ko'ra qamalib ketganing, qamoqxonada chirib ketganing yaxshi edi-ya.

Shakarxon aya qanday shiddat bilan kirgan bo'lsa ana shunday shiddat bilan tap-tup qadam bosib chiqib keta boshladi, ko'cha eshik oldida to'xtab:

– Otang ham sendan battar, unga na uy, na xotin kerak. Dalalarda egatlarni xotin qilib quchoqlab yotaveradi, iloyo qo'shmazor bo'linglar, – dedi-yu, to'satdan Egamberdi qutqarib kelgan velosiped, devorda suyalib turgan edi, o'shang a qizalog'ini o'tqazib, orqasiga tugunchani bog'lab ko'chaga chiqdi. Ko'chadan uning yana «qo'shmazor bo'lgurlar» degan ovozi eshitildi.

Egamberdi ta'rifini aytay olmaydigan g'alati bir holatni his qila boshladi. Qalbining bir tomoni bola ko'tarib dalaga ketayotgan o'gay onasiga achinyapti, qalbining boshqa tomonida unga bo'lgan alamli g'azabi uyg'onib kelayapti:

– Otin aya, meni yeching, bo'limasa dodlayman.

– Ey o'g'lim, o'g'ilginam ixtiyor menda bo'lganda edi, – armon bilan deyapti Otin aya, – sizlarni shu ahvolda tomosha qilib o'tirarmidim?! Chida o'g'lim, mana o'rtog'ing ham chidayapti-ku.

– O'rtog'im bu dunyoga biz chidash uchun kelganmiz deb yuradi.

Gapga Karimberdi aralashdi. Xudoga shukur qilaylik mana, qamoqdan qutilib qoldik, agar dadam qutqarmaganda zax, qorong'i qamoqxonada yotardik, biqinimizga turtib-turtib so'roq qilishardi, degan gaplarni aytib yana qo'shimcha qildi:

– O'rtoq, yaxshi narsalarni o'ylasang diling yayraydi, azobni unutasan... senga bir narsa aytaymi?

– Niman ni aytmoqchisan yana?

– Mening dadamga traktor olib bermoqchi bo'lganimizni o'yla, marhum ayajonimizga oq marmardan yodgorlik qo'ymoqchi bo'lganimizni o'yla... ana shularni o'ylasang diling yorishadi, azobni unutasan, kitoblarda ana shunday deb yozishgan.

Ikki o'smirning bir vaqtda tengdan boylangani ko'chakuyda o'ynab yurgan bolalar, maktabdan qaytayotgan tomoshatalab qizaloqlarni qiziqtirib qoldi shekilli, bir-birlarini itarishib, oldin men yur, keyin sen yur deyishib, yopirilib kira boshladilar. Hovli ko'z yumib ochguncha qiy-chuvga to'lib ketgandek bo'ldi. Qiziqishda, hayratlanishda biri boshqasidan qolishmasdi. Biri Egamberdining yoniga, boshqasi Karimberdining yoniga kelib achingandek bo'lib tikilib ham qolishardi. Otin aya ularni haydab ko'chaga chiqarmoqchi bo'lar, ular bo'lsa qiqirlashib, yana orqalariga qaytishar edi. Egamberdi so'nggi kunlarda o'zini behisob askari bor generaldek, pulining hisobi yo'q katta bankirdek, hamma xodimi egilib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, salom berib turadigan rahbardek his qilib, dadil-dadil qadam tashlab, kerak bo'lsa

qattiq-qattiq gapirib yurgandi. Hozir to'satdan ojiz bo'lib qolganini his qildi. To'planganlarga qarashdan uyalib, o'z-o'zidan terlab ham keta boshladi. Boshini egib oldi... bordiyu hozir Fotima kelib qolsa nima bo'ladi, bu qaysar qiz oldida o'zini hech yengilmaydigan pahlavondek his qilib, qaddini baland ko'tarib, tengqurlariga so'zini bermay yurgandi.

– Yechaman, yechib qochaman, – deya baqirib boshini silkita boshladi. Shunday qattiq baqirdiki, hovlidagi daraxtlarga qo'ngan qushlar gur etib uchib ketdi. Baqiriq ovozidan cho'chib, orqaga tisarilib borayotgan tomoshatalablarning o'rtasini yorib xuddi yerdan chiqqanday, hovliqishda, birning yoniga o'nni qo'shib aytishda, vahimali gaplarni ko'proq aytishda butun tengqurlarini, maktabdagilarning hammasini bir cho'qishda qochiradigan Rajabali paydo bo'lib qoldi.

– Hech qaysing o'rningdan qimirlama, – vahshat bilan dedi,  
– yosh fermerni kim mana shunday bog'laganini aytib berasanlar? Hukumatimiz yosh fermerlarni mening o'g'lim bo'ladi deb aytgan, kim o'g'limni xafa qilsa, gaplashib qo'yaman, degan. Rafiq sen bilasanmi, kim bog'ladi bularni?

– Bilmayman, – Rafiq qochib chiqib keta boshladi.

– Olim, sen-chi?

– O'lay agar ko'rganim yo'q.

– Jalil, uylaringda o'tkir pichoq bormi?

– Nima edi?

– Bo'lsa tez olib chiq. Yosh fermerni ozod qilishda ishtirok etganing uchun sen ham mukofot olasan, gazetalarga yozishadi.

Jalil ko'z yumib ochguncha uylariga kirib ham o'tkir pichoq, ham kattagina dastkalla olib chiqdi. Karimberdi «mening arqonimni kesmanglar. Agar ketib qolsam, dadam baribir, mening o'rningga onamni bog'laydi», dedi. Egam bu fikrga qo'shildi, rozi bo'ldi. Borib o'rtog'ini quchoqladi, hangu mang bo'lib turgan Otin ayaga ta'zim qildi. Rajabboy hovliqib hali Egamberdi qutqarib kelgan quyonlarni, «Kimda-kim ikki baho olmagan bo'lsa, qo'lini ko'tarsin deya odatiga ko'ra qiziq-qiziq gaplar aytib, ochqaganidan, qo'rqaqidan dir-dir qaltirib turgan jonzotlarni tarqata boshladi. Men, mana shu hozirgina ozod

bo'lgan raisning nomidan aytamanki, men ham fermada katta lavozimdaman, kimda-kim quyon olmoqchi bo'lsa, kundaligida ikki bahosi yo'q bo'lsa Eshonbog'ga boraversin, faqat kundaligini olib borish esidan chiqmasin, borganlarga ikkitadan quyon beraman, tekinga beraman», deb maqtana boshladи.

Qiziq bo'ldi, asalarilar podshosini o'rtaga olib uchgandek to'plangan bolalaru tomoshatalab qizaloqlar Egamberdini har tomondan qurshab tashqariga olib chiqib keta boshladilar.

- Egam, - bor ovozi bilan chaqirdi bog'lovda qolgan Karimberdi, - esingdan chiqmasin, quyonchi boboga yana besh yuz quyon uchun narxini ikki barobar ko'tarib pul to'lab kelganman. Bugun albatta olinglar, bo'lmasa pulga kuyib qolamiz. Keyin, eshitayapsanmi, Qambarali fermerga bermoqchi bo'lgan pulimiz tutning kavagida edi, o'shani ham olib beringlar.

- Buncha qattiq baqirding, - dedi ko'cha eshigi oldiga borib qolgan Rajabboy, - bularni sendan yaxshiroq bilaman.

## O'n uchinchi bob

Eshon ayaning, ey ollohim, shu ikki o'g'limning pok niyatlariga o'zing oq yo'l bergen, orzulari ro'yobga chiqsin, yuzlari yorug' bo'lsin, deya goho tong sahardan joynamoz ustida duolar o'qib yaratganga iltijo qilganlari mana, ro'yobga chiqayapti shekilli, Olloh qo'llab-quvvatlabdi.

Uchastka nozirining ta'qibidan qutildilar.

Quyonchi bobo bilan aloqa bog'lab mana quyonlar sonini salkam mingtaga yetkazib oldilar.

Mana, biryo'la to'rtta velosiped sotib oldilar.

Bular yaxshi. Lekin xatolar ham ketma-ket bo'lib turibdi. Birinchi xatoni xashak birgadiri, hovliqmachi Rajabboy qilib qo'ydi. Unga e'lon yozish, e'lidlarni guzarga, maktabga boradigan yo'lga yopishtirgin, deb aytilgan edi, mana o'sha ishni bajarib, e'londan bir nusxasini ko'tarib ham kelibdi.

«E'lon, e'lon, e'lon!

«Oq quyon oppoq quyon» fermasini tuzganmiz. Quyon boqishga xohishi zo'r bo'lib, kechalari tushlariga quyonlar

kirib-chiqadigan o'g'il bolalar, qiz bolalar bo'lsa, ikki baho olishmagan bo'lsa, dadajon quyon olishga pul bering, deb yig'lab yurishgan bo'lsa, ana shularga quyonlar tekinga beriladi. Boyib ketsak, traktor olmoqchimiz, oq marmardan haykal qo'ymoqchimiz. Gap tamom!

«Oq quyon oppoq quyon» fermasining raisi – Egam.

Muovini – Karim.

Xashak birgadir – Rajabboy.

Tozalik raisi – Ajabboy.

Tamom vassalom».

Rajabboy buyuk bir kashfiyotni e'lon qilgandek yiltiroq qog'ozga, tuni bilan uxlamay, bosma harflar bilan yozib kelgan e'lonini shavq-zavqqa to'lib, baland ovoz bilan o'qib berdi. Egamberdining jig'ibiyroni chiqди, qog'ozni kaftlari orasiga olib g'ijimladi. Karimberdi bo'lsa o'zini kulgidan to'xtata olmas edi, harqalay bir amallab to'xtab:

- Bu e'lon emas, maynavozchilik bo'libdi, – dedi.
- Ushbu maynavozchilikni ko'chalarga yopishtirishga ulgurding hammi? – so'radi Egamberdi.
- Ko'proq yopishtirsam rahmat aytasizlar deb o'ylovdim.
- Qo'shni qishloqlarga ham yopishtirdingmi?
- Xo'ja qishloqqa to'rttagina yopishtirdim xolos.
- Hozir orqangga qayt, yig'ishtirib kel, o'sha e'lonlaringni.
- Egam, shovqin solma, sen rais bo'lsang, men ham kichkina vazifada emasman.

— To'g'ri senda ham kattagina lavozim bor. Lekin e'lon bunaqa yozilmaydi. Mayli, bo'lar ish bo'ldi, uni boshqacharoq qilib yozamiz.

- Essizgina, Egam qaragin, qanaqa chiroyli harflar bilan yozuvdim-a, bosh harflarini qara.
- Bo'lari bo'ldi, boshqatdan yozamiz.
- Yoz-may-man!
- Yozmasang, ishdan haydayman.
- Haydab bo'psan. Siroj birgadirning ustinida boylanib, bo'g'ilib yotganingda seni o'limdan men qutqardim... Karim, sen aytgin, men hali fermaga ko'p kerak bo'laman, senlarni o'limdan qutqaraman... mayli, qaytadan yozib

kelaman... Bitta gapni ochiq ayt, shu veloseped mening o'z-o'zimgami?

- O'z-o'zingga.
- Ukam Ajabboydagi velosiped ham o'z-o'zigami?
- O'z-o'ziga deganmiz-ku.

- Qishloqda hech kim ishonmayapti. Egam bu velosipedlarni o'g'irlab kelgan bo'lsa kerak, deyishyapti, puli yo'q edi-ku, deyishyapti... Rostini ayt o'rtoq, rostdan ham pullaring ko'pmi, juda-juda ko'pmi? Kimdan olayapsizlar?

- Pullarimiz... Ollohdan kelayapti.

Tortisha-tortisha e'ltonni qaytadan yozadigan bo'lishdi. Uning matnini tayrlashda to'rttovlari tengdan ishtirok etishdi. Men ham orqada qolmay deb, Ajabboy ham uch-to'rt so'z aytgan bo'ldi. Tayyor bo'lgan e'ltonni o'qishni Ajabboyga berishdi. Ajabboy o'rnidan turib, bir yo'talib olib baland ovoz bilan o'qiy boshladi:

«E'lon, e'lon, e'lon!

Bosh homiy Eshon aya bo'lganlar.

Fermaga «Oq quyon, oppoq quyonlar» deb nom berilgan.

Fermaga a'zo bo'lishni xohlovchilar ota-onasining ruxsatini olib Eshonbog'ga kelaversinlar.

Eslatma: Quyonlar tekinga beriladi.

Semirgan quyonlarni parhez go'sht do'konini yuqori bahoda sotib oladi.

«Oq, quyon oppoq quyonlar» raisi – Egamberdi Qosimialiiev, ferma raisining muovini – Karimberdi Sirojov».

- Rajabboy yangigina velosipedini Soy mahalla bolalariga yana bir marta ko'rsatish, ko'rsatganda ham vaqtincha emas, doimiyga berilganligini ta'kidlash uchun, so'qmoq yo'llar orqali qishloqqa uchib ketdi. Egamberdi yangi keltirilgan quyonlarni katta ayvonlarga joylash bilan mashg'ul bo'ldi. Ajabboy yaxshi bola ekan, dalalarda yurib dehqonlarning paykalidan-paykaliga o'tib, kuzda, to'satdan qor yog'ib, kavlab olishga ulgurmoy qolib ketgan sabzi, sholg'om, turp ekilgan joylarni aniqlab kelibdi. Ko'zi ham o'tkiringina ekan. Sabzining yer ostida qanchasi qolib ketganini, qanday qilsa olish oson bo'lishini ham bilib, belgilab kelibdi. Ayniqsa, bu serg'ayrat,

ishqivozligi baland bolaning qayerlardandir panskha ham olib kelgani raisni ham, muovinini ham xursand qildi.

– Mana qarang, panskhanani mana bunday sanchib, mana bunday qilib ko'tarsa, sabzi ham sholg'om ham, tuproqqa aralashib chiqib kelaveradi, – deb o'rgatgan ham bo'lди Ajabboy, – dadam sabzini hamisha panskaxada kavlaydi, belda kavlasa ham bo'ladi-yu, bel sabzini kesib qo'yadi.

Karimberdi bilan Ajabali ikki qopni qo'ltingqa tiqib, panskhanani yelkaga qo'yib dalaga jo'nadilar. Karimberdi o'zicha har xil o'ylarga berilib, turtinib-surtinib, orqaroqda borayapti. Ajabali sabzi bor paykalni kecha belgilab qo'yanidan, o'sha belgilangan joyiga hech adashmay ketayotganidan o'zida yo'q shod, behad xursand, to'xtamay savollar ham berib borayapti.

– Karim aka, boyib ketsak keyin Siroj amakimga traktor olib beramizmi?

– Ha, albatta, olib beramiz.

– Mening dadamga ham olib berasizlarmi?

– Dadangda bor-yo'g'i uch gektar yer bor, unga traktor kerak emas.

– Uch gektar yeri bor fermerlarga traktor olib bermaysizlarmi?

– Hozircha yo'q. Keyin, boyib ketsak o'ylab ko'ramiz.

– Karim aka, Egam akam o'lgan onasiga oq marmardan haykal qo'ymoqchimi?

– Kimdan eshitding?

– Opam aytди.

– Ha uka, Egam ikkovimizning shunaqa niyatimiz bor.

– Mening ham buvimga haykal qo'yasizlarmi?

– Qaysi buvingga?

– Voy eshitmaganmisiz? Dadamning onasi o'lgan-ku.

– Roziya xolamni aytyapsanmi?

– Ha, o'sha buvimga ham haykal qo'ysak bo'lardi, juda mehribon edi, yelkamni silab-silab qo'yardi, ertaklar aytib berardi.

– Xudo xohlasa, boyib ketsak, o'sha ertakchi buvingga ham yodgorlik qo'yamiz.

- Keyin o'lsam, menga ham qo'yasizlarmi?
- Hey uka, nafasingni issiq qil, savollaring qiyinab yuboryapti meni. Jim bo'lmasang orqangga qaytarib yuboraman.

Suhbatlasha-suhbatlasha belgilab qo'yilgan paykalga ham yetib bordilar. Ajabboy ishlab yurgan bolada, ozroq bo'lsa ham ishning hadisini olgan ekan. Qishi bilan nam tuproq bag'rida yotgan, onda-sonda ko'zga tashlanayotgan sabzilarni panshaxa sanchib, yuzaga chiqarib tashlayverdi. Karimberdi shoshilib tuprog'ini qoqa-qoqa o'sha sabzilarni qoplarga solaverdi. Ajabboy goho belini rostlab:

- Karim aka, yana bitta narsa so'rasam maylimi?
- So'ramasang, turolmaydiganga o'xshaysan, mayli, so'rayqol.
- Mana shu velosiped mening o'z-o'zimgami?
- Raisimiz o'z-o'zingga deb aytdi-ku.
- Ishdan haydasalaring velosipedni olib qolmaysizlarmi?
- Yaxshi ishlasang hech qachon haydamaymiz.

Ajabboy yana shoshilib ishga beriladi. Yaxshi ishlasam Egam akam bilan Karim akam ishdan haydashmas ekan, velosiped o'z-o'zimga qolar ekan, minib o'tib Qibla mahalla bolalarining ko'zini rosa kuydiraman, deb o'ylaydi-da, charchaydi shekilli, belini rostlab, yana savolga tutadi:

- Karim aka, bitta quyon bir kunda nechta sabzi yeydi? .
- Rostini aytsam, aniq bilmayman.
- Mana qarang, mana shunaqasidan nechta yeydi?
- Uchta yesa kerak.
- Voy-bo'y, bugun quyonimiz olti yuztaga yetsa hammasiga yetkaza olmaymiz-ku.

- Qo'rqma uka, qoplar to'lguncha kavlaylik. Qolganini ertaga kavlaymiz. Qambarali fermerning karamini o'rislar olmasa hammasini o'zimiz sotib olamiz.

- Karim aka pulimiz shuncha ko'pmi, qayerdan olayapmiz ularni.

- Olloh berayapti, ukam, Olloh.

Gplasha-gplasha qoplarni to'ldirdilar, gplasha-gplasha to'la-to'la qorlarni yelkalariga oldilar, gplasha-gplasha

Eshonbog'ga yetib ham keldilar, yetib kelishlari bilan sharillatib yomg'ir quyib berdi.

## O'n to'rtinchi bob

Tashqarida sharillab yomg'ir yog'ayapti, tog' tomondan, olis-olislardan gumbirlagan ovoz eshitilyapti, chaqmoq chalinayapti, butun olam lov etib yonib ketayotgandek bo'layapti, borliq bir soniyagina charaqlab ketayapti, ketidan shunday qorong'ulik tushadiki, hatto kishi o'zini-o'zi ham topolmaydigan darajada qolgandek bo'ladi.

Eshon aya oilaning yangi a'zolari Rajabboy bilan Ajabboining qayta-qayta qilgan iltimoslariga ko'ra o'tmishdan hikoyalar so'zlab berayapti. Qo'rqinchli, vahimali voqealarni eshitgan yigitchalar, xuddi o'sha qo'rqinchli voqealar ichida himoyasiz qolgandek, o'zlarini g'alati-g'alati ahvolda his ham qilmoqdalar. Shunday bo'lsa ham:

– So'zlang aya, yana so'zlang, – deyishadi.

– So'zlayman o'g'illarim, aytaman hammasini, – deb yana hikoyasini davom ettiradi Eshon aya, – keyin sizlar ham bu voqealarni boshqalarga so'zlab bersanglar savob bo'ladi. Yaxshi odamlarning yaxshi ishlari, yaxshi nomlari hech unutilmas ekan, sizlar ham unutmanglar. Anavi kuni aytuvdim-ku, Erka ellikboshi ham, Nurmat amin ham tilla haqida gap ochmadilar, tilla yiqqanlarni sotmadilar, xo'p ajoyib insonlar ekan... Voy xudoyim ikkovlariniyam paq-paq otib tashlashdi-ya... Tillalarni Olloh ehtiyot qilayotgan ekan-da, Olloh ehtiyot qilsa, bandasi topa olmas ekan-da.

– Bog'dagi qirg'in-barotlar tugashi bilan yaqin o'rtadagi qishloqlardan odamlar kelib o'zlariga yaqin yigitlarning murdasini olib ketishdi. O'shanda o'n sakkiz qishloq tengdan yig'laganini eslayman, onalar yig'layapti, bevalar yig'layapti, chaqaloqlar yig'layapti, voy sho'rim, ularning ko'z yoshlari daryo bo'lib oqdi-ya... Egasi topilmagan murdalar ham bor edi. Eshon dadam, endigina bo'yи yetgan ukam, nimjongina bo'lsalar ham Eshon ona – hammamiz o'sha murdalarni tuproqqa qo'ydik. Bahorga chiqib jannatmakon Eshon

dadam yosh-yosh ketgan qo'rboshi yigitlarning qabrlari yoniga daraxtlar ekdilar, gurkirab o'ssin, soya-salqin beradigan bo'lganda, soyasida o'tirganlardan keladigan savoblar, mana shu shahid ketgan yigitchalarga tegsin dedilar.

– Keyin, keyin-chi, – deb qistashyapti yigitchalar.

– Ollohga shukurlar bo'lsin, – xo'rsinib-xo'rsinib davom etadilar Eshon aya, – yurtimizda mard yigitlar ko'p ekan. Bomdod namozini o'qib bo'lib joynamozda Eshon dadamning suhbatlarini tinglab o'tirsak, tashqaridan avval otlarning dupuri, ketidan cho'zib-cho'zib kishnagani eshitildi. Eshik tirqishidan mo'ralab qarasak xayriyat, to'rtinchilar emas, o'zimiznikilar ekan. O'g'llarim, to'rtinchilar degani, nima degani ekanligini bilasizlarmi?

– Yo'q, bilmaymiz.

– Egamberdi o'g'lim, sen ko'p kitob o'qigan ekansan-ku, nahotki sen ham bilmasang... To'rtinchchi degani dindan qaytgan, qo'rboshiga qarshi kurashgan degani. Ha mayli... Tashqariga qarasak uch otliq turibdi. Har otlarki, bulutdan baland, osmonga sakraydi. Yigitlarni aytmaysizlarmi, voy xudoyim, odam bolasi ham shunaqa go'zal, shunaqa kelishgan, shunaqa salobatli bo'ladimi, bellari ingichka, ko'kraklari keng, bilaklari yo'g'on, yelkalarida beshotar miltiqlar, ko'zlaridan olov chaqnab turibdi. Otlar ustida qanotini keng yozgan burgutlar turganga o'xshaydi.

– Kimsizlar? – deb so'rayaptilar Eshon dadam.

– Nursuqdan, Tagobdanmiz.

– Kimning bolasi bo'lasizlar?

– Men Erka Ellikboshining kuyovi bo'laman.

– Sen-chi bolam?

– Men Nusarmat mahsumning nabirasi bo'laman.

– Xo'sh, yo'l bo'lsin sizlarga.

– Xudo xohlasa, otalarimiz uchun, shahid ketgan akalarimiz uchun qasos olmoqchimiz.

– Qasos, sizlar juda yoshsizlar-ku?

– Qasos olishda yoshu qari barobar, Eshon dada, bizga oq yo'l tilang, fotiha bering.

– Ha, ha o‘g‘illarim, – dedilar Eshon dadam vujudlarida allaqanday qalтироq turib, – al-qasosul minal haq, degan so‘zlar ham bor. Mayli... Sizlarni Ollohnning panoхiga topshirdim, zinhor-bazinhor nohaq qon to‘kmanglar.

– Eshon dadam qisqagina tilovat qildilar. Ollohu akbar deb uch qo‘rg‘oshin yigit yuzlariga fotiha tortib, otlariga qamchi urishdi. Bedovlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha sho‘rlik Eshon dadam ko‘zlarida halqa-halqa yosh bilan xo‘rsina-xo‘rsina tikilib turdilar, ular yosh edi, juda-juda yosh edi. Eshon dadam ularga achinganidan ko‘z yoshi to‘kayotgan edilar. Ichkarida daricha orqali qarab o‘tirgan Eshon onam ham qo‘l ko‘tarib duo qilib fotiha o‘qidilar, fotiha o‘qiyaptilar jinday-jindek ko‘z yoshi ham to‘kayaptilar. Dini islam yo‘lida, hurriyat niyatida qilich yalang‘ochlagan mana shu o‘g‘illarimni o‘zing ehtiyyot qilgin, deb pichirlab ham turibdilar. Qo‘rboshilar azamat yigitlar bo‘lgan, hurriyatparvar bo‘lgan ular. Qo‘rboshining kimligini bilasizlarmi, axir?

– Ayajon, bular qaysi sinf darsligida bor, biz hali o‘qiganimiz yo‘q, – deyapti Rajabboy bilan Ajabboy.

– Voy azamatlarim-ey, kap-katta yigit bo‘lib qolibsizlaru, haligacha qo‘rboshi kimligini bilmasalaring, uyat-e. Yurtimizda qo‘rboshilik harakati naq uch yil davom etgan. Yurtimni himoya qilaman deb mard yigitlar oyoqqa turgan, nomardlar o‘zini panaga olgan zamонлар edi. O‘sha yillari mana shu yigitchalarning fidoiyligiga, mardligiga, topqirligiga hamma tan bergen. Bugun qarasangiz to‘rtinchilarning oмборхонасидан o‘ttizta beshotarni o‘marib kelib, ozodlik jangchilariga tarqatishgan, erta qarasangiz Yaypandagi qamoqxonaning rahbarini cho‘kkalatib, tavba qildirib, o‘ttizta mahbusni ozod qilishgan... Ayniqsa bir fojeani eslasam, Egamberdi Karimberdi ikkovilaringga so‘zlab beruvdim-ku, o‘sha voqeани eslasam yuraklarim o‘ynab ketadi, nafasim tiqilib ketadi. Dinsizlar o‘shanda uch yuzta, qurolsiz, begunoh kishilarning qonini to‘kkan-a.

– Eshon aya buni Karim ikkovimizga so‘zlab beruvdingiz, boshqasini ayting deyapti, – dedi Egamberdi.

– Sizlar eshitgan bo'lsalaring, o'g'illarim, mana bu Rajabali bilan Ajabali diqqat qilib tinglashyapti. Shular uchun yana aytaman, xudo umr bersa, qayta-qayta aytaveraman.

– Ayajon biz uchun aytavering, biz ham ertaga mакtabga borib, muallimiz so'rasha qo'rбoshilar haqida aytib beramiz, – deyishyapti aka-uka Rajabali bilan Ajabali.

– Ha, o'g'illarim, bir-birimizga aytganimiz yaxshi... O'shanda uch yuz dehqon o'g'illariga arra, tesha, bolta olib, tolu teraklardan ko'p-ko'p kesib, tog' tomondan toychoqdek o'ynoqilab tushib kelayotgan Sarqo'rg'on suvini to'samiz, bo'lib-bo'lib Nursuq, Bekobod, Rishton ariqlariga bo'lib yuboramiz deb to'planishgan ekan. Har yili bahor pallasida ana shunday katta hasharlar bo'lar ekan. Qizil shapkalilar bunday qarashsa qurollangan kishilar to'planishayotgan emish. Bular tayyorgarlik ko'rishib, to'planishib, bizga hujum qilish rejasini tuzishayotgan bo'lishsa kerak, deb o'yashib, odamlarni o'rab olib hammasini otib tashlashgan. Suvga tashlab qochmoqchi bo'lganni suvda otishgan, toqqa qochmoqchi bo'lganni qoyaga yopishganda otishgan, qishlog'iga qochmoqchi bo'lganni orqasidan quvib borib qilich bilan chopib tashlangan... Pahlavon tog'alarim bo'lardi. Biri paxsakash, biri yelkasiga charxini osib olib charxchilik qilar edi... Adalarimiz o'liklarini arang topishgan.

– Voy ayajon, yig'lamang, yig'lasangiz men ham yig'lab beraman, – deb qo'ydi Ajabali.

– Ha mayli o'g'illarim, jindak-jindak yig'lab olganim yaxshi. Kishi yig'lasa ancha yengil tortadi... Sarqo'rg'onda bo'layotgan qirg'in-barotni haligi aytganim, uch qasoskor yigit eshitib, tulporlarini uchirib yetib kelishsaki, o'ldir-o'ldir avjiga chiqqan, boltasini qo'ltig'iga qisib lapanglab qochayotgan kim, orqasidan borib qilich solayotgan – kim bilib bo'lmasmish. Qasoskor yigitlar darhol otdan tushib kiyim boshlarini almashtirib, to'rtinchilarning kamandiridek bo'lib olishib, qo'llaridagi o'rama xatni baland ko'tarishib, Qo'qondan xat bor deyishib, biri pulimot yonida turganga o'q uzibdi, ikkinchisi xatga qo'l uzatgan kamandirning peshonasini mo'ljalga olib o'q otibdi. Ha o'g'lim, uch to'pponcha uch bedavoni yiqitibdi,

pulimotlarning ovozi birdan o'chibdi. Uch qasoskor yigit qanday uchib kelgan bo'lsalar shunday uchib ko'zdan yo'q bo'libdilar. Odam bolasi keldimi, parishtalar keldimi hech kim bilmay qolibdi. Berkinib qolishga ulgurgan ba'zi bir hasharchilar biri qo'lidagi boltasi bilan boshqasi dastkallasi bilan hujum qilayotganlarga hamla qilibdi, hech bo'lmasa o'zlarini qutqarib qolibdi... Ha o'g'llarim, mana shu ariqlarda uch kungacha qon oqqan.

– Keyin-chi, ayajon keyin-chi?

– Keyin bu mard yigitlarning mardligi butun vodiyga doston bo'lgan. Kechqurunlari qora chiroq yoqib charx yigirgan buvilar, masjidda yig'ilgan mullavachchalar bu uch yigit haqida to'xtamay so'zlaydigan, ularning ota-onasini duo qiladigan bo'lishdi. Hatto onalar beshik quchoqlab bola uxlatganda, allaga qo'shib ularning nomlarini ham zikr qilib yurishgan.

*Alla bolam alla-yo,  
Otang ketdi alla-yo,  
Teshayu arra olib,  
Suv boshiga yetdi-yo.  
To'rtinchilar oqizdi,  
Otang qonin alla-yo,  
Katta bo'lsang polvonim,  
Unutmassan alla-yo alla-yo.*

– Ayajon, keyin qasoskor yigitlar nima bo'ldi? – uyqusirab so'rayapti Rajabali.

– O'g'ilginam, juda ham qiziqib qolding, keyin nima bo'lganini alohida gapirib beraman.

## O'n beshinchchi bob

Maktab «ped kengashi», uni ispektorlar «pedsavet» deb ham atashadi. Onda-sonda, o'shanda ham favqulodda biron hodisa yuz berganda darsdan keyin o'tkazilardi. Bugun negadir, dars o'rtasida to'planishdi. Muallimlardan tashqari yana hamisha gerdayib yuradigan uchastka militsioneri

Erkayev, fuqarolar kengashi raisi, hajga boruvchilarning pulidan bir qismini o'g'irlab qo'ygani uchun ishdan olinay-olinay deb turgan Nodir Jo'rayev, qizalog'ini bag'riga bosib, goho-goho tezroq uxlasang-chi, deb kafti bilan yelkasini silab-silab qo'yayotgan Shakarxon aya, hijobcha kiyingan, hoshiyasiga oltindek yaltiroq gullar solingan katta ro'molga o'ralib Xolisxon ayalar o'tirishibdi. Eng qizig'i, xonaning bir chekkasida qo'lida quyon to'la simto'r Karimberdi ham hayron holatda turibdi. Xonada jimlik. Tiq etgan ovoz yo'q.

Hozir bamicoli bomba portlaydigandek.

Portlash oldidan hamma qo'rqib nafasini ichiga yutib turgandek. Direktor Azizov domla shahd bilan o'rnidan turdi. Kimnidir masxara qilmoqchidek xunuk jilmayib, qo'lidagi e'lon yozilgan qog'ozni baland ko'tarib:

– Uchastka noziri ukam, ayting-chi, bu nima? – deb so'radi.  
Uchastka noziri dik etib o'rnidan turdi:

- E'lon.
- Shunaqa yaramas qog'ozlardan nechtasini yig'ib keldingiz?
- Yigirmatachasini.
- Xo'ja qishloqda ham bor deyishyapti-ku.
- O'sha yerdan ham qiyinchilik bilan arang yettitasini yig'dik.
- Ishqilib boshqa qishloqlarda yo'qmi?
- Borga o'xshaydi, hammasi haqida tuzukroq ma'lumot ololmayapmiz.
- Demak maqtovlarga loyiq bo'lgan, hamma joyda maqtanib yurgan maktabimizdagи tarbiyani, intizomni, hamma uchun majburiy bo'lgan qoidani buzgan yigirmatacha fakti, mana qo'lga kiritib kelibsiz ofarin, gapiring.

Leytenant Erkayev mana shu bir chekkada hurkak quyonlarni qo'ltilqab, o'zini aybsizdek ko'rsatmoqchi bo'lib, mung'ayibgina turgan Karim Sirojov bilan hech qo'lga tushirishni iloji bo'limgan Egam Qosimaliyevlar bezorilikni uchiga chiqarib, to'xtamay mushtlashib, militsiya idorasini buzib ham chiqib ketishganini aytdi. Noma'lum odamlarga sotilgan, bu noma'lum odamlar kimligini hali aniqlagani yo'q

ekan. Lekin albatta aniqlar ekan, «ha noma'lum odamlarga sotilgan mana shu kasalmand quyonlarni tarqatib yurgan bu bezorilarga birgalashib chora ko'rishimiz kerak», dedi. Birgalashib, qaror qabul qilib bu ikki bezorini tuman militsiyasi qoshidagi balog'atga yetmagan bolalar bilan shug'ullanadigan maxsus bo'limga topshirish zarurligini, topshirganda ham zudlik bilan topshirish zarurligini aytди. So'ng bu so'zlarni aytib, bamisoli qahramonlik ko'rsatgandek, kekkayib, o'girganlarga bir-bir qarab chiqdi.

Azizov domla ko'chalardan yig'ishtirib kelingan, yig'ishtirilayotganda uyoq-buyog'i uzilib ham ketgan e'lonlardan birini qaltiroq ovoz bilan o'qiy boshladi:

«E'lon, e'lon, e'lon!

Bosh homiy Eshon aya bo'lganlar.

Fermaga «Oq quyon, oppoq quyonlar» deb nom berilgan.

Fermaga a'zo bo'lishni xohlovchilar ota-onasining ruxsatini olib Eshonbog'ga kelaversinlar.

Eslatma: Quyonlar tekinga beriladi.

Semirgan quyonlarni parhez go'sht do'koni yuqori bahoda sotib oladi.

«Oq quyon oppoq quyonlar» fermasi raisi – Egamberdi Qosimaliyev.

Ferma raisining muovini – Karimberdi Sirojov».

Azizov domla yasama ohang bilan ko'rimsizgina qornini silkitib ancha kulib turdi. Boshqalar ham bu mazax qiluvchi, masxaralovchi kulgiga qo'shilarmikan, deb o'tirganlarning ba'zi birlariga tikilib-tikilib qaradi. Keyin, to'satdan, portlab ketdi:

– Mana sizga sharmandalik... ferma maktabda emas, bir chekkadagi o'g'rixonada ochilar emish, tahorat qilsa qo'li orqasiga yetmaydigan, bir oyog'i go'rda bo'lib qolgan kampir momomiz homiy bo'larmishlar. He, he, he! Nega homiylik maktabdan emas, maorifdan emas, nega hokimiyatdan emas, yo'qlab boruvchilarning bir burda nonini yeb arang tirikchilik qilayotgan anavi katta momomizdan kelarmish... Mana shu momomiz minglab quyonlar sotib olishga pul ham topib berayotgan emishlar. He, he, he! Hoy muallimlar, bu chet el

razvetkasining ishi bo'lmasin tag'in, ularku oxir-oqibatda sharmanda bo'lishadi, endi quyonlar boqib o'quvchilarimizni yo'ldan urayotganga o'xshaydi, ta'lim sistemamizga zarba berishayotganga o'xshaydi. Hoy hukumatni pulini yeyayotgan muallimlar, qayoqqa qarayapsizlar? O'choq boshiga emaklab boradigan bir kampir ancha-muncha o'quvchilarimizni o'ziga qaratib oldi. Mana kotiba Umarovaning ma'lumoti: kecha quyon boqamiz deb, yana o'n besh o'quvchi mакtabga kelmabdi. Xo'sh, mulla bola, gapir-chi, sen quyonchilik fermasining raisiga muovin bo'lib oldingmi? O'ho', juda katta odam bo'lib ketibsiz-ku, bu quyonlarni sen keltirdingmi, nega keltirding ularni?

Karimberdi tabiatan kamgap bola, buning ustiga ustozlar huzurida uyalib ham turibdi, darrov nima deyishini bilmay dovdirab qoldi, javob qaytara olmadi.

- Gapir nega olib kelding deyapman?
- Sizga sovg'a qilmoqchimiz, setkasi ham tekin.
- Menga, nima-nima?!
- O'rtog'im Egam ikkovimiz maktabni quyon boquvchilar maktabiga aylantirmoqchimiz.
- Ha, ha, ha, – rosmana kulib yubordi Azizov domla, – eshitayapsizlarmi, menga quyon olib kelishibdi. Tekinga emish... bezori Egamning o'zi nega kelmadii?
- O'zi kasal.
- Kasal deng, mablag'ni qayerdan olayapsizlar?
- ...
- Gapir dedim senga!
- Birgalashayapmiz, – soddadil Karimberdi niyatimizni oshkorroq aytsam ehtimol ustoz direktor jahlidan tushar, degan umidda ko'nglidagi gapni ochiq-oydin ayta boshladii,
- quyonlarni boqib, butun qishloqlarga tarqatib boyib ketsak mening dadamga traktor olib bermoqchimiz, keyin bog'chaga Shohimardon saylida, suv toshqinida halok bo'lgan tarbiyachi opalarimizga oq marmardan yodgorlik qoymoqchimiz.

Azizov domla o'zini arang bosib turgan edi, yana xo-xolab kula boshladii. «Xey muallimlar, bexabar qolibsizlar, bu bolalar

Eshonbog'ga borib, jinni bo'lib qolishibdi. O'sha yerda jinlar ko'p deb eshitardik, rostga o'xshaydi. Bularni psixologga ko'rsatish kerak, siz Egamning onasimisiz, siz Karimning onasimisiz, bular shu ahvolga tushguncha qarab turaverdilaringmi? Siz uchastka noziri, mahalla oqsoqoli... hammalarining qayoqqa qaradilaring. O'quvchi mакtabga darslik o'rniga quyon ko'tarib kelsa-ya... Chet el agentlari tomonidan qilinayotgan buzg'unchiliklar emasmi bu? Buzg'unchilikning oldida borayotgan bu ikki bezori bolani jazolash haqida, tartibga chaqirish haqida nega o'ylamadilaring», degan gaplarni g'azablangan direktor qalashtirib tashlayverdi, qalashtirib tashlayverdi.

Halidan buyon so'zlamoqchi bo'lib goh qo'lini ko'tarib, goh umidsiz holda qo'lini tushirib o'tirgan uchastka noziri sekin o'rnidan turib, o'tirganlarga murojaat qilgan bo'ldi: «tashvishlanmanglar, bu ikki bezorini tuman militsiyasi bo'limiga topshiraman», deb qo'ydi. Muallimlar bir-birlariga ma'noli-ma'noli qarab qo'yishdi. Egamberdining o'gay onasi, shaddod ayol ekan, tezgina o'rnidan turib «Egamberdi yomon bola emas, ro'zg'orga qarashadi, fermer dadasingning yarim ishi shu bolaning bo'yнida, kechalari tinmay kitob o'qiydi... Faqat bir-ikki yildan buyon quyon degan maxluqqa ishqivoz bo'lib qoldi, boshqa aybi yo'q. Tag'in uni katta militsiyaga topshirib qo'ymanglar», dedi. Karimberdining onasi ham so'z oldi, gapira olmay, yig'lab-yig'lab o'rniga o'tirib qo'ya qoldi... Hamidova opoy so'zlay boshlagandi. Azizov domla:

- Men sizga so'z bermadim shekilli, - dedi.
- Endi men sizdan so'rab ham o'tirmayman.
- Nima?!

- To'raqul aka o'g'llarini duradgor ustaga bergen edi, qaytarib olib keldingiz - bir, aka-uka Umarovlar o'z hovlilarida velosiped tuzatadigan ustaxona ochgan edi, o'quvchi bolalarini pulga o'rgatyapsanmi, deb otasi bilan urushtirdingiz - ikki, Rahimaxon opa yuz joyga yugurib-elib qiziga Xitoylarning tikuv mashinasini keltirgan edi, qizing avval mакtabni bitirsin keyin ishlaysan, deb ona-bolani rosa yig'latdingiz - uch! - o'zini tutolmay dilidagini tiliga chiqardi muallima.

– Bas qil, bas qil deyapman, – stolni bir mushtlab qo'ydi Azizov domla.

Hamidova ham bo'sh kelmadi.

– Siz hammamizni o'qitgansiz, ustozimizsiz, lekin zamondan yigirma yil orqada qolgan ustozsiz. Sizga bir gap aytib bo'lmaydi, bir o'g'lingiz qo'shni tumanda hokim, bir o'g'lingiz bir tumanning militsiya boshlig'i, sizlarga bir gap aytib bo'lmaydi. Gap aytgan odamni, so'zingizni noto'g'ri degan odamni yo'qotishga harakat qilasizlar... Men sinf rahbari sifatida Egam bilan Karimning kuyib-pishib quyonchilik harakatini yuzaga keltiramiz deyishlarini qo'llab-quvvatlayman, barakalla o'g'illarim deyman.

– Hamidova, bas qiling!

– Bas qilmayman.

– Yo bas qilasan, yo hoziroq maktabdan haydayman.

– Agar men maorif mudiri bo'lganimda, hurmatli ustoz, sizni yigirma yil oldin ishdan bo'shatgan bo'lar edim.

– Chiqib ket xonamdan.

– Chiqmayman, hamma gapni aytib keyin chiqaman.

– Chiqmaysanmi?

– Yo'q, aytadigan gapim ko'p deyapman.

Azizov domla o'zini tuta olmay qoldi. Xonaning u boshidan, bu boshiga borib kelaverdi. Vujudida qaltiroq turganga o'xshaydi. Qo'li ruchkani ham ushholmay qoldi.

– Kotiba, Umarova deyapman, qayerdasan, yoz «sinf rahbari Inobat Hamidova bir necha yillardan buyon sinf rahbarligini yaxshi bajara olmaydi, sinfda tarbiyaviy ishlar taqqa to'xtagan, bezorilik avj olgan, o'rta ta'limni bitirmagan o'z o'quvchilarini pul topish umidida pul topadigan ishlarga jalb qilmoqchi bo'lgan.

Yuqorida faktlarga asosan biologiya muallimi I.Hamidova o'qituvchilikka noloyiq deb topilib, ishdan bo'shatilsin. 106-maktab direktori O.Azizov».

Azizov domlaning g'azabi halı bosilgani yo'q. Butun vujudi g'azab alangasida yonib borayapti, yana talaygina achchiq-achchiq so'zlar aytmoqchi bo'layapti-yu aytolmayapti. Xuddi

shu paytda yana bir qiziq voqeа sodir bo'ldi-yu, hammaning e'tibori tashqariga qaratildi.

Butun hovlini oq, ko'k quyonlar bosib ketibdi. Hisobi ham yo'q, yuzdan ortiqqa o'xshaydi. Sinfdagи bolalar muallimlarning hay-haylashiga qaramay eshiklarni taraqaturiq ochib, derazalardan sakrab tushishib, sakrab-sakrab qochayotgan quyonlarni quvlashga berilib ketishibdi.

Majlis qatnashchilari yopirilib deraza yoniga keldilar. Boshqalardan ko'ra ko'proq Azizov domlaning o'zi qiziqib, hangu mang ham bo'lib qoldi shekilli, tushimmi, o'ngimmi deb o'ylab, ko'zini kattaroq ochib, yoqasini ushlab, yo «tavba» deb qo'ydi. Quyonlar o'yini avjiga chiqib borayapti. O'shalardan biri qani meni ushla-chi degandek, pusib turadi-da, ushlar moqchi bo'lgan bola ustiga tashlanganda, bir sakrab qochib qoladi. Boshlang'ich sinf bolalaridan biri omadi kelib quyonni ushlagan, boshqasi ushlay olmay yig'lagan, quyonlar ko'zing kuysin, ushlay olmaysan, ushlab bo'psan, deb sakrab-sakrab qochayotgan, direktor ana shu manzaralarga tikilib turibdi. Yana ham qizig'i shunda bo'ldiki, birinchi sinf muallimi Ortiqova opoy ham lapanglab quyon quvlashga tushib ketibdi, fizkultura muallimi abjirroq ekanmi, biri o'g'limga, biri bog'chadagi qizimga deb o'ylagan bo'lsa kerak, biryo'la ikkita quyonni qo'ltig'iga qisib olibdi.

– Ha, ha, haydayman, hammangni haydayman, – deb yetepinayapti Azizov domla.

## O'n oltinchi bob

Konkeldi qishlog'i yana vahimali gaplar ichida qoldi. Nabirasini o'ynatgani ko'chaga chiqqan chollar, kelini bilan gap talashayotgan kampirlar, ishi goh o'ngidan kelib, goh to'xtab qolayotgan, to'xtagani uchun xunobi oshayotgan fermerlar, yangi gap topdim, topganda ham eng chiroylisini topdim, deb maqtanayotgan qizaloqlar... hamma-hammasining og'zida tushunsa ham, tushunib ham bo'lmaydigan gaplar.

– Eshitdingizmi qo'shni, – deb so'raydi bir ayol.

– Ha, nima gap yana? – deydi qadrdon qo'shnisi.

- Anavi Shakarxon bor-ku, erini jilovlab olgan, o'shaning o'gay o'g'li sehrli quyon boqayotgan emish.
- Voy tavba!
- Quyonlari bir kechada ontagacha tug'ayotgan emish.
- Yo'q qo'shni, bilmabsiz, Eshon aya avliyo emishlar, duo qilib osmondan quyon yog'dirayotgan emishlar.

Bu xilvat qishloqning nimasi ko'p, kichik-kichik mahallachalari-yu, kichik-kichik ko'chalari ko'p. Ana shunday kichik ko'chalarining boshida yana bir suhbat ketayotgan bo'ladi:

- Eshitdingizmi? – deb so'raydi ikki hovli o'rtasidagi teshikchadan boshini chiqargan bir ayol.

– Nimani eshitay, aylanay?

- Direktor Hamidova opoyni qo'lidan yetaklab ko'chaga olib chiqib qo'yibdi. Og'zingni yum, bo'lmasa og'zingga mum eritib qo'yaman debdi.

– Voy sho'rim, aybi nima ekan?

– Sinfdag'i bolalar o'qishni to'xtatamiz, maktabni yopamiz, yo quyon, yo kaptar boqamiz deyishayotganimish. Hokimning otasiga-ya, Azizov domлага-ya, qo'rmasdan shu gaplarni aytibdi. Yana tag'in, qo'shni muncha shoshmasangiz, yana tag'in e, ustoz siz o'ttiz yil orqada qolgansiz, zamon sizni tashlab ketgan, degan gaplarni aytishibdi. Eng yomoni, qo'shni, sabr qiling, bu quyonlarga pulni qayerdan olayapsanlar degan gap ham ko'tarilibdi.

– Qo'shni, dugonajon, endi mendan ham eshiting. Bu quyonlarni, o'tgan yili o'rik quritamiz deb kelgan xorijliklar bor edi-ku, o'shalar keltirishayotgan emish, ilgari ularning askari dunyoni bosib olgan ekan, endi quyonlar bilan dunyonni bosib olmoqchi emishlar.

– Hamma ayb, meni aytdi demang-ku, qo'shnijon, uchastka nozirida. Qachon qarasang, ulfatlari bilan o'tirib ashula aytgani-aytgan, axir o'sha hushyorroq bo'lsa bo'lmaydimi?!

Odamlarning mish-mishi, vahimali gaplari tez tarqalayaptimi yoki Egam bilan Karimning quyonlari tez tarqalyaptimi, hech kim hisobini olayotgani yo'q. Rajabboy hovliqib fermaga a'zo bo'laman degan bolalarni boshlab keladi,

Ajabboy yaxshi boqsak boyib ketsak, hammamizning o'lgan buvimizga oq marmardan yodgorlik quyib berishar ekan, degan gaplarni hech to'xtatmaydi.

Ana shunday kunlarning birida ish bo'lsa ham, bo'lmasa ham serma tomonidan sovg'a qilingan yap-yangi velosipedini ko'z-ko'z qilish, maqtanish uchun tinmay qishloq aylanadigan Ajabboy bog'ning etak tomonidan velosipedini yetaklab, terga botib, halloslagancha kelib qoldi. Quyonlarni ovqatlantirish uchun Qambarali fermerdan olgan karamlarni dastkalla bilan maydalab, o'zaro suhbatga berilgan Egamberdi bilan Karimberdiga yaqinlashib:

– Ikkovlaringga ham xat bor, – dedi shoshilib, – Egam aka, siz o'ng cho'ntagimga qo'l soling, xat Fotima opamdan, Karim aka, siz chap cho'ntagimga qo'l soling, sizga Zuhra opamdan xat bor, ikkovi xatdan ham atirning hidi kelib turibdi, xatlarni ehtiyyot qilib topshirib kelsang, senga ham ana shu atirdan sepib qo'yamiz deyishgan. Ikki o'rtoq Ajabboyning cho'ntagiga yopishdilar. Ha, biri Fotima qizdan, boshqasi Zuhro qizdan ekan. Xatni o'qib bo'lgach, Karimberdi uni tez-tez hidladi, yuziga nurli tabassum yoyildi. Egamberdining bo'lsa, xatni o'qib bo'lar-bo'lmas yuzi-ko'zlariga katta odamlarga xos jiddiylik qo'yilib kela boshladи. Xatda, bosh qismida, odatdagidek Egamning, sog'ligi salomatligi so'ralgan. Keyin vahimali gaplar ham bitilgan: Hamidova opoy, maktabdagи majlisda Egamni himoya qilgani uchun maktabdan haydalgan, keyin o'sha majlisda Egam sog'mi, sog' emasligini aniqlash uchun kasalxonaga jo'natish haqida maslahat bo'lgan. Xatning oxiri, «Egam, jon Egamjon, bilib qo'y seni uchastka nozirining gapiga kirib qamashsa, men kasal bo'lib qolaman» degan so'zlar bilan tugagan, so'zning oxiriga uch bora undov belgisi qo'yilgan.

Egamberdi ko'pam dovdiramadi, faqat hamisha himoyachisi bo'lib kelgan Hamidova opoyaq achindi, juda-juda achindi. Onasi o'rniga onadek bo'lib qolgan edi. Hech kinga aytmaydigan, qalbining tub-tubida berkinib yotgan sirlarini faqat shu opoyaq aytardi, shu opoygina uni ruhlantirar edi... «Yerto'lada yotgan tillalarni tezroq bir yoqlik qilishimiz kerak,

qamalib ketsam Eshon ayamga ham, ko'ngilchan Karim o'rtog'imga ham og'ir bo'ladi... Yaxshisi tillalar topganimizni Hamidova opoyga aytaman. Opamiz aqli, ham mehribon, yaxshi maslahatlar beradi. Bo'ldi, tilla topganimizni faqat shu opamizga aytaman...» deya o'ylay boshladi Egamberdi.

Bunaqa paytda g'oyat keskin, g'oyat shiddatli bo'lib qolar edi. Shoshilib avvonda o'tirgan Eshon aya huzuriga borib yuzlaridan o'pib, ayajonim, dedi hayajonli ovoz bilan. So'ng xatni u kishiga uzatdi, Eshon aya xatni bir o'pdi-yu, qani, o'zing o'qi-chi dedi. Xat o'qilgach, ikkovlari ham bir nafasgina jim bo'lib qoldilar.

- O'zingga olma o'g'lim, yaqinroq kel, bag'rimga bir bosay,
- dedi Eshon aya, - hammasi Ollohdan. Ikki o'g'limni Ollohning panohiga topshirib qo'yanman.

- Ayajon, demak o'rtamizdag'i sirni muallima opoyga oshkor qilsak, rozimisiz?

- Karim o'rtog'ingdan so'ra.

- Karim o'rtog'im bilan anchadan buyon bu haqda maslahat qilayapmiz.

- O'g'illarim, sizlar nima deb qaror qilsanglar, men o'shang'a roziman.

Egamberdi bog' etagigacha velosipedini yetaklab borib sakrab mindi-da, qishloq tomonga uchib keta boshladi. Bunday paytlarda uning vujudida berkinib yotgan barcha kuch, quvvati ishga tushib ketar, o'sha quvvatlar «shoshil, shoshil, shoshilgin» deb qistab turar, shoshilmasa vujudi portlab ketayotgandek bir holatga tushardi. Hamidova opoyni axtarib topish uncha qiyin bo'lmadi. Uchrashishgach, salom-alikni qisqaroq qilib, dedi:

- Eshon ayam sizni so'rayaptilar, zudlik bilan olib kel, - dedilar.

- Tinchlikmi? - xavotirli ohangda so'radi muallima.

- Judayam tinchlik emas, - deb qo'ydi Egamberdi.

Eshon ayaning nomi bu atroflarda Avliyo ona nomi bilan ham ulug'lanadi. Avliyolar qabrini supirib-sidirib, obod qilib o'tirganlari uchunmi, yoshlari ham yuzga yaqinlashib o'zlarini bamisolli bir tirik murdadek bo'lib qolganlari uchunmi tavof

qilib keluvchilarning keti uzilmaydi. Hamidova opoy shunday mo‘tabar ona yo‘qlayotgan ekanlar, tezda borishim kerak, ehtimol, xudo saqlasin-u, qazo muddati yetgan bo‘lsa, vasiyatlari bormi, deb o‘yladi. O‘yladi-yu, ortiqcha savol bermay jadal yo‘lga tushishdi.

Yetib kelishsa, Eshon aya joynamoz ustida katta oq arabiy ro‘molga o‘ranib, jannatdan chiqqan farishtalardek atrosga oppoq-oppoq nurlar taratib o‘tirgan ekan. Aya, negadir, o‘rnidan turib ko‘rishi. So‘ng yonimga keling deb ishora qildi, hol-ahvol so‘rashdilar. Garchi ozroq xabardor bo‘lsa ham, mактабдаги воqealardan so‘radi. Gap asta-sekin qizib borayapti, suhbatlarida iliqlik, samimiyat kuchayib borayapti. Suhbatlasha-suhbatlasha gap Eshon ayaning tongda ko‘rgan g‘alati tushiga borib qoldi.

– Inobatxon qizim, eshitayapsizmi, tushimda Anorvoyim bilan Bo‘rivoyimni mana shu quyon boqayotgan Egamberdi bilan Karimberdining qiyofasida ko‘rdim-a, qizig‘i, Anorvoy bilan Bo‘rivoy qo‘zichoq ko‘tarib kelishgan edi, bu ikkovlari bo‘lsa quyon ko‘tarib kelishibdi. Axir bu Ollohnning marhamati emasmi, yer ostidagi xazina ham ana shu quyonlarga aloqador emasmi, deb o‘ylayman, ha, yuz yildan buyon berkinib yotgan edi, quyonlarga atalgan ekan-da... Tavba, «Tushlar kitobi»ni varaqlasam... Hammasi Ollohdan keladi, deb yozib qo‘yishibdi-ya.

Muallima Inobatxon opoy g‘alati bir kayfiyatda o‘tiribdi. Bunchalik hammadan ehtiyyot saqlanayotgan, nodir sirlarни Egamberdi bilan Karimberdi, qolaversa, Eshon aya nega boshqa birovga emas, menga, oddiy bir muallimga aytishar ekan, axir men qarindoshlari ham emasman-ku, nega, nega, deb o‘ylaydi. Tashqarida goh janjallahib, goh yarashib quyonlarini ovqatlantirayotgan Rajabboy bilan Ajabboy endi ketaylik, kech qolsak, onamiz urishadi, velosipedlaringni olib shiftga osib qo‘yaman, deydi, deb jo‘nab ketishdi.

Tuni bilan suhbatlari tugamadi. Muallimaning Eshon aya haqida yana ham ko‘proq narsalarni bilgisi keladi. Eshon aya bo‘lsalar shavqu zavqqa to‘lib Egam bilan Karim haqida yana ham ko‘proq aytgisi keladi.

– Bu xazinani, Inobat qizim, avvalo Olloh, qolaversa, avliyo bobolarim mana shu ikki o‘g‘lim uchun saqlaganga o‘xshaydi, eshitayapsizmi?

– Eshitayapman ayajon, hammasini eshitib turibman.

– Ikkovlari mening o‘g‘lim bo‘lishgan. Tirigim ham, o‘ligim ham endi shularniki... Olloh yaxshi niyatilarni murodiga yetkazaman degan. O‘g‘illarimning niyatlari yaxshi ekan. Mana bunisi otasiga traktor olib bermoqchi bo‘lgan, mana bunisi marhuma onasiga oq marmardan yodgorlik qo‘ymoqchi bo‘lgan... Ota rozi xudo rozi, ona rozi xudo rozi, degan gaplar bejiz aytilmagan, qizim. Xazina bu ikki o‘g‘limga Ollohdan kelgan mukofot, Ollohim mukofotni mana shu quyonlar orqali jo‘natibdi. Siz qizim o‘g‘illarim bilan birga bo‘ling, yo‘l-yo‘riq ko‘rsating... Ko‘nglimdag‘i bu gaplar ham Ollohdan kelayapti... Olloh hamma narsani ko‘ruvchi, hamma narsani biluvchi.

Bo‘layotgan gaplarga bir ishonib, bir ishonmay, goho qo‘rquvg‘a berilib, goho o‘zini arang bosib o‘tirgan muallima uchun hayajonli voqeа sodir bo‘la boshladи. Ko‘cha eshikni taqqa berkitib, orqasidan baquvvat tamba qo‘ydilar, ichkari uyning eshigini ham berkitdilar. Tosh o‘choqni qizdirib, sovigach, yerto‘лага Egamberdini tushirdilar. Egam tilla to‘la xaltani ko‘tarib chiqib o‘rtaga to‘kkanda Hamidova opoy xuddi ajina chalib ketgandek anchagacha angrayib qoldi. Bu yoqut ko‘zli uzuklar, qat-qat turgan katta-kichik tilla tangalar, o‘z zamonasining nodir ustalari zeb bergen zebigardonlar... Bular ichida sehr bor ekanmi muallimani sehrlab qo‘ygandek bo‘ldi. Egam bilan Karim bo‘lsa besh bahoga javob bergen o‘quvchidek g‘ururga to‘lib, jilmayibroq turishibdi. Eshon aya bu xazina tashvishidan tezroq qutulsam edi, degan bir alfozda turibdilar.

– Ayajon, – deya o‘ziga kelib so‘z boshladи muallima.

– Gapiring qizim, tezroq gapiring, – dedilar Eshon aya.

– Bu sirlardan, bu xazinadan nega kelib-kelib meni voqif qilayapsizlar?

– Olloh o‘g‘illarimning ko‘ngliga soldi, Olloh mening ko‘nglimga soldi.

Olloh yo‘l bersa hech gap emas ekan-da. Muallimaning birga ishslashga rozilik berishi ham, bu tillalarni bir qismini

tezroq pul qilish haqidagi gap ham osongina ko'chdi. Muallimaning aytishicha, shaharda tillalarni pullab beradigan, keragicha saqlab beradigan, zarur bo'lsa narxini ham belgilab beradigan Lombard degan magazin bo'lar ekan. Lekin shuncha katta boylikni mana bu yigitchalar olib borsa shubha paydo bo'lar ekan, mayda-chuyda gap ko'payib qolar ekan. Eshon aya birga borishi shart ekan. Tillalarni turli nayrang ishlatib olib qo'yishlari ham mumkin ekan.

- Axir, muallima qizim, men tarki dunyo qilgan ayolman-ku.
- Ayajon, siz mana bu mo'ltilab turgan yigitchalarni o'g'illikka qabul qilgansiz, shundaymi?
- Shundayku-ya qizim.
- Endi o'g'illaringiz uchun, birga borasiz, boshqa hech ilojimiz yo'q.

Eshon aya ikki yigitchani bag'rilariga olib biroz silab-siypalab turdilar-da to'satdan yig'lab yubordilar...

## O'n yettinchi bob

Eshonboqqa, uyachalarida tinmay ovqat yeb kavshanib turgan behisob quyonlarga, Rajabboy bilan Ajabboyni ham qorovul, ham xo'jayin qilib qoldirishdi. Ko'cha eshikni birovga ochmaslik, katta uyga hech kimni kiritmaslik, bog'ni tashlab biror yoqqa ketib qolmaslik haqida topshiriq ham berishdi.

- Bo'pti, - dedi Ajabboy qo'lini ko'ksiga qo'yib g'alati jilmayib, - faqat menga ham bitta qo'l telefoni olib berasizlar. Mana, akam mazza qilib gaplashyapti. Meniyam qulog'imga tutib gaplashgim kelayapti.

- Senga quyonlar gaplashadiganidan olib beraman, - dedi Egamberdi, - men kelguncha akang bilan janjallahshimagine. Tag'in qo'lidagi telefonni olib, o'tgan kundagiga o'xshab bog'ning etagiga qochib yurmagan.

Olloh oq niyatli bandasiga oq yo'l bersa ishi o'ngidan kelaverarkan. Egamberdi bilan Karimberdining tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarini ularning uyiga kirib, onalaridan so'rab olish uncha qiyin bo'lmadi. Muallima birga kirgani uchun onalar, maktab uchun kerak bo'lgandir-da, deb qo'ya

qoldilar. Guzardan kirakash mashinani ushslash Egamberdi ning zimmasiga tushdi. Tikilib turganlarga «Eshon ayamizni shaharga, katta doktorlarga ko'rsatgani olib ketyapmiz», deyishdi. Egamberdi tilla to'la yelim xaltani bag'riga mahkam bosgancha, muallima bilan Karimberdining o'rtasida jimgina borayapti. Muallima hamon buncha katta xazinani nega menga ishondilar, deb o'ylashdan to'xtamaydi. Qo'rqliq, hadiksirashga o'xhash bir holat muallimani hech tark etmayapti. Aslida bu xazinani tezroq bir yoqliq qilish, yo saqlab berishga topshirish, yo sotib, pulini ishonchli bankka qo'yish haqidagi fikr aslida shu opoyning o'zidan chiqqan.

Bir soatga qolmay peshtoqiga katta-katta zarhal harflar bilan «Lombard» deb yozib qo'yilgan dargohga yetib keldilar. O'h-ho' juda zo'r-ku, tepasi mehmonxona, o'ng tomonida bank, chap tomonida qurilish korporatsiyasi degan yozuvlar bor, bir-biridan chiroyli yozilganini aytmaysizmi. Ichkariga tortinibroq kirdilar. Nozikkina, yoqimtoygina, jilmayibgina turgan qiz kutib oldi. Bay-bay uning go'zalligini, borlig'idan taralayotgan atir hidlarining xushbo'yligini qarang. Egamberdi negadir, bir soniya ichida Fotima qizni ko'z oldiga keltirib, xudo xohlasa, men ham unga ana shunaqa atir olib beraman, degan gapni ko'nglidan o'tkazib:

– Tilla sotgani keldik! – deb qo'lidagi yetti xil xaltaga ketma-ket solingen tillalarni peshtaxta ustiga avaylabgina qo'ydi.

Qiz iboli, sinchkov nigohlar bilan yigitchaning hamrohlariga bir-bir qarab olib, xaltani qo'liga ushlar ekan, to'satdan dovdirab qolgandek bo'ldi.

– Voy bu, juda og'ir-ku.

– Ko'proq olib keldik-da.

Go'zal qiz «hozir, hozir» dedi-da ichkaridan yoqimtoygina, bejirimgina kiyangan, bo'ynidagi galstugiga yaltiroq narsalar qadalgan, novcharoq bir yigitni boshlab chiqdi. Yigit xaltani ochib qarashi bilan ko'zlar charaqlab, haligi go'zal qizga o'xshab, dovdirab, ko'zlar katta-katta ochilib, qoshlari kerilib, chiroyli yuzini hayrat nurlari qoplagandek bo'ldi. Labida chiroyli tabassum o'ynar ekan:

– Xush ko'rdik, – deya qo'lini ko'ksiga qo'ydi. So'nggi yillarda bunaqangi ko'p oltinlar kelmagandanmi, haligi dovdirashiga yana shuncha dovdirash qo'shilib, katta-katta ochilgan ko'zlarini anchagacha yumolmay turdi.

– Xo'sh ayajon, xo'sh opajon, ushbuni sotganimi yoki garovga qo'ygani keldilaringmi? – deb muloyimgina qilib so'radi. Eshon aya o'g'illariga hamroh bo'lib shaharga jo'naganidan buyon «xudoga shukur, o'g'illarimga yordamim tegadigan bo'ldi» deb, o'ylagani uchun dili charog'on bo'lib, goh «molu dunyo men uchun harom edi, unga aralashib noto'g'ri qildimmi», deya ko'ngillarining bir chekkasini qorong'ulik bosib kelayotgan, tinmay duolar ham o'qib turgan edi.

– O'g'illarimdan so'rang, – dedi past ovoz bilan.

– Xo'sh ukalar, xo'sh opajon, sotamizmi, garovga qo'yamizmi?

– Sotamiz, – deyishdi Egamberdi bilan Karimberdi.

– Opajon siz nima deysiz?

– Men guvoh bo'lib keldim, tillalar onamizga, mana shu ukalarimga qarashli.

– Asli, haqiqiy egasi kim bo'ladi?

– Hammamiz egamiz, – degan javob qaytdi baravariga.

– Ayajon siz aytинг, bu yigitchalar sizga kim bo'ladi?

– O'g'illarim o'rniга o'g'il qilib olganman.

– Uzr ayajon, bu katta boylikni tag-tugi kimni ekanligini bilmasdan turib savdolasha olmaymiz. Ezmalik qilyapti deb o'ylamang tag'in. Aslida, qoida shunday. Bu opamiz sizga kim bo'ladi?

– Muallimaman, guvoh bo'lib keldim deyapman-ku. Bu o'g'illarimiz fermer, shularga guvoh bo'lay deb keldim.

– Guvoh bo'lganligingiz haqida, qani vakolat qog'ozingizni ko'rsating-chi.

Egam bilan Karim tilla magazinlariga besh olti tangani ko'tarib borganlarida magazinchilar gap yo'q, so'z yo'q, shosha-pisha tangalarning pulini berib qo'ygan edilar. Bu dargohda esa sersavol odamlar ishlar ekan. Bordi-yu mafiyozlarga duch kelib qolgan bo'lsak-chi, deya o'ylay

boshladilar. Buning ustiga poyma-poy qilib berayotgan javoblari sotuvchini ham shuhhaga solib qo'yganga o'xshaydi, shoshilib ichkariga kirib ketdi. Xiyol o'tmay ostonada dahshatli bir odam paydo bo'ldi. Bo'yি baland, uyning shiftiga tegay deb turibdi. Kalla katta, boshida taqir sochi yo'q – yaltirab turibdi, burni yalpayib kelib labiga qo'shilay deb qolibdi, chap qulog'inining yarmi yo'q, ko'zlar ham katta-katta, tikilibroq qarasa ichiga odamni tortib oladigandek. Egamberdi bilan Karimberdi «tamom, tilla ketdi», deb birdaniga ko'ngillaridan o'tkazdilar.

– Assalomu alaykum, hoji ona. Assalomu alaykum, muallima singlim. Assalomu alaykum, azamat o'g'llarim, – deb har birlariga alohida-alohida salom bera boshladi «bahaybat odam», – hoy qizlarim, nega hoji onani divanga olmadilaring, ichkaridan atlas ko'rpa chalardan olib chiqinglar, qani hoji ona divanga o'ting, yo'q yo'q o'tasiz, sizdaqangi mo'tabar zotlar bu yerga oyda-yilda bir keladi. Muallima singlim siz ham o'ting. Choy berishsinmi yo kofe ichasizlarmi? Hoji ona, qani bir duo qiling-chi.

Eshon aya qaltiroq qo'llarini arang ko'tarib duo qildi. U kishidagi xavfli odamga duch kelib qolmadikmikan, degan hadiksirash aralash qo'rquv hali tarqalmagan edi.

– Onajon, meni Hoji Sodiq deydilar, – gapira boshladi dahshatli odam, – uch bora haj qilgan bir kishiman. Hajim qabul bo'ldimi, yo'qmi bu faqat yaratganning o'ziga ma'lum. Mana shu Lombard magazini, tepadagi zamonaviy uslubda qurilgan uch qavatli mehmonxona, o'ng tomondagi Kredit bank, chap tomondagi qurilish karparatsiyasi ham kamina qulingizga qarashli. Hammasiga general direktor bo'lib olganman, chakki emas-a? Shaharda yana ikkita Lombard bor, ularga odamlar kam boradi, aldovchilari ko'p, menga esa ko'proq kelishadi. Men rost gapiraman, haqiqatni aytaman. Ziyoratga kelgan arablar ham, pulu oltin muomilasini men orqali hal qilishadi... Onajon, bunchalik ko'p oltinni yo'lda yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan qo'rqumay ko'tarib kelganlaringga hayronman. Yo qorovullaring tashqarida o'tiribdimi? Axir, bular butun bir shaharning boyligiga teng-

ku. Xo‘p, hoji ona, gapni kaltaroq qilib savdoga o‘taylik. Keltirgan narsalariningni savdolashib, narxini kelishib olamiz. Muqaddas hadislarda, oluvchi ham, sotuvchi ham savdolashsin, savobi ikki tomonga teng bo‘linadi, deb aytilgan. Oldin bu tillalarning kelib chiqish manbaini ochiq aytinlar. Rost so‘zlanglar, yolg‘on aralashsa savdoni to‘xtatamiz... Hoji Sodiq dargohida yolg‘on so‘zga o‘rin yo‘q, xudo xohlasa bo‘lmaydi ham.

Hoji Sodiqning uzundan-uzoq aytgan so‘zlari to‘rttovlariga ham ta’sir qildi shekilli, asta-sekin o‘zlariga kela boshladilar:

– O‘g‘illarim bilan savdolashing, – dedi Eshon aya.

Egamberdi bilan Karimberdi biri olib biri so‘zlayapti, entika-entika so‘zlayaptilar, keskinroq qilib muallima so‘zlayapti.

– Demak, Xonkeldi qishlog‘idan ekansizlar-da, – so‘rayapti Hoji Sodiq janoblari, – bu o‘g‘illarimizdan biri marhum onasiga yodgorlik qo‘ymoqchi, boshqasi otasiga traktor olib bermoqchi bo‘lgan ekan-da. Qani endi hamma otaning o‘g‘illari ham ana shunday bo‘lishsa. Hadislarda avval onangdan qarzingni uz, keyin otangdan qarzingni uz deb bejiz yozilmagan. Demak, bu o‘g‘illarimiz yaxshi niyatlar ichida yashashgan. Yaxshi niyatlariga Ollohdan marhamat kelibdi-da...

Hammalari ichkariga, eshikchasi tepasiga laboratoriya deb yozib qo‘yilgan yop-yorug‘ bir xonaga taklif qilindilar. Hoji Sodiq janoblari «topib olsang ham sanab ol, degan naql bor, onajon xafa bo‘lmang metallaringiz sofmi, sof emasligini tekshirib ko‘ramiz, tekshirayotganimizda hammalaring diqqat bilan qarab turasizlar», dedi. Oppoq kiyinib, ko‘zlariga g‘alati-g‘alati oynaklar taqib olgan do‘mboqqina-do‘mboqqina ayollar xaltadagi tillalarni qo‘llariga olib, ustiga allaqanday dorilar surtib:

– Sof, juda toza tilla, – deb qo‘yadilar, ulardan ham oppoqroq kiyangan ayollar har bir tillani tarozilarga qo‘yib, qayta-qayta tortib ham ko‘ra boshladilar. Har-har zamonda boshlarini ko‘tarib Eshon ayaga tikilibroq qarashadi-da:

– Ayajon, mabodo xonlarga kelin bo‘lmaganmidingiz, – deb qo‘yishadi. Hoji Sodiq yo‘q bo‘lib ketdi. Ana kutishyapti, mana

kutishyapti, darak yo'q. Tillalarning sof yoki sof emasligini aniqlab olishgach, ularni yana qaytarib berishdi. Egamberdi xaltani bag'riga bosgancha yana tashvishlar olamiga g'arq bo'la boshladi.

## O'n sakkizinchchi bob

Birga ovqatlanamiz deyishib, anvoyi gullar o'rtasida kumish rangli favvoralar o'ynayotgan keng hovli orqali, yo'q hovli emas, jannatning bir parchasi orqali, oyoqostiga turkman gilamlari to'shalgan, o'n ikki-o'n to'rt kishiga mo'ljallangan shamshod daraxtidan yasalgan stol-stullar qo'yilgan, devorlariga yil fasllarini eslatuvchi turli rassomlar tomonidan bir-biridan go'zalroq chizilgan suratlar osilgan katta xonaga boshlab kirdilar. Hali magazinda ko'rganlari qizdan ham nozikroq, go'zalroq boshqa bir qiz tabassum bilan kirib kelib Eshon ayaning qo'ltig'idan olib, ehtiyotlab xona to'ridagi yumishoq divanga o'tkazdi. Chap tomondag'i gulli shkaf ochilib, yo'q shkaf ko'rinishidagi eshik ekan, ovozsiz ochilib Hoji Sodiq janoblari chiqib keldi. Har birlariga alohida-alohida salom berib, «xush ko'rdik, xush ko'rdik» deya, «hoji ona qani bir duo qiling-chi», deb qo'ydi. Keyin «endi sizlar yayrab o'tiringlar, ovqatlaninglar», deb chiqib ketdi.

Bir-biridan nozik, bir-biridan go'zal, bir-biridan xushmuomala ikki qiz ularga xizmat ko'rsata boshladili. Qizlar oltinmi, kumushmi laganlaru likobchalarda ho'lu quruq mevalar, qand-qurslar, chiroyli qilib kesilgan pishlog'u kolbasalardan keltira boshladilar. Issiq taomlardan yetti xilini tavsiya qilib:

– Ayajon, siz qaysi taomni xush ko'rasiz? – deb so'rashdi nazokat bilan.

– Sutli bo'laqolsin, – dedi Eshon aya.

Qorinlari ochgan emasmi, shoshibil ovqatlana boshladilar. Tezroq bu yerdan chiqsagu, tezroq savdoni bir yoqlik qilsak, tezroq Xonkeldiga qaytsak deb o'yladilar. To'rttovlarini ham «bu hurmatu e'zozlar nima uchun bo'layapti, o'zi biz qanaqa joyga kelib qoldik, ishqilib yomon odamlar bo'lmasin-da,

boshimizga ham bir g'avg'oni orttirib olmasak edi», degan tashvish hech tark etmayapti. Egamberdi xaltadagi tillalarni bag'riga mahkamroq bosib, kirib-chiqayotgan qizlarga xavfsirabroq qarab-qarab qo'yardi. Bir payt haligi shkafnusxa eshik ovozsiz ochilib, Hoji Sodiq janoblari qarib, etlari qurib qolganidanmi yoki aslida jussasi tug'ilganda ham ana shunday kichkina bo'lganidanmi, xullas, Eshon ayaga o'xshab oppoq kiyingan jikkakkina kampirni qo'ltig'idan olib, asta-sekin kirib kela boshladи.

– Hoji ona, uzr, – tez-tez gapirdi Hoji Sodiq janoblari, – sizdan ruxsatsiz bir ish qilib qo'ydim. Xonkeldi qishlog'idan sizdek eshonzoda kelganini aytgan edim, ammam: «bu kishi menga ota avlod bo'ladilar, mehmonning yoshi salkam yuzda bo'lsa, axir men, yakka-yu yolg'iz ammang yuzdan oshib qolganman-a, olib bor o'sha mo'tabar mehmon huzuriga, bir nafas bo'lsa ham suhbatlashib qolay», dedilar. Olib kelib to'g'ri qilibmanmi?

– Yaxshi qilibsiz, – dedi aya istamaygina.

Kampirlarning suhbati avvaliga qovushmadи, bir-birlaridan begonasirabroq turishdi. Hoji Sodiq janoblarining ammasi chindan ham Xonkeldi qishlog'ida yashab o'tgan payg'ambarimiz avlodidan ekanligi Sayid Eshonlar haqida eshitgani, yoshligida ota-onalariga qo'shilib, soyabonli aravada ziyoratga ham borganligi haqidagi axborot ikki kampirni bir-biriga bog'ladi qo'ydi. Borib-borib suhbat shunaqa qizib ketdiki, asti qo'yaverasiz. Laboratoriyada o'tirgan uch ayol birdaniga bu tillalar, bu taqinchoqlar ochiq havoda saqlanmagan, bir-birlarinig ustida, zarralari bir-biriga ta'sir qilib, yer ostida namiqib, namlar ta'sirida ranglari o'zgarib saqlangan, degan so'nggi axborotni aytgach, Hoji Sodiq betoqat bo'lib, o'zini qo'yarga joy topa olmay qoldi. Bu opalaru bu yigitchalar tillalarni qayerdan olib kelishdi, tillalar yer ostida uzoq yotgan bo'lsa, u yerda qadim zamонлarda kimlar yashab o'tgan, yashab o'tganlar xazina yig'ish imkoniyatiga egamidi. degan savollarga javob topishga shoshdi. Javobni ertaga emas. bugun topishi kerak. Yoshi yuzdan oshib qolgan ammasini bekorga olib kelmadи, Eshon ayaning kimligini aniqlab berishi

kerak. O‘ziga qarashli bo‘lgan bankning tuman bo‘limiga qo‘ng‘iroq qildi, zudlik bilan shahardagi tarix muzeysi rahbari bilan bog‘landi. Davlat xavfsizlik idorasida ishonchli odami bor edi, o‘sha odam orqali Eshonbog‘da xonlar zamonidami, qo‘rboshilar zamonidami qanaqa voqealar sodir bo‘lganligini aniqladi. Ha, bu odamga xudo keragicha mo‘l-ko‘l aql bergen. Shu aqlingni ko‘proq ishlatgin deb yana shuncha aql bergen ekan. Ikki kampirning suhbati poyoniga yetmasdanoq keltirilgan tillalar xazinaning bir qismi ekanligini aniqlashga erishdi. Qolganini qo‘ldan chiqarmaslik kerak, deya qat‘iy qaror qabul qildi.

– Uzr onajonlarim, xizmatchilikda, bir joyda ushlanib qoldim, – deya qizg‘in suhbatlashib o‘tirganlar oldiga xursand holatda kirib keldi, – yuringlar, savdo adolatli bo‘lsin deb ekspert komissiyasini ham chaqirganman. Halol, rostgo‘y kishilarni chaqirganman.

Komissiya a’zolari to‘plangan xonaga Egamberdi bilan Karimberdi tortinibroq, Eshon aya bo‘lsa istamaygina kirib bordilar. Muallima opoyni esa haligacha shubhali fikrlar tark etmagan edi. Ekspert a’zolari tillalarga narx qo‘yib bergach, Hoji Sodiq janoblari:

– Xo‘sish onajon, pullarni kimning nomiga qo‘yamiz, – deb so‘radi.

– O‘g‘illarimdan so‘rang, – dedi Eshon aya.

– Egamning nomiga qo‘yamiz. – dedi Karimberdi.

– Yo‘q Karim ikkovimizning nomimizga teng qo‘yamiz, xazinani birga topganmiz.

«Xazina, topganmiz» degan so‘zlarni Hoji Sodiq janoblari alohida diqqat bilan tinglarkan, «demak, xazinani shular topgan», degan fikr o‘tdi xayolidan. Bankning ham, Lombardning ham, tillalar magazinini ham, fuqarolarning omonati saqlanadigan bo‘limning hammasi mana shu Hoji Sodiq janoblariga qarashli ekan. Hujjatlarni rasmiylashtirish xamirdan qil sug‘urgandek hal bo‘ldi-qo‘ydi. O‘sha yerda ishlayotgan xodimlardan biri «boshqa vaqtda bo‘lganda, bu hujjatlarni olti oyda arang rasmiylashtirardilaring» deb ko‘zi kosasidan chiqib ketgudek daftarchadagi pullarga tikilib:

– Bay, bay, bay! – deb yoqasini ushlab ham qo'ydi.

– Hoji ona. – deya murojaat qildi Hoji Sodiq janoblari ishlari yakuniga yetgach, – sizdek mo'tabar insonning farzandlari, endi shunday deb ataymiz-da, mening bankimga mijoz bo'lishi, menga Ollohning buyuk marhamati bo'ldi. Sizlar bankka juda katta pul qo'ydilaring, kichikroq bir yurtning boyligiga teng boylik qo'ydilaring. Katta pul atrosida muttahamlar, tovlamachilar, qallob odamlar o'ralashib qoladi. O'g'illaringiz, mana bu kamgapgina, kamtargina qizingiz ham yo'q deyishmas deb o'ylayman, albatta sizdek mo'tabar zotning roziligi bilan, biz hamkorlikni keyinchalik ham davom ettirsak. Sizlarning himoyangizni mening bankim qilsa, nima deysiz?

– Hoji o'g'lim, men mingdan-ming roziman, qattiq charchab qoldim tezroq keta qolaylik.

– Xo'sh tortinchoq, kamgap muallima singlim, siz nima deysiz?

– Egamberdi bilan Karimberdi nima deyishsa, men ham roziman.

– Xo'p Egam o'g'lim, mening bankim bilan hamkorlik qilishga rozimisan?

– Pulning yarmi Karimda-ku, uning o'zidan ham so'rang.

– Karim o'g'lim, sen nima deysan, hamkorlikka rozimisan?

– Egam rozi bo'ldi, demak men ham roziman.

Ana shu gaplardan keyin yana hayratga soladigan boshqa bir voqeа ham yuz berib qoldi. Hoji Sodiqdek katta bank egasi, katta tilla magazinining rahbari to'rtovlariga aslzodalarga ko'rsatiladigan hurmatu e'tiborni ulardan ham ayamasligini bildirdi: shuncha e'zozdan keyin Hoji Sodiq janoblari «sizlarni Eshonbog'ga shaxsan o'zim olib borib qo'yaman, bahonada buyuk hazratlarning muborak qabrlarini ziyorat qilib kelaman», deb turib oldi. U kishining so'zini qaytarib bo'lmas ekan. Ro'lga o'zi o'tirdi. Bora-horguncha hayotida bo'lib o'tgan qiziq-qiziq voqealardan so'zlab bordi. Eshonbog'ga qadam qo'yishlari bilan hazrat eshonlarning qabrlari yoniga borib, qoq yerga o'tirib, shunday yoqimli, ta'sirli ovoz bilan tilovat qildilarki, Eshon aya ham tan berib o'tirdilar. So'ng g'ira-

shira qorong'i bo'lib qolganiganiga qaramay bog'ni aylanib chiqarkan:

– Xudo xohlasa mana bu o'g'illarim bilan bog'ni albatta obod qilamiz... Xudo xohlasa, bir hafta ichida elektr simini ham tortamiz... Xudo xohlasa mana bu o'g'illarimiz bilan quyonchilikni shunday rivojlaniramizki, butun dunyo quyonchilarining havasi keladigan bo'ladi...

Ana shunga o'xshash gaplarni aytib, «Hoji ona nabiralingizga biron narsa bersangiz, huzuringizda bo'ldim, huzuringizda bo'lganimni ularga aytib bir maqtansam», deb qo'ydi.

– Jonim bilan, o'sha nabiralingizga mendan ham salom aytинг, – dedi Eshon aya.

Uydan bir xalta qurt, bir xalta oq tuxum olib chiqib berdi Eshon aya. Egamberdi bilan Karimberdi bitta oq quyon hadya qilishdi.

**UCHINCHI QISM****SO'NGGI OLISHUV****Birinchi bob**

Xonkeldi qishlog'i vaqtı-vaqtı bilan goho quvonchli, goho tashvishli mish-mishlar ichida qoladi. Bittasi tamom bo'lishi bilan boshqasi boshlanib ketaveradi. Bunaqa tagi-tugi yo'q gaplarni o'ylab chiqaradiganlarning maxsus maktabi bo'ladimi yoki yo'qmi, hech kim bilmaydi, bu gaplar bir-biriga yashirin raqobatda bo'lgan Qibla mahalladan chiqadimi, Soy mahalladan chiqadimi hech kim anig'ini aytolmaydi. Aytmagani ham yaxshi, aytsa bormi, katta mushtlashuv boshlanib ketishi aniq.

Ikki mahalla yana g'iybatlar ichida qoldi. Ayniqsa, shafqatsiz, qattiqqo'l, lekin o'ta halol, odil deb nom chiqargan Siroj bирgadir bilan qo'yday yuvosh, musicadek uvol Qosimali suvchilarning Eshonbog'da bo'lib o'tgan katta xudoyi oshida ishtirok etib, «biz o'g'illarimizni Eshon ayaga rozilik bilan berdik, mayli, o'g'il qilib olaqolsinlar» deganlari; shahardan katta bankning vakili kelib Eshonbog'ga uch kun ichida elektr simi tortib bergani; qirq metr pastdag'i buloqdan Eshonbog'ga nasos orqali suv chiqarganlari; o'sha katta osh tortilayotgan paytda uchastka militsioneri, seni albatta qamayman deganda. Egam seni o'zingni qamataman, degani; Egamberdining haddan tashqari maqtanchoq, haddan tashqari kekkayib borayotgani; balog'at yoshiga yetganlar orasida birga borib pasportingni ol deyishganda, mening pasportimni uyimga olib kelishadi degani; kunora shahardan yap-yangi «Neksiya-mashinası kelib, Egam bilan Karimga qorong'u tushguncha xizmat qilayotgani... Mana shularning hammasi mish-mishlarga, vahimali gaplarga asos bo'laverdi. Hamidova opoy bilan, Universal boboning quyonlar tufayli maktabdan haydalishi quyonchilikning yana ham rivojlanishiga bir turki bo'ldi. Toshkentning qaysidir bozoridan aravachada yuk

tashib pul topamiz onamizni eng katta doktorlarga ko'rsatib davolaymiz, deb qynalib yurgan aka-uka Ortiqali bilan Sultonalining fermaga kelib qo'shilishi u yoq-bu yoqda sang'ib yurgan boshqa o'smirlarning ham yopirilib kelishiga sabab bo'ldi. Lekin ichi qoralik, hasadgo'ylik degan narsalar ham bor ekan. Donishmandlardan biri «Birovning baxti birovning ko'zini chiqaradi», degan purma'nno gapni aytgan. Egamberdi bilan Karimberdidan dakki yeb, goho kaltak ham yeb yurgan Isroil bilan G'ulom g'uppalar, buning ustiga biron aybini bo'yniga qo'yib jazolay olmagan, jazolay olmagani uchun alami oshib yurgan uchastka noziri Erkayev birlashib oldilar. Ehtimolki, quyonchilikni tez rivojlanayotganidan boshqa omadsiz fermerlar ham tashvishga tushib qolgandir. Shundanmi, bir kechada ketma-ket ikki falokat yuz berdi.

Qirq metr yuqoriga nasos orqali ko'tarilgan suv inshootini portlatib yuborishdi, uch chaqirim naridan elektr simini tortib kelishgan edi, ustunlardan o'n to'rttasini bir kechada o'g'irlab ketishdi. Eshon aya yigitchalarning ko'nglini ko'tarishga harakat qiladi.

Muallima dalda berib, bunaqa narsalardan qo'rqmanglar, dedi. Hoji Sodiq janoblari «orqalaringda mana men turibman, ishni qaytadan boshlayveringlar», dedi.

Puli ko'p odamning yordamchisi ham, maslahatchisi ham ko'p bo'lar ekan. Atroflarini yordamchi-yu maslahatchilar o'rab olaverdi. Ana shunday kunlarning birida sobiq kolxozning idorasi, molxonasi, mashiná-traktor parki, elektr tegrimoni, belarus markali traktorlari kim oshdi savdosiga qo'yiladi, degan xabar tarqalib qoldi. Bu gaplarni barcha xabarni hammadan oldin eshitadigan aka-uka Rajabboy bilan Ajabboylar topib kelishdi.

Egamberdi shoshilib sermaning majlisini chaqirdi.

- Tinchlikmi? - so'rashdi ferma a'zolari.
- Qo'shni qishloqdagi a'zolarimizni ham chaqiramiz.
- O'g'lim, muncha shoshilmasang, poyezding ketib qolmayapti-ku axir, - deb maslahat bergen bo'ldi muallima.
- Opajon, qishlog'imizda yuztacha fermer bor, hammasi sotiladigan mulkni men olaman, deb turibdi, - deya mulohaza

yurita boshladi Egamberdi, – mana Karim ikkovimizda million-million pullar bekor turibdi, shu pullarga o'sha mulklarni olib, kimga olib bergen bo'lsak o'shalarga hadya qilamiz. Pul Eshon ayamning aytishlaricha, eshitdingiz-ku, shu yurtda yashab o'tganlarning ota-bobolaridan yig'ilgan, to'g'rimi? Demak, bu pullar ham o'shalarning o'g'il-qizlariga tegishli, quyonchilikdan ortgan pulning hammasini o'shalarning nabirayu, evaralariga tarqatamiz. Kolxozi mulkidan nimalarni sotib olsak bo'lar ekan?

Fermaning yosh-yosh a'zolari navbat bilan qo'l ko'tarib qaysi mulkni olish kerakligini aytta boshladilar.

– Kolxozi idorasini paqqos olamiz, keyinchalik men rais bo'laman, – dedi hovliqmachi Rajabboy.

– Traktorlarni ham olaylik.

– O'rikzorlarni ham olaylik.

– Elektr tegirmanni mening bobomga olib beramiz.

– Sartaroshxonani olsak o'sha yerda muzqaymoq sotsa bo'ladi.

– Pulimiz yetadimi axir?

– Xudo xohlasa yetadi, ortib ham qoladi.

Shahardan xizmatga chaqirilgan mashina bog' etagida hamisha shay turardi. Egamberdi, Karimberdi, muallima, Rajabboy, Ajabboylar tiquilib o'tirishib, savdo ko'rgazmasi o'tishi mo'ljallangan joyni borib ko'rish, o'rganish uchun o'sha yoqqa jo'nadilar. Qorovul ularni iliqqina kutib oldi. Tuman markazidan, qo'shni qishloqlardan xaridor bo'lamic, deb ko'p kishilar kelib-ketayotgan emish, bozorqo'm, avtoinspeksiya boshlig'i ham kelishibdi.

– Egam o'g'lim, sendan bir narsa so'rayman deb, umidvor bo'lib o'tiruvdim, – tortinibroq gap boshladi qorovul amaki, – aytadigan javobingni Eshon ayaning ruxsati bilan aytasanmi?

– Yo'q, yaxshi savol bo'lsa, o'zim javob qaytaraveraman.

– Eshitdik, juda boyib ketibsan, o'g'lim.

– Ha endi bobo, Ollohnning xohishi bilan shunaqa bo'ldi.

– Ochig'ini ayt, senga mablag'ni birorta tashkilot berayaptimi, yo yaponlardan olayapsanmi?

– Aytdim-ku bobojon, Ollohdan kelayapti.

– O'g'lim, har kim bilan ishlama. Ular qallob bo'lar ekan. O'tgan yili o'rikka pul berib, ho'l o'rikka pul beruvdi-ya, yo'q, qurug'idan berasan deb turib oldi-ya... Bilaman, dadang nard yigit, saxiy yigit, ilgari dadang birgadir edi, men uning qo'lida suvchilik qilganman... Mablag'ining ko'p bo'lsa, menga elektr tegirmonni olib bergen, jon o'g'lim. Xudo xohlasa asta-sekin pulini qilib beraman. Bilasan, ammang nogiron, men bo'lsam mana hech narsaga yaramaydigan bo'lib qoldim... O'tgan yili yer taqsimlanganda, meni aldab qo'yishdi, ololmay qoldim. Jon o'g'lim, Eshon ayaga borib iltimos qilib keldim, o'sha tegirmonni olib bersang bir umr mana shu qishloqqa xizmat qilaman... Sekin qulog'ingga aytib qo'yay: tegirmonni bozorqo'm olmoqchi emish, To'raqulga pul berib ketdi.

– Men roziman, bobojon, Karim o'rtog'im ham rozi bo'lsa, tegirmonni sizga olib beramiz.

– Karim o'g'lim, rozi bo'lgin.

– Bo'pti bobojon, tegirmonni o'z nomimga olamanu hadya qilaman... Kecha gazetada o'qidik, sotib olsam, hadya qilish huquqiga ega ekanman.

– O'g'lim, Egam ikkovingni o'lguncha duo qilaman... Lekin o'g'lim qo'rqi broq ham turibman.

– Nimadan qo'rqayapsiz, bobojon? – tengdan so'rashdi yigitchalar.

– Tegirmonga moskvachi boy ham ishqivoz bo'lib yuribdi.

– O'rikpurishmi?

– Ha o'sha-da, o'g'llarim.

– Qo'rqmang bobojon, – dedi Egamberdi, – Karim ikkovimiz turgan joyda moskvachi boy ekan-ku, undan kattasi kelganda ham, so'z bermaymiz, tamom. Sizga olib beramiz, biz bilan olishganning belini sindiramiz.

– Hay-hay o'g'lim, belini sindiradigan bo'lsang, gapimdan qayta qolay.

– Bobojon qo'rqmang, belini sindirmaymiz, belini silab-silab yengainiz.

## **Ikkinci bob**

Tuni bilan uyqu bo'lmadi. Maslahat ustiga maslahat bo'layapti, Kolxoz mulkidan qanchasini olish kerak.

Tajribali, ko'pni ko'rgan muallima opoy bir gap aytayapti, bir kunda katta pulga ega bo'lib qolgan Egamberdi bilan Karimberdi yana bir gap aytayapti, Bankdan vakil bo'lib kelgan, aslida, Egamberdi bilan Karimberdini himoya qilish uchun zimdan birkirib qo'yilgan, shunchaki mashinalaringni haydab yuribman, deb yurgan yigit uchinchi bir fikrni aytayapti.

– Olloh yaxshi niyatlarining rivoj bersin, savdolaring o'ngidan kelsin, – deb Eshon aya fotiha berdi.

Shahardan xizmat uchun chaqirilgan mashinaga, to'g'risi Hoji Sodiq janoblarining yashirin poyloqchisi boshqarayotgan yap-yangi «Neksiya» mashinasiga o'tirib, savdo yarmarkasi o'tadigan joyga tantanali kirib bordilar. O'h-ho', odam degani tirband bo'lib ketibdi. Ilgari Toshkentdan nomdor artistlar kelganda ana shunday bo'lardi. Guruh-guruh bo'lib, oila-oila bo'lib, juft-juft bo'lib o'tirishibdi. Qiziq, negadir mакtab o'quvchilari ham sinf-sinfga bo'linib joy talashishyapti.

– Kolxozi bugun o'ladi.

– Ilgari o'lgan-ku.

– Bugun ko'mishadi.

– Fotihani boyib ketgan fermerlar o'qiydi... – degan gaplar to'xtamayapti. Goho guruhlar o'zaro nimaningdir maslahatini ham qilib olishyapti.

Neksiyadan chiqishlari bilan hammaning ko'zi Egamberdi bilan Karimberdida bo'lib qoldi. Chiroli kostyumlariga, yaltiroq tuflilariga, oppoq yoqali ko'ylaklariga tikilib-tikilib, sinchiklab-sinchiklab qarashyapti. Yigitchalarning juda chiroli kiyinganlari uchunmi, bo'ylari ham novcharoq ko'rinyapti, o'zlarini tetik, dadil tutishyapti. Qiziq, bular kechagi quyon bahsida o'z direktorlari bilan olishib yurgan, uchastka nozirining oldiga tushib qochgan, G'ulom Shokirlar bilan tinmay mushtlashib yurgan o'smirlar emas, yigitlik nuqsi urib qolgan, qarashlari jiddiy, ko'rinishlari ham xiyla

o'ychan, fikrli yigitlarning aynan o'ziga o'xshab qolishibdi... Tikilib qarayotganlar orasida maktabdan o'qishni tashlab chiqqan qizlar ham ko'p. Ular ham to'xtamay har xil gaplar aytishyapti.

- Xorijliklar pul beribdi ularga.
- Yo'q, qaysidir tashkilot do'llir berayotgan mish.
- Eshitdingmi, muallima opoyimizga qancha quyon tug'dirsa shunga qarab maosh berishayotgan emish.
- Eshitdim, beshta quyon o'lik tuqqan ekan, maoshining yarmini kesib tashlashibdi.
- Yolg'on, o'lik tuqqan ekan, opajon, xafa bo'l mang, maoshingizni yana ham ko'proq beramiz, deyishibdi.
- Egam Fotiga uylansa xorijga ketisharmish.
- Foti G'ulomga beshik ketdi bo'lган-ку!
- Egam, G'ulomni otasiga qo'shib barmog'im bilan ezib qo'yaman, debdi.

Bir-biridan chiroyli so'z aytib, bir-birini mot qilishga hamisha intilib kelgan Xonkeldiliklar ana shunday gaplarga berilib ketishgan. O'rtaga stullar qo'yilgan. Stullarda savdo komissiyasining a'zolari bo'lsa kerak, savlat to'kib o'tirishibdi. Siroj birgadir ham o'tiribdi, komissiyaga a'zo bo'lган bo'lsa kerak. Karimberdi otasiga bir qaradi-yu nimadandir xijolat bo'ldi shekilli, darrov ko'zini olib qochdi.

- . Zang urildi. Savdo boshlandi.
- Dashtdagagi shig'il hosilga kirgan, har biri uch gektarlik o'rikzorlar. - deb gap boshladi broker, - maydonlar bir-biridan ajratilgan. Xurmoyi, mirzoyi o'riklari gurkirab o'sib turibdi, suv Rovot soyidan, shiyponlari ispara usulida qurilgan, har birining dastlabki bahosi uch million so'mdan.

Zang urildi.

- Uch million, bir!

Esonqul bog'bon qo'l ko'tarib o'rnidan turdi:

- Besh yuz ming qo'shaman!

Zang urildi.

- Uch million besh yuz ming, bir.

Tuman avtoinspeksiyasining boshlig'i, salobatliroq bo'lib ko'rinay degan bo'lsa kerak, qum bilan artib yuvilgandek

yaltirab turgan polkovniklik darajasini ko'rsatadigan pagonini ham taqib kelgan ekan. Shoshilib, ishonch bilan o'rnidan turdi:

– To'rt millionga olaman.

Zang urildi.

– To'rt million, bir!

To'raqul amaki bilan Rayimqul tog'a tengdan qo'j ko'tarishdi. Aftidan maslahatlari pishganga o'xshaydi, savdoga qo'yilgan o'rikzorni bиргалашиb olishmoqchiga o'xshaydi. Ikkovlari bir ovozdan:

– To'rt million uch yuz ming, pulimiz naqd, – deb yuborishdi.

Zang urildi.

– To'rt million uch yuz ming, bir!

Polkovnik bu gal shoshamasdan o'rnidan turdi, «ey xudo, ishqilib bog'dan ayrilib qolmasaydik», deb yuraklarini hovuchlab o'tirgan bog'bonlarga xuddi masxaralayotgandek g'alati bir qarash qildi-da, baland ovoz bilan:

– Bog'ni, bog'larni besh million so'mga olaman! – dedi.

Zang urildi.

– Besh million, bir!

Hamma jim, hech kimdan sado chiqmayapti. Tomoshabinlar orasida «esizgina, bog' begonaga sotilyapti-ya», deydiganlar ham, «bechora To'raqul bilan Rayimullar dashtga suv tashib bog' yaratgan edilar-a», deb afsuslanayotganlar ham bor. Ikkala bog'bon bir-birlariga qarab yig'lavoray-yig'lavoray deb turishibdi.

Zang urildi.

Egamberdi o'rnidan turdi.

– Bog'ni olti million so'mga olaman!

Odamlar «o'-o'-o'» deb yuborishdi. Bu gapni Egamberdi aytdimi yoki yonida shahar kredit bankining vakili sisatida o'tirib, Egamberdigiga dalda bo'layotgan, hozirgina ularning mashinasini haydar kelgan yigit aytdimi, ko'pchilik anglamay qoldi.

Zang urildi.

– Olti million so'm, bir!

Polkovnik katta odamlar goho bolalarga bor ichkariga kir, kattalar ishiga aralashma deb urishib berishadi-ku, ana

shunday bir ohangda tik turgan Egamberdiga ho'mrayib qarab:

– Olti yarim million so'm beraman, – deb yubordi. Ana shundan keyin maslahatchilari bilan polkovnik bir taraf, Egamu Karimga taraf bo'lib kelgan Hamidova opoy, Universal bobo, Rajabboyu Ajabboy bir taraf, yo piray, bir olishuv boshlandi, bir olishuv boshlandiki. Xonkeldiliklar naq yurak o'ynoqi bo'lib qolishayozdi. Pul ustiga pul qo'shilib borayapti. Voy-boy, degan ovozlar avjiga chiqib borayapti. Pullarimiz oltindan tushdi, oltin shu yurtda yashab turganlarning otabobolaridan qolgan, pulni ayamayman, yana tikaman deb o'ylayapti Egamberdi. O'ylagan sari vujudida jasorat, shiddat avj olib borayapti. Polkovnik bog'ning bahosini sakkiz million so'mga ko'tardi, hayajon ichida, ko'zлari o'ynab turib, qo'llari qaltirib turib e'lon qildi. Azaldan qaysar bo'lган, bunday paytlarda vujudida yovvoyi kuch mavj urayotgan Egamberdi polkovnikni biryo'la yengib qo'ymoqchi bo'lib:

– Bog'ga o'n bir million so'm beraman! – deb e'lon qilib yubordi. Zang urildi.

– O'n bir million, bir...

Zang uch bora urildi, Egam tilga olgan raqam uch bora takrorlandi. Polkovnik tik turganicha joni chiqib ketdi shekilli, jim bo'lib qo'yaqoldi.

Olamni qarsaklar ovozi bosib ketgandek bo'ldi. Odamlar orasidan:

– Polkovnik yengildi.

– Bog' o'zimizda qoldi, – degan ovozlar eshitila boshlandi.

Egamberdi bilan Karimberdi o'rinalidan turib, biz ushbu bog'ni yaratgan To'raqul amaki bilan Rayimqul tog'amizga hadya qildik, bog' o'zlariniki edi, o'zlarida qoldi, deyishlari bilan qarsak shunday yangradiki, hatto ho've naridagi daraxtlarga qo'ngan qushlar ham hurkib uchib ketishdi. Navbatdagi savdo e'lon qilingan ekan, hayajondanmi, g'ala-g'ovurlar kuchayib ketganidanmi, Egamberdi bilan Karimberdi yaxshi eshitmay qolishgan ekan. Elektr tegirmon savdoga qo'yilibdi. Broker rizqu ro'zimiz, issiq nonimiz, malla patiru, sergo'sht chuchvaralarimiz – hamma-hammasi mana

shu tegirmondan chiqadigan oppoq unlardan bo'ladi, deyayotgan ekan.

Zang urildi.

– Boshlang'ich bahosi olti million, bir!

Moskvachi boy ho'lu quruq o'riklaru qizarib pishgan giloslarni Moskvaga tashib soydasiga ketma-ket ulkan-ulkan yuk tashish mashinalari sotib olib nom chiqargan bir yigit edi. Gavdali, ko'kraklari keng, ochiq yoqasidan ko'kragidagi sariq yunglari shundoqqina ko'rinish turgan bu yigit jilmayibgina o'rnidan turdi. Hamqishloqlariga yoqimli tabassum qildi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib salom ham berdi. Tamom, deb o'ylashdi to'planganlar, bu tegirmonga mana shu yangi boy ega bo'ladi. Moskvachi boy:

– Olti yarim million! – deb baho berdi.

Zang urildi.

– Olti yarim million, bir.

– Egamberdi bilan Karimberdi yonidagi sheriklari bilan fikrlashib, qorovulga kecha bergen va'dalariga amal qilishga qaror qilishib, savdoga sen chiqasan, olishuvni sen boshlaysan, yengasan deb Karimberdini o'rnidan turg'izishdi. Karimberdi xuddi uyat ish qilib qo'ygan yosh boladek, uyalibroq, tortinibroq o'rnidan turdi:

– Biz yetti million so'm beramiz!

Zang urildi.

– Yetti million so'm, bir!

Eski tegirmonchi o'rnidan turib hoy hamqishloqlar, tegirmon buzilib, dabdalasi chiqib yotibdi-ku, yaxshisi insof qilib mening o'zimga berib qo'ya qolinglar, u yog'-bu yog'ini rostlab ishga tushirib yuborsam, xudo xohlasa, donu dunlaringni tekkinga tortib berib yuraman. dedi.

– Yetti million so'm, ikki!

. Karim kimoshdi savdosini ilgari ko'rimagandi, oz-ozdan qo'shib borish tartibi borligini ham bilmasdi. Hamonki, uni olishga qaror qilgan ekanmiz, biryo'la olib qo'yaqolaylik, deb o'yladi shekilli, savdoni boshqarayotgan hakamga qarab: «shu tegirmonni biz Qobil boboga olib bermoqchimiz, xotini kasal, o'zi cho'loq, menda pul ko'p», degan so'zlarni aytib, bu yerda

aytish mumkin bo‘lмаган бoshqa qo‘shimchalarni qilib, kutilmaganda cho‘ntagidan hisob raqami yozilgan daftarchasini chiqarib:

– Gapni qisqaroq qilmoqchiman, tegirmonga o‘n bir million so‘m beramiz! – deb e’lon qilib yubordi.

Tomoshabinlar o‘rtasida pastu baland gaplar boshlandi. Norozi bo‘lganlar ham, yigitchaga rahmat aytayotganlar ham ko‘p edi. Savdoni boshqarayotgan broker zangni shunday qattiq urdiki, so‘zlayotganlarning so‘zi og‘ziyu bo‘g‘zida qoldi.

– O‘n bir million, bir.

– O‘n bir million, ikki.

– O‘n bir million, uch – sotildi!

Yo‘q bundan oshiqligi pulni hech kim qo‘ya olmadi, aslida bunaqangi katta pul to‘planganlarning hech birida yo‘q ham edi. Yopirilib kelib qorovul boboni-yu Karimberdini o‘rtaga olib, o‘pishib, quchoqlashib tabriklay ketdilar.

### **Uchinchi bob**

Xonkeldi qishlog‘i bu kecha uxmlamadi hisob, uch yuz oilada uch yuz xil fikr to‘xtamadi.

– Ey tovba, bu yosh yigitchalar shuncha katta pulni qayerdan topishyapti?

– Polkovnik kurka tovuqdek pisib qoldi-ya.

– Pismiq mullavachchada shuncha pul bor ekanmi?

– Otasi Siroj bиргадир биргадирлигига rosa pul yiqqanga o‘xshaydi.

– Yo olloh, yo tavba.

– Ishqilib bu ikki yigitchaga ko‘z tegmasin-da, ko‘z yomon narsa, odamni nobud qiladi-ya.

Haimmaning og‘zida ana shunday gaplar. Eshon ayani tavof qilish, buloq suvi tepaga chiqibdi, muborak bo‘lsinni aytishib, elektr chiroq yoqibsiz, umringiz yana ham ravshan-u charog‘on bo‘lsin deyishib, moyli patirlardan, qat-qatli qaymoqli qatlamlardan dasturxon tugishib muxlislar kelib-ketishyapti. Aya ko‘pam ularning oldiga chiqavermaydi, kelgan-ketganni duo qilib qo‘ya qoladi.

Bugun Egamberdining o'gay onasi bilan Karimberdining otasi ham kelishgan. O'g'illari kimoshdi savdosida yutib chiqib, butun qishloq ahlini o'zlariga qaratganlarini aytishib, «Eshon aya, o'g'illarimizni sizdek mo"tabar zotga farzand kilib berdik. Mana siz bag'ringizga olganingizdan buyon boyib ham ketishyapti, badavlat bo'lishdi, endi ularni yomon ko'zdan asrashni Ollohdan so'rab turishingizni, sizdan qayta-qayta iltimos qilamiz», deyishdi. Eshon aya ma'qul, ma'qul deb o'tirdi. Ketayotganlarida har birlariga sandig'idan kiyimbosh chiqarib berdi. Ota-onalar jo'nab ketishgach, Eshon aya muallimani yoniga chaqirib kimoshdi savdosida bo'lган voqealarni qayta-qayta so'radi.

– Qizim sizdan ehtiyyotroq bo'lib yana bir narsani so'ramoqchi bo'lib yuruvdim, – gap boshladi aya, – o'g'illarim direktor bilan urishib qolganlari rostmi? Rost bo'lsa nega urishadilar?

– Ayajon direktorimiz yomon odam emas edilar, lekin zamonalr o'zgarib ketdi, zamondan orqada qolib ketganlar...

– Kim biladi qizim, to'qson yildan buyon eldan tashqari bo'lib yashayman, ko'p narsani bilmasligim aniq. Keyin yana bir narsani yuragim sezib yuribdi, Egamberdi bilan Karimberdining o'rtalari buzilib borayotganga o'xshaydi. Sezishimcha, Egamqul qaysar, bir so'zli, boriga qanoat qilmay, to'xtamay oldinga chopaveradigan yigitcha ekan. Karimberdi bo'lsa Ollohga shukur, sabrli, qanoatli yigit.

O'rtalaridagi janjal mana shundan chiqadiganga o'xshaydi. Qo'rqaman, keyinchalik oralaridagi janjal kuchayib ajralib ketishmasin-da qizim, yana sizga aytadigan gapim bor. Odam bolasi qarib borarkan-u orzu-havaslari qarimas ekan. Hamma onalarga o'xshab men ham chiroqli-chiroqli kelinlar qilsam, chiroqli kelinlarim qo'lidan qaynoq-qaynoq choy ichsam, ostimga atlas ko'rpachalar to'shab, «xush ko'rdik ayajon», deb salom berib turishlarini ko'rsam, deb orzu qilgan kunlarim bo'lgan. Nahotki, shu uyda yor-yor ovozini eshitmay ketsam deb xo'rsingan paytlarim ko'p bo'lgan. Goho ko'zimni yumdim deguncha, qulog'imga gurillab yor-yor ovozi eshitilgandek bo'ladi, mana o'g'illar

berdi, to‘yning harakatini boshlang, muallima qizim, tezroq boshlang.

- Qishlog‘imizda nima ko‘p chiroyli qizlar ko‘p, ayajon.
- Qizim, tanlaydigan kelinimiz tagli joyli, iymonli bo‘lsin.
- Ayajonim, o‘g‘illaringizning fermasi rivojlanib ketgandan buyon qishlog‘imizning yarmi qizi ularga ishqiboz bo‘lib yurishibdi. Ularni maqtamagan qizu shu yigitlardan birini kuyov qilaman deb orzu qilmagan ota-onas qishloqda kam qoldi.
- Og‘zingizga novvot, muallima qizim. .

– Ayajon, bir narsani sizga aytmasam bo‘lmaydi. O‘g‘illaringizning tanlaganlari bor... men bularga to‘rt yil sinf rahbari bo‘lganman, qaysi bolani qaysi qizga moyilligi bor, qaysi qiz qaysi bolani xushlaydi, bora-bora bilib borarkansan. Hali aytdim-ku, hozirgi yoshlari siz bilan men ko‘rgan burungi yoshlarga hech o‘xshamaydi. Ilgari otasi yoki onasining aytgani bo‘lardi, hozir butunlay boshqacha, ayajon. Beshinchisinf daligidayoq bir-birini tanlaydigan bo‘lib ketishgan. Qibla mahallada Tursunali qassob bor-ku...

– Bilaman, qizim bilaman. Otasini Madrayim qassob deyishardi, ota-bobolari xonlarning otboqari bo‘lishgan.

– Ayajon, ana shu Tursunali qassobning Fotima, Zuhra degan egizak qizlari bor. Egam bilan Karimingiz o‘salar bilan... Ishqilib tug‘ilgan kunlarida bir-birlariga sovg‘a-salom qilib yurishadi-da.

– Xayriyat, qizki, yomon odamlarning surriyodi emas ekan.  
– Ayajon, jindek ishkalroq joyi ham bor-da... Ishkali o‘sha Fotima qiz Qo‘ziyev raisning o‘g‘liga chaqaloqligidayoq beshikkerti bo‘lgan ekan. Qo‘ziyevning G‘ulom degan qulog‘iga gap kirmas, beta’sir o‘g‘li bor, o‘shanga fotiha bo‘lgan ekan.

– Fotiha bo‘lgan deng?  
– Ha, bo‘lgan ekan. Buni bugun yurt bilarkan. Faqat qaysar, aytgan gapidan qaytmaydigan o‘g‘lingiz Egam buni tan olmaydi. G‘ulom bilan mushtlashgani-mushtlashgan.

– Fotiha Ollohnning muhri! – deb Eshon aya ham jim bo‘ldi va uzoq o‘yga cho‘mdi. Muallima sekin o‘rnidan turib quyonxonani aylangan bo‘ldi. Sim to‘r, yog‘och kataklardagi quyonlar joy torligidan yotolmayaptilar, bir-birlarining

yelkasiga boshini qo'yib tik turganlari ham bor. Aka-uka Rajabboy bilan Ajabboylar taxta arralashyapti. Akasi kuchliroq, ukasi nimjonroq, akasi qattiqroq tortmaysanmi desa, ukasi o'zing tortmayapsan, deb baqirib berayapti.

Egamberdi bilan Karimberdi huv naridagi Universal bobo omonatgina qurib bergen, omonatgina qurgani uchun bir tomonga qiyshayib ham turgan yog'och so'rida bir-biridan uzoqroq o'tirib olib, bir-biriga achchiq-achchiq so'zlar aytishyapti. Hamisha bolalar o'rtasida bo'lib, hamisha bolalar so'ziga diqqat bilan goh oshkora, goh yashirin qulq solishga o'rganib qolgan Hamidova opoy burilib keta olmadi. Ko'pincha jo'jaxo'rozdek tikkama-tikka olishib, yana tezgina yarashib ham ketishni odat qilib olishgan ikki o'rtoq ertaga bo'ladigan kimoshdi savdosida nimani olishga, qancha pul tikishga kelisha olmay, jo'jaxo'rozdek bir-birlariga tikilib qolishgan ekan.

– Gap shu, traktorni olaman, – deyapti Karimberdi.  
– U traktorlar eski, shalog'i chiqib ketgan, jon o'rtoq sabr qilgin biryo'la yangisidan olamiz, – deyapti Egamberdi.

– Yangisi bo'lguncha dadam uni minib tursin.  
– Yo'q dedim, yo'q.  
– Olaman dedim, olaman.  
– Olmaysan.  
– Olmaydigan bo'lsam ma, mana bu daftarchalardagi million-million pullaringni ol, istagan odamingga ber, yomon ko'raman ularni. Sen sut-qatiq sotib pulga o'rganib qolgansan... Pulsiz tura olmaysan, men pulni ko'rsam xo'rligim keladi. Ollohdan quyon so'ragan edim, shukur so'raganimni berdi. Bechoralarga qaragin, ochidan o'lay deyapti. Sen bo'lsang «Neksiya»ga kekkayib o'tirib olib, sex ochaman, deb shaharmia-shahar maza qilib yuribsan.

– Nima, men seni chetga surib qo'ydimmi?  
– Bo'lmasa nima qilding?  
– Karim o'rtoq, axir senga yuz marta aytdim-ku. sexni xitoylar bilan ochamiz deb.  
– Bekorlarni aytibsan, bugun xitoy deysan, karis deysan, shahardan yashik-yashik muzqaymoqlar olib kelib qizlarga ulashasan. Meni bilmaydi, deysanmi?

- Karim!
- Yo'qol, endi sen bilan boshqa ishlamayman.
- Bo'lmasa traktorni eski bo'lsayam olaveramizmi?
- Aytdim-ku dadamning zo'rg'a sug'orib olgan yerlari qurib qolayapti, ertaga ularni haydab bo'lmaydi. Katta-katta kesak ko'chadi.

Egamberdi yerga otilgan pul daftarchasini olib Karimning cho'ntagiga soldi-da, o'rtog'ini yerdan dast ko'tarib, «qaysarlikda mendan qolishmaysan», deb qo'ydi.

### To'rtinchi bob

Qirq metr pastlikdagi buloqdan kuchli nasoslar orqali suv chiqarilgandan buyon Eshonbog' hovlilariga gulu rayhonlar ekilib, gurkirab yashnab, gavjum bo'lib qoldi. Tabarruk suvdan ho'plab-ho'plab ichish, hech bo'lmasa bir-ikki shishani to'ldirib olib ketuvchilar, hazrati eshonlarning muborak qabrlarini ziyyarat qilish, Eshon ayaning duosini olish uchun keluvchilarining keti uzilmay qolgan. Ayniqlsa, oppoq quyonlarning to'xtamay bolalab, ko'payib, qo'shni qishloqlarga ham jadal tarqatilayotgani g'alati-g'alati mishmishlarga sabab bo'layotgandi.

Chollar xudoyi oshiga borishganda ham quyonlar haqida gaplashishadi, kampirlar «Mushkulkushod» o'qishganda ham quyon haqida bahs ketadi, qizaloqlar tug'ilgan kun nishonlashayotganda ham shu xususda bahs avj olib ketadi. Kimoshdi savdosi esa to'xtagandan to'xtab qoldi. Nima sababdan to'xtadi, kim to'xtatdi – hech kim bilmaydi. Tekis yo'lda minib, notekis yo'lda velosipedini yelkasiga qo'yib xalloslab kelayotgan Ajabboy guzarga yopishtirilgan e'lonlardan birini ko'tarib kelibdi. Shoshilib o'qishdi.

Demak, yana uch kun kutishga to'g'ri keladi.

Xudoga shukur, Ajabboy olib kelgan xabar unchalik xavfli emas ekan. Hamidova opoy boshchiligidagi Egamqul bilan Karimqul shoshilib shaharga jo'nadilar. So'rab borganlari Hoji Sodiq janoblari idorasida ekan. Xonkeldi, Xo'jaqishloq, Lochin, Oxta qishloqlariga, qishloqlarning qoq o'rtasiga chuqur-chuqur

quduqlardan suv chiqarish maslahatini qilishmoqchi. Bu maslahatni muallima berayapti, shuncha pulni, daftarchaga joylab cho'ntaklaringga solib yuraverasanlarmi, deyapti. Quduqlarni kavlash, quvurlar tortish ishlarini Hoji Sodiq rahbarligidagi qurilish korporatsiyasi bajarishini yaxshi bilishadi. Hoji Sodiq janoblari korporatsiya rahbarini chaqirib loyiha tayyor bo'lgan-bo'limgaganini so'radi.

– Loyiha allaqachon tayyor, – dedi rahbar, – lekin biz bu opa bilan ishlaymizmi yoki mana bu betoqat yigitchalar bilanmi?

– Hammamiz teng ishlaymiz, – shoshilib javob qaytardi Egamberdi.

– Yo'q, bankda qaysi birlaringizning imzoyingiz o'tadi?

– Uchchovimizda ham pul bor, navbatil bilan kelib imzo chekaveramiz.

– Ukalar, men bugun kim bilan gaplashay.

– Faqat do'q qilmay gapiring-da, bu gal men bilan gaplashasiz, – dedi Egamberdi o'rtaga chiqib.

Loyihalar savdosi uncha uzoq cho'zilmadi, ammo traktor savdosiga kelganda Karimberdining injiqligi tutib qoldi. Vositachilik qilayotgan yigitni Hoji Sodiq janoblari o'z xonasiga taklif qildi, «bu yigitlarga yaxshilab tushuntiring», deb iltimos ham qildi.

– Bu aytganingiz arzonmi, qimmatmi? – deb so'radi Karimberdi.

– Arzon ham, qimmat ham emas, – javob qaytardi vositachi.

– Ustiga ham so'rashadimi?

– Ustiga deganingiz nimasi?

– Qishlog'imizda, shapka deyishadi-ku.

– Ukam bekorga mushuk oftobga chiqmaydigan zamonda yashayapmiz. Ishni bitirib beradigan vositachiga besh million berish kerak ekan.

Karimberdi yig'lagudek bo'lib rozi bo'ldi. Keyin to'satdan, nimanidir o'yladi-yu xuddi traktorni allaqachon olgandek, olib borib dadasiga topshirgandek sevinib ketdi. Ko'z oldiga g'ildirab ketayotgan traktorni keltirdi-yu, sakrab turib muallima opoyni quchoqlab oldi.

Korporatsiyadan kayfiyatları ko'tarilgan bir holatda chiqib shahar qabristoni yonidagi ustaxonaga jo'nadilar. Turli

rangdagi marmarlardan yodgorliklar yasash mana shu yerda ekan. Shohimardondagi suv toshqinida halok bo'lgan opalarga alohida-alohida emas, bitta yodgorlik qo'yish haqida kelishib oldilar. O'rtada mudira Sobiraxon aya, ikki yonida ikkitadan tarbiyachi opalar, mudiraning bo'yisi sal novcharoq (aslida ham shunday edi), ayollarning har birining qo'lida bola, bolani ko'ksiga bosib, nimadandir himoya qilib, orqaga tisarilibroq turishibdi. Hammalarining yuzi, ko'zlarida vahima, qo'rquv holati bor.

– Bular bo'rdan ishlangan namuna, xolos, – tushuntiryapti haykaltarosh, – ko'rib turganlaringiz bu nusxalar marmarga ko'chirilganda yorqinroq, charog'onroq bo'ladi, turgan gap g'amginroq holatlari saqlanib qoladi. Mana berib ketgan suratlaring, taqqoslab ko'ringlar. Opajon, siz bu ayollarga kim bo'lasiz?

– Suratdagilarga hamqishloq bo'laman. Mana bu ikkovi menga ona tomondan qarindosh ham bo'lishadi. Ey usta inim, bularning hammasini falokatdan bir kun oldin ko'rgan edim. Shohimardon sayliga ketayapmiz deyishib, sevinishib, qiyqirishib, kulishib mashinaga o'tirishayotganda ko'rgandim. Sobiraxonni chakki ishlaganganga o'xshaysiz yuz tuzilishlari, qosh-ko'zlar, yanoqlarining bo'rtib turishi xuddi o'sha singlimizning o'zgifikasi. O'zingiz aytganingizdek, marmarga ko'chirilganda yana ham yorqinroq qiyosalarda ko'rinishar.

Egamberdi ayajonini eslab ketdi shekilli, eslaganda ana shunday yig'lab-yig'lab oladigan odati bor edi, hozir ham ikki kafti bilan yuz-ko'zlarini berkitib hiqillab-hiqillab yig'lab oldi.

– Qani aytингlar, mana ko'rib turgan marmarlaringdan, qaysi birini tanlaysizlar, oqimi, qorasimi, sarg'ishimi? – shoshiltira boshladi haykaltarosh.

Егамгул яиг'идан то'xtаб, ко'з ўосхларини артиб:

– Оқидан деганман-ку! – деб qо'ydi, – айтинг, qolgan pulini qachon оласиз?

– Келишганмиз-ку, yodgorlik bitsin.

– Yo'q bugun to'layman.

– Haqqim yo'q uka, avval ish bitsin, komissiya xizmatni baholasin, iloji bo'lsa olib horib o'rnatish masalasini kelishib

olaylik, ana undan keyin hammasini qo'shib hisoblaymiz, hammasini qo'shib to'laysiz...

Karimberdi o'rtog'ini hadeb qiz bolaga o'xshab hiqillab yig'layverma deb qayta-qayta turtayotgan bo'lsa ham, qishloqqa yetib kelguncha Egamberdi o'zini to'xtata olmadni. Ko'z yoshini artib-artib olaverdi.

## Beshinchi bob

Kimoshdi savdosi boshlandi. Bugun odam avvalgi kungidan ham ko'proq yig'ilibdi. Xaridorlar qarsakchilarini ko'proq olib kelishibdi. Ho've ana Olchivdan, Xo'jaqishloqdan kelganlar ham to'p-to'p bo'lib o'tirishibdi. Begonalarning hisobi yo'q. Nima balo shaharda bugun ish yo'qmikan, shunaqangi ko'plab kelishibdiki, sanab oxiriga yetib bo'lmaydi. Shaharliklar ataylab ozodaroq, yap-yangi kiyimlarini kiyib kelishibdi. Qiziq, uloqchilar uloqni ot ustiga olish oson bo'lsin deb uch-to'rttasi birlashib olarkan. Ikkitasi ikki tomondan uloqqa engashgan chavandozni himoya qilib turarkan. Bittasi, uloq ot ustiga olingach, uloqchining otini qamchilab yo'l ochib borarkan. Bu yer ham xuddi uloq chopadigan maydonga o'xshabdi. Kolxozning sobiq raisi Qo'ziyev raisning atrofiga barmog'i bilan burnini berkitib gapiradigan bosh hisobchi, gapirganda har bir so'zini bir ikki deb sanab turadigan benzin tarqatuvchi ukasi hamma-hammalari, savlat bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlaydigan to'ng'ich kelini Sharofatni, Adham oriq, Ikrom urishqoq, G'ulom g'uppa degan o'g'illarini ham yoniga olib, shunaqangi kekkayib o'tiribdiki, bamisolraislikdan ketmaganu to'planganlar uning gapini tinglagani kelgandek. Egamberdi tanlagan o'rinaliga o'tirishi bilan G'ulom g'uppagi ko'zi tushdi-yu bir g'ijinib oldi. Ziyodaning tug'ilgan kunida Fotima bilan raqsga tushgan holatini ko'z oldiga keltirib, qaltirab ketdi. Qo'li mushtga tugildi, bir-ikki entikib ham oldi. Qani endi hech kim yo'q bo'lsa-yu alamidan chiqquncha mushtlashsa.

Egamberdi bilan Karimberdining tarafdozlari ham chakana yig'ilishmabdi. Bosh qassoblik lavozimini oldim deb goho-goho

maqtanib yurgan Universal bobo atrofiga davra qurishibdi. Anavi kungi savdoda Egamberdi o'rikzorlarini yuqori bahoda olib bergen To'raqul xurmoyi bilan Rayimqul mirzoyilar mamnun ko'rinishadi, lablarida tabassum, shiringina suhbat qurib, bir-birlarining tizzasiga uring-uring qo'yishyapti. G'oyibbola laqabli yigitcha, «Egam men ham senga o'xshab yosh fermerman, afsuski, mablag'im yo'q, agar g'isht zavodini olib bersang, o'lay agar besh yuz quyoningni boqib beraman» deb otasini boshlab uch bora borgan edi. Bugun yana keksa otasini boshlab kelib Karim bilan Egamning himoyasiga to'planganlarning davrasiga qo'shilib olibdi. Bog'cha tarbiyachisi Xosiyat opaning to'rt farzandini yoniga olib qoq yerda o'tirgani Egamga qattiq ta'sir qildi, yuragi uvishib qolgandek bo'lidi. Bu opa marhum ayajoni bilan tengqur, birga ishlagan. Ayajonisi vafot qilganda vafotidan so'ng ham teztez kelib Egamdan xabar olgan, ko'nglini ko'tarib turgan. Opaning yerda o'tirgani, yer ham qoq ekanligini ko'rib, Egamberdi yana achina boshladi. Bu opaning eri, katta o'g'li Bahromni yoniga olib Rossiyaga ishlagani ketgan edi. O'tgan yili xuddi shunaqangi pishiqlik mahalida ikkovining murdasini temir tobutga solib jo'natib yuborishgan. Norasida qizaloqlarining dod solib yig'laganini ko'rgan qishloq ahli orasida yig'lamagan odamning o'zi qolmadi. Shu opa Eshon ayaga borib yolvoribdi. O'g'illaringizga ayting, bog'cha sotiladigan bo'lib qoldi, menga olib bersinlar, boshqa odam olsa, menga ish bermaydi, haydaydi deb yolvoribdi, ko'z yoshi qilibdi. Bir xalta suzma olib borgan ekan, Egamberdi suzmani qo'liga oldi-yu birga ishlab ertaroq ketgan ayajonini eslab ketdi. Opa odamlarning rahmini keltiraman, deb o'ylagan bo'lsa kerak, to'rt bolasini yetaklab kelib yoniga o'tkazib olibdi. Karim «bo'sh kelmaymiz, xudo xohlasa bog'chani mana shu opaga olib beramiz», deb shivirlib qo'ysi. Maslahatga yig'ilganlar brokerni o'rtaga olib ichkaridan nimanidir maslahatlashib, bir-birlarini yengil-engil turtishib chiqib kela boshladilar. Egamberdi atrofiga yana ko'z tashlab oldi, tavba, shaharliklar bu gal hammadan ham ko'proq to'planishibdi, kekkayishib, mag'rur o'tirishlarini qarang, bamisol shahardagi

barcha mablag'ni, barcha pulni yig'ib kelgandek, boshqalarni mensimay o'tirishibdi.

- Karim, bu gal olishuv qattiq bo'ladi.
- Egam, bizni ulardan qo'rqa digan joyimiz yo'q, mablag'imiz savdoga qo'yadigan hamma mulkni sotib olishga yetadi.

Savdo boshlandi.

Sobiq kolxozning «Belarus» markali traktori savdoga qo'yilib, shunday qattiq zang urildiki, o'tirganlarning ayrimlari bir cho'chib ham tushishdi.

- Boshlang'ich bahosi uch million so'm, bir! – qattiq ovoz bilan deyapti broker.

O'ng tomonda o'tirgan novcha bir yigit o'rnidan turib. «ichak-chavog'ini tashib ketishgan-ku, ichida hech narsasi yo'q traktorni nega savdoga qo'yasizlar», deb tezgina o'rniga o'tirdi.

Zang yana urildi.

- Dastlabki bahosi uch million, ikki!

Endi o'ng tomonda o'tirganlardan yana bittasi o'rnidan turib, «to'rtta g'ildirakdan boshqa hech narsasi qolmagan-ku. g'ildiraklarini ham Qo'ziyev raisga sovg'a qilinglar. nabiralariga o'yinchoq qilib beradi», deb kulgan bo'ldi. Yakka o'zi kului, kulgiga hech kim sherik bo'lmasdi.

Zang kuch bilan yana urilayapti.

- Boshlang'ich bahosi uch million so'm, uch!

Hech kim qo'l ko'tarmadi. Savdo to'xtatildi. Kolxozning o'n tonna yuk ko'taradigan tarozisiga ham xaridor chiqmadi. Sartaroshxonaning ustida qattiq olishuv boshlanib ketdi. «Menga nasiyaga bersanglar, go'sht sotaman, pulini tezdan qaytaraman», dedi bittasi. Yana bittasi «pochtaxonam tor. sartaroshxonani o'shang a qo'shib olmoqchiman, kolxozchida pul nima qiladi. menga ham nasiyaga beringlar». dedi. Hamidova opoy keskin o'rnidan turib «sartaroshxona menga kerak, o'rnida go'zallik saloni ochaman», deb e'lon qildi.

- Iya, opamiz u yerda qosh qalam sotmoqchilar shekilli.
- Erkaklar labini bo'yaydigan bo'yoqlar ham olib kelasizmi?
- Opajon, qizlarning sochini kalta oldirmang, sochi kalta qizlarni er olmayapti, – degan pastu baland, piching aralash kesatiq so'zlar ko'payib borayotgan bir paytda Hamidova

shunday katta pul tikib yubordiki, o'tirganlarning dami ichiga tushib ketdi.

Navbati kelib sobiq kolxozning yetmish bola tarbiyalanib turgan, nurabgina qolgan bog'chasi savdoga qo'yildi.

Zang urildi.

Qo'ziyev davrasida qo'r to'kib o'tirganlarning yuz-ko'zlaridan nurli bir to'lqin, qoniqish holati silkinib o'tdi. Katta kelini Sharofat Qo'ziyeva xuddi savdoni kechayoq gaplashib, pulini ham allaqachon to'lab qo'ygandek, ishonch bilan, shoshmasdan turib:

– Besh million uch yuz ming, – dedi.

Shahrixon opa shoshilib o'rnidan turib, turayotganda etagini bosib olib, bir yiqilib ham tushib, «voy Sharofatxon, voy ovsin, bu bog'chani mana shu bolalarim bilan men olmoqchiman. Eshon ayam pul beraman deganlar», deb to'planganlarning ham kulgusiga, ham achinishiga sabab bo'ldi. O'tirganlardan biri opamiz bunaqa savdoni ilgari ko'rmaganlarda, qaranglar bir lagan qatlama bilan, bir xalta suzma ham keltiribdilar, deb yig'ilganlar kulgusiga yana kulgi qo'shib berdi. Karimberdi negadir kulimsirabroq qiziqroq bir gap aytmoqchidek o'rnidan turdi:

– Olti million baho qo'ydim.

O'rtalaridagi tortishuv asta-sekin avj olib boraverdi. To'planganlar goh u tomonga egilib, goh bu tomonga egilib qarsak ham chalaverdilar. Bir nafasda sobiq raisning hamkorlari Sharofat Qo'ziyeva tomonga, yosh-yosh fermerlar Karimberdi tomonga o'tganlarini sezmay ham qoldilar.

Egamberdi qizishib, qizarib-bo'zarib borayotgan o'rtog'ining biqiniga tez-tez turtib:

– Bos, bos! – deb turibdi.

Sharofat Qo'ziyeva bog'chaning qiymati oshib borgan sari, voy-voy deb qo'yadi. Bog'chaning narxi o'n millionga yetganda Karimberdi, savdoni biryo'la tugatib qo'ymoqchi bo'ldi shekilli, baland ovoz bilan:

– O'n besh million beraman, – deb qo'ya qoldi.

Zang ketma-ket urilayapti, so'ngi narx ham ketma-ket e'lon qilinayapti, yo'q, bu narx ustiga yana narx qo'shadiganlar

bo'lmadi. Broker bog'cha yosh fermer Karimberdi Sirojovga sotilganini tantanali ravishda e'lon qildi. Sharofat Qo'ziyeva odamlarni turtib, itarib Shahrixon opaga yaqinlashib kelib, odamlar eshitsin degan umidda bo'lsa kerak, «opajon, men yutib chiqqanimda ham, baribir, bog'chani sizga bermoqchi edim», dedi-da, Karimberdining yuziga qattiq tarsaki urib, davradan chiqib ketdi.

Kolxoz katta, mulk ham o'shangan yarasha ko'p edi. Shu bois broker ham odamlarni gjj-gjilab kimoshdi savdosini avjiga chiqarib yuborayapti. Endi sobiq kolxoz idorasini savdoga qo'yildi.

Zang urildi.

Hayajonli daqiqalar boshlandi.

Egamberdi tortishuvni sobiq rais Qo'ziyev bilan olib borayapti.

Qiziq, juda qiziq, savdolashayapti-yu ko'ziga oppoq harir ko'ylak kiyib olgan, qushchalardek yengil-engil qadam tashlayotgan Fotima bilan qo'pol G'ulom g'uppaning o'yinga tushayotgan holati ko'rinyapti.

Faqat Fotima qiz ko'rinyapti.

Faqat tirjayib turgan G'ulom ko'rinyapti. Nazarida kolxozning o'n to'rt xonalik katta binosi emas, Fotima qiz sotilayotgandek, jindek bo'shashsa, ozgina orqaga tisarilsa, sevgilisi sotilib ketayotgandek. O'n besh million beraman, deb e'lon qildi sobiq rais. Hayajon ichida qolgan odamlar «Egam ana ko'rasizlar kamida uch million qo'shadi», deb o'ylashayotgandi. Egam ilkis o'rnidan turib, boshini mag'rur ko'tarib:

– O'ttiz millionga olaman, – deb yubordi.

Havasmand tomoshabinlar, qani bilaylik-chi, kimning puli ko'p ekan deb kelganlar, zero, arzonrog'iga uchrab qolsam, men ham bir narsali bo'lib qolarman, deb ozgina pulini yelim xaltasiga o'rab qo'lting'iga solib o'tirganlar cho'zib-cho'zib «o'-o'-o» deb yuborishdi va anchagacha jim qolishdi.

– O'ttiz million!

– O'ttiz million so'm-a, – degan shivirlashlar eshitilib turibdi, xolos. Sobiq rais ajdarhogami, qo'rinchli devgami

qarab qo'rqib ketgan yosh boladek ko'zlarini katta-katta ochib, biroz angrayib turdi-da odamlar guruhini yorib, Egamberdini mo'ljalga olib kela boshladidi. Lablarda nafratli jilmayish o'ynab turibdi. Ko'zlarida g'azabu alam olov bo'lib yonib kelayapti. Kela solib Egamni quchoqlab oldi, yelkasidan siladi, peshonasidan o'pdi:

– Yengding pulsor ukam, kolxoz seniki, – dedi hammaga eshitarli qilib.

Bugun savdoning oxirgi kuni edi. Odamlar yopirilib kelib Egam bilan Karimni, ora-chora muallima Hamidovani, Universal boboni ham tabriklay boshladilar.

Viloyat televidiniyesidan, tuman gazetasidan vakillar bor ekan. Karimberdi bilan Egamberdini o'rtaga olishib yuz xil savollarni bera boshladilar. Quvonchlaridan, shodliklaridan dovdirab qolgan yigitchalar:

– Kimga nima olib bergen bo'lsak, hammasiga quyon boqtiramiz.

– Olamni oq, ko'k, qora quyonlarga bostirib yuboramiz, – degan gaplarni aytishaverdi.

## Oltinchi bob

Kunduzi bo'lib o'tgan kimoshdi savdosida ikki o'rtoqning g'olib kelganlari, allaqayerdan, allakimlardan «olgan» pullariga kolxozning butun mulkini sotib olganligi haqidagi goh quvonchli, goh norozi ovozalar hali og'izdan-og'izga, qulqoqdan-qulqoqqa o'tishga ulgurmasdan, el yotar paytida to'satdan:

– Karimni mashina urib ketibdi.

– Egamni o'ldirib ketishibdi.

– Yo'lovchi mashinada kasalxonaga olib ketishyotganda o'libdi, – degan vahimali gaplar eshitganlarning butun vujudini zirqiratib yubordi.

Karimberdi bugungi saxiyligi, saxovatini olqishlab, maqtanib o'tirgan Siroj birgadir o'g'li Sobirjonni yoniga olib, tuman kasalxonasiga jo'nadi. Rajabboy bilan Ajabboy «fermamizga dushman hujum qildi», deb quyon boqayotganlarnikiga uyma-uy kirib, bostirib kelayotgan

xavfdan ogohlantirgan bo'ldi, yosh quyonboqarlar oyoqqa turishimiz kerak, deya vahimaga vahima qo'shdilar. Hainidova opoy markaziy kasalxonaga yetib borguncha, yo'l-yo'lakay Hoji Sodiq janoblariga uch bora qo'ng'iroq qildi. Qosimali suvchi yakkayu yolg'iz o'g'limni xafa qilganning boshini olaman, deb o'choq boshidagi katta pichoqni qo'liga olib, velosipedining dami yo'q ekan, markazga piyoda jo'nadi. Universal bobo, yaqinginada qirq metr yuqoriga bir amallab ko'targanimiz buloq suvi motorini buzib tashlashmasin, deb o'tkir boltani qo'liga olib, buloq boshiga yugurdi. Kimoshdi savdosida Karimberdi tufayli elektr tegirmонни qо'lga kiritган Qorovul bobo, gap nimadaligining poyoniga yetmasdan, endi bu mulkimni hech kimga bermayman, deb darvozani ichidan berkitib, uch o'g'liyu ikki nabirasini, qo'llaringga kaltak olinglar, deb yordamga chaqirib:

– Yo olloh, o'zing ehtiyoq qil, – deya yaratganga iltijo qilishga tushdi.

Ertalab kun chiqayotgan paytda markaziy kasalxonaga boradiganlar borib, ko'radiganini ko'rib, aytadiganini aytib, qovoqlarini uyishib, ketma-ket uh tortib o'tirishibdi. Nomi xunukroq eshitilsa ham jonlantirish deb atalib, ko'ngillarga dalda beradigan bir xonada... bir doktor himoyasida jon olib, jon berib ikki bemor yotibdi. Biri Egamberdi, kechagi kimoshdi savdosining qahramoni. Hammayog'i oppoq dokalar bilan o'rab tashlangani uchun ulkan qo'g'irchoqqqa o'xshab ko'rindi, ko'zlarini yumuq, og'zida shlanka – sun'iy nafas berishyapti. Narigi o'ringa Karimberdini yotqizishibdi. O'ng oyog'i, chap yelkasiga, boshiyu iyaklariga mo'l-ko'l doka o'rab tashlangan, uyg'oq bo'lsa kerak yoki uyqudan endigina ko'z ochdimi, nimalardir deb g'o'ldiradi.

Qariqoq, qovog'i solinganroq, ko'zlarini katta-katta bir doktor yoshgina boshqa bir doktorga shivirlab, nimanidir aytayapti, hamshira qizga ishora bilan dori quyilgan shishalarni ko'rsatib qo'yyapti. Tashqarida esa hol-ahvol so'ragani, yordam beray deb kelganlar guruuh-guruuh bo'lib o'tirishibdi. «Oq quyon – oppoq quyon» fermasining eski, yangi a'zolari kerak bo'lsa qon beraman, deb kelib bilagini yalang'ochlagan **holda alohida**

guruh bo'lib o'tirishibdi. Odiljon degan yigit past ovozda, hayajonli ohangda gap aytayapti.

– Aytdim-ku, yotar payti edi, otda edim, oldimga bir qop yangi o'rilgan bedani olib, muzdekkina xashakka bag'rimni berib, kelayotuvdim. Anavi maqtanchoq Rajabboy Egamning quyonidan o'ttiztasini menga ham bergen. Bunaqa mechkay, yeb to'ymas quyonlar borligini umrimda eshitmaganman. Har bittasi bitta otning bedasini yeysi-ya, qancha ko'p yesa, shuncha tez semirisharmish. Beda sal so'libroq qolsa, uzun-uzun mo'ylovlarini o'ynatib, yangi tushgan kelinlarga o'xshab, nozi karashma qilishlarini ko'rsangiz.

– Hoy Odil, gapni muncha cho'zing, bo'ladiganini aytaqol, – deb qistadi o'tirganlardan biri.

– Jim tursang aytaman. Xo'p, gap bunday, atrof qop-qorong'i, zimiston o'sha paytda osmondag'i yulduzlar ham uy-uyiga kirib ketgandek, qorong'ilik quyuq edi. Yonginamdan shuv etib bir mashina o'tib ketgandek bo'ldi. Na signal chaldi, na chirog'i bor. Ishonsang, yonimdan kattakon yiltiroq qo'ng'iz uchib o'tgandek bo'ldi. Ablah, chirog'ingni yoqib olsang o'lasanmi, deb bir o'xshatib so'kinmoqchi edim, ulgurmey qoldim. Ikki yuz metr chamasi narida gupillagan ovoz eshitilgandek bo'ldi, nazarimda yilt etib olov ham chiqqandek bo'ldi-yov. Ablah birovni bosding-ku, dedimda, otga qamchi urdim. Kelsam, yo piray, velosipedning bir g'ildiragi pirillab aylanib yotibdi, sakrab otdan tushdim. Shundoqqina yonboshdan, anhor tomondan voy, voy, degan o'layotgan odamnikiga o'xshash vahimali ovoz kelayapti. Engashib qaradim-u qotib qoldim: yo xudo, Egam! O'rtoq, deya baqirib yubordim. Ko'taray desam o'ng oyog'i likonglab osilib yotibdi.

– Tez bo'l, tezroq bo'l, – deya ingragandek ham bo'ldi. Xuddi shu paytda yana kimdir nariroqdan xuddi shunga o'xshash ovoz chiqara boshladi. Ovoz anhordan, suvning ichidan kelayotgan edi. Engashsam, voy xudo, o'rtog'im Karim-ku, deb dodlab yubordim. Suvdan arang chiqardim. Egamning oldiga sudrab olib bordim. Egam:

– Qishloqqa yugur, odam top, – deb ingrayapti yana.

Qani endi ikkovini otga ololsam, ololmayman. Bedovimga mindim-u, achchiq-achchiq qamchi bosdim. Xayriyat. «Kompyuter» xonaning chirog'i o'chmagan ekan. Karim bilan Egam olib bergen televizorlarni ikki joyga qo'yib olib tomosha qilayotganlar Egam kimning qizini oladi-yu Karimga kim tegar ekan, degan bema'ni gaplarni gaplashib, laqillashib o'tirishgan ekan. Birdaniga Egam bilan Karimni o'ldirishyapti, deb baqirib yuboribman. Bor gapni eshitgach, hammalari o'rnilaridan turib, ikki mashinaga o'tirishdi. Orqamdan, deb yana qichqirdim, bedovimga achchiq-achchiq qamchi urdim. Lekin o'rtoq, mening bedovimdek dunyoda aqlii ot yo'q. Xudo xohlasa, ko'rasan, ko'pkarining birinchi oti mening mana shu qashqam bo'ladi... Ko'z yumib-ochguncha yetib bordik. Ikkovini ham ko'tar-ko'tar qilib mashinaga olishdi... Essiz, Egam o'rtog'im allaqachon o'zidan ketib qolgan ekan, ovoz bermadi, hammayog'i bilch-bilch qon. Ular markaziy kasalxonaga jo'nashdi. Men bиргадир amakining uyiga qarab ot qo'ydim. Borayapman-u, Otinbibi ayaga bu gapni qanday aytaman, deb o'layman.

Narigi davrada, tepadagi chinor soya tashlab turgan, yangi stol-stullar qo'yilgan joyda Hoji Sodiq janoblari bilan birga kelgan, tungi jarrohlikda ishtirok etgan, butun viloyatga qo'li yengil jarroh deb nomi ketgan G'oziyev doktor o'tiribdi. Shunchalik obro'li odamlar bilan yonma-yon bo'lganlaridan xijolat bo'lib, suhbatga qo'shilmayroq Siroj bиргадир bilan Qosimali suvchilar ham o'tirishibdi. Hoji Sodiq janoblarining qo'llarida yangi rusumdagи uyali telefon, kim bilandir tinmay qisqa-qisqa gaplashib qo'yyapti. Shahardan kelgan doktor g'amga botib, qovoqlari osilib o'tirgan ikki otaning qorong'i ko'ngillariga chiroq yoqish uchun bo'lsa kerak, bu endi odam bo'lmaydi, deyilgan o'nlab bemorlarning hammasini tuzatib yuborganligi haqida gapiryapti, misollar keltiryapti. Bir yigit to'qqiz qavatli binodan tushib ketib o'n to'rt joyida suyagi singan ekan, shuniyam uch oy deganda oyoqqa turg'azib yuboribdi, bir kun to'yga borsa, o'sha yigit qizlar bilan o'yinga tushayotgan emish. Yana bir cholning ustidan mashina o'tib ketgan ekan, majaqlanmagan suyagi qolmagan ekan. Ana shu

chol ham bir oy deganda oyoqqa turib, endi hovlimga keta qolay degan ekan.

– Egamberdi sizning o‘g‘lingizmi? – doktor gap orasida so‘rab ham qo‘yyapti.

– Ha meniki, – dedi Qosimali suvchi.

– Karimberdi-chi?

– U mening o‘g‘lim bo‘ladi, – dedi Siroj bирgadir.

– Demak, bular aka-uka ekanlar-da?

– Ha, aka-ukadek bo‘lib qolishgandi.

– Demak, ikki otadan-u, bir onadan tug‘ilishgan ekan-da.

– Yo‘q, yo‘q, – deydi Siroj bирgadir shoshilib, – onalari ham ikkita.

Shaharlik doktorning aslida aka-ukalarmi ekanligini tag-tugi bilan surishtirish niyati yo‘q, yig‘lavoray-yig‘lavoray deb turgan bu fermer otalarning ko‘nglini ko‘tarish, ruhini tinchitish uchungina gapga solayotgandi. Aslida tunda qilgan jarrohligim o‘rniga tushtimikan, singan suyaklar joy-joyini oldimikan, go‘sht qisilmadimikan, tuman jarrohini sen nari tur, deb xafa qilib qo‘ymadimmikan, degan o‘ylar boshidan charx urib o‘tayotgan edi. Bir-ikki bor, mening ishim bitdi, shaharga qayta qolay, deb o‘rnidan ham turdi. Hoji Sodiq janoblari, Toshkentdan doktor yetib kelguncha o‘tirasiz, deb qo‘ymadi.

Hoji Sodiq janoblari butun boyligidan ajralib qolayotgan xasisdekkun mushkul ahvolga tushib o‘tiribdi. Tangalardan ikki yigitchadan tashqari Eshon aya bilan muallima opoy ham xabardor ekanligi, xaltadagi tilla xazinaning bir ulushi ularga ham tegishliligin o‘sha zahotiyoy bilib olgan. O‘sha kundan buyon Hojining yuragi bezovta, sodda yigitchalar xazinaning qolg‘an qismini oldirib qo‘ysa-chi yoki boshqa birovni sherik qilib olishsa-chi yoki to‘satdan yigitchalar vafot qilib qolsalar-chi... Ana shunday o‘ylar bu kishiga tinchlik bermaydi. O‘ylagan sari yigitchalarga mehr ko‘rsatadi, boshlarini silaydi. O‘shalardan uzoqlashmay, deb Eshonbog‘ga qirq metr balandlikka nasos orqali suv chiqarib berdi, elektr yo‘q deyishgan edi, mana elektr ham tushirib berdi, bog‘ charog‘on bo‘lib ketdi... «Qanday bo‘lsa ham yigitchalarni bag‘rimdan chiqarmasam, – deb o‘laydi, – xudo xohlasa, xazinaning

qolgan qismi ham meniki bo'ladi, halol yo'l bilan, rostgo'ylik bilan olaman», degan o'ylarga boradi. Bemorlar oldiga onalari kirayotgani yo'q, otalariga ham ruxsat bo'lmayapti. Faqat Hoji janoblariga kirish-chiqish ruxsati berilgan. Demak, bu kishini yigitchalarning otasidan ham, onasidan ham ulug'roq deb o'ylashayotgan bo'lishlari mumkin.

Yana bir xonada Karimberdining onasi bilan Egamberdining urishqoq, lekin so'nggi paytlarda anchagina mehribon bo'lib qolgan o'gay onasi o'tirishibdi. Goho-goho yig'lab o'g'illarimizga kimlar qasd qildi ekan, deya qisqa-qisqa suhbatlashib olishyapti. Xolisxon aya tinmay duo o'qiydi. Shakarxon aya uzib-uzib xo'rsinadi.

«Qon berish navbati», degan g'amgin ovoz eshitildi. «Oq quyon – oppoq quyon» fermasining eski a'zolari bilan endigina a'zo bo'lgan o'smirlar «men beraman, men beraman», deb navbat talashib qolishdi. Yana jimlik cho'kdi. Hamma oyoq uchida yuradi.

Birdan «doktor keldi, Toshkentdan keldi», degan quvonchli ovozlar yangrab qoldi. Hamma o'rnidan turib, bir erkak, qo'llarida og'ir-og'ir chamadon ko'targan ikki ayolni kutib olishdi, bemorlar yotgan xonaga kuzatishdi. Yana jimlik. Uzoq sukunat.

Hamma qotib qolgandek, nafas ololmayotgandek, birlarining ko'ziga qarashga qo'rqayotgandek... Xayriyat, toshkentlik doktorlar ichkaridan lablarida nim tabassum bilan chiqishyapti. «Yaxshi, yaxshi» degan so'zlarni aytishyapti. «Sirojovning dardi yengil, Qosimaliyev biror oyda oyoqqa turadi, xavfli joyi yo'q, jigari zaxa yegan, taloq ozroq ezilgan...» degan gaplarni ham bu yerda kutib turgan doktorlarga sekin-sekin aytishyapti. Xuddi shu paytda hamma, hatto suhbatlashib turgan doktorlar ham:

– Eshon aya keldilar, – degan so'z yangrashi bilan o'rnilaridan turib ketishdi. Butun kasalxona jonlanib ketgandek bo'ldi.

## Yettinchi bob

«Oltita tovug‘im ochidan o‘lib qolmas, echkimni Universal chol sog‘ib turar, men o‘g‘illarimning yonida bo‘lishim kerak», deb mana uch kundan buyon Eshon aya ularning boshini silab, duolar qilib o‘tiribdi. Shifoxona bosh vrachi Fotima Aslonovna Eshon ayanı yaxshi tanirkan, rahmatli onasi ayaga qo‘l bergan ekan, shungami tez-tez borib turarkan, Fotima Aslonovna ham onasiga ergashib ikki bor borgan ekan. Eshon aya kelganini eshitib xuddi onasi tirilib kelgandek sevinib ketdi. Yugurib chiqib qayta-qayta ko‘rishdi, marhum onasini eslab yig‘lab ham olishdi. «Nabiralaringizni bag‘rimga bosaman, tuzalib oyoqqa turgunlaricha o‘zim onalik qilaman», dedi.

– Agar qizim, rozi bo‘lsang o‘g‘illarim yonida qolsam, – dedi Eshon aya.

– Ayajon, istasangiz, umringizning oxirigacha qoling, o‘zim qizingiz bo‘laman, o‘zim yuvib-tarayman... Esingizdamni onam bilan borganimda echkining qurtidan beruvdingiz, mushukning bolasini hadya qiluvdingiz, keyin yana bir borganimda tuxum pishirib beruvdingiz.

Eshon ayaga alohida xona berdilar, yoshgina, ko‘hlikkina hamshira qizni biriktirib ham qo‘ydilar. Shifoxonaning qanchaki xodimi bo‘lsa Eshon ayaning duolarini olgani, tavof qilgani kirib-chiqib turaverishdi. Bir hovuch fotihalarini olsak bas, deb bemorlar ham tez-tez eshik ochadigan bo‘lishdi. «Jonlantirish» xonasining burchagiga matras ustiga atlas ko‘rpacha to‘sab Eshon ayaga yumshoqqina o‘rin ham qilib berdilar. Uch kun deganda Karimberdi o‘rnidan turib, xonada oz-oz yuradigan bo‘ldi. Chap qo‘li singan ekan, siniqlar joyiga tushgan, shishlar qayta boshlagan. Yuzi, lablariga, tomoqlari ostiga har xil rangli, rangsiz dorilar shunday ko‘p surilganki, goho Eshon aya:

– O‘g‘ilginam-ey, yuzlaringdan o‘padigan joy ham goldirishmabdi-ya, – deb qo‘yadi.

O‘n uchinchi kuni Egamberdi ko‘zini ochdi, tilga kirdi. Tepasida tikilib o‘tirgan Eshon ayaga:

– Ayajon, – deya sekingina ovoz berdi.

- Tilginangdan o'rgilay, bolaginam, – dedi Eshon aya ham o'zini yig'idan to'xtatolmay.
- Karim, bu senmi? – ohista so'radi Egamqul.
- Menman, o'rtoq.
- Uyg'onganimga ancha bo'ldi. Gaplaringni eshitib yotuvdim.

Egamberdi shunday deb yana jim bo'ldi, ko'zлari yumildi. Doktor bilan chiroqli hamshira noroziroq bir holatda shoshilib kirishdi, charchatib qo'yyapsizlar, ortiqcha gap so'ramanglar, degan edik-ku, deyishdi. Yana uzoq jimplik, Karimqulning nafasigina eshitiladi, xolos.

- Demak, ayajon, men tirik ekanman-da, – yana kulimsirab dedi Egamberdi.
- Ikkovimiz ham tirikmiz, – gap qo'shdi Karimberdi.
- Meni so'rab ko'pchilik kelayaptimi?
- Kelishyapti, juda ko'pchilik kelayapti.
- Fotima ham keldimi?
- Kelgan.
- Chaqirgin. Jon o'rtoq, tezroq chaqirgin. Bir ko'ray, aytadigan gapim bor.

O'rtog'ining yaqinida tik turgan Karimberdi nima deyishini bilmay qoldi... Qiziq ekan-da, o'sha arazchi Fotima birga o'qigan qizlar, sinfdoshlar hol-ahvol so'rab ketishayotganda, u ham bir kelib ketsa bo'lardi. Zuhra qiz ham keldi-ku, qassob otasi urib, o'ldirib qo'ygan yo'q-ku... U ham noz-firoq qilmay, hech bo'limasa, yashirincha kelib ketsa bo'lardi.

Egamberdi umidvor ko'zlarini katta ochib biroz tikilib turdi-da, yana yumib oldi. Og'ir bemorning ko'zini ochgani, ikki og'iz bo'lsa ham so'zlashgani bir nafas ichida butun shifoxonaga tarqaldi. Ertasiga qishloqdagilar ham eshitib, tirik qolgani uchun qutlashga, o'zlarining bu bemorlarga juda yaqin ekanligini bildirib qo'yishga, shunaqangi yopirilib kela boshladilarki, shunaqangi kela boshladilarki, darvozani berkitib qo'yishsa, devordan ham oshib tushaverdilar. Tugun qilib tashlab ketilayotgan meva-chevalarni, lagan-lagan palovu mantilarni aytmaysizmi? Shifoxonaning yettita bo'linmasi bor ekan. O'sha yerda

yotganlarning hammasiga yetib, qanchadan-qanchasi ortib ham qolaverdi. Egam boshqa bir kuni ko'zlarini ohib:

- Quyonlarimiz qalay, – deb ohista so'radi.
- Yaxshi, juda yaxshi o'rtoq, – dedi Karim.
- Ona quyonni, onamiz bo'lgan quyonni olib kel, bir ko'ray.
- Hozirmi?
- Tez bo'l, o'lsam quchoqlab o'lay.
- Unday dema o'rtoq, odamni qo'rqtitma.
- Tez bo'l, bo'lmasa yana qo'rqtitaman.

Ona quyonni o'sha kuniyoq yuvib tarab, chiroyli simto'rga solib keltirib berishgan. Egam goho unga tikilib o'zicha gaplashgan bo'ladi, uzoq-uzoq tikiladi... Oq quyonlarni olib kelgan kunlari tushida ming-ming quyonlar orasida onajonini ko'rgan edi. O'sha tushini yana, yana eslaydi, xo'rsinadi. Qo'lini uzatib ona quyonni silab-silab qo'yadi. Avariyaning sababini kapitan Ochilov aniqlay olmayapti, ataylab bo'ldimi, tasodif yuz berdimi, poyoniga yeta olmayapti. So'ramagan odami, qishloqda tekshirib ko'rмаган mashinasi qolmadidi. Yigitchalarni yo'lovchi mashina urgan, degan qarordan boshqasiga kela olmayapti. Qiziq, topilmasa topilmas ekan-da. Kapitan Egamdan qayta-qayta so'raydi:

- Biron kishidan gumoningiz bormi?
- Yo'q, – degan javobni oladi har gal.
- Siz-chi, Karimjon, siz nima deysiz?
- Mening ham gumonim yo'q. Bizni kim yiqitgan bo'lsa, jazosini Olloh beradi.

Bemor yigitchalar bilan kapitan Ochilov o'rtalarida ana shunday suhbatlar bo'layapti-yu, ammo «Oq quyon – oppoq quyon» fermasining katta-kichik a'zolari oyoqqa turishgan. Siz topmasangiz, mana biz topamiz, deb qo'llarini musht qilib, o'zlaricha nimanidir surushtirib ham yurishibdi. Goho-goho kapitanning yo'lini to'sib:

- Topasiz, topmasangiz qo'ymaymiz.
- Topmasangiz polkovnikka yozamiz, – deyishib bolalarcha do'q-po'pisa ham qilishadi.

Lekin topilmaydigan narsani topish qiyin ekanda.

## Sakkizinch bob

Eshon aya kasalxonani tark etib keta turib ikki o'g'lini bag'riga olib, qayta-qayta o'pib, «bilib qo'yinglar, bora solib kelinlar harakatiga tushaman», deb ketdilar. Bu chiroyli so'zlar Karimberdining dilini charog'on qildi, Egamberdining qalbini esa shuhbali o'ylar-u qorong'ulik bosgandek bo'lди. Fotima qiz ko'z o'ngidan ketmayotgandi, uning chimirilib turishi xayolini butunlay egallab oldi.

Nega xatga javob bermaydi?

Nega kelmaydi?

Nega?

Nega? Shunday savollaru o'ylar ruhini tinmay bezovta qiladi. Hovlilari orqasida gaplashib turganimizni dadasi ko'rgan bo'lsa, to'g'ri, qo'lini ushlab turuvdim, ushlab turuvdim xolos-ku! Zarifaning tug'ilgan kunida G'ulom g'uppa bilan yetti marta raqsga tushibdi-ku, nega qassob dadasi unga indamaydi-yu gaplashib turganimiz uchun qizini yerto'лага qamaydi. Egamberdi ana shunday alamli o'ylarga beriladi-da, «ey G'ulom, bilib qo'y Fotimani senga bermayman, bermayman», deb o'rnidan turib ketadi. Hozircha hamma ish Hoji Sodiq janoblarining maslahati bilan muallima Hamidova opoyning qo'liga o'tgan. Pechatu shtamplar olish, banklardan imzolarni tasdiqlatish hamma-hamma-sini muallima opoy tinchityapti. Opoy mактабда узоқ yillar ilmiy bo'lim mudiri, direktor o'rinosari lavozimida ishlagan emasmi, odamlar bilan muomala qilish me'yorini xo'p o'rgangan ekan. Qaysi ishga qo'l ursa, qaysi idoraga bosh suqsa, har qanday muammoning ham osongina yechimini topayapti. Ko'hlikkina hamshira qiz yo'qlovchilar kelganini ma'lum qildi. Kirishdi, o'tirishdi, fotiha o'qishdi, hol-ahvol so'rashdi.

Hamidova opoy kulimsirab gap boshladi:

- Egam o'g'lim, menga katta ishonch bildirgansan, yordamchim deb e'lon qilgansan. Endi tez-tez hisobot ham berib turaman-da.

Egamqul kulimsirab, jilmayib turib javob qaytardi:

- Opajon, vaqtı-vaqtı bilan hisobot berib turmasangiz ishdan bo'shatib yuboraman.

- Egam, xudoga shukur, mana oyoqqa ham turib ketding, mana bu ayolni taniyapsanmi?
- Taniyman, buxgalteriyada ishlardilar, o‘g‘illari boksga qatnashadi.
- Shu opani ishga olsak devdim.
- Qanaqa ishga olamiz?
- Hisobchilikka-da.
- Hoji amaki nima derkanlar?
- So‘radim, Egamqul hal qilsin, dedilar.
- Mayli roziman. Kalbasa sexi qurilmalarini olib keldilaringmi?
- O‘g‘lim kuni kechagina pul o‘tkazdik. Avval quriladigan joy hal bo‘lsin. Bu ukamiz bo‘lsalar artizan qudug‘i kavlovchilarining boshlig‘i ekanlar, bilaman, tanishib olgansizlar. Geodeziya kartasini olib kelibdilar. Hoji Sodiq janoblari borib kasalxonada yotgan Egamberdi bilan yana bir uchrashing deb topshiriq beribdilar... Kecha kelsak uxbab yotgan ekansan. Qishloqqa bordik otalaring Siroj amaki, Qosimali tog‘a qishloq yig‘ini raisi Nodirov amakilar quduqqa joy tanlashda ishtirok etishdi.
- Joy tanladilaringmi axir?
- Tanladik.
- Karim qishloqda edi, u ham joy tanlashda ishtirok etdimi?
- Birga bo‘ldi, dadam nima desa, men roziman degandan boshqa gap aytmadim.
- Bilaman opoy, bu o‘rtog‘im Siroj amakimdan qo‘rqadi, juda-juda qo‘rqadi. Qo‘lida million-million pul turibdi-yu nima desang dadamdan so‘raylik, deb iljayib turaveradi. Mayli, dadasini roziligin olsa, biz ham rozimiz.
- Egamjon quduqqa markazroqdan joy tanladik. Endi sendan bir narsani yashirib, Eshon ayamning ruxsatlari bilan, Hoji Sodiq janoblari bilan kelishib Eshonbog‘ning etakroq tomoniga Karim ikkovlaringga yonma-yon qilib, o‘q g‘ishtdan imorat solayapmiz. Xudo xohlasa kelinlarni ana shu uylarga tushiraman, deb Eshon ayam hech birimizga, kun bermayaptilar. Voy, bu onamizning xursand bo‘lganlarini aytasam. Bir qarasangiz quruvchilarga tuxum pishirib

kelayaptilar, xo'roz so'yib dimlama qilib kelayaptilar, hassalariga tayanib, goh u yoqqa o'tadilar, goh bu yoqqa o'tadilar, imoratga qo'yilayotgan g'ishtlarni o'pib-o'pib qo'yadilar, yo piray, salkam yuz yoshda shuncha quvvatni qayerdan olayaptilar ekan? Tezroq uylanmasanglar armonlari ushalmaydiganga o'xshaydi, o'g'lim. Hoji amaki ham shoshayaptilar, qishloqda qiz yo'q bo'lsa, shaharda qiz ko'p deyaptilar.

«Hoji amakining maqsadlari aniq, tilla axtaryaptilar, uy qurish bahonasida bog'ning hamma yog'ini kavlab tashlayotgan bo'lsalar ham kerak», deb o'yladi Egamberdi. O'yladiyu, yuragi shuv etib ketganini his qildi... Topolmaydi, ikki dunyoda ham yerto'laning qayerdaligini bilolmaydi, deb ko'ngliga taskin bergandek bo'ldi.

– Ramziddin amakimidi otingiz, – deb so'radi quduq kavlashga bosh bo'lib kelgan yigitdan.

– Ha, ramazon oyida tug'ilgan ekanman.

– Mayli, Ramziddin aka, quduqni qishloqning dasht qismidan kavlanglar. Agar past qismida kavlasanglar qishloqning yuqori qismiga suv uzatish qiyin bo'ladi. Kecha Karim ikkovimiz ham xomaki bo'lsa-da rosa muhokama qildik. Yuqori qismiga kavlasanglar past qismiga suvning shovullab ketishi oson bo'ladi... Jon aka, ochig'ini aytинг, necha kunda bitkazasizlar?

– Guruntring qattiq yumshoqligiga bog'liq.

– Yumshoq bo'lsa qancha kunda bitarkan, ochiq aytинг.

– Parmalarimiz chet eldan keltirilgan, astoydil bo'lsak bir haftada kavlab tashlaymiz.

Egamberdi yana ko'p narsalarni so'ramoqchi edi. Yoshroq bo'lganimda shu yritchaga o'zim tegib olardim, deb hazillashib yurgan hamshira qiz shoshilab kirib, bemor charchadi, bas chiqinglar, deb qistay boshladij.

– Xo'p opajon, traktor nima bo'ldi, – shoshilib so'radi Egamqul.

– O'g'lim, istasak ertagayoq olib kelishimiz mumkin. Traktor bilan yodgorlikni bir kunda olib kelsak, deb turibmiz. O'g'lim, shoshmaylik, bu gapni hokimimizning muovini ham aytayapti.

- Asrorov amaki aytayaptimi?
- Albatta-da, hamma ishlarimizga o'sha kishining yordami tegib turibdi, bilasan-ku, yosh fermerlar uyushmasiga o'sha kishi rahbarlik qilayaptilar.

- Demak, opajon, men tezroq chiqishim kerak ekan-da.

- Qancha tez chiqsang shuncha yaxshi, o'g'lim.

Egamberdining so'nggi so'zi og'zida qoldi. Hamshira qiz qolganlarni itarib-itarib xonadan chiqara boshladi.

### To'qqizinchi bob

Hamma narsaning davosi vaqt ekan. Vaqt o'tishi bilan Egamberdi qo'lting tayoqda yuradigan, goho-goho shifoxona hovlisini aylanadigan bo'ldi. Ammo betoqatligi, umidvorligi avj olgandan avj olib borayapti.

*Yurak qurg'ur qo'y mayapti  
 Tezroq qishloqqa borsang-chi, deyapti.  
 Fotimani tezroq ko'rsang-chi, deyapti.  
 Suv favvora bo'lib otilibdi.  
 Tezroq borib ichsang-chi, deyapti.  
 Karimning traktori qishloqqa kelibdi.  
 Tezroq borib ko'rsang-chi, deyapti.  
 Onajoningning yodgorligi bitibdi.  
 Tezroq borib ko'rsang-chi.  
 Yuzlaringni sursang-chi, deyapti.*

Betoqatligiga bir jihatdan Hoji Sodiq janoblarining tez bo'l, tez bo'l, deyishlari sabab bo'lyapti. Ishlar tezroq yurishsa, oltinlarning qolgan qismini pullash bahonasida xazina qayerda ekanligini bilib olmoqchilar. Yurakning betoqat bo'lishiga yana Eshon ayaning tezroq kelinlarimni tushirsamu, kelinlarim qo'lidan qaynoq-qaynoq choy ichsam deganlari sabab bo'layapti. Bosh fermerlarning tezroq ishga tushishini hammadan ham ko'proq tuman hokimiyatining muovini, tuman yosh fermerlar uyushmasining raisi Ochilov amaki qistayapti. Qishloq markazida katta bir tantana o'tkazmoqchi,

tantanaga butun tumandagi yosh fermerlarni taklif etmoqchi, mening rahbarligimda, agar menga qulqoq solsalaring, maslahatimga yursalaring, Egamberdi bilan Karimberdidek tezda boyib ketasizlar, degan gaplarni aytib, mavridi kelib qolgani uchun bir maqtanib ham olmoqchi. Tantanani o'n sakkizinchı avgustda o'tkazamiz, degan gap ham mana shu kishidan chiqdi.

Egamberdi o'ng qo'ltig'ida tayoq bilan salkam to'rt oy yotgan, yotavergani uchunmi, ko'ziga xunuk ko'rinish qolgan xonasidan onadan ham mehribon bo'lib qolgan Hamidova opoy, sadoqatli Karimberdi yordamida chiqib talabchan doktorlaru, yoshroq bo'lqanimda bu yigitchaga o'zim tegib olardim, deb chinmi, hazilmi gaplarni aytib yurgan hamshira qiz bilan ham xayrashib asta-sekin mashinaga o'tirdi. O'tirdiyu bosh vrach qayoqqadir ketgan ekan, kelsa xayrashib ketaman deb yo'lga tushmadi. Fotima opa yigitchalarni qayta-qayta o'mdi, agar to'ylaringga aytmasanglar, ikki dunyoda ham kechirmayman, degan gaplarni aytdi. Onalariga qo'yilgan yodgorlikni olib kelmoqqa jo'nadilar. Haykaltarosh ham bir so'zli ekan, halol yigit ekan, so'zining ustidan chiqarkan. Yodgorlikni oppoq dokaga o'rab, hatto olib horib beradigan maxsus mashinani ham tayyorlab qo'ygan ekan. Yodgorlik ustidan doka ko'tarilishi bilan Egamberdining nazarida onaizori xuddi yugurib kelib quchoqlagandek bir holatga tushdi. O'pkasi to'lib yig'lab yubordi. Qishloqqa yetib onajonish ishlagan, obod qilgan bog'chaga tushirgunlarigacha ham goh o'yga tolib, goh xo'rsinib bordi. Bog'cha mudirligini qo'lga olgan Shahrixon aya doka olinishi bilan:

– Voy xudoyim, bu Sobiraxon o'rtog'im-ku, – deb bog'chani boshiga ko'tardi, – mana bunisi Shohista-ku, mana bunisi Oqbadan-ku, Shohimardon pirim qaytaribdi sizlarni, qaytib keldinglarmi, voy xudoyim.

Egamberdining yodgorlik payida uzoq-uzoq o'tirgisi bor, Hamidova opoy:

– Bas yetar, – deb uning yelkasidan tortdi, – odamlar kutayapti axir.

– Opajon, negadir oyog'im tortmayapti, Karim bora qolsin.

– Egam o‘zi axmoq eding, bugun yana axmoqlik qilmoqchimisan?

– Karim, baqirma, bilasan-ku tentakman, shov-shuvni, odamlarning yolg‘ondan maqtashini yomon ko‘raman. Bilaman, meni to‘xtamay maqtashadi, seni ham maqtashadi, lekin bu pullar bizniki emas-ku, birovlarning puli bilan maqtanishga haqqimiz yo‘q.

– O‘rtoq yuraqol. Maqtashsa gunohimiz to‘kiladi. Yo qo‘ltiqtayoq bilan borishga uyalyapsanmi, uyalma, axir buni biz ataylab qilmadik-ku... Yana tag‘in esingdan chiqarmagin, bu pullar quyonlar tufayli keldi. Maqtashsa, mayli quyonlarni maqtashsin.

Shoshganlari bejiz emas ekan. Sobiq kolxozning keng maydonli hovlisi kimoshdi savdosida, bu ikki o‘rtoqqa o‘tib ketgan emasmi, hamqishloqlari, behisob kelgan mehmonlar bilan to‘lib-toshib ketibdi. Oldinroqda To‘raqul xurmoyi amaki o‘g‘il-qizlari, nabiralari bilan qo‘l qovishtirib turishibdi. Nariroqda butun qarindosh-urug‘larini yoniga olib Rahimqul mirzoyi tog‘a joy olibdi. Katta hovlining gir atrofida kichik-kichik yashikchalarda quyon ushlab turgan o‘g‘il-qizlaru, yosh bolalar bor. Undan ham nariroqda qo‘shni qishloqdan kelgan quyonchi bolalar davra quribdi, quyonlarning hammasini Rajabboy bilan Ajabboy tekinga tarqatgan edi, aftidan qanchalik yaxshi boqayotganlarini mana shu maqtanchoq aka-ukalarga ko‘rsatmoqchi bo‘lishganga o‘xshaydi. Qiziq, juda qiziq, Azizov domla ham biron ta qo‘ymay yuqori sinf bolalarini haydab kelibdi, ana shularning qurshovida viqor bilan o‘tiribdi. Tumandan, viloyatdan gazeta, televideniye xodimlari ham taklif qilinibdi, alohida joy tayyorlab beribdilar...

Egamqul o‘tirishi bilan yoshlar orasidan Fotimani axtara boshladi. Oh bo‘lganda qanday zo‘r bo‘lardi-ya?.. Yo kasalmikan? Oldingi qatorda ayollar orasida o‘gay onasini ko‘rgandek bo‘ldi. Chap qo‘lida qizalog‘i, o‘ng quchog‘ida salkam bir quchoq keladigan gul. Egamqulning ko‘zidan negadir yosh otilib chiqib ketdi. Yo‘q, yig‘lamasligim kerak, deb shoshilib ko‘z yoshini artdi.

– Mana hamqishloqlar, – baland tantanali ovoz bilan so‘z boshladi qishloq oqsoqollari raisi Nodirxon amaki, – butun dunyoni quyonlarga to‘ldiramiz, cholu kampirlarga parhezli go‘sht yetishtiramiz, deb yaxshi niyatlar qilgan, yaxshi niyatlar uchun Ollohning marhamatiga loyiq bo‘lgan hamqishloqlaringizni, Egamberdi bilan Karimberdini ko‘rib turibsizlar. Qani, hamqishloqlar, mana shu ikki azamatning sha’niga bir qarsak chalaylik-chi.

Guldiros qarsak ovozi butun Xonkeldini qoplab ketgandek bo‘ldi. Stolga dasta-dasta gullar yog‘ilib kela boshladi. Gullar shunday ko‘p keldiki, ikkovlari gullar orqasidan arang ko‘rinib qolishdi.

– So‘z hokimimizning talabchan, yosh fermerlarga mehribon muovini Ne’matilla Ochilovga beriladi, – e’lon qildi Nodirxon amaki.

Ochilov amaki shoshmasdan, negadir, mushtiga yo‘talib-yo‘talib o‘rnidan turdi. O‘tirganlarga, o‘sha yoshlarga mehribon bo‘lgan kishi mana men bo‘laman degandek, bir-bir qarab chiqди. Qo‘shni qishloqlardan taklif qilingan yosh fermerlarning hammasi keldimi, yo‘qmi deb so‘radi. Keyin mushtiga bir yo‘talib oldi-da so‘zlay boshladi. Siroj aka, Qosimali aka nega orqada o‘tiribsizlar, bugun sizlar oldingi qatorda, ko‘kraklarining kerib o‘tiradigan kun. O‘g‘illaringiz bilan butun tumanimiz faxrlanyapti. Quyonlar sonini ikki mingdan oshirib yuborishdi, qani bir qarsak chalinglar-chi. Barakalla! Qishloq markazidan ichimlik suv chiqarishdi, oldilaringga yelim shishalarda qo‘ylgan suvlar mana shu ikki yosh qahramonning tashabbusi bilan chiqarildi. Yana bir qarsak chalinglar-chi. Bo‘ladigan bolaning peshonasi do‘ng bo‘ladi, degan naql bor. Mana shu ikki yigitcha qishloqlaringning mulkini shaharlklarga butunlay begonalarga sotilib ketishdan saqlab qolishdi, pul topishdi, lekin saqlab qolishdi. U yog‘iga hokim muovini gapira olmay qoldi, gulduros qarsak ovozi so‘zini bosib ketaverdi, qarasa bo‘lmaydigan, o‘zi ham ikki qo‘lini baland ko‘tarib qarsak chalishga berilib ketdi.

– So‘z hurmatli ustoz Azizov domлага, – deb e’lon qilib yubordi majlis raisi.

Hamma keksa ustoz uzundan-uzoq ma'ruza qilib qizg'in o'tayotgan yig'inni muzlatib yuborsa kerak, deb o'ylayotgandi, yo'q, unday bo'lindi. Ustoz atrofini qurshab turgan o'quvchilaru, qiziqib kelgan muallimlar orasini yorib o'tib, kuchli hayajon ichida o'zlarini yo'qtogudek bo'lib turgan Egam bilan Karimga yaqinlashdi-da, avval birini, keyin ikkinchisini o'pib, ikkovilarining yelkasiga qo'lini tashlab:

– Oqsoqol ukamiz hali yaxshi gapni aytdi, bo'ladigan buzoqning... haligi, nima desak ekan, yurishidan ma'lum, deganlaridek bu o'g'illarim bir matabga, bir qishloqqa sig'maydigan kuch-quvvat, intilish, qobiliyat bilan tug'ilgan ekanlar. Maktab, ustozlar, mana men qattiqqo'llik bilan ularni tarbiyalab voyaga yetkazdik. Qani, mana shularni tarbiyalagan ustozlar sha'niga bir qarsak chalib qo'yinglar-chi.

Keksa ustoz qo'lini hammadan baland ko'tarib, hammadan qattiqroq qarsak chala boshladi.

- Karim, men keta qolay, – deb shivirladi Egamberdi.
- Sabr qil o'rtoq, – deydi og'ir, bosiq bo'lib o'tirgan Karimberdi.
- G'alati bo'lib ketayapman.

Hoji Sodiqning vakili bo'lib mehmon sifatida qatnashayotgan, aslida yigitlarning himoyasida yurgan bir kishi so'zлади, qo'shni qishloqdan kelgan fermerlardan yana bittasi so'zлади, o'sha kimlardir so'zlayapti, Egamberdining ulug'iga hech gap kirmayapti.

- Oxirgi maqsadingizni aytинг, – deb so'rayapti gazetadan kelgan vakil.
- Mayli, Karim so'zlasin, – deb, holsizgina javob qaytaryapti Egamberdi.
- Karim, biz oblast televidini yesidanmiz, siz ham biror narsa deng.
- Egam ikkovimiz quyonlar sultanatini yaratmoqchimiz, Egam sultanatning shahanshohi bo'ladi.
- Siz-chi?
- Men xudo xohlasa vaziri bo'laman.
- Yana bir narsa deng?
- Hammasi Ollohdan.

Shu gaplar bo‘layapti, shu voqealar bo‘layapti, traktorga Siroj bиргадир о‘тирганини, гурилаб ўрганини Egam ko‘rgандек, Qosimali suvchi, mehribon otasi davra oralab odamlarga chinni kosada iching, ichinglar deb suv tutayotganini ham, bu suv quduqdan, bu quduqni mening o‘g‘lim ochdi deyotgandek, lekin hammasi shirasiz ta’sirsiz bo‘layapti. Eshonbog‘ga jo‘nashyapti. Mashinada, velosipedlarda, qadami kattalar piyoda, bir biridan o‘zib, bir birlarini ortta qoldirib borishyapti. Xayriyat, Olohunga shukur. Hoji Sodiq janoblari ham yetib kelibdilar. Yonlarida bo‘lish qanday yaxshiya. Ming rahmat Egamqul bilan Karimqul kasalxonada yotganida hoji janoblari bog‘ni jannatga aylantirib yuboribdilar.

Kelayotganlarni kutib olish uchun xush kelibsizlar, degan so‘zlarni aytish uchun Eshon aya boshchiligidida Holisxon aya, Shakarxon ayalar chiqishibdi. Axir ular onalarda, onalarning kutib olishga haqlari borda axir. Uch ona birdaniga o‘g‘illari boshidan shirinliklar sochayaptilar, shirinliklarga yopishgan yosh-yosh qizchalaryning, do‘mboq-do‘mboq o‘g‘il bolalarning hisobi yo‘q. Eshon aya umrilaring shirin bo‘lsin, lazzatli bo‘lsin, totli bo‘lsin deb goh unisining, goh bunisining boshidan silab qo‘yyaptilar, xudo xohlasa anashunday chiroyli qizaloqlar, ana shunday chiroyli bolalar mening bog‘imni ham to‘ldiradilar, deyaptilar. Bir-birini bag‘riga bosishlar, berilib o‘pishishlar, boshlarini silashlar – hech to‘xtamayapti.

Hamma narsaga bosh-qosh bo‘lib, kuyib-pishib boshqarayotgan muallima opoy:

– Hoy opajonlar, bas qilinglar, – deya onalarni bir chekkaga tortdi.

Kuzatib kelganlar orasidan bir yigitcha dadil otilib chiqdida, Egamberdi bilan Karimberdining har biriga bittadan taklif qog‘ozni berib:

– Xudo xohlasa, xizmatda bo‘lamiz, – dediyu ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Karimberdi Egamning qo‘lidagi taklif qog‘ozini yulib olmoqchi bo‘ldi, ololmadi. Yulib olmoqchi bo‘lgani uchun ham,

Egamberdi unga qiziqib qoldi, taklif qog'ozni ikki varaqli ekan, ochib o'qiy boshladi:

*«Hurmatli Egamjon!*

*Sizni aziz farzandlarimiz Fotimaxon bilan G'ulomjonlarning nikoh to'ylari munosabati bilan 24-avgustda yoziladigan nikoh dasturxonimizga taklif etamiz.*

*Ehtirom bilan Qo'ziyevlар oilasi».*

Egamberdi kun bo'yи karaxt holatida yurgani uchunmi, gap nimadaligini anglab yetmadi, ko'zini kattaroq ochib, yana bir o'qib ko'rmoqchi bo'ldi... Yo'q o'qiy olmadi.

Nima, Fotima, G'ulom... To'y... mumkin emas, deya qo'lting tayog'ini shunday qattiq yerga urdiki, qo'lting tayoq... cho'rt ikkiga bo'linib ketdi. Shu asnoda yuzi bilan yerga yiqildi.

## O'ninchi bob

Fotima qiz o'zi bilan o'zi olishib yotibdi. Mehribon, ammo o'ta ketgan darajada qattiqko'l, eski urf-odatlar bilan yangi urflar o'rtasida qolib bugun unisining tomoniga o'tib, ertaga bunisining tomoniga o'tib, ham o'zini, ham oilasini qiyinab kelayotgan otajonisi uyga qamab qo'ygan kundan buyon g'urbat ichida kuyib yonayapti.

– Jon qizim, boshingni ko'targin, – yolvoradi onaizor.

Fotima qiz javob qaytarmaydi.

– Axir to'ying yaqin, u yoq-bu yog'ingga qarab olgin.

Qizginaning yelkasi silkinadi. Xo'rsinadi, yig'laydi.

– Iloyo, seni tug'may o'lay, meni sharmanda qilasan, shekilli.

Qizginadan baribir sado chiqmaydi.

Yoqtirmagan yigit G'ulomjon bilan unashilgan kundan buyon ahvoli shu. Yo'q, bu ahvoli oldinroq boshlanuvdi shekilli. Qattiqko'l qassob otasi bog' orqasida Egam bilan gaplashayotganini, gaplasha turib bir-birlarining qo'lini ushlaganini ko'rgan kunidan boshlandi. Voy, o'shanda qassob

otaning vajohatini ko'rsangiz. Bamisoli qutirgan sherdeklari, hayqirib yubordiya! Yigitning ko'ksidan shunday qattiq itardiki, bechora Egam andak bo'lmasa yiqilib tushayozdi.

– Meni sharmanda qilmoqchi bo'ldingmi, suvchining bolasiga isnodga qo'yemoqchi bo'ldingmi, yo'qol, yo'qolmasang chavoqlab tashlayman hozir – shunday deb Tursunali qassobi yonidan pichog'ini axtara boshladi.

Vahima ichida dag'-dag' qaltirab turgan qizining bilagidan mahkam siqib, oyog'ini yerga tekkizmay sudrab, to'ppa-to'g'ri uyining ostidagi yerto'laga olib kirib, yana baqirdi:

– Ersirab qoldingmi? Erga bergunimcha shu yerda yotasan.

Baqirib borib, qo'rqqanidan rangi-quti o'chib, kichkina bo'lib turgan xotini Bibiqiz ayani fotiha qilingan qizingni nega tergamaysan, nega jilovlab olmaysan, deb shunaqa urdiki, shunaqa savaladiki, bechora ayol ikki-uch kungacha belini ko'tarolmay yotdi. Xonkeldida erlar zulmi hali tugagani yo'q, Xonkeldida fotiha Ollohnning muhri degan gap o'z kuchida turibdi.

Xonkeldida qiz uchrashuvga ota-onasiga ruxsati bilan chiqadi, degan gap hali-hali hukmron.

Xonkeldida ota rozi, xudo rozi degan gap eng kuchli qonun, shu qonun haligacha yashab turibdi.

Fotima qiz, onasi yum-yum yig'lab yotgan kunlarning birida Tursunali qassobi Qo'ziyev raisning uyiga odam yuborib, fotiha qilingan qizni tezroq yig'ishtirib olib ketsin, bo'lmasa, to'yga kuchi yetmasa, yetmasligini aytsin, dedi.

Qo'ziyev rais xonadonidan sovchilar keldi, qizni G'ulomjon degan yigitga so'rab kelishdi.

Fotima qizdan rozilik so'rab ham o'tirishmadidi.

Qassob ota Fotima qizim borgan joyida baxtli bo'lsin, uvali-juvali bo'lsin, deb fotiha berdi. Qizim boy, obro'li xonadonga kelin bo'lib borayapsan, xudo xohlasa, baxtli bo'lsan, degan gaplarni aytdi. Bu gaplarni yig'lab o'tirgan xotiniga ham aytib, bechoraning boshiga bir mushtlab ham qo'ydi. Mana, to'y kuni ham belgilangan.

Men endi borib-borib o'sha G'ulom semizga tegamanmi, qorni rais otasinikidek katta, beti rais otasinikidek cho'tir, bo'yi shallaqi onasinkidek pak-pakana, voy xudoyim, men borib-borib o'shangan tegamanmi.

– Yo'q! Yo'q! – deb Fotima qiz goho dodlab yuboradi. Eri oldida ojiz notavon onaning ichi bag'ri yonadi. Ammo yurtning urs-odatiga qarshi bora olmaydi, qizga qo'shilib yig'laydi, xolos.

– Ko'rasan, baxtli bo'lib ketasan, men ham avval dadangni yomon ko'rardim, mana yaxshi ham bo'lib ketdik, – deb qizini bag'riga olmoqchi bo'ladi, qiz onani itarib tashlaydi, bas qiling, deya hovliga chiqib ketadi.

Egamberdi mashina urib majruh yotib qolganidan buyon Fotima undan uch hora xat oldi, qiziq, Egam Fotima qizning unashar bo'lganidan bexabarga o'xshaydi. Mehribon dadang gaplashib turganimizda ustimizga bostirib kelgani uchun Foti, men aybdorman, meni kechir, bilmay qolibman, deb uzr ustiga uzr so'raydi. Bir xatida nega shaharga bilim yurtiga o'qishga bormading, deb boshqa bir xatida zooveterenariya kollejiga o'qishga boramiz, xudo xohlasa, men seni «Mersedes»da olib yuraman, deb yozibdi...

Qiz xatlarni takror-takror o'qishga kirishadi, yonib borayotgan qalbiga malham axtaradi. O'qiyotganda Egam bilan yonbosh o'tirgandek, qo'llarini mahkam siqib turgandek, qo'llaridagi issiqlik, harorat butun vujudini yondirib borayotgandek bo'ladi. «Foti, nega javob yozmaysan, nega? Biron harakatim bilan seni xafa qildimmi, agar to'satdan boyib ketganim uchun, odamlar chet el puli bilan maqtanib yuribdi, deb ustidan kulishayotgan bo'lsa, bu sening dilingga ozgina bo'lsa ham ozor yetkazayotgan bo'lsa, o'sha boylikni sandiq-pandig'i bilan olib borib daryoga tashlayman. Sen xursand bo'lsang bas. Eng katta boylik, eng katta baxt menga shu. Foti, sen bilan gaplashgim kelayapti, gaplashayotganda gap orasida «xe o'l», deb yelkamga urib-urib qo'yarding, o'shanda butun borlig'im yayrab ketardi, o'shalarni qo'msayapman. Foti sendan ajralib qolishdan qo'rqayapman. bilasan, mening onam ham, opam ham,

singlim ham yo'q, sen menga ham ona, ham opa, ham singil 'bo'lib qolgansan, agar sendan ayrilsam bir kun ham yashay olmayman. Ishonsang, seni eslasam yetimligimni ham unitib, ko'p-ko'p yaxshi-yaxshi ishlar qilgim kelaveradi. Sen yaxshisan, sen hammadan yaxshisan. Dard bilan olishib yotibman, bunaqa paytda kishi yaqin kishisini qo'msarkan, o'ylasam bu dunyoda sendan yaqin kishim yo'q ekan. Jon Fotima xat yozgin».

Egamberdining so'nggi xati shu edi. Fotima uni o'qiydi, ko'ksiga bosadi, hech kim topa olmaydigan qilib berkitgan bo'ladi. Goho qalbini to'lqinlantiradigan, orom beradigan shirin-shirin xotiralarga beriladi. Qiziq, birinchi sinfda Fotima faqat Egam bilan bir partada o'tirishni istardi, maktabga ketayotganida, qaytayotganida faqat shu bilan birga bo'lishni istardi. Qishda ko'cha muzlab, sip-silliq muzmalak bo'lganda Egamning qo'lini ushlab yurishni xushlardi. Sinflar o'rtasida bahslar, tortushuvlar bo'lganda Egamning tomoniga o'tib olganini o'zi ham sezmay qolardi. Nega endi hadeb shunday bo'lavergan ekan nega? Yoki ko'ngilarining asta-sekin mehr bilan, muhabbat bilan to'lib borishi bolalikdan boshlanganmikan, yo xudo unga bo'lgan qizning muhabbatini o'zing belgilab qo'yganmikansan!

Beshinchi sinfda o'qishardi, geografiya muallimi maysalar gurkirab o'sgan, lolalar qiyg'os ochilgan pallada hammalarini tog' sayriga boshlab borgandi, quchoq-quchoq gullar terishib, ko'katlardan boshlariga gulchanbarlar taqishgandi. Qaytayotganlarida oyog'i toyib ketib, to'pig'iga katta zaha yetgan ekan, voy tavba, ko'z-yumib ochguncha shishib ketdiya, qani bir odim qo'yib bo'lsa, o'shanda Egam Fotimani orqasiga ko'tarib olgandi.

– Egam seni qiynab qo'yyapmanku, – derdi Fotima xijolat bo'lib.

– Hecham-da, – derdi Egam shoshilib, – ruxsat bersang, seni bir umr ko'tarib yurardim, seni yaxshi ko'raman, hammadan yaxshisan.

Fotima qiz o'shanda bir necha yillar oldin aytilgan bu so'zlar yosh, g'o'r, beg'ubor muhabbatning izhori ekanligini

anglamagandi. Lekin bir necha kungacha qalbi shodliklarga to'lib, olam ko'ziga go'zalroq ko'rinish yurganini eslaydi. Hozir yana o'sha saodatli kunlarni esladi. Esladiyu, yuragi hapriqib, o'rnidan turib ketdi. U dard bilan olishib yotibdi. Men endi shohi atlaslar kiyib, bo'yning shoda-shoda tillayu marjonlar osib, o'sha g'uppa semiz G'ulomning uyiga kirib boramanmi, yo'q, yo'q, mayli qassob otam meni so'ysin, mayli hamqishloqlarim ustidan kulishsin, mayli onajonim faryod chekib yig'lasin... men uning, faqat Egamning yonida bo'lishim kerak. Olloh bizni bir-birimiz uchun yaratgan.

Olloh, menga kuch ber, Olloh, bizni ehtiyoj qil, yaxshisi u yoq-bu yog'imni qarataman, deb ayollar pardoxxonasiga borgan bo'laman. Kuppa-kunduzi boraman. Kechasi ketsam, ataylab qochirgansan deb, bechora onajonimga yopishishadi. Jahl ustida qassob otam begunoh onamni so'yib qo'yishi ham mumkin.

## O'n birinchi bob

Nonushta pallasi edi. Shifoxonaning Eshon aya bilan Egamberdiga maxsus jihozlab berilgan kichkinagina xonasida Eshon ayaning o'zları, o'ziga kelib, oyoqqa ham turib olgan g'amgingina Egamberdi, ikkovlarini yo'qlash uchun nonushtalaridan kechga qolmay, deb qatlama, qaymoq ko'tarib kelgan, saxiy Karimning bir hamlasi bilan kattagina bog'chaga ega bo'lib olgan Shahriniso ayalar o'tirishibdi.

– Xudoga shukur, mana, oyoqqa ham turib olibsiz, – deyishdi yo'qlab kelgan ayollar.

– Hammasi Ollohdan – deb qo'yaptilar Eshon aya. Egamberdi yiqilib o'zidan ketgan daqiqalardan boshlab nimjongina qo'llari bilan baxtsizlikka ro'para kelgan o'g'lining boshini silab, to'rt kun bo'layaptiki yonidan jilmaydi. Aziz o'g'lim, har kunimiz sinov. sening aziz boshinga yana bir sinov keldi, agar o'sha qizga bunchalik ko'ngling borligini bilganimda, qari onang tek o'tirarmidi, butun olamni oyoqqa

turg'izardi, degan gaplarni aytadida, hammasi taqdiri azaldan, deb ham qo'yadilar.

Egamberdi sovuqqina jilmayadi, kuladi, yonib kuyib o'tirgan keksa onamning ko'nglini ko'taray, deydi, baribir kula olmaydi. Ko'z o'ngidan urishqoq xo'rozdek ho'rpayib turgan G'ulomning istehzoli qiyofasi, ko'zini g'alatiroq qisib turishi nari ketmaydi. Fotichi, nega rozi bo'lди ekan, degan savol miyasini tark etmaydi. Hozir ham g'amgingina bo'lib o'tiribdi. Qaymoqdan nomigagina. Shahrixon ayaning hurmati uchun yalab-yalab qo'yyapti. Eshik ovozsizgina ochildi.

Ostonada qo'ltig'ida tuguncha, Fotima qiz ko'rindi. Eski kiyim boshda, o'sha dalada o't tergani borganida kiyib boradigan kirgina gulli ko'ylagi, qo'yxonaga kiyib kiradigan shalog'i chiqqan eski kalishi... G'alati bo'lди-ku, nahotki tush ko'rishayotgan bo'lsa, nahotki?

– Ayajon, bu menman, baxtsiz Fotima qizingizman. Sizdan himoya so'rab keldim, – Fotima hayron bo'lib turgan Eshon ayaning tizzasiga boshini qo'yib, shunday yig'ladiki, shunday g'ussali, alamli ovoz bilan yig'ladiki, olamdag'i barcha alam, barcha xo'rlik ovozga jamuljam bo'lgandek edi.

– Hammasi Ollohdan, – deyaptilar Eshon aya qizning yonib-kuyib borayotgan boshini silab.

– Yo ollohim, – deb qo'yyapti qaymoq keltirgan ayol.

Xonkeldidek gadoy topmas, xilvat bir qishloqda eskirib, chirib, achib borayotgan urf-odatlar saqlanayotgan chekka bir yurtda nikoh to'yiga bor-yo'g'i bir hafta qolganda qiz bolaning yo'q bo'lib qolishi... Hay hay, qishloq mish-mishlar ichida qoldiya! Xonkeldiga shunaqasi kerak edi: shivirlab gapiradiganlar, og'zini to'ldirib qasam ichib, gap tarqatadiganlar, shunaqami, voy xudoyim-ey, deb vahimani kuchaytiradiganlar bir yayrab oladigan bo'ldilar. Yayrab oldilar ham.

Uch kun deganda qishloq ahli uchga bo'linib ketdi.

Sobiq kolxozda o'ttiz yildan ortiq rahbar bo'lgan Qo'ziyev rais boshliq suvgaga tushgan mushuk boladek dir-

dir qaltirab turgan omadsiz kuyov G'ulomjon, barcha qavm-qarindoshlar – hammalari jamuljam bo'lishib bir tarafga tizildilar.

- Qizni topamiz!
- To'yni vaqtida o'tkazamiz.
- Sha'nimizga dog' tushirgani qo'yaymiz.
- Qarshi bo'lganlarning boshini yanchamiz, – deyishib qo'llarini musht qilib olganlar.

Tursunali qassob gap nimadaligining poyoniga yetmasdan, yetishni istamasdan:

– Sharmanda bo'ldim. Bosh ko'tarolmay qoldim. Aybdorni so'yaman. Qonini ichaman, – deb katta pichoqni qo'lga olib, qo'y so'yadigan, mol so'yadigan, ot so'yadigan abjir-abjir qassob do'stlarini chaqirib, goh u tomonga, goh bu tomonga hamla qilib turibdi. Bitta ayol qutirgan novvosning ko'zi qonga to'lib, loladek qip-qizarib ketadi-ku, Tursunali qassobning ham hozir ko'zları qip-qızıl, yaqiniga bora ko'rmanglar, degan gaplarni aytib yuribdi. Izzat-nafsi xo'rlanganda odam bolasi buqadek qutirkanda, ko'zi qonga to'larkanda, qo'liga o'tkir pichoq olarkanda, deb haligi gapining ustiga yana ignacha gap qo'shayapti bu ayol.

Bir taraf kashlik boshlandiki, olushuv biram avjiga chiqib boryaptiki, Xonkeldi bo'lganidan buyon inson bolasining ehtirosi bunchalik lovillab yonmagan bo'lsa kerak.

Egam bilan Fotimani himoyaga olganlar ham bo'sh kelayotganlari yo'q. Hammadan ham Eshon aya astoydil yeng shimarganlar. Qariganimda topgan bolalarimni, ollohimning menga bergen buyuk marhamatini oyoq osti qildirib qo'yayman, deb atrofidagilarini na kechasi na kunduzi tindiryaptilar. Ollohga shukur, yoshim yuzga borib qolyapti. Xonkeldida qiz talashib bir-birini so'ygan yigitlarni, obro' talashib bir-birlarini uyiga o't qo'ygan avlodalarini ko'p ko'rganman, iloyim o'zing ana shu kundan ehtiyot qilgin, deb tunu kun yaratganga tavallo ham qilyaptilar. Hayotning achchiq-chuchugini ko'p totgan Eshon aya Fotima qochib keldim, deyishi bilanoq yuz berishi mumkin bo'lgan sojiani darhol ko'z oldilariga

keltirdilar. Darhol Hoji Sodiq janoblariga qo'ng'iroq qilinglar, ko'zi ochiq, fikri tiniq bu odam tezroq yetib kelsin, yo'l-yo'riq ko'rsatsin, dedilar. Katta xazinadan, tillalardan umidini umidini uzmay yurgan Hoji janoblari qush bo'lib uchib keldilar.

– Ish chatoq, – dedilar gapning ipi-ignasigacha surishtirib bo'lgach, – eskilik sarqitlariga, eski urf-odatlarga boshi bilan g'arq bo'lgan Xonkeldidek xilvat qishloqda to'y oldidan qizning qochishi... Qudalaru, qarindoshlar o'rtasidagi olishuv... Qizim, Fotimamidi isming, ayt-chi, nikohlarining o'qilganmidi?

– Yo'q, – sekingina bosh chayqadi Fotima.

– Ish unchalik murakkab emas ekan, – o'tirganlarning ko'nglini tinchitgan bo'ldi Hoji Sodiq janoblari.

Maslahatga bosh vrach Fotima Aslanovani, tajribali huquqshunos qovog'i soliq Sattorov deganni ham chaqirdilar. Egamqul bilan Fotima qizga yo eshittirib, yo eshittirmsandan g'alati-g'alati narsalar haqida suhbatlashib oldilar, nima haqda kelishib olganlarini na qiz bilan yigit, na Eshon aya bildilar.

Uchinchi kuni yuragini hovuchlab bir chekkada pusibgina o'tirgan Fotima qizning otasi bilan dovdirab, tili gapga ham kelmay qolgan mushtipar onasi keldi. Qizimizni olib ketamiz, deyishdi. Fotima Aslanovna qizlarining og'ir ruhiy kasal, unga tega ko'rmanglar, deya ota-onani orqasiga qaytardi. To'rtinch'i kuni Qo'ziyev raisning o'g'li G'ulomjon bilan birga bir quchoq gul ko'tarib kelishibdi. O'rtaga yana bosh vrach tushdi. Qizga tega ko'rmanglar, og'ir sojia yuz berishi mumkin, deb, ularni ham orqasiga qaytardi.

## O'n ikkinchi bob

Qishloqda nima gaplar bo'layotganini Eshon aya ham, Egamqul bilan Fotima qiz ham bilishmaydi, taqdirlarini Hoji Sodiq janoblari bilan qovog'i soliq huquqshunos Sattorovga topshirib hammasi Ollohdan, xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo'ladi, deyishib, bir-birlarini yalab-siypalashib, qishloqdan

to'xtamay kelayotgan chala-chulpa gaplarga ko'pam e'tibor bermay, jimgina o'tirishibdi. Voqeaning o'n yettinchi kuni edi. Tursunali qassob tuman prokuraturasiga chaqirtirildi. Uni uchastka noziri Furqat Erkayev oyog'ini yerga tekkizmay boshlab ham keldi. Tergovchi to'satdan gap boshladi.

- Ismingiz?
- Tursunali.
- Familiyangiz?
- Manavi qog'ozda yozib qo'yibsiz-ku.
- Familyangiz deyapman?!
- Madrahimov.
- Fotima Tursunova sizga kim bo'ladi?
- Otasi bo'laman.
- Demak, mana bu taklif qog'ozida yozilishicha siz ertalabki oshga odamlarni taklif qilgansiz, qizingizni erga bermoqchi bo'lgansiz, shundaymi?
  - Shunday, xudo xohlasa, siz ham borasiz, mehmonimiz bo'lasiz.
  - Qizingizdan seni erga berayapman, rozimisan, deb so'raganmisiz?
    - Kerak bo'lsa endi so'raymizda.
    - Siz qizingiz Fotima Tursunovani zo'r lab erga bermoqchi bo'lgansiz, qizingizga zo'ravonlik ishlatmoqchi bo'lgansiz, zo'ravonlik natijasida, Fotima og'ir ruhiy kasalga chalingan. Siz shaxs erkinligiga tajovuz qilgansiz. Ustingizdan, bosh vrach Fotima Arslonovaning davosi bilan jinoiy ish qo'zg'atilgan. Siz O'zbekiston jinoyat muddasining mana shu, mana shu moddalari bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilasiz. Tergov tugaguncha qishlog'ingizdan hech qayerga chiqmaysiz, uy qamog'iga olindingiz.
  - Nima? - Tursunali qassob o'rnidan turib ketdi.
  - Uy qamog'idasiz! Leytenant Erkayev, fuqaro Tursunali Madrahimov uy qamog'iga olindi. Javobgarlik sizga yuklatildi.

Tursinali qassob esankiragan bir holatda, suvg'a tushgan mushukdek shalpayib uyga qaytdi. O'sha kuni, kunning ikkinchi yarmida tergovchining sigaret hidi anqib

turgan torgina xonasidan Qo'ziyev rais bilan o'g'li G'ulomjon ham bo'shashibgina, ketma-ket uf tortishib, bir-birlarining bo'yniga ketma-ket ayblar qo'yishib, eski zamон урғига одат qilganlari uchun, bir-birlarini ayplashib qishloqqa qaytdilar.

O'sha kuni kechga tomon quda tomonlar ham uchrashib avvaliga bir-birlarini xo'p ayplashib, bir kuchayishib, bir susayishib, bosh vrach tomondan qo'zg'atilgan jinoiy ishni qanday to'xtatish haqida uzoq suhbatlashdilar, qutilish yo'lini rosa axtardilar. Ertalabga yaqin to'y butunlay to'xtatilganligini bir-birlariga ma'lum qildilar. Jinoiy ishni qanday to'xtatish, buning uchun nimalar qilish zarurligi haqida fikr almashdilar. Rahbarlik lavozimida uzoq ishlab, bunaqangi mashmashalardan osongina qutilib chiqish yo'llarini ko'p ko'rghan tajribali Qo'ziyev rais:

- Yaxshisi uchastka noziridan, o'zimizning odamimizdan soydalanamiz, – deb to'planganlarni xursand qildi.

Uchastka noziri gardkamchi yigit ekan. Gapning bo'ladiganini ochiq aytarkan.

- Demak, qizni zo'rlab erga bermoqchi bo'lganlaring uchun, ustilaringdan jinoiy ish qo'zg'algan, shundaymi, – deb odatdagiga qaraganda ancha kekkayibroq so'radi.

- Shunday ukam.

- Bu og'ir jinoyatku, rais tog'a.

- Endi ukam, sen o'zimizning odamsan, bir amallab tinchitgin.

- Ey amaki, bunaqa jinoyatda katta pul so'rashadi.

- Furqat o'g'lim, ketganicha ketsin, ishqilib tinchitsang bo'ldi. Otang ham yaxshi odam edi, mana shunaqa g'alvali ishlarni rahmatla bitirib qo'ya qolardi, men ham pulni ayamasdim, bir amallab o'sha qovog'i soliq tergovchini qo'lga ol, xudo xohlasa, pulni ayamaymiz.

Xuddi ana shunday kelishuv shartnomasi Tursunali qassob bilan ham bo'lib o'tdi. Qassob ham uy qamog'i e'lon qilinganidan buyon xunobi oshib, hech qanday aybi yo'q xotinini urib-so'kib o'tirgan edi, gapni qisqa qilib:

- Xo'p qancha so'raysan? – deb so'radi.

- Tursinali aka, shaxsan menga bir tiyiningiz ham kerak emas, savob uchun aralashyapman bu ishga.
- Ey Furqat, qo'ysangchi, senlar qasam ichib turib olasanlar. Ochiq ayt bir novvosni boqib yuribman, ikkovingga shu yetadimi?
- So'yib berasizmi?
- So'yib bermay tergovchini xonasiga novvos yetaklab boramanmi?

Kelishuv bo'ldi, buqa so'yildi, go'sht sotildi, pul ikkiga bo'lindi. Omon-omonlik, yarash-yarashlar bo'lganligi haqidagi xushxabar o'sha kuniyoq eson-omon chiqsam, men bular bilan ko'p olishaman, deb qo'lini musht qilib o'tirgan Egamberdiga ham, taqdiri endi qanday bo'lishini bilmay qo'rquv ichida o'tirgan Fotima qizga ham yetkaziladi.

- Hay urishqoq ukam, janjallashayotgan qudalaringni tinchitib, ikkovingni qovushishlaringga yo'l ochib bergenim uchun uchastka noziri akangga sen qanaqa suyunchi berasan,
- deb so'radi Erkayev.

- Idorangizni pishgan g'ishtdan qayta qurib beraman. Qishlog'imizdag'i barcha ko'chalarga asfalt yotqizib beraman.

- Yana?
- Guzarning orqasidagi maydonga yangi masjid qurib beraman.

Bu gaplarni jimgina tinglab o'tirgan Eshon aya bir to'lqinlanib oldi. Egamqul bilan Fotima qiz Eshon ayani quchoqlab o'pa ketdilar.

- Hammasi Ollohdan! – deb qo'yyaptilar Eshon aya.
- Oradan bir kun o'tib Tursunali qassob bilan yig'lab-yig'lab o'tirgan Robiya bibi Fotima qizini olib ketgani kelishdi. Olib ketganlarining to'rtinchi kuni yana bir quvonchli voqeа yuz berdi. Egamberdi bilan Karimberdining onalari mo'tabar Eshon aya boshchiligida, katta-katta dasturxonlarni ko'tarishib Hoji Sodiq janoblari jo'natgan yap-yangi mersedes mashinasiga o'tirishib, xudo xohlasa, ishimiz o'ngidan keladi, deyishib Fotima qiz bilan Zuhra qizni Egamberdi bilan Karimberdiga so'rab kelishdi. Eshon ayadek mo'tabar, yurtning eng ulug' onasi sovchi bo'lganiga

qaramay, odat shunaqa ekanda, qiz onasi ichida sevinib turgan bo'lsa ham, qalay bo'larkan, hali katta to'yga tayyorgarligimiz yo'qroq, ikkita to'y o'zi bo'ladimi, qo'limiz ham kaltaroq, degan gaplarni aytib, biroz chaynalgan bo'ldi.

– Qizim, Robiya bibi, xudo xohlasa, kuyovlaring bu xonadonning boshidan tillalar yog'diradi.

Rozilik bo'ldi, non sindirildi, oqlik berildi, Tursunali qassob nomiga bo'lsa ham erkak tomon ham bir kelib ketsin, men ham sal qaddimni ko'tarib yuray, degan gaplarni aytibdi. Ayniqsa bu ishlarga nomdor bankir aralashganidan shu odani ham birga kelsa, yuzim yana ham yorug' bo'lardi, degan gapni ham aytib yuboribdi. Shunday bo'libdi ham. Yap-yangi mersedes mashinasida rolda Hoji Sodiq janoblari emish, Siroj birgadir bilan Qosimali suvchilar kelishib to'yning kunini belgilab ketishibdi.

\* \* \*

Olloh yo'l bersa hamma narsa mukammal, hamma narsa go'zal yakun toparkan. Aytishlaricha, Fotima bilan Egamberdining, Zuhro bilan Karimberdining nikoh to'ylari shunday sayzli, shunday tarovatli o'tibdiki, Xonkeldi Xonkeldi bo'lganidan buyon bunaqa fayzli, bunaqa farahli to'yni ko'rмаган екан, bamisol osmondan Ollohning nuri marhamati yog'ilib turgandek bo'libdi. To'y Eshonbog'da bo'libdi. Hokimning yosh fermerlar ishi bo'yicha muovini, tantanani, maqtanishni, ko'tarinkilikni jonu dilidan yaxshi ko'radigan Ochilov amaki shaxsan o'zi boshqaribdi. Viloyatda qancha nom chiqargan ashulachiyu, sozanda bo'lsa, qancha raqqosa bo'lsa hammasini taklif qilibdi. Tumandagi yosh fermerlarga qo'ng'iroq qilib bu to'yga kelmasalaring ishlaringda yaxshi rivoj bo'lmaydi, deb aytibdi. Bog'ning o'n sakkiz joyiga chiroq yoqtirishgani bois bog' shunday charog'on bo'libdiki, to'planganlar bir-birining ichida nima borligini ham ko'rib o'tirishibdi. Boshlarida toj, yelkalarida zardob to'n kiygan Egamberdi bilan Karimberdi, zebi zarlarga behad o'rangan boshlarini xam qilib olgan Fotima qiz bilan Zuhro qizlar bitta-bitta bosib kirib kelishayotganda, yo olloh,

osmondan ilohiy nurlar mo‘lu ko‘l yog‘ilgandek bo‘libdi. Kuyovlar chinakam shahzodalarga-yu, Fotima bilan Zuhrolar chinakam malikalarga o‘xshab ketishibdi. Hamma o‘rnidan turib qiyqirib yuborishibdi.

Eshon aya to‘qson yildan buyon yaxshi niyat qilib, yig‘ib yurgan ekanlar, bir yuz yetmish yigitning boshiga marg‘ilon nusxa do‘ppi kiygizibdilar, bir yuzi yetmish qiz-u juvonning yelkasiga, saqlab yurgan ekanlar, bir kiyimdan yal-yal yonib turgan marg‘ilon atlasidan tashlabdilar. Eng qizig‘i shu bo‘libdiki, Rajabboy bilan Ajabboy to‘yga tashrif buyurganlarning hammasiga bittadan quyon berib:

– Yaxshilab boqsanglar, yanagi yilga to‘rttadan tug‘ib beradi, degan gaplarni aytib turibdi.

## MUNDARIJA

Birinchi qism. SARSONU SARGARDONLIKDA .....	3
Ikkinci qism: SANDIQ TO'LA TILLALAR .....	1. 70
Uchinchi qism. SO'NGGI OLİSHUV .....	150

*Adabiy-badiiy nashr*

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

**QUYONLAR SALTANATI**

Muharrir  
Ma'mura QUTLIYEVA

Tex. muharrir  
Vera DEMCHENKO

Musahhih  
Navro'z BEKMURODOV

Kompyuterda sahifalovchi  
Feruza BOTIROVA

Bosishga 03.09.2010-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 6,375. Shartli bosma tobog'i 10,71.

Garnitura «Journal Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozи.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 165.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks — 273-00-14; e-mail: yangiasravlodи@mail.ru

Hamkorimiz: kitobxon.uz